

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Zoyirov Laziz Subxonovich

Raimjanova Madina Asrarovna

Saidov Rasulbek Boltabayevich

Shoislomova Nargiza Qobilovna

**INVESTITSIYA LOYIHALARI
EKSPERTIZA**

DARSLIK

TOSHKENT - 2020

Annotatsiya

Ushbu darslikda “Investitsiya loyihalari ekspertizasi” fanining muhim masalalari bayon etilgan. Darslik Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladi va mazkur o’quv kursining barcha bo’limlarini qamrab oladi.

Darslikda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning mohiyati, ahamiyati va zarurligi, investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi, investitsiya loyihasi bo’yicha garov ta’mintoning ekspertizasi, investitsiya loyihalarining texnik ekspertizasi, investitsiya loyihalarining tijorat tahlili, investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlili, investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi, investitsiya loyihasi bo’yicha risklar va ularni baholash va shu kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o’z aksini topgan.

Ushbu darslik oliy o’quv yurtlarining iqtisodiy yo’nalishida o’qiyotgan bakalavr, magistrantlariga, mustaqil tadqiqotchilar, professor o’qituvchilar va investitsiya sohasiga qiziquvchi hamda shug’ullanuvchilarga mo’ljallangan.

Аннотация

В этом учебнике изложены важные вопросы предмета “Экспертиза инвестиционных проектов”. Учебник соответствует Государственным образовательным стандартам и охватывает все разделы данного учебного курса.

В этом учебнике рассмотрены сущность, значение и необходимость экспертизы инвестиционных проектов, финансовая и экономическая экспертиза инвестиционных проектов, экспертиза залогового обеспечения инвестиционных проектов, техническая экспертиза инвестиционных проектов, коммерческий анализ инвестиционных проектов, институциональный анализ участников инвестиционных проектов, социальная и экологическая экспертиза инвестиционных проектов, риски и оценка инвестиционного проекта и подобные темы отражены логической последовательности с точки зрения консесуса и непрерывности.

Этот учебник предназначен для учащихся в экономическом направлении высших учебных заведений бакалавров, магистрантов, независимых исследователей, учителей профессоров и для тех кто интересуется и занимается в сфере инвестиций.

Annotation

This textbook outlines important issues in the subject of “Examining Investment Projects”. The textbook complies with the National Standards and covers all sections of this training course.

This textbook examines the nature, importance and need for expertise of investment projects, financial and economic expertise of investment projects, expertise of collateral security of investment projects, technical expertise of investment projects, commercial analysis of investment projects, institutional analysis of investment project participants, social and environmental impact assessment of investment projects, risks and evaluation of the investment project and similar topics are reflected in the logical sequence and in terms of concession and continuity.

This textbook is designed for students in the economic direction of higher education institutions of bachelor’s degree, undergraduates, independent researchers, teachers, professors and for those who are interested and engaged in the field of investment.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, bozor munosabatlari taraqqiy etishini ta'minlash yo'lidagi islohotlar samarasini oshirish maqsadida O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatda investitsiya jarayonlarini takomillashtirilishiga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Buning boisi shuki, investitsiyalar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash asosida intensiv rivojlantirishni, innovatsiyalar joriy qilinishini va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardandir.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatga bardoshli maxsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatdagi barcha mavjud sarmoyalar safarbar qilina boshlandi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirish yo'lga qo'yildi. Shu maqsadda respublika hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan investitsiya siyosati o'tkazilmoqda.

Biror bir hududga investitsiya kiritishdan avval, ushbu hududning investitsiya muhitini o'rghanish, unga baho berish, investitsiya loyihasini o'rghanish, investitsiya loyihasini puxta tahlil qilish va baholash, loyihaga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini aniqlash, ularni baholash hamda salbiy ta'sir etuvchi omillarni oldini olish, loyiha samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish lozim.

Ana shu maqsadda, respublikamizda investitsiya loyihalari ekspertizasi bilan shug'ullanuvchi mutasaddi davlat tashkilotlari va tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirish faoliyati davr talabiga mos holda rivojlanib kelmoqda va hozirgi kunga kelib, nafaqat bank hodimlari, balki investitsiya faoliyatining barcha ishtirokchilari investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish usullari, moliyalashtirish manbalari, investitsiya risklarini tahlil qilish, baholash va

boshqarish usullari hamda loyiha samaradorligini oshirish bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishlari zamon talabiga aylanmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini yanada yuksaltirish bevosita yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini rekonstruktsiya qilish, texnik jihatdan qayta ta'mirlash ishlarini jadal amalga oshirishga bog'liq. Bunday sharoitda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur darslik doirasida foydalanuvchi investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning iqtisodiy mazmuni, zarurati, ahamiyati hamda me'yoriy-huquqiy asoslari, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdagi axborotlar manbasi, investitsiya loyihalarining tijorat tahlili, investitsiya loyihalarining texnik ekspertizasi, investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi, investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlili, investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi, investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholash, investitsiya loyihasi bo'yicha risklar va ularni baholash, investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minotining ekspertizasi, investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni yuzasidan bilim, malaka va ko'nigmalar hosil qiladi.

“Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning iqtisodiy mazmuni, zarurati, ahamiyati hamda me'yoriy-huquqiy asoslari” bobida investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va zarurligi, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda loyihalarni tahlil qilishning asosiy turlari keng bayon etiladi.

“Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdagi axborotlar manbasi” bobida investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda asosiy axborotlar manbasi va loyihani tijorat banklari tomonidan ekspertiza qilishda qarz oluvchilar tomonidan bankka taqdim etiladigan hujjatlar, taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligini tekshirishga oid ma'lumotlar yoritiladi.

“Investitsiya loyihalarining tijorat tahlili” bobida investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida tijorat tahlilining ahamiyati, bozor segmentatsiyasi, turlari, marketing tadqiqotlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda

loyiha bo'yicha ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan maxsulotlar bahosi va uning tahlili bayon etiladi.

"Investitsiya loyihalarining texnik ekspertizasi" bobida investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida texnik ekspertizaning ahamiyati va loyihada qo'llaniladigan texnika-texnologiyani injiniring baholash ko'rib chiqiladi va tender orqali texnika-texnologiyani sotib olish masalalari yoritiladi.

"Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik ekspertizasi" bobida investitsiya loyihalarini ijtimoiy tahlil etishning ahamiyati va zarurligi bilan birga loyihalarni ekologik baholash tartibi va mezonlari bayon etiladi. Loyihalarni ekologik ekspertizadan o'tkazuvchi va xulosa beruvchi tashkilotlar haqida ma'lumotlar beriladi.

"Investitsiya loyihalari qatnashchilarining institutsional tahlili" bobida investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida institutsional tahlilning ahamiyati hamda investitsiya loyihasini amalga oshirishdagi ishtirokchilarning institutsional tahlili ko'rib chiqiladi.

"Investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasi" bobida investitsiya loyihalarini baholash usullari to'g'risida umumiylar ma'lumot, investitsiya loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishning asosiy mezonlari, investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlar, loyihaning pul oqimi tahlili, investitsiya loyihasi samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar yoritiladi.

"Investitsiya loyihasini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini baholash" bobida inflyatsiya va uning turlari, O'bekistonda inflyatsiya sur'atlari va uning o'zgarishi dinamikasi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda inflyatsiya ta'sirini hisoblash masalalari bayon etiladi.

"Investitsiya loyihasi bo'yicha risklar va ularni baholash" bobida "risk" va "noaniqlik" tushunchalari, ularning bir-biridan farq qiluvchi jihatlari, shuningdek, loyiha bo'yicha risklarning turlari, ularning tavsifi, investitsiya loyihalaridagi mavjud risklarni baholash va ularni oldini olish va ularni pasaytirish chora-tadbirlari keng bayon etiladi.

“Investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minotining ekspertizasi” bobida O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi Qonunining mazmuni, mohiyati, garov ta'minotining turlari va tavsifi, investitsiya loyihalari bo'yicha garov ta'minotining jahon amaliyoti, kredit ta'minotining asosiy turi sifatida qimmatli qog'ozlarning o'rni ko'rib chiqiladi.

“Investitsiya loyihasini tasdiqlash jarayoni” bobida investitsiya loyihasini yakuniy tayyorlash va uning moliyalashtirishga tasdiqlanishi, bankning kredit qo'mitasi tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoni, investitsiya loyihasini moliyalashtirishga qabul qilish mexanizmi, investitsiya loyihasi bo'yicha monitoring rejasi kabilar bayon etiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish investitsiya loyihalarini amaliyatga joriy qilishning muhim bo'g'ini hisoblanganligi sababli ushbu darslik bo'lajak iqtisodchi-mutaxassislarda ularning amaliy faoliyatida investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish asoslarining metodologiyasi va jahon tajribasini O'zbekiston amaliyotida qo'llash bilan bog'liq zaruriy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

I-BOB: INVESTITSIYA LOYIHALARINI EKSPERTIZA QILISH-NING IQTISODIY MAZMUNI, ZARURATI, AHAMIYATI HAMDA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning iqtisodiy mazmuni

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to'g'risida iqtisodchi-olimlar o'rtaida xilma-xil qarashlar va fikrlar mavjud. "Investitsiyalar" tushunchasining ma'no-mazmuniga hozirgacha yakuniy bir ta'rif berilmagan va iqtisodiy fanning turli sohalarida investitsyaning maqsadi, vazifalari, manbasi, mablag' kiritish sohalari va obyektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha ta'rif berilmoqda.

Investitsiyalar so'zi lotincha "investio" so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi, deb talqin etilgan. Iqtisodiy lug'atda "investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi"¹, deb ta'riflangan. Bir guruh iqtisodchi-olimlar investitsiyalarni barcha turdag'i mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida ishlab chiqarish tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisi sifatida ta'rif beradilar.

Investitsyaning mazmuni 2014 yil 9 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida: "qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lган huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lган huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar", sifatida ta'riflanadi.

Professor D.G'ozibekov tomonidan investitsiyalarning mazmuniga quyidagicha ta'rif berilgan: "aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish,

¹ Финансово-кредитный словарь. Т.1. – М.: «Финансы и статистика», 1984. –С. 470.

ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilariga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarning mohiyatini aks ettiradi”².

Xorijlik iqtisodchi-olimlardan Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati U.Sharp ta'kidlashicha: “investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir”³, deb ta'rif bergen bo'lsa, iqtisodchilar Kempbell R.Makkonell, Stenli L.Bryu investitsiya tushunchasini quyidagicha izohlaydilar, ya'ni “investitsiya (investment) – bu moddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xarajatlar”⁴. Ushbu ta'rifni mazmunan “kapital qo'yilmalar” tushunchasiga mos kelishini ta'kidlab o'tish joiz.

Investitsiyalar keng ma'noda o'zini mablag'lar va resurslarning kelgusida ko'payishi va iqtisodiy samara yoki boshqa rejalashtirilgan natijalar olish (ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar) maqsadida ularning safarbar etilishi sifatida namoyon etadi.

Umumqabul qilingan amaliyotda investitsiyalarning quyidagi turlari ajratiladi: real va moliyaviy. Real investitsiyalar faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni ta'mirlash va texnik qayta qurollantirish, kengaytirish, yangi korxonalar barpo etishga yo'naltirilgan investitsiyalar hisoblanadi. Bunday sharoitda investor-korxona mablag' kiritish turib, o'zining ishlab chiqarish kapitalini, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlari va uning faoliyati uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni ko'paytiradi (oshiradi). Portfel investitsiyalar esa, aktsiya, obligatsiya va boshqa turdag'i qimmatli qog'ozlarga, shuningdek, boshqa korxonalarning aktivlariga yo'naltirilgan investitsiyalar deb tushuniladi, ushbu investitsiyalar amalga oshirilganda investor o'zining moliyaviy kapitalini, ya'ni qimmatli

² Г'озибеков Д. Г'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Т.: «Молия», 2003. – В. 26.

³ Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. – М.: «Инфра-М», 1997. – С. 16, 979.

⁴ Кэмпбелл Р. Макконелл, Стэнли Л. Брю. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том. – М.: «Республика», 1992. – С. 388.

qog'ozlardan olinadigan daromad-dividendini ko'paytiradi. Ko'pincha real investitsiyalar quyidagi maqsadlar uchun yo'naltiriladi:

- ishlab chiqarishni kengaytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilash;
- yangi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar hamda mahsulot turlarini yaratish;
- ishlab chiqarishni qayta qurish va texnik jihatdan qayta jihozlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy vazifalarni bajarish va h.k.

Real investitsiyalarning aksariyat qismi investitsiya loyihalari orqali amalga oshiriladi. "Investitsiya loyihasi" tushunchasi iqtisodiy nazariyada va amaliyotda keng qo'llaniladi va u ikki xil ma'noda talqin etiladi:

- muayyan maqsadlarga erishishni (ko'zlangan natijalarni hosil qilishni) ta'minlovchi qandaydir faoliyatlar yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda "xo'jalik tadbiri", "ish (ishlar yig'indisi)", "loyiha" terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi. Umumiy jihatdan, loyiha (inglizcha projekt) – bu "biron nima o'ylanayapti yoki rejashtirilyapti", degan ma'nolarni anglatadi;
- qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi⁵.

Shuningdek, investitsiya loyihasiga quyidagicha ta'riflar ham berilgan:

Investitsiya loyihasi – bu tashkiliy-huquqiy tizimlar yordamida biron-bir maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan tadbirdilar rejasidir.

Investitsiya loyihasi – noturar binolarni qurish, qayta, ta'mirlashva shaharni ijtimoiy-ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida korxonalar texnologik asbob-uskunalarini, injenerlik ta'minotni yangilashga qaratilgan tashkiliy-texnik hamda moliyaviy tadbirdilar majmuidir.

Investitsiya loyihasi – foyda olish va kapitalni o'stirish maqsadida pul mablag'lari qo'yiladigan aniq tadbirdir.

⁵ Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пос. для вузов /Под общ. ред. И.И. Мазура. – М.: «Экономика», 2001. – С. 18.

Investitsiya loyihasi – kapital qo'yilmalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, hajmi va amalga oshirish muddatlarini asoslash, jumladan kerakli loyiha-smeta hujjatlar to'plami hamda investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar tavsifidir.

To'liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiyligi holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi: investitsiya g'oyasini shakllantirish; investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish; investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA); shartnoma hujjatlarini tayyorlash; loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; obyektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va "loyiha" lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shu bilan birga, uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag'larni safarbar etishga asoslanadi. Professor D.G'ozibekov investitsiya loyihalari to'g'risida: "investitsiya loyihasiga muayyan ishlab chiqarish quvvatlariga kelajakda alohida turdag'i samaralar keltirishi zarur bo'lgan, aniq belgilangan tadbirlar yo'li bilan resurslarni investitsiyalash bo'yicha takliflar to'plami tarzida ta'rif berish mumkin", degan fikrni bildirgan. Shuningdek, u investitsiya loyihasining sifat-tavsiflarini, boshqa tadbirlardan farq qiluvchi jihatlarini ochib berishi diqqatga sazovordir, deb ta'kidlab o'tgan⁶.

Investitsiya loyihasi tushunchasi keng ma'noni anglatib, kapitalni qisqa va uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga, transportga va

⁶ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya", 2003. – B. 68-69.

boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan investitsiyalarni ma'lum muddatda va belgilangan hajmda amaliy jihatdan bajarish tushuniladi.

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish ko'pgina olimlarning olib borgan tadqiqotlarida investitsiya loyihasining hayotiyligi bosqichlarini va tahlil natijasiga ko'ra keladigan daromadini aniqlashni belgilab berishi ta'kidlab o'tilgan. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish amaliyotini yoritishda olimlar turlicha yondashuvlarga asoslanganlar. Jumladan, Dj.Littl va L.Roudslar tadqiqotlarida investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni ikki kategoriya sifatida amalga oshirish zarur, deb hisoblaydilar. Birinchi kategoriya sifatida, birlamchi baholashni asos qilib, uning texnik-texnologik va qiziquvchi tomonlarning talablarini hisobga olishni va ikkinchi kategoriya sifatida, loyhada ishtirok etuvchi tomonlarga ta'sir etuvchi risklarni baholash muhim, deb fikr bildirganlar⁷. Dj.X.Robertning fikricha, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni amalga oshirishda loyhada ishtirok etuvchi tomonlarning qiziqishlariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur, deb hisoblaydi⁸.

P.I.Vaxrin, A.S.Neshitoylar fikricha, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni amalga oshirishda loyihani jalb etayotgan korxona va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini alohida hisobga olgan holda, qiziquvchi tomonning pul oqimlarini chuqur tahlil qilish lozim, deb ta'kidlaydi⁹. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni chuqur tahlil etgin olimlardan A.Damodaranning olib borgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu olimning fikricha, korxona va tashkilotlarda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda ularning iqtisodiy holatiga, fond bozoridagi ishtirokiga, pul oqimlari, chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligiga, uning faoliyatining hayotiylik sikliga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Ikkinchi

⁷ Литтл Дж., Роудс Л. Как пройти на Уол-стрит. С.-Петербург. ПИТЕР, 1998. – С. 368.

⁸ Роберт Дж.Х. Инвестирование. – М.: АГАТА, 2005. – С. 288.

⁹ Вахрин П.И., Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник. – М., 2005. – С. 308.

tomondan, manfaatdor tomonlarning loyihasini foydalilagini, unga ta'sir etuvchi risk darajasini va investitsiyaning hayotiy siklini baholash zarur, deb hisoblaydi¹⁰.

L.E.Bosovskiy tadqiqotlarida investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni to'rt bosqichda olib borish zarurligini keltirib o'tadi. Uning ikkitasida loyihani o'zida amalga oshirayotgan korxona va tashkilotlarni barcha ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur deb hisoblasa, keyingi ikkita bosqichda manfaatdor tomonlarning talablarini tahlil qilish zarur, deb hisoblaydi¹¹.

Bir qator olimlar investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni manfaatdor tomonlarni chuqurroq tahlil qilishni taklif etadilar. Ularning fikricha, manfaatdor tomonlarning fond bozorida ishtiroki ham investitsion loyihani hayotiylik siklini baholashda muhim hisoblanadi. Ular investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish firmaning moliyaviy salohiyati va iqtisodiy samaradorligini baholash asosida xulosa qilish mumkin, deb ta'kidlab o'tadilar¹².

Respublikamiz iqtisodchi-olimlari fikricha, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni o'tkazishda investitsiya samaradorligini, risk va noaniqlikni, texnik baholash va tahlil etish, investitsiya loyihalari monitoringini o'tkazish muhim, deb hisoblaydilar¹³. Iqtisod fanlari doktori, professor D.G'.G'ozibekov ilmiy tadqiqotlarida loyiha tahlili uslubiyoti investitsiya loyihalarini amalga oshirish ehtimoli jihatidan ularni identifikatsiyalash, tekshirish, batafsil ko'rib chiqish, ma'qullash va kompleks ekspertizadan o'tkazish bosqichlarini nazarda tutadi. Kompleks ekspertiza loyiha mahsulotlariga erishish imkoniyatlarini izlashga, loyihani cheklangan resurslar bilan belgilangan vaqt mobaynida va makonda ta'minlash, shuningdek, tegishli texnik vazifalarni hal qilishga qaratiladi, deb ta'kidlab o'tgan¹⁴. Yana bir iqtisod fanlari doktori, professor A.V.Vahobov fikricha, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda davlatdag'i investitsiya muhitini inobatga olish asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etadi. Investitsiya

¹⁰ Дамодаран А. Инвестиционная оценка. Инструменты и техника оценки любых активов. Учебник. – М.: «Альпина Паблишер», 2011. – С. 1324.

¹¹ Босовский Л.Е. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие. – М.: «Инфра-М», 2007. – С. 242.

¹² Михайлова Э.А., Орлова Л.Н. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие. – М.: РГАТА, 2008. – С. 176.

¹³ Jo'rayev A.S. va boshqalar. Investitsiya loyihalari tahlili. O'quv qo'llanma. – Т.: 2003. – В. 256.

¹⁴ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Т.: "Moliya", 2003. – В. 332.

muhitini belgilovchi eng muhim omillardan biri – qabul qiluvchi mamlakat ichki bozorining sig’imi hisoblanadi. Ushbu ko’rsatkich YaIM hajmi va aholi jon boshiga to’g’ri keluvchi daromadlar bilan o’lchanadi¹⁵.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo’lsak, iqtisodchi-olimlarning fikricha, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni ikki toifaga bo’lishga harakat qilishgan, ya’ni birinchi toifadagilar korxona va tashkilotlarni kompleks tahlil qilish zarur deb baholasalar, ikkinchi toifadagi tadqiqotlar manfaatdor tomonlarning talablarini o’rgangan holda ularni chuqur tahlil qilishni taklif etadilar. Bizning fikrimizcha, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni amalga oshirishda har ikkala tomon talablarini chuqur tahlil qilish zarur, deb hisoblaymiz.

1.2. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning zarurati va ahamiyati

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish juda muhim jarayon hisoblanib, u o’z ichiga texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko’rsatkichlarni tahlil qilish va baholashni qamrab oladi. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish orqali mablag’larni samarali joylashtirish yo’llarining eng optimalini tanlash mumkin.

Har qanday investitsiya loyihasini baholashning mazmuni bugungi xarajatlarni loyihadan olinadigan daromadlar oqlaydimi? degan savolga javob topishdan iboratdir. Biroq, bu savol shunchalik oddiy bo’lishiga qaramasdan, agar diqqat bilan ko’rib chiqilsa, uning ko’plab qirralari ochiladiki, ba’zan unga bir xil ma’nodagi javobni topish juda mushkul bo’ladi.

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish – loyihani jalg etayotgan va manfaatdor tomonlarga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni iqtisodiy, moliyaviy, texnik tahlil qilish hamda risklar ta’sirini tahlil qilish va baholash asosida qaror qabul qilishdir.

Har qanday investitsiyaloyihasi, garchi u ko’pgina ijobjiy tavsiflarga ega bo’lsada, unga qo’yilgan mablag’lar, ya’ni qilingan investitsiya xarajatlari loyiha

¹⁵ Vahobov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O’quv qo’llanma. – T.: “Moliya”, 2010. – B. 328.

mahsuloti (ish, xizmat) sotishdan kelgan daromadlar bilan qoplanmasa, ko'rilgan foyda darajasi ko'zda tutilgan darajada bo'lmasa, u amalga oshirilmay qoladi.

Investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholashdan asosiy maqsad, aynan ko'zda tutilgan natijalarga erishishni realligini baholashdir.

Iqtisodiyoti rivojlangan malakatlarda turli loyihalarga qo'yilgan mablag'larning foydalilagini (samaradorligini) taqqoslashga asoslangan baholash usullaridan keng foydalanadilar. Bunda investitsiya loyihalaridan ko'rildigan samara mablag'larni bankka foiz hisobida qo'yishdan yoki qimmatbaho qog'ozlar sotib olishdan keladigan daromad (foyda) bilan taqqoslanadi.

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda loyihadan ko'rildigan daromadning ko'pligiga, mehnat resurslarining kam sarflanishiga, loyihaning amalga oshirish muddatining qisqaligiga, loyiha bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatiga, bozorda tutgan o'rniga, shuningdek, xarajatlarning to'g'ri olib borilishiga ko'proq e'tibor beriladi. Shu bilan birga, baholashda pul oqimini to'g'ri ishlatilishi va nazorat qilinishi ham katta ahamiyatga ega. Bunda kapital xarajatlarni yerni ijaraga olish, u yerda bino va inshootlar qurish, mashina va jihozlar yaratish yoki sotib olish, mutaxassislar tayyorlash kabi ishlarga sarflanishi, joriy xarajatlar esa, xom ashyo va materiallar sotib olish, suv, energiya, mehnat va boshqa resurslarga sarflanishiga e'tibor beriladi hamda daromadlar asosiy faoliyatdan keladigan daromadlar, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, roylati, davlatning obligatsiyalari orqali keladigan daromadlarga e'tibor qaratiladi. Investitsiya loyihalarini turli usullar bilan baholash mumkin, lekin barcha usullarda eng asosiy e'tibor loyihalarning daromadlilik darajasi hamda ko'rildigan foydaning xajmini aniqlashga qaratiladi.

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda aniq natijalarga erishish, ya'ni loyihalashtirishni yakunlash, bozorga chiqish va unda o'z o'rmini mustahkamlash, belgilangan foydaga erishish, qilingan investitsiya xarajatlarini qoplash kabi natijalarga erishish uchun belgilangan muddat ham ayniqsa muhimdir. Shuningdek, baholashda ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik ishlarining samaradorligi ham hisobga olinadi. Buning muhimligi shundan iboratki, tadqiqot va ilmiy

izlanishlar ishining qisqa bo'lishi bir tomondan mablag'larning kam sarflanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan nisbatan kam muddatda loyiha amalga oshirilib, bozorga ertaroq yangi mahsulot olib chiqiladi va hech bo'limganda, qisqa muddat ichida korxona ushbu mahsuloti bilan bozorda monopol mavqega ega bo'lishi mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, har bir loyiha mamlakatda mavjud bo'lган siyosiy va ijtimoiy sharoitlarni va ularning o'zgarishini hisobga olgan holda ekspertiza qilinishi va baholanishi lozim.

Hozirgi paytda investitsiya loyihalarini tuzish va amalga oshirish uzlucksiz jarayon bo'lганligi sababli uni tasvirlashda kompyuter texnikasidan keng foydalanilmoqda. Bunda loyihaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari hamda tashqi iqtisodiy muhitni belgilovchi omillar hisobga olinib, loyihaning matematik modeli tuziladi va shu model asosida loyihaning xarajatlar va daromadlar oqimi aniqlanadi, samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi, ishlab chiqarish natijalarining yillik balansi tuziladi hamda tashqi va ichki omillar ta'siri tahlil qilinadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda yirik ishlab chiqarish va moliya korporatsiyalari ana shunday modellardan foydalanadilar. Shuningdek, bunday modellardan investitsiya loyihalarini o'r ganuvchi va samaradorligini aniqlovchi turli maslahatchi firmalar ham foydalanadilar.

1.3. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish yuzasidan mamalakatimizda bir qancha me'yoriy-huquqiy asos bo'luvchi hujjatlar qabul qilingan. Bular jumlasiga yurtimizdagи investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunlardan O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"¹⁶ qonunini kiritish mumkin. Mazkur qonunning 21-moddasi "Investitsiya loyihalarining ekspertizasi" deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra:

¹⁶ Ushbu qonunning yangi tahriri 2014 yil 9 dekabrda qabul qilingan.

- O’zbekiston Respublikasining Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg’armalari budgetlari mablag’lari hisobidan, shuningdek O’zbekiston Respublikasining kafolati ostida chet el investitsiyalarini jalb etgan holda moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan tartibda majburiy davlat ekspertizasidan o’tkazilishi shart;
- boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik talablari va boshqa talablar bajarilishiga taalluqli qismi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o’tkazilishi lozim;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining banklar kredit resurslari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari mazkur investitsiya loyihalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to’g’risida tijorat banklari tomonidan ekspertiza qilinishi lozim;
- O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida ro’yobga chiqariladigan investitsiya loyihalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertiza qilinishi lozim.

Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o’tkazish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi 110-sonli “Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga asosan amalga oshirilar edi. Hozirgi kundagi jadal iqtisodiy o’zgarishlar natijasida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o’tkazish tartibi birmuncha o’zgardi va ularga quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asos bo’lib xizmat qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va ro’yobga chiqarish, davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida hujjatlarni kompleks ekspertiza qilishning samarali tizimini yaratish to’g’risida”gi 2018 yil 8 yanvar, PQ-3464-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, O’zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo’yicha

davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining Agentlik huzurida davlat unitar korxonasi shaklida Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazini (Markaz) tashkil etish haqidagi takliflari ma'qullandi.

Markaz oldiga bir qancha vazifalar qo'yildi, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlariga kiritiladigan loyihalarni kompleks ekspertiza qilishni tashkil etish, ularning ro'yobga chiqarilishini monitoring va tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va ro'yobga chiqarish doirasida, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishda ishlab chiqiladigan loyihaoldi, loyiha va tender hujjatlarini, texnik topshiriqlarni kompleks ekspertiza qilish;
- O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini ro'yobga chiqarish doirasida, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishda tuziladigan import kontraktlarini ekspertiza qilish va ro'yxatdan o'tkazish;
- resurslarning yagona milliy ma'lumotnomasini shakllantirish va yangilash.

Markazning faoliyat sohasi barcha davlat organlariga, xo'jalik boshqaruvi organlariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga, davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga ustav fondining 50 foizi va undan ortig'i tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan barcha loyihalarga tatbiq etilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 22 yanvar, PQ-3487-sonli Qaroriga ko'ra:

- ekvivalenti 50 ming AQSh dollaridan ortiq bo'lgan summadagi tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) xarid qilishga bo'lgan texnik topshiriqlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyihalarni boshqarish milliy agentligi qoshidagi Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazida majburiy kelishuvdan o'tkaziladi;

– mazkur band bilan nazarda tutilgan tartibda, eng yaxshi takliflarni tanlab olish natijalari bo'yicha tuzilgan barcha kontraktlar, shu jumladan, import kontraktlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyihalarni boshqarish milliy agentligi qoshidagi Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazida majburiy ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik-iqtisodiy asoslari va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar ekspertizasi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 13 fevral, PQ-3527-sonli Qaroriga ko'ra:

- tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslari va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari bo'lмаган loyihalarni moliyalashtirish taqiqlanadi;
- loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari faqatgina O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" tomonidan ijobjiy xulosa berilgan holdagina O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlananadi;
- loyihalarni amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda loyihalar texnik-iqtisodiy asoslari va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari bo'yicha "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi"ning o'rnatilgan tartibdagi kompleks ekspertizasi natijalari bo'yicha ijobjiy xulosasi mavjud bo'lмаган taqdirda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar va pudrat tashkilotlarining nomini ko'rsatish taqiqlanadi.

Yuqoridagi talablar O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari, tarmoq va hududiy rivojlantirish konsepsiyalari doirasida amalga oshiriladigan loyihalarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlari doirasida, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga, shuningdek, davlat korxonalarining, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lган xo'jalik subyektlarining, davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lган yuridik shaxslarga ustav fondining 50 foizi va undan ortig'i tegishli xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan boshqa loyihalarga nisbatan joriy etiladi.

Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazishning samarali va aniq mexanizmlarini yaratish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi 2017 yil 18 dekabrdagi PQ-3437-sonli hamda "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va ro'yogha chiqarish, davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida hujjatlarni kompleks ekspertiza qilishning samarali tizimini yaratish to'g'risida"gi 2018 yil 8 yanvardagi PQ-3464-sonli Qarorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 20 fevralda PQ-3550-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra:

- investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizom;
- davlat tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish uchun tender hujjatlarini va texnik vazifalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom;
- kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi nizom shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi "Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitary korxonasiga qonun hujjatlariga muvofiq bir qancha vazifalar yuklatildi:

- a) loyihaoldi va loyiha hujjatlarini, shuningdek, mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlarga muvofiq amalga oshiriladigan, moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar strategik foydali qazilmalarni qazib olish va/yoki qayta ishlashni nazarda tutadigan investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalar bo'yicha loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun texnik vazifalarni kompleks ekspertizadan o'tkazadi;

b) ekvivalenti 100 ming AQSh dollaridan oshadigan summadagi strategik xarid qiluvchi tomonidan, shuningdek, ustav jamg'armasida (ustav kapitalida) strategik xarid qiluvchi ulushi bo'lган tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan 50 ming AQSh dollariga teng bo'lган miqdordan ortiq bo'lган miqdordagi tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) davlat tomonidan xarid qilish uchun texnik vazifalarni kompleks ekspertizadan o'tkazishni amalga oshiradi;

v) strategik xarid qiluvchi bilan, shuningdek, ustav jamg'armasida (ustav kapitalida) strategik xarid qiluvchining ulushi bo'lган tashkilotlar bilan tuziladigan 50 ming AQSh dollariga teng bo'lган miqdordan ortiq bo'lган miqdordagi barcha kontraktlarni;

byudjet tizimi byudjetlari, O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan donor mamlakatlar, xalqaro, hukumatga doir bo'lган va hukumatga qarashli bo'lмаган chet el tashkilotlari bilan tuziladigan shartnomalari doirasida taqdim etiladigan chet el grantlari, O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida jalg etiladigan chet el kreditlari (qarzlari) (bundan tijorat banklari tomonidan qayta moliyalashtiriladigan kreditlar mustasno) hisobidan davlat organlari, budget tashkilotlari, xarid tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan budget mablag'larini oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari, shuningdek, ustav jamg'armasida (ustav kapitalida) 50 foiz va undan ortiq miqdordagi davlat ulushi bilan ishtirok etuvchi davlat korxonalari va yuridik shaxslar, ustav jamg'armasining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lган yuridik shaxslar, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar bilan tuziladigan ekvivalenti 100 ming AQSh dollariga teng bo'lган miqdordan ortiq bo'lган summadagi import kontraktlarini;

O'zbekiston Respublikasini rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan yohud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi

Hukumatining qarorlari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni ro'yobga chiqarish doirasida, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishda tuziladigan 100 ming AQSh dollariga teng bo'lgan miqdordan ortiq bo'lgan summadagi import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazadi va ro'yxatga oladi.

Shu bilan birga, 2018 yil 20 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3794-sonli Qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 fevraldag'i "Loyiha oldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3550-son qarorining amal qilishi xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarga tatbiq etilmasligi belgilab qo'yildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning me'yoriy-huquqiy bazasida investorlar va loyiha qatnashchilari uchun investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning mexanizmi, asosiy talablari va shart-sharoitlari yaratilgan bo'lib, bu holat mamlakatimizda investitsiya jarayonlarini faollashtirishga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiya loyihalarini ekspertizasining obekti va predmetini nima tashkil qiladi?
2. Investitsiya loyihalari ekspertiza qilishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning iqtisodiyotdagi o'rni?
4. Investitsiya loyihalarini ekspertizasi deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishdan maqsad nima?
6. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishninig yuzaga kelish sabablari?
7. Jahon amaliyotida investitsiya oldi fazasining qanday bosqichlari mavjud?
8. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning zarurati va ahamiyati.
9. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari.
10. Investitsiya loyihalarni ekspertiza qilishning qanday turlari mavjud?

**II-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI EKSPERTIZA
QILISHDAGI AXBOROTLAR MANBASI**

**2.1. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar
tomonidan bankka taqdim etiladigan hujjatlar**

Biz 1-bobda qanday loyihalar O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan ekspertizadan o’tkazilishi to’g’risida to’xtalgan edik. Ushbu bobda esa, investitsiya loyihalari tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan taqdirda qanday ekspertiza qilinishi va qanday hujjatlar talab etilishi to’g’risida to’xtalamiz.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda har doim ham o’z mablag’lari hisobiga amalga oshirib bo’lmaydi, ya’ni o’z mablag’lari yetishmagan taqdirda qarz yoki jalg qilingan mablag’lar evaziga amalga oshiriladi.

To’liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o’z ichiga qamrab oladi: investitsiya g’oyasini shakllantirish; investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish; investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA); shartnomalari hujjatlarini tayyorlash; loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; obyektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko’rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Loyiha tahlili – xarajatlar va daromadlar hamda loyiha bilan bog’liq bo’lgan tavakkalchilikni tizimli baholash va ochib berish asosida loyihalarni tayyorlash, baholash va tanlab olish usulidir. Loyiha tahlilining katta qismi loyiha davrining dastlabki bosqichida, ya’ni uni qabul qilish yoki qilmaslik to’g’risida qaror qabul qilingungacha amalga oshiriladi.

Loyihaning daromadlilagini aniqlash loyiha tahlilining vazifasi hisoblanadi. Daromadlilik esa loyihadan olinadigan daromad bilan unga qilingan xarajatlar

o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ya'ni loyihaning daromadlilagini aniqlash uchun uning barcha natijalarini aniqlash hamda loyihadan olingan daromadlar unga qilingan xarajatlardan ortish yoki ortmasligini hisoblab ko'rish kerak. Chunki loyihani amalga oshirish uchun bugun qilinayotgan xarajatlar bilan undan qandaydir vaqt o'tgandan keyin olinadigan daromadlarni bevosita solishtirib bo'lmaydi.

Loyiha ekspertizasi o'z faoliyati jarayonida o'ta muhim va keng qamrovli vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar iqtisodiyotning darajasi va ko'lami nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'linadi:

- 1.Makroiqtisodiyot darajasidagi (global) vazifasi.
- 2.Mikroiqtisodiyot darajasidagi (lokal) vazifasi.

Loyiha tahlilining makroiqtisodiyot darajasidagi vazifasi quyidagi muammolarni hal etishni ko'zda tutadi:

- Investitsiya loyihasining umumiy samaradorligini baholash va aniqlash;
- Investitsiya bozorini shakllantirish.

Loyiha tahlilining mikroiqtisodiyot darajasidagi vazifasi quyidagi muammolarni hal etishni ko'zda tutadi:

- Investitsiya bozorida samarali investitsiyani tanlab olishni ta'minlash;
- Texnika-texnologiya bozorida eng ilg'orini baholash va ishlab chiqarishga jalb etish;
- Moddiy-texnika ta'minotini asoslash;
- Xom-ashyoni samarali va sifatlisini tanlab olishni asoslash;
- Mehnatni maqsadga muvofiq tarzda shakllantirishni ta'minlash;
- Tayyor mahsulot (ish, xizmat) bozorini o'rganish;
- Investitsiyani inflyatsiya sharoitida baholash usullarini ishlab chiqish.

Loyihalarni texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslashda, uning barcha jihatlari (ya'ni texnik, moliyaviy, tijorat jihatlari) bilan bog'liq bo'lgan muammolarni muqobil suratda ko'rib chiqiladi. Bu vazifani faqat iqtisodchilarning o'zlarigina uddalay olmaydilar, shu sababli loyihalarni tayyorlashning bu bosqichida turli sohadagi mutaxassislar guruhi ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular:

- shu tarmoqda ish tajribasiga ega bo'lgan iqtisodchi (iloji bo'lsa mutaxassislar guruhiga iqtisodchi rahbarlik qilishi kerak);
- mahsulot realizatsiya qilinadigan bozorni tahlil qiladigan mutaxassis (marketolog);
- mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi biladigan bir yoki bir necha muhandis-texnolog;
- mahsulot xususiyatlarini, uni sotishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, xizmat ko'rsatishni yaxshi biladigan muxandis-konstruktur;
- shunga o'xhash ishlab chiqarishlarni barpo etish bilan shug'ullangan quruvchi-muxandis;
- shu turdag'i ishlab chiqarishlarda xarajatlar hisobini yuritish bo'yicha mutaxassis.

Investitsiya loyihasining dastlabki tahlili va samaradorligini baholash natijalari texnik-iqtisodiy asoslashni (TIA)ni tayyorlashda qo'llaniladi.

Texnik-iqtisodiy asoslash – bu loyihaning samaradorligi va maqsadga muvoffiqligini ko'rishga imkon beruvchi boshlang'ich ma'lumotlar, shuningdek asosiy texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko'rsatkichlarni o'zida mujjasamlashtiruvchi hisob-analitik hujjatlar to'plami. Texnik-iqtisodiy asoslashni loyihaning maqsadliligi yuzasidan olib boriladigan texnik-iqtisodiy tadqiqotlar sifatida ifodalash mumkin.

Investitsiya loyihamalarini texnik-iqtisodiy asoslashning asosiy maqsadi investitsiya loyihamalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham qoplanishini aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining TIASini bajarish qarz oluvchi loyihani amalga oshirilishining yuridik, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'zida mujjassam etgan hujjatlar to'plamini tayyorlashi lozim. Bu hujjatlar to'plami quyidagilardan iborat:

- qarz oluvchining moliyaviy holati va uning kreditga layoqatliligi;
- xorijlik hamkorning ish faolligi, moliyaviy ahvoli, tashabbuskorligi;

- qarz oluvchi korxona qanday turdag'i mahsulotni ishlab chiqaradi yoki ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda, mazkur mahsulotlarni xaridori kimlar hisoblanadi;
- ichki bozorda korxona ishlab chiqaradigan mahsulotning ulushi qanday va u jahon bozorida qanday ulushga ega, bozorning qanday sektorlarida o'sishi yoki o'zgarishlar kutilmoqda;
- raqobatchilar tomonidan qanday risklar mavjud va mahsulot sotilishi uchun kim asosiy javobgar hisoblanadi;
- qarz oluvchi korxonaning va kafolat beruvchi tashkilotning yuridik maqomi va tashkiliy tuzilishi qanday;
- qarz oluvchi korxona malakali, yuqori tajribali, yetuk mutaxassis va ishchilarga egami, agar ular yo'q bo'lsa, xodimlarni o'qitish kim tomonidan tashkil etilgan;
- xorijlik hamkorlar va mutaxassislar tomonidan qanday yordamlar qancha vaqt mobaynida ko'rsatilishi lozim bo'ladi, xorijiy mutaxassislarning soni va darajasi, ular tomonidan ko'rsatiladigan yordam xarajatlari qanday.

Loyihani budjet yoki budjetdan tashqari fondlar orqali, markazlashtirilgan resurslar, korxonalarining o'z mablag'laridan to'liq yoki qisman moliyalashtirish uchun TIAning tuzilishi majburiy hisoblanadi.

TIA loyihani amalga oshirishdan oldin injener-konstrukturlik, texnologik qarorlarni, muqobil variantlarni amalga oshirishning aniq usulini o'z ichiga oladi. Unda loyihani amalga oshirish bosqichida qabul qilingan texnologik, konstrukturlik, tabiatga zarar yetkazmaslik va boshqa masalalar aniqlashtiriladi, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoy natijalar va loyihaning xavfsizligi (riski) to'liq baholanadi.

TIA investorga korxonaning kelgusi moliyaviy barqarorligini va to'lovga layoqatliligin tasdiqlash uchun qo'llaniladi. TIA loyihachi va buyurtmachi o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun litsenziyasi bo'lgan loyihachilar tomonidan ishlab chiqiladi.

TIA ni ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichida investor maqsadlar to'g'risidagi deklaratsiyani tayyorlaydi. U quyidagi ma'lumotlardan iborat:

- investor va uning manzilgohi;
- obyektga tavsif (nomlanishi, texnik va texnologik ma'lumotlar, belgilangan faoliyatining asoslanishi);
- obyektni qurishda mehnat va boshqa resurslarga bo'lgan ehtiyoj (kadrlar soni va ularni ta'minlash manbalarini, moddiy va xom ashyo, suv va energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj);
- asosiy uskunalar ro'yxati va ularning qurilish tavsifi;
- transport ta'minoti;
- ishchilar va ularning oilalarini uy-joy va ijtimoiy-maishiy tomondan ta'minlash;
- loyihani moliyalashtirish manbalari;
- qurilish muddati;
- tayyor mahsulotdan foydalanish va boshqalar.

Chet el mamlakatlarining tajribasini, xususan, YUNIDO (United Nations Industrial Development Organization) tajribasini hisobga olgan holda investitsiya loyihalari TIAsining taxminiy tarkibiy tuzilishini quyidagicha keltirish mumkin:

- loyihaning asosiy g'oyasi va shart-sharoitlari;
- bozor tahlili va marketing strategiyasi;
- resurslar bilan ta'minlanganlik;
- investitsiya obyektining joylashishi joyi, qurilish maydoni va atrof-muhit;
- loyihalashtirish va texnologiya;
- korxonani tashkil qilish va ustama xarajatlar;
- mehnat resurslari;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonini rejalashtirish;
- moliyaviy tahlil va investitsiyalarni baholash;
- rezyume - TIAning qisqacha mazmuni.

Ammo hozirgi zamon amaliyotida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlardan investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlarini ishlab chiqishni biroz o'zgacha tartibda, keng mazmunda va yuqori sifat bilan tayyorlangan bo'lishi lozimligi talab qilinmoqda. Mazkur talablar asosida ishlab chiqiladigan TIAlar

quyidagi murakkab tartib va mazmunda, lekin tushunlarli, o'zaro bog'liq holda bo'lishi lozim:

1. Kirish.

Ushbu bo'limda qarz oluvchi korxona kimga tegishli va u qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishi, uning boshqarish va moliyaviy ahvoli, bozor segmenti qandayligi, kimlar xorijiy hamkorlari hisoblanishi, korxonani kimlar boshqarishi va ushbu sohada ularning boshqarish tajribasi qay darajadaligi, korxona ishchilari soni va tarkibi, bu korxonaning biznes-rejasi mavjudligi va uning kelgusidagi strategiyasi, ko'zda tutilayotgan investitsiyalarning qanday ko'rinishda va maqsadlarda ishlatalishi, loyiada yana boshqa qanday ishtirokchilar qatnashishi va ularning moliyaviy qo'yilmalari qanday ko'rinishni kasb etishi kabilar batafsil yoritilishi lozim. Bundan tashqari, korxonaning oxirgi ikki yillik hisobot ma'lumotlari, sotish hajmi, shuningdek eksport miqdori hamda yaqin ikki-uch yillik rivojlanish rejasi o'z aksini topgan bo'lishi kerak.

2. Loyihadagi operatsiyalar.

Mazkur bo'limda loyiha muhokamasi, uning faoliyati sohasi va mantiqiy ifodasi (asoslanishi), amalga oshirish chora-tadbirlari, loyihaning yangiligi yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mo'ljallanganligi, agar ishlab chiqarishning kengaytirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, uning chiqaradigan mahsulotlari, quvvati, zaif tomonlari, kengaytirishdan ko'zlangan maqsad va boshqalar to'liq keltirilgan bo'lishi kerak.

3. Loyihaning afzalliklari va foydaliligi.

Bu bo'lim qo'shimcha ishchi kuchini tashkil etish, ekologik ahvolni yaxshilash, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, qimmat yoqilg'i importiga bog'liqlikni kamaytirish, import mahsulotlari o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy boshqaruv tizimini tatbiq etish, resurslar va energiyalar sarfini tejash nuqtai nazaridan loyihaning mahalliy ishlab chiqarish va iqtisodiyot uchun muhimligi jihatdan samaradorligini ochib berish vazifasini bajaradi.

4. Loyiha ta'sischilari va xomiylari.

Ushbu bo'lim mazmuni qarz beruvchi korxonaning yuridik nomlanishi manzili, bank rekvizitlari, telefon, fakslari, tashkil etilish vaqt, mulkchilik shakli, rahbarlari, xizmatchilar ro'yxati va tajribasi, ta'sischilar va xomiyalar to'g'risida ma'lumot, yillik tovar aylanmasi, aksiyadorlik kapitali, moliyaviy imkoniyatlari, ko'zda tutilgan moliyaviy qo'yilmalar risklari, xorijiy hamkorlarning loyihada ishtirok etishining mantiqiy asoslanganligi va ta'sischilarning so'nggi ikki yillik daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari hamda auditorlik firmalari xulosalari bilan ifodalanadi.

5. Loyiha bo'yicha bitimlar qiymati.

Tomonlar o'rtasida tuzilgan bitimda uning qiymati, bitim qiymatining asosliligi, ya'ni xarajatlarning yer, uskuna, xodimlarni o'qitish, qurilish-montaj ishlari, talab qilingan aylanma kapital va boshlang'ich xarajatlarga bo'linishi hamda ularning bahosi, xarajatlarning milliy va xorijiy valyutadagi qiymati va tuzilishi aks ettirilishi zarur.

6. Loyihaning moliyalashtirish rejasi.

Moliyalashtirish rejasida moliyalashtirishning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi boshlang'ich tasavvurlar, kreditlar, loyihaning likvidligini ta'minlash uchun kerak bo'ladigan muddat va shart-sharoitlar, ya'ni kreditlarning qaytarilishi va qo'yilgan mablag'larni qoplanishi uchun talab etiladigan vaqt va shartlar.

7. Loyihadagi xom ashyo va boshqa xarajatlar.

Loyiha bo'yicha xom ashyo va materiallar xarajatlari va ularning bozori, resurslar bozorining joylashuvi va hajmi, xom ashyo va resurslarni yetkazib beruvchilar, ularning ishonchliligi va sifatli xizmati, xom ashylarning sifati, milliy va xorijiy valyutadagi qiymati, ularning sifati va yetkazib berish sxemasi, shartlari va xarajatlari, asosiy ishlatiluvchi xom ashylolar va ularning zahiralari ko'rsatilishi zarur.

8. Loyiha bo'yicha tovar va xizmatlar. Sotish bozorlari.

TIAning mazkur bo'limida ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi, asosiy sifat ko'rsatkichlari va ularning xalqaro standartlarga mos kelishi, mahsulotning ichki va tashqi bozorlarida harakati, bozor joylashuvi,

iste'molchilar turlari, korxonaning bozordagi ulushi, mahsulotga bo'lgan talabning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar, marketing rejasi, narxni shakllantirish, reklamani tashkil etish va reklama xarajatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish shartlari va imkoniyatlari hamda yuz berishi mumkin bo'lgan risklar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilganligi ochib beriladi.

9. Loyihaning tashkiliy masalalari.

Bunda korxonaning tashkiliy sxemasi va tuzilishi, boshqaruvi tizimi, xodimlarning loyihani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish yo'lida samarali va ishonchli ish yuritishlarini tashkil etish uchun kerakli dasturlarga bog'liq ma'lumotlar to'plami tahliliy asosda tashkil etilgan bo'lishi lozim.

10. Loyiha bo'yicha mulk va uskunalarni sug'urtalash.

TIAning ushbu bo'limida loyiha bo'yicha barcha mulk va uskunalarni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnomalar shartlari, muddati, shakli, summasi, sug'urtalovchi tashkilot va uning faoliyati, imidji to'g'risida ma'lumot, sug'urtalanayotgan mulk va uskunalarning to'liq tarkibiy elementlari va shukabilar ifodalangan bo'lishi zarur.

11. Loyihaning atrof-muhitni muhofaza qilishga doir ma'lumotlar.

Loyihaga bog'liq holdagi atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari, obyektning joriy va tahririyligi holati va uning atrof-muhitga ta'siri, atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi, loyiha bo'yicha atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishlarni kamaytirish uchun qo'llanishi ko'zda tutilgan texnologik usullar, qarz oluvchining atrof-muhit bo'yicha umumiyligi siyosati, baxtsiz hodisalar va "fors-major" holatlarda atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarni kelib chiqishi risklari kabilar, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining loyiha bo'yicha ekspertiza xulosalari asosida hal etilgan bo'lishi lozim.

12. Loyiha bo'yicha qonun va qoidalar.

Loyihani amalga oshirish va u bo'yicha tegishli shartnomalarni tuzishda mavjud qonun-qoidalarga hamda tegishli yuqori tashkilot organlarining ruxsatnomalariga va atrof-muhitni muhofaza qilish tartiblariga amal qilinishini ko'zda tutgan holda ko'rsatilishi.

13. Loyiha bo'yicha texnologiya va uskuna.

Bu bo'limda ko'zda tutilgan uskuna va texnologiyani olish manbasi, yetkazib beruvchi firma, rahbarlari ish tajribasi, telefon raqamlari, yetkazib berish shartlari va kafolatlari, uskuna va texnologiyalarni ishonchliligi, ularning xalqaro standartlarga javob berishi, bahosi, ularning tayyorligi va texnik hujjatlari, kadrlarni o'qitish va "nou-xau", qurilish-montaj ishlari qiymati, ehtiyyot qismlar va tashish xarajatlari qiymati kabilar aniq ko'rsatilishi kerak.

14. Loyihani kreditlashda banklarning o'rni.

Mazkur bo'limda loyihani amalga oshirishda uni moliyalashtiruvchi bankning o'rni, bank tomonidan o'rnatilgan shart-sharoitlar, talablar va qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnomasi, kredit uchun taqdim etilgan garovlar yoki mulkning sug'urtalaganligi, maslahat xizmatlari, uskunaning lizing asosida taqdim etilishi, ustav kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar qisqa, aniq va mukammal ma'lumotlar to'plami asosida tayyorlanishi lozim.

15. Loyiha bo'yicha kafolatlar.

Unda kafolat turlari: mulk, uskuna, tovarlar (garov uchun), kafolat xati, kafillik, sug'urtalangan kreditlar va shu kabilar ko'rsatilishi zarur.

16. Loyiha quvvati va uni yillar bo'yicha uzaytirilishi.

Bunda loyiha quvvatining nimaga asoslanib baholanganligi va ishonchliligi, uning yillar bo'yicha uzaytirilish bosqichi va muddati, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sotuvchilar bilan birgalikda rejalashtirilganligi kabilar tahliliy asosda aks ettirilgan bo'lishi talab etiladi.

17. Loyihadagi tayyor mahsulotning yillar bo'yicha sotilishi.

TIAning mazkur bo'limida mahsulotning ichki va tashqi bozorda sotilishi tarkibi va tuzilishi, ularning baholari va olinadigan tushumlar, korxonaning har yil oxirida qoldirilishi mo'ljallangan tayyor mahsulot zahiralari (kunlarda), sotiladigan mahsulot turlari va mahsulotlarning yillar bo'yicha sotilish hajmi rejasidagi ishlab chiqilgan bo'lishi shart.

18. Loyiha bo'yicha xarajatlari.

Xarajatlar tarkibi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibidan tashkil topgan holda ularning xom ashyo va materiallarga, ishchilar ish haqi va ijtimoiy sug'urta va ajratmalarga, elektr energiyasi, gaz, suv va shu kabilarga, amortizatsiyasi ajratmalari, umum ishlab chiqarish xarajatlariga, zahiralarga, reklama va transport xarajatlariga hamda sotish xarajatlariga ajratilishi bilan yillar bo'yicha ifodalanishi jadval ma'lumotlari asosida bajarilishi lozim.

19. Loyiha bo'yicha kredit to'lovlari va foizlarning yillar bo'yicha hisob-kitobi.

Hisob-kitob ishlaridan avval kreditlash shartlarini, ya'ni kredit taqdim etilish muddatini, kreditning davriyligi - qaytarilish shartlari, foizlarning qaytarilish shartlari va foiz stavkalari o'zgarishini bilib olish zarur. Shu asosda loyihada asosiy qarzlar va ular bo'yicha foizlarning yillar bo'yicha davriy hisoblanishi va to'lanish rejalarini jadval ko'rinishida aks ettirilishi lozim.

20. Loyiha bo'yicha daromadlar jadvali.

Avvalgi hisob-kitob ma'lumotlari asosida daromadlarning yillar bo'yicha tashkil topishi rejasiga jadval ma'lumotlari orqali aks ettiriladi. Daromadlar umumiyligi holda hamda alohida mahsulot turlari bo'yicha ichki va tashqi bozorlarda sotilishi hisobiga hosil qilinishi nuqtai nazaridan ham milliy, ham xorijiy valyutada aks ettirilishi zarur.

21. Loyiha bo'yicha joriy aktivlar va passivlarning, aylanma kapital (ishchi kapitali)ning hisob-kitobi.

Ushbu ma'lumotlarining barchasi jadval ko'rinishida, umumiyligi holda yillar bo'yicha tuzilishi lozim. Bunda ularning alohida bandlari bo'yicha tegishli ma'lumotlar tushunarli tarzda aks ettirilishi, ya'ni kelib tushishi kutilayotgan tushumlar, debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot zahiralari, joriy aktivlar, kreditorlik qarzlari, joriy passivlar, sof ishchi kapitali va ularning o'zgarishi o'zaro bog'liqlik asosida berilgan bo'lishi shart.

22. Loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi.

Mazkur hisob-kitob yuqorida olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Unda soliq va foizlarni to'lagunga qadar daromadlar va amortizatsiya ajratmalari,

ishchi kapitalidagi o'zgarishlar, faoliyat bo'yicha pul oqimi, moliyalashtirish manbalari, kredit uchun asosiy qarz va u bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlari, soliq to'lovlari, taqsimlanmagan foyda, taqsimlash fondlari, dividendlar va sof pul oqimi ma'lumotlari ketma-ketlik va tartib asosida, jadval ko'rinishida rejalashtirilgan yillar bo'yicha ishlab chiqish zarur.

Loyihaning TIAsi yuqorida ko'rsatilgan tartib va bo'limlar asosida amalga oshirilishi loyihaning yuqori sifat darajasini ta'minlashga xizmat qiladi va qarz oluvchilarga ham, qarz beruvchilarga ham muayyan iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi.

2.2. Bankka taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligini tekshirish

Tijorat banklari loyihaga mablag' ajratish maqsadida tayyorlangan biznes-reja yoki TIANi, undagi ma'lumotlarning haqqoniyligini muntazam ravishda tekshirib boradi. Loyihani amalga oshirish strategiyasini dastlabki baholash ijobiy bo'lganda, bank boshqaruvining qaroriga asosan, bank mutaxassisi (loyiha menedjeri) kerakli mutaxassislarni jalb qilgan holda loyihani ekspertiza qilishga kirishadi.

Ekspertiza natijasida loyiha menedjeri loyiha bo'yicha barcha hujjatlarni va loyiha joylashishi kerak bo'lgan joyni borib o'rgangan holda quyidagilarni o'rganib chiqishi kerak: loyihaning moliyaviy jihatlari (loyiha qiymati, moliyalashtirish manbalari, rentabelligi, naqd pul oqimi, shu jumladan: erkin konvertirlanadigan valyutada, korxonaning moliyaviy holati va balans hisobotlarining kelgusidagi prognozi); loyihaning texnik jihatlari (qurilishga tayyorgarlik, uskunalarni olib kelish va loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda qurilish-montaj ishlarini olib borish uchun shartnomalarining mavjudligi va boshqalar); loyihaning marketing jihatlari (tayyor mahsulotni sotish, yig'uvchi materiallar va xom ashyoning mavjudligi, texnologik uskunalarning raqobatbardoshligi va marketingning boshqa jihatlari); loyihaning yuridik jihatlari (qarz oluvchining, loyihadagi boshqa qatnashchilarning yuridik maqomi (statusi),

barcha tuzilgan shartnoma, ta'sis hujjatlarining qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga to'g'ri kelishi); loyihaning iqtisodiy jihatlari (loyihani amalga oshirishdan keladigan foyda va zararlar, loyihaning sof keltirilgan qiymati va boshqa jihatlari) ya'ni, sof joriy qiymat, foydaning ichki me'yor, loyihaga sarflangan investitsiyalarning rentabelligi, investitsiyalarning qoplash muddati ko'rsatkichlari hisoblanadi; loyihaning instituttsional jihatlari (loyihani amalga oshiruvchilarning professional tayyorgarlik darjasи, xodimlarni o'qitish va boshqalar).

Loyiha menedjeri yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha jabhalarni ekspertiza qilgandan so'ng quyidagi qarorga kelishi kerak bo'ladi: loyihani ma'qullah va kerakli summani kredit tariqasida berish to'g'risida ijobjiy xulosa berish; loyihaning kerakli hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va undan keyin loyihani qayta ekspertiza qilish uchun taqdim etish; loyihani texnik-iqtisodiy asoslashda ko'rsatilgan tadbirlar bo'yicha loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa berish.

2.3. Korxonalarining moliyaviy hisobotlari

Korxona uchun investitsion qarorlar qabul qilish juda qiyin vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy mezon korxona qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxona daromadlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, korxona ishlari samaradorligi darajasini oshirish hisoblanadi. Investitsiya loyihalari bo'yicha bunday natijalarga erishish uchun, har qanday loyihaning samaradorligini baholash zarur bo'ladi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega, chunki loyihaning samaradorligini baholash qo'yilgan kapitalning qaytib kelish muddati, korxonaning rivojlanish sur'ati hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muommalarini hal qilish imkonini beradi.

Chet el mamlakatlarining tajribasini, shu bilan birga YUNIDO (United Nations Industrial Development Organization) tavsiyalarini hisobga olgan holda

investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash ikki mezon asosida, ya’ni moliyaviy va iqtisodiy baholash orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashning bu ikkala mezoni ham bir-birini to’ldirib turadi.

Moliyaviy baholash investitsiya loyihasini umumiy realizatsiya (amalga oshirish) jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlataladi. Boshqacha aytganda moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxonaning yetarli moliyaviy resurslari bo’lishini belgilashdir.

Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya hisobi va boshqa axborotlarning ma’lumotlari asosida o’rganib, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va moliyaviy holatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish usuli moliyaviy tahlil deb ataladi.

Moliyaviy tahlilning asosiy qismi bo’lib, korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, to’lovga qodirligi, o’z mablag’lari bilan ta’minlanganligi, debtorlik va kreditorlik qarzlari holati kabi jihatlarini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ushbu ko’rsatkichlar darajasini o’rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi. Shuning uchun ham ushbu ko’rsatkichlarni o’z vaqtida tahlil qilib turish – korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiyotni mustahkamlash uchun shart-sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan tahlilning ahamiyati nihoyatda katta va beqiyosdir. Tahlil – korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash garovidir.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi bo’lib, korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlarini, moliyaviy barqarorlik darajasini, to’lovga qodirlik ahvolini, o’z va qarz mablag’lari bilan ta’minlanish darajasini, moliyaviy mustaqillik ahvolini, debtorlik va kreditorlik qarzlarining muayyan davrga bo’lgan holatini o’rganish asosida korxona moliyaviy holatiga baho berish va uni yaxshilash

imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning aktivlari, kapitali, majburiyatları holatini aniqlash va o'zgarishiga baho berish;
- moliyaviy ahvolning barqarorligini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;
- balans likvidligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishini tahlil qilish;
- korxonaning to'lov layoqati koeffitsientini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;
- moliyaviy koeffitsientlarni aniqlash va ularning o'zgarishiga baho berish;
- aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini o'rganish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganish;
- foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish bo'yicha tavsiyalar, takliflar berish.

Investitsiya loyihasining moliyaviy tahlili deganda korxonaga qo'yilgan investitsyaning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va ularni oldindan baholash uchun qo'llaniladigan usullar, ko'rsatkichlar, koeffitsientlar majmuasi tushuniladi.

Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil qilishning zarurligi:

- investitsyaning hayotiylik davrini aniqlash;
- investor bilan korxona munosabatini belgilash;
- investitsyaning samaradorligini baholash;
- investitsyaning joriy qiymatini aniqlash;
- barcha xarajatlar hajmini belgilash;
- sof foydani hisoblash kabilarda namoyon bo'ladi.

Investitsiya natijasida investor o'z mablag'iga va qo'shimcha foydaga ega bo'ladi. Korxona esa shu hajmdagi moddiy-texnik bazaga ega bo'ladi. Investitsyaning samaradorligidan ikki tomon ham manfaat ko'radi.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilish natijasida:

- loyihaning har yillik va butun hayotiy davri davomida keltiradigan foydasi aniqlanadi:

- loyihaning eng samarali yo'nalishini tanlab olish imkonini beradi;
- investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni oldindan baholash va salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish imkonini beradi;
- investitsiya qiymatini inflatsiya darajasini inobatga olganda ma'lum muddatdan keyin qancha bo'lishini oldindan aniqlash imkonini beradi;
- loyihaning xatarlilik darajasini baholashni taqozo qiladi.

Loyihani moliyaviy tahlil qilish bir necha ko'rinishga ega bo'lib, loyiha turiga qarab, ikki yoki undan ko'proq turdag'i moliyaviy tahlil amalga oshirilishi mumkin. Moliyaviy tahlil quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy rentabellik tahlili.
2. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili.
3. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlili.
4. Xarajatlarning qoplanishi tahlili.

Moliyaviy rentabellik tahlilining maqsadi loyihaning hayot davri davomida investitsiyalardan keladigan samarani baholashdan iborat. Bu tahlil loyihaning moliyaviy maqsadga muvofiqligi tahlili deb ham yuritiladi. Bu tahlil loyihadagi pul tushumlari va chiqimlari oqimiga asoslangan holda o'tkaziladi. Bunda e'tibor loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlarning moliyaviy holatiga emas, balki loyihaning o'ziga qaratiladi. Moliyaviy rentabellik tahlili tovarlar va xizmatlar savdosini amalga oshiruvchi loyihalar uchun o'ta muhim.

Moliyaviy rentabellik tahlilida xarajatlar va daromadlar qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib aniqlanadi. Xarajatlarni firma yoki ijrochi tashkilotning foydasini kamaytiruvchi moliyaviy oqimlar tashkil etsa, daromadlarni foya yoki daromadni ko'paytiruvchi moliyaviy oqimlar tashkil etadi.

Xarajatlar va daromadlar oqimlarini loyihalashtirish uchun ishlab chiqarish faoliyatining texnik darajasini belgilab olish, investitsiyalardan ko'zda tutilgan

texnik resurslarning loyihaga kirish va chiqishdagi oqimini, loyihalarning bozor va ma'muriy o'rnatiladigan baholarda hisoblangan natijalarini aniqlab olish talab etiladi.

Tushumlar oqimi mahsulot sotish (xizmat ko'rsatish) hajmini ularning xarid baholariga ko'paytirib topiladi. Xarajatlar oqimi esa ishlab chiqarishda foydalanilgan moddiy resurslar va xizmatlar miqdorini ularni sotib olish bahosiga ko'paytirib topiladi. Bunday baholash loyihaning butun yashash davriga, har bir yil uchun o'tkaziladi.

Loyiha uchun zarur resurslar va undan kutilayotgan natijalarni baholashda: birinchidan, ichki va tashqi bozorda yaqinda bo'lib o'tgan bitimlarda qo'llanilgan amaldagi baholar asosida real bozor baholarini, ikkinchidan, kelgusidagi baholarni bashorat (prognoz) qilish lozim.

Loyiha bo'yicha ishlab chiqarilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun tushgan barcha to'lovlar, debitorlik qarzlari, subsidiyalar va boshqa daromadlar loyiha bo'yicha tushumlarga kiritiladi va uning umumiylasini ko'rsatadi.

Xarajatlar o'z ichiga ekspluatatsiya va kapital xarajatlarini oladi. Ekspluatatsiya xarajatlariga ish xaqi, material, yoqilg'i xarajatlari, ijara xaqi to'lovleri, kommunal to'lovlar, umumiylasini va ma'muriy xarajatlar, soliqlar, joriy ta'mirlash xarajatlari, hali to'lanmagan, ammo hisobga olingan kreditorlik qarzlari va boshqalar kiradi. Kapital xarajatlarga esa investitsiyalar, loyiha fondlarini almashtirish, modernizatsiya qilish va kapital ta'mirlash xarajatlari kiradi.

Pul oqimlari baholab bo'lingandan so'ng rentabellik ko'rsatkichlari kalkulyatsiya qilinadi, loyihalashtirilayotgan tushumlar va xarajatlar diskontlanadi hamda ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Taqdim etilayotgan obyekt investitsiyalashni moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi) investitsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Investor moliyaviy holati noma'lum bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan hech qanday munosabatlar olib bormaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, korxonalar moliyaviy hisobotlarini e'lon qilish normal

holat hisoblanadi va ular har xil to'plamlar holatida chop etiladi. Bu to'plamlar orqali kompaniyalarning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

Investitsiya loyihasining moliyaviy asoslanganlik bahosi pul oqimlari to'g'risdagi hisobot asosiy hisoblanadi. Bu esa korxonaning mablag'lari holati to'g'risida aniq ma'lumot olishni, shu bilan birga bu mablag'larning investitsiya loyihasiga yetarliligin ko'rsatib beradi.

Korxona pul oqimlari asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi;
- investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi;
- moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi;

Pul mablag'lari bo'yicha salbiy saldo chiqqanda, qo'shimcha o'z mablag'lari yoki qarz mablag'larini jalb etishni taqozo etadi va bu mablag'lar investitsiya loyihasini moliyaviy baholash hisob-kitobida aks ettirilishi kerak.

Loyihaning maqsadi, shartlari va variantlarini tanlab olishga ko'ra moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi), investitsion loyihalash jarayonida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish mumkin

Loyiha tashabbuskorlari xo'jalik faoliyatini moliyaviy tahlilida asosan quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1. Korxona balansining likvidligini aniqlash;
2. Qoplash ko'rsatkichini hisoblash;
3. Likvidlik ko'rsatkichini hisoblash;
4. Muxtoriyat ko'rsatkichini hisoblash;
5. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi ko'rsatkichini hisoblash;
6. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanligini hisoblash;
7. Tovar moddiy zahiralarining aylanuvchanligini hisoblash;
8. Korxona xo'jalik faoliyatining rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash.

Shunday qilib, moliyaviy tahlilning maqsadi shundan iboratki, u investitsiyalash va moliyalashtirishdagi barcha savollarning yechimi bilan bog'liq omillarni, shuningdek, loyihadagi barcha moliyaviy oqibatlarni tahlil qiladi, aniqlaydi va u bo'yicha tegishli qaror qabul qilish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Jahon tajribasida investitsion tahlilning nechta asosiy bosqichi mavjud?
2. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash deganda nima tushuniladi?
3. Texnik-iqtisodiy asoslashning tashkiliy tuzilmasi.
4. Investitsiya loyihasining xayotiyligi tahlili deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsion loyihalarda biznes-reja tahlili deganda nimani tushunasiz?
6. Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlar?
7. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka qanday hujjatlar taqdim etiladi?
8. Bankka taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligini tekshirish nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Loyihani moliyalashtirishda kreditor asosan nimalarga e'tibor beradi?
10. Moliyaviy resurslarni jalg qilish usullari.
11. Moliyaviy tahlilning mohiyati tushuntirib bering.
12. Moliyaviy tahlilning vazifasini aytинг.
13. Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil qilishning zarurligi.
14. Moliyaviy tahlilning qanday turlari mavjud?
15. Moliyaviy rentabellik deganda nima tushuniladi?
16. Loyihani ekspluatatsiya qilish deganda nima tushuniladi?
17. Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlilida qanday ko'rsatkichlardan foydalilaniladi?
18. Korxona likvidligi deb nimaga aytildi?
19. Korxonaning likvidligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
20. Korxonaning ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
21. Korxonaning to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga qanday ko'rsatkichlar kiradi?
22. Korxonaning rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga qanday ko'rsatkichlar kiradi?

III-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINING TIJORAT TAHLILI

3.1. Bozor segmentatsiyasi, turlari. Marketing tadqiqotlari

So'ngi yillarda statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarining tanazzulga duch kelishi 80 % tashkil qilmoqda¹⁷. Bankrot bo'lishlikning asosiy sababi – etarli darajada marketing tahlili olib borilmaganligidir. Bu esa, investitsiya loyihasini amalga oshirishda tijorat tahlilining o'rni kattaligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham tijorat tahliliga alohida ahamiyat berib, loyihaning har bir bosqichida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarga to'xtalish lozim. Shunday ekan, marketing tahlinining mohiyati nimada ekkanligiga to'xtalamiz. Marketing tahlilining mohiyati 2 ta oddiygina savolga javobda aks etadi. Bular:

1. Loyihani amalga oshirish natijasida ishlab chiqariluvchi mahsulotni korxona sota oladimi?
2. Korxona ushbu loyihani amalga oshirish natijasida investitsiya loyihasi xarajatlarini oqlay oladigan darajada etarlicha daromadga ega bo'ladimi?

Umumiylara taraqqiyot jarayoning asosiy vazifasi raqobatbardosh iqtisodiy ob'ektlarini bunyod etishdir. Loyihani tijorat bo'yicha hayot kechira olish qobiliyatini ekspertizasi va uning mahsulotini xarajatlarini to'la qoplab kapital uchun adekvat daromadini keltiruvchi narxlarni sotilishini aniqlab berishi kerak. Masalan, qishloq ho'qjaligi va sanoatga oid loyihalarni ekspertiza loyiha bo'yicha yaratlgan korxona o'z mahsulotini sotib va kapitalni jalb qilishi uchun ob'ektni uzoq davrlar davomida ishlatish uchun etarli daromad olishi ehtimolini aniqlab berishi kerak bo'ladi. Agar narxlar xarajatlarni qoplab etarli daromadlarni olib kelmasalar, unda ob'ekt raqobat sharoitida yashashi qiyin bo'ladi. Tijorat ekspertizasi loyiha bo'yicha kapital va ishlatish kapitallarinni boshqa davlatlardagi o'xshash yoki raqobatlanuvchi loyha harajatlari bilan loyhani

¹⁷https://studbooks.net/86017/investirovanie/marketingovyy_analiz_investitsionnogo_proekta

raqobatbardoshliliga ishonch hosil qilish maqsadida taqoslab ko'rish mumkin. Bunday o'lchovlar davlat korxonalarida ham qo'llanilishi mumkin. Ekspertiza quyidagi tahlillarni o'tkazishni talab qiladi:

- resurslarga erishish imkon, ularni sifati va kelajak narxlarini baholash;
- mahsulotga bo'lgan talab, marketing bo'yicha tadbirlar va o'rnatilishi mumkin bo'lgan ehtimolli narxlar;
- yagona bo'lib qoluvchi fermer, xususiy tadbirkor, xususiy va davlat korxonasini tijorat bo'yicha yashay olish qobiliyatini belgilovchi xarajat va daromadlari.

Marketing tadqiqotining maqsadi, ushbu axborotning interpretatsiyasi va tahlili hamda marketing yoki strategik xarakteriga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishga asos yaratish. Marketing tadqiqoti asosan raqobat va talab (sotish va iste'mol)larning, iste'molchilarining hojatlari, marketing instrumentlari va raqobatlashuvga mollarning tahlilidan iborat.

Ayni vaqtda, individual sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning bozorga bo'lgan munosabatlarini hamda ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillarning ta'sirini inobatga olish kerak.

TIA uchun kerakli bo'lgan marketing tadqiqotning diapozoni proektni tanlash va isbotlash zaruriyati (va alternativalarning) va marketingning tegishli kontseptsiyasining yaratilishi bilan belgilanadi. Tadqiqot bosqichma-bosqich, rejalahshtirish jarayoniga asoslanib olib boriladi. Albatta, keyingi hamma qarorlarning sifatli axborot baholanishning sifatiga bog'liq. Tadqiqot bosqichida qilingan butun xatolar, marketingning noto'g'ri kontseptsiyasiga olib kelishi va butun loyihani xavf ostiga qo'yishi mumkin.

Marketing tadqiqotning boshlashdan oldin hamda marketing kontseptsiyasining keyingi shakllanishidan oldin, marketing funksiyasi, uning instrumentlari hamda kirilayotgan bozorning asosiy xususiyatlarini kim va nimani boshqarayotganini aniq tasavvur qilish kerak.

Korxonalar bozorda mustaqil yoki avtonom ravishda hamda iqtisodiyot yoki ijtimoiy-iqtisodiy tizim ichida ish olib bora olmaydilar. Raqobatlashayotganlar va

hamkorlar hamda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida ma'lum o'zaro bog'liqlikni (marketing tizimi deb ham atalishi mumkin) tushunish hamda molning sotilishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarning echilish uchun kerak bo'lgan vosita va instrumentlarni ham tushunish lozim.

Tovarning marketingi instrumentlarini tanlanishi faqat iste'molchilarga emas, balkim bozor a'zolarining maqsadlari va xarakterlariga bog'liq. Bu maqsad va xarajatlar o'zaro bog'liq, chunki har bir a'zo, marketingning asosiy strategiyasi va uni tanlashdan oldin, boshqa a'zolarning harakati va rejalarini ko'rib chiqishi lozim.

Marketingga nisbatan sistematik yondoshish bozor a'zolarini va ularning faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishni engillashtiradi. Ushbu tizimning elementlari, nafaqat, tashkilotlar va korxonalar, balkim bozor almashinushi jarayonida aniq rol o'ynaydigan alohida shaxslar hamdir. Masalan, bu baland narxlar siyosatini qo'llaydigan raqobatchi bo'lishi mumkin; boshqa raqobatchi esa past narxlar siyosatini olib boradi va albatta uning moli past sifatli bo'ladi; bu chakana va ulgurji savdogarlar ham bo'lishi mumkin va albatta turli sotib olish imkoniyatlariga ega bo'lgan iste'molchilar ham bo'lishi mumkin.

Bozor a'zolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari (sistema elementlari) birinchi navbatda a'zolarning faoliyati bilan belgilanadi, masalan mol va xizmatlar almashinushi, to'lovlar tizimi, sotuvchi va iste'molchilarning bevosita munosabatlari jarayonida ishlatiladigan marketing instrumentlari. Loyihaning investitsiyalashtirish oldi bosqichida marketing tadqiqoti, odatda, bozor tahliliga tayanadi. Ko'pincha tadqiqot davomida marketing vositalariga etarli ahamiyat berilmaydi yoki ular umuman inobatga olinmaydi, lekin aniq loyiha uchun bo'lgan ushbuning aniqlanishi va asosiy raqobatchilarning marketingini baholanishi uning turi va qamrovi uchun katta ta'sir qilishi mumkin. Bu munosabatda rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda olib borilayotgan loyihalar o'rtasida farq yo'q.

Bozor va talab tahlilining ushta maqsadi mavjud va ular investitsiyalashtirish oldi tadqiqot va ishlatish bosqichlari uchun juda muhim.

1. “Bozor-loyiha” o’zaro muniosabatlar tizimi boshqaruvchilar uchun aniq va oydin bo’lishi kerak.

2. Strategik cheklashlar va muammolar belgilangan bo’lishi kerak.

3. Loyihaning strategik maqsadlari belgilanib olingan bo’lishi kerak.

Ish quyidagi reja asosida tashkil qilinishi kerak:

- maqsadli bozorning tuzilmasini baholanishi;
- sotish kanallarining tahlili;
- bozor segmentatsiyasi va iste’molchilarining tahlili;
- raqobatning tahlili;
- ijtimoiy-iqtisodiy muhitning tahlili;
- korporativ (ichki) tahlil;
- marketing axborotining baholanishi;
- xulosalar, perspektivalar va risklar.

Tahlilning detalizatsiyasining chuqurligi yoki bosqichi har bir muammoning murakkabligi bilan belgilanadi.

TIAning yaratilishi odatda 1-tur talablari asosida ko’riladi, lekin natijada butun muammo aspektlari ushbu kategoriya talablariga javob bermaydi. Shunda, masalan, ba’zi bir bozor tahlili muammolarining alohida aspektlari loyiha uchun kam ahamiyatli bo’lishi mumkin. Odatda, DTIAning tayyorgarligi 2-tur talablariga javob berishi kerak, imkoniyatlarni o’rganish esa 3 va 4 tur talablariga.

Kerakli ma’lumotni olishning ikki asosiy yo’li mavjud, ko’pincha ular bir-birining o’rnida ishlatiladi. Agar umumlashtiruvchi miqdor baholari umuman yoki asosan “kabinet tadqiqotlari”ga asoslansa, detallashgan miqdor hamda sifat ko’rsatkichlari, odatda, umuman boshqa, ya’ni “dala tadqiqoti” yordamida olinadi. Ushbu 2 ta ma’lumotni baholash yo’llarining o’zaro kesishuvi bozorning xususiyatlar va miqdorlarining aniqlanish jarayonida yozma manbalar albatta intervyu, test va kuzatish axborotlari bilan to’ldirishi kerakligidan kelib chiqadi. Bozor haqida ikki xil ma’lumot bo’ladi: umumiyligida bozor ma’lumoti va bozorning aniq segmenti haqidagi aniq ma’lumot. Ko’pincha marketing tadqiqotlari quyidagi ma’lumotga ega bo’ladilar:

- umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, tovarga bo'lган talabdan kelib chiqadilar. Masalan, aholining soni va o'sish ko'rsatkichlari, aholini bir kishchiga bo'lган iste'moli va foydasi, bir kishilik ichki yalpi mahsulot va uning yillik o'sishi, foydaning taqsimlanishi:

- iste'mol, ishchlab chiqarish, mahsulotlarning import va eksporti, standartlar, cheklashlar, bojxona poshlinalari, soliqlar, subsidiyalar va stimullashtirishning boshqa shakllariga, kredit nazorati hamda valyuta boshqarishiga nisbatan bo'lган davlat siyosati amaliyot va qonunchilik;
- natural va qiymat ko'rinishidagi mavjud importning saviyasi (narxlar va ichki qiymat asosida);
- iste'mol qilinadigan difitsit resurslar va qismlar;
- ko'rileyotgan mahsulotlar va ularning tegishli qismlariga aloqador bo'lган iqtisodiy o'sishning milliy rejasi bilan belgilangan ishlab chiqarishning rejadagi ko'rsatkichlari;
- mavjud eksportning natural va qiymatdagi ifodasi;
- iste'molchilar harakatining xususiyatlari, odatda, reaktsiya (individual va kollektiv holdagi) hamda savdo amaliyoti;

TIAning ishlab chiqilishi uchun bu ma'lumotlarning to'g'ri kelishi aniqlanib, bozorning ma'lum segmenti uchun bozor ma'lumoti hamda aniq talab qilinishi zarur. Ma'lumotlarning qamrov diapozoni esa mahsulotning tabiat, marketing tadqiqotining turi va saviyasiga bog'liq.

Har bir holda belgilaydigan omillar ko'rib chiqilishi lozim. Chunki ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda erkin bozor kuchlari kuchsiz harakatlanadi va turli hisob tizimlari ma'lumotlarining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Mahsulotga bo'lган talab savdo siyosati hamda monopolistik raqobatchilik kabi mukammal bo'lmağan bozor omillari sababli to'xtatilishi mumkin. Ularda yuqori import poshlinalari bo'lib, ichki ishlab chiqarish mahsulotlarini qamramaydi. Marketing tadqiqotining tashkil qilinishining ushbu tizimiga asosan bozor va talab tahlili borasida birinchi odim loyiha uchun maqsadli bozorni aniqlash, bu bozorning tuzilmasini tahlili va ta'rifidir. Bozor tuzilmasi baholagandan so'ng iste'molchilar

ularning ehtiyojlari va harakatlarini farqlab olishi lozim. Quyidagi aspektlar tahlil qilinishi lozim:

- bozorda nima sotib olinmoqda?
- nima uchun sotib olinmoqda? Sotib olish sabablari nima?
- kim sotib olmoqda, sotib olishni kim qaror qiladi, kim ishtirok etadi?
- qachon sotib olinmoqda (qaror qilish jarayoni, mijoz odatlari masalan, mavsumiy xaridlar)?
- qancha miqdorda sotib olinmoqda?
- xarid qaerda amalga oshirilmoqda?

Marketing ichini shakllantirshdan avval bu savollar yaxshilab tahlil qilinishi zarur. Turli bozorlarda mijozlar turlisha harakat qilishadi: iste'mol mahsulotlari va ishlab chiqarish maqsadli mahsulotlari o'rtasidagi farq tabiiydir.

Iste'molchi mahsulotlar bozori quyidagi xususiyatlarga ega: iste'molchi ehtiyojlarga ega, ularni ko'pincha u qisman sezadi; taklif qilinayotgan mahsulot iste'molchi uchun nafaqat funktsional, balki emotsional ma'noga ham ega; ko'pincha qaror qilish jarayoni bo'lmaydi (iste'molchi odatda savdo belgisiga, mavjud odatlarga yoki to'satdan paydo bo'lgan istaklarga tayanadi); iste'molchining fikri juda muhim sanaladi.

Ishlab chiqarish maqsadli mahsulotlar bozori quyidagi xususiyatlarga ega: sotib olingan mahsulotlar keyingi ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladi; iste'molchilarning talablari ko'pincha aniq belgilangan maqsadlarga asoslanadi; qaror qilish jarayoni ko'pincha murakkab bo'ladi va tashkilot ichida o'z fikriga ega bo'lgan ko'p sonli a'zolar ishtirokida bo'ladi; iste'molchi ko'pincha mahsulot haqida chuqur yoki maxsus bilimlarga ega bo'ladi; iste'molchi bilan ilk aloqa va shartnomani imzolash uchun ko'p vaqt o'tishi mumkin.

Tahlil butun bozor yoki alohida segment uchun o'tkazilishi mumkin. Lekin bozorni iste'molchilar harakati asosida ma'lum segmentlarga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bozorning segmentatsiyasi - marketing vositalarining effektiv ishlatishining asosiy sharti. Bozor segmenti 3 ta talabga javob berishi kerak:

- segmentdagi iste'molchilar hakatlari iloji boricha o'xshash bo'lishi kerak;
- segment boshqalaridan aniq farq qilinish kerak;
- segment ancha qamrovli, ya'ni aniq bir bozor bo'limida faoliyat olib borayotgan korxona o'z xarajatlarini qoplay oladigan darajada keng bo'lishi kerak.

Segmentatsiya quyidagi omillarga asoslanishi mumkin: geografik yoki til mezonlari (millat, regoin, shahar yoki qishloq aholisining ko'pligi va boshqalar); ijtimoiy demografik mezonlar: shaxsiy (eli, jinsi, daromadi, ma'lumoti, kasbi oilaning kattaligi); psixologik omil (yangilikni qabul qilish, hayotdagi maqsadlar va.h.k).

Odatda, birinchi navbatda bozor qamrovining aniq baholanishini tayyorgarligi va umuman bozordagi mumkin bo'lgan talab bozor potentsiali aniqlanadi. Ikkinci navbatda keljak bozorning qamrovining oshishining baholanishi marketing ma'lumotlariga tegishli. Bu korxonaning rejalashtirilgan yoki mavjud bozor ulushi muammosi echimining asosidir. Bozorning maqsadli ulushi sotilish miqdorlarini ko'rish, ishlab chiqarish dasturi ishlab chiqarish quvvatlarini xom ashyoga bo'lgan talablar va resurslarni, ish kuchi va boshqalarni oldindan ko'ra olish imkonini beradi.

Loyihani tijorat jihatlari loyiha uchun sarflanadigan resurs va xizmatlarga va ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotilishiga (marketingi) tegishli tadbirlarni o'z ichiga oladi. Loyerha g'oyasi tsiklni birinchi bosqichdan o'tgandan so'ng (vazifalarini aniqlash) g'oyani ko'rib chiqilishini davom ettirish zarur yoki zarur emasligi xaqida qaror qabul qilishi zarur. Loyihani tijorat bo'yicha hayot kechira olish qobiliyatini ekspertiza va uning mahsulotini xarajatlarini to'la qoplab kapital uchun adekvot daromadini keltiruvchi narxlarni sotilishini aniqlab berishi kerak. Masalan, qishloq ho'jaligi va sanoatga oid loyihalarni ekspertiza loyiha bo'yicha yaratlgan korxona o'z mahsulotini sotib va kapitalni jalb qilishi uchun ob'ektni uzoq davrlar davomida ishlatish uchun etarli daromad olishi ehtimolini aniqlab berishi kerak bo'ladi. Agar narxlari xarajatlarni qoplab, etarli daromadlarni olib kelmasalar, unda ob'ekt raqobat sharoitida yashashi qiyin bo'ladi. Tijorat ekspertizasi loyiha bo'yicha kapital va ishlatish kapitallarinni boshqa davlatlardagi

o’xshash yoki raqobatlanuvchi loyha xarajatlari bilan loyhani raqobatbardoshliliga ishonch hosil qilish maqsadida taqqoslab ko’rish mumkin. Bunday o’lchovlar davlat korxonalaridan ham qo’llanilishi mumkin. Ekspertiza quyidagi tahlillarni o’tkazishni talab qiladi:

- resurslarga erishish imkon, ularni sifati va istiqbol narxlarini baholash;
- mahsulotga bo’lgan talab, marketing bo’yicha tadbirlar va o’rnatalishi mumkin bo’lgan ehtimolli narxlar;
- xususiy tadbirkor, xususiy va davlat korxonasini tijorat bo’yicha yashay olish qobiliyatini belgilovchi xarajat va daromadlari.

Loyihani ishlab chiqish tsikli birinchi bosqichda taklif qilingan g’oyalarni, ularni izchil o’rganishlar olib borishni o’z ichiga oladi. Birinchi turdagи izlanishlar bajariladigan muxandislik loyihalashtirilishni, iqtisodiy va moliyaviy amalga oshirilishi, loyihani muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun ma’muriy boshqaruv tizimini ko’rib chiqish va uni so’nggi ishlatishda atrof-muhitni himoya qilish nuqtai nazaridan muqobil variantlarni baholash va boshqalar. Loyihani amalga oshirishdagi turli yondashuvlar xaqida ko’proq ma’lumotga ega bo’lganimiz sari nobob variantlarni chetlashtirib, tanlab olingan loyihalarni elementlarini jiddiylik bilan tekshiramiz. Ekspertiza loyihani hamma tomonlarini uni moliyaviy resurslar bilan ta’minlanishiga talab qo’yilishi oldindan qat’iy baholashni amalga oshiradi. Loyihaning ishlanishi oxirgi bosqichida uni maqsadga muvofiqligini va amalga osha olishini aniq asoslanishini tayyorlaydi. Buning uchun loyihaning eng ko’p daromad keltiradigan tarkibiy qismlari aniqlanadi. Ekspertiza bosqichida asosiy diqqat e’tibor muqobil variantda jamlanadi va iqtisodiy samara va xarajatlarni noaniqlik omillarini va ular bilan tavakkalchilik hamda boshqaruvdagi yoki strategiyadagi, loyihani amalga oshirishda talab qilinadigan har qanday o’zgarishlar batafsil o’rganiladi.

O’z-o’zidan tushunarli bo’lib turgan ushbu holdagi tahlil amalga oshishini aniqlash uchun yoki loyihani to’laligicha asolash uchun uni barcha asosiy ko’rsatkichlari bo’yicha, ya’ni texnik rejasi, atrof-muhitga ta’siri, bozor samarasi, tashkiliy tarkiblar, ijtimoiy va madaniy jihatlari, moliya va iqtisodiy qiymati va

boshqalar kerak bo'ladi. Bu ko'rsatkichlarni har biri umumiy ko'rsatkichga ega bo'lishi uchun tahlil qilinadi va asta-sekinlik bilan yaqinlashish usuli ishlataladi.

Hozirgi kunda tijorat banklari, investorlar va investitsiya loyihasida ishtirok etuvchi boshqa ishtirokchilar investitsiya loyihasini baholashda bir qancha muammolarga duch kelishadi. Albatta asosiy muammo bu investorlarning eng yuqori daromad keltiruvchi, riski yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmog'iga yo'naltiriladigan investitsiya loyihalardan kutiladigan samaradorlikga ishonchining kamligi hisoblanadi. Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashda ko'proq quyidagi muammolarni kiritish mumkin:

- yangi texnika va texnologiyalarning ko'rsatkichlari yoki texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi xaqidagi ma'lumotlarning aniq yoki to'liq emasligi;
- ishlab chiqarish-texnologik risklar (asbob-uskunalarning buzilishi, ishlab chiqarish nuqsonlari yaroqsizligi va boshqalar);
- bozor kon'yunkturasi, narh, valyuta kursi va boshqalarning o'zgarib turishi;
- loyiha ishtirokchilarining harakati, manfaati va maqsadining noaniqligi.

Hozir mamlakatimizda investitsion loyihalarni moliyalashtirish sohasida moliyaviy infratuzilmalar shakllantirilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni Respublikamizga kirib kelishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib bir qancha imtiyozlar berilgan. Respublika iqtisodiyotiga katta miqdorda xorijiy sarmoyalarini keltirilganligi ushbu sohada chuqr o'ylangan maqsadli siyosat amalga oshirilganligining natijasi hisoblanadi.

Investitsiya loyihasini baholashda asosan quyidagi o'ziga xos namunaviy xatoliklar kelib chikishi mumkin:

- loyihani amalga oshirishda bozor risklarini baholash bilan bog'lik xatolar;
- loyiha bo'yicha hisob kitob uslublarini tanlashdagi xatoliklar;
- moliyaviy iqtisodiy hisob kitoblarni amalga oshirishda yul qo'yiladigan xatoliklar.

Loyihani qayta tashkil etish va qayta tarkibini o'zgartirish jarayonida loyihani amalga oshirish natijasini baholash etarlicha murakkabdir. Bunda loyihani amalga

oshiruvchilar real iqtisodiy tushumni o'rniga oldindan rejalashtirilgan korxonani tushumlarini ko'rsatishadi. Bu esa loyihani samaradorligini baholashda noaniq natijalarga keltirib chiqaradi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarda duch kelinadigan xatoliklardan biri bu, loyiha buyicha olinadigan daromad sifatida faqatgina ushbu loyihadan keladigan tushumlarni hisobga olmasdan balki, korxonaning yalpi tushumini hisobga olishdadir. Shuningdek, investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olishda esa faqatgina shu loyiha bilan bog'liq mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinadi. Bunaqa nomutanosiblik loyihani amalga oshirish natijasida olinadigan samaradorlik ko'rsatkichlarini sun'iy o'sishiga olib keladi.

Loyiha buyicha moliyaviy iqtisodiy hisob kitoblarni o'tkazishdagi xatoliklar ko'pincha samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobi bilan bog'liq bo'lmasdan balki, loyihani amalga oshirishdagi boshlang'ich shartlarini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi. Hisob-kitoblarni o'tkazishda ko'pincha uchraydigan xatolik bu – loyiha bo'yicha investitsiya xarajatlari tarkibini noto'gri aniqlash hisoblanadi. Loyihani tayyorlovchilar investitsiya xarajatlari bilan kapital qo'yilmalarni tenglashtirishadi va uning tarkibiga aylanma kapitalga bo'lgan talabning o'sishini kirgizishmaydi, sotish tarmoqlarini tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlar, kadrlarni tanlash, tayyorlash xarajatlari va boshqa turdag'i harajtlar, odatda, investitsiya xarajatlariga tegishli bo'ladi.

Loyihani majburiyatlarini boshqarish va moliyalash manbalarini baholash bilan bog'liq xatoliklar. Bu guruhg'a quyidagilarni kiritish mumkin:

- loyihani moliyalash manbasidan jalg qilinadigan mablag' miqdoridan investitsiya xarajatlari miqdorining oshishi, loyihani moliyalash manbalarini etishmasligi;
- moliyalash manbasidan jalg qilish grafigi investitsiyalash grafigiga mos kelmasligi, rejalashtirilgan intervallarda moliyalash manbasining taqchil bo'lishi;
- to'lov asosida jalg qilingan qarz mablag'lariga foiz to'lanmasligi;
- jalg qilingan qarz mablag'larini to'liq qaytarmaslik yoki kredit

shartnomasida rejalashtirilgan qaytarish muddatlarga mos kelmasligi.

3.2. Investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida tijorat tahlilining ahamiyati

Investitsiya loyihasi hayotiylik tsiklining har bir bosqichida tijorat tahlili olib borilishi talab etiladi. “Loyiha tsikli” tushunchasiga loyihani turli ishlab chiarish va amalga oshirish bosqichlari kiradi. Tsiklining birinchi bosqichiga asos bo’lib hisoblangan g’oyalarni tanlash tegishli bo’lib, ular eng muhim tarraqqiyot masalalarining bajarilishini ta’minlaydi. Loyihaning bunday g’oyaviy ro’yxatiga qurilish loyihalari, kreditor bilan ta’minlanish va boshqa ishbilarmonlikdagi faollik taraqqiyoti siyosatining o’zgarishi, boshqaruvdagagi o’zgarishlar tadbiri hamda taraqqiyot masalasiga erishishning boshqa vositalari kiradi.

Ushbu bosqichda iqtisodiy taraqqiyot maqsadini bajarishda ko’maklashuvchi barcha mavjud g’oyalalar ro’yxati tuzilishi kerak. Loyiha bosqichlari bo’yicha harakatlanganimiz sari, o’sib boruvchi jiddiylik bilan tadbirlarni nihoyasiga etgan kombinatsianing loyiha maqsadiga erishishni eng yaxshi yo’l bilan ta’minlanishini belgilaydi. Birinchi bosqichda, loyihani amalga oshirilishida keladigan daromad uni ishga tushirilish xarajatlaridan ortiq bo’lishi sharti bilan bo’lishi kerak.

Shunday qilib loyiha tsiklining birinchi bosqichini iqtisodiy taraqqiyot maqsadini aniq ifodalanishidan boshlanadi va shu bilan birga Juhon bankining iqtisodiy siyosatini sektori tahlili bir tomondan va Juhon banki tomonidan loyihaga kredit ajratilishi oralig’idagi ko’priksi tashkil qiladi. Iqtisodiy siyosat tahlili iqtisodiyot taraqqiyotini ustivor maqsadlari dasturini belgilash va bu masalalarni echishda siyosatda va rahbarlikda qanday o’zgarishlar talab qilishi bo’yicha izlanishlar olib borishni o’z vazifasi deb biladi.

Loyihani tijorat jihatlari loyiha uchun sarflanadigan resurs va xizmatlarga va ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotilishiga (marketingi) tegishli tadbirlarni o’z ichiga oladi. Loyiha g’oyasi tsiklni birinchi bosqichdan o’tgandan so’ng

(vazifalarini aniqlash) g’oyani ko’rib chiqilishini davom ettirish kerakli yoki yo’qligi haqida qaror qabul qilishi zarur.

Loyihani ishlab chiqarish tsikli birinchi bosqichda taklif qilingan g’oyalarni, ularni izchil o’rganishlar olib borish hisobiga torayishlar borishini o’z ichiga oladi. Birinchi turdagи izlanishlar shular jumlasidan bajariladigan muhandislik loyihalashtirishni, iqtisodiy va moliyaviy amalga oshirilishi, loyihani muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun ma’muriy boshqaruв tizimini ko’rib chiqish va uni so’nggi ishlatilishda atrof-muhitni himoya qilish nuqtai nazaridan muqobil variantlarni baholash boshqalar. Loyihani amalga oshirishdagi turli yondashuvlar haqida ko’proq ma’lumotga ega bo’lganimiz sari nobob variantlarni chetlashtirib tanlab olingen loyihalarni elementlarini jiddiylik bilan erishamiz. Ekspertiza, loyihani hamma tomonlarini, uni moliya bilan ta’minlanishiga talab qo’yilishi oldindan qat’iy baholashni amalga oshiradi. Loyihaning ishlanishi oxirgi bosqichida uni maqsadga muvofiqligini va amalga osha olishini aniq asoslanishini tayyorlaydi. Buning uchun loyihaning eng ko’p daromad keltiradigan tarkibiy qismlari aniqlanadi. Ekspertiza bosqichida asosiy diqqat-e’tibor muqobil variantda jamlanadi va iqtisodiy samara va xarajatlarni noaniqlik omillarini va ular bilan bo’lib tavakkalchilik hamda boshqaruvdagi yoki strategiyadagi, loyihani amalga oshirishda talab qilinadigan har qanday o’zgarishlar batafsil o’rganiladi.

Loyihani vazifasini aniqlashdan boshlanadigan jarayon ishlab chiqarish va ekspertiza bosqichlarida ham davom etadi va pirovard natijada uni amalga oshirish uchun mablag’ olish imkonini hal qilishga olib keladi. Yuqorida aytib o’tganimizdek, bu silliq va birin-ketin bajariladigan jarayon bo’lmay, balki inversiyadir. Unda o’tib ketilgan bosqichlarga yana qaytish avval ifodalangan goyalarni o’zgartirish muqobil variantlarni amaldagilar bilan ularni nisbiy qiymati va daromadliligini taqqoslash yo’li bilan loyihani turli darajadagi aniqlikda texnik, ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy, moliyaviy va tashkiliy tomonlarini tahlil qilish bilan amalga oshiriladi.

Loyihalarni maqsadlarini va ularga erishish vositalarini aniqlashtirish, loyiha faoliyatida muhim qismini tashkil qiladi. Aniqlashtirish turli yo’llar bilan olib

boriladi. Masalan, ishlab chiqarishni vazifalari aniq bo'lib, bosqichma-bosqich ma'lum mahsulot to'rini ishlab chiqarishni ko'paytirib borishdan iboratdir.

Loyihani oldindan amalga oshish yoki oshmasligi, tahlil qilingan yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar, amalga osha olishini asosiy tahlilini loyiha ishlab chiqilishi jarayonining markaziy negizini tashkil qilishi kerak bo'ladi. Loyerha masalalari turli yo'llar bilan aniqlanadi. Ba'zi loyihalar goyasi hokimiyat yoki sanoat tarmog'iga qarashli investitsiyalarni rejalashtirishda yuzaga keladi. Boshqa loyihalar esa amaldagi loyihalarni davomi yoki taraqqiyoti hisoblanadi. Loyihalarni yana bir guruhi uzoq muddatli tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash uchun avvaldan keltirilgan tadbirlar majmuasini bir qismi sifatida tarmoq yoki o'lka iqtisodida tuziladi. Loyihalarni yana bir manbai sifatida kredit beruvchilar bilan milliy yoki tarmoq iqtisodini taraqqiyoti infratarkib loyihalari uchun taalluqli bo'lgan jiddiylik va tizimli yondashuv uni hamma loyihalar uchun kerakli qiladi, oddiy va qaytariladigan kapital mablag'lar kiritish bundan mustasno.

Loyihani amalga osha olishi tahlili loyihani olib borish va kerakli loyiha maqsadiga erishishda qanday variantni afzal ekanligini belgilab berishi kerak.

O'z-o'zidan tushunarli bo'lib turgan ushbu holdagi tahlil amalga oshishini aniqlash uchun yoki loyihani to'laligicha asolash uchun uni barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha, ya'ni texnik rejasi, atrof-muhitga ta'siri, bozor samarasi, tashkiliy tarkiblar, ijtimoiy va madaniy tomonlar, moliya va iqtisodiy qiymati va boshqalar kerak bo'ladi. Bu ko'rsatkichlarni har biri umumiyligi ko'rsatkichga ega bo'lishi uchun tahlil qilinadi va asta sekinlik bilan yaqinlashish usuli ishlatiladi. Masalan, ishlatilishi mumkin bo'lgan talab bilan loyihani amalga oshiruvchi tashkilotni ma'muriy imkoniyatlariga hamda so'nggi ishlab chiqaruvchi va istemolchilarni moddiy an'analari va ijtimoiy huquqiga bog'liqdir.

Loyihaning aniq goyalari moliyaviy vosita olish uchun etarli yoki etarli emasligini belgilash, loyihani vazifasi hisoblanmaydi. Tahlilni imkonli echimidan eng yaxshisi o'ziga xos tarzda tanlab olish va loyihaning bu sharoitlarini ko'rinishini o'zgartirilishini ko'rsatishdan iboratdir.

Ko'rsatilgan umumiyl tavsiflardan tashqari loyihalarning amalga oshishini tahlil qiluvchi loyihalar usuli kabi bir-biridan katta farq qiladi. Loyihani tahlilini ko'lami va davomiyligini shunday omillar bilan, ya'ni loyiha uchun tavsifli majmuaviylik loyiha haqida nimalar ma'lum va ular innovatsion bo'lib hisoblanadimi yoki o'tmishdagi loyihalarni takrorlaydimi kabilar bilan aniqlanadi. Loyihalarni amalga oshirilishini tahlili bir necha oy, yil davom etishi mumkin.

Tahlil o'tkazishga ketadigan xarajatlar bir necha ming AQSh dollaridan (oddiy loyiha bo'ladigan bo'lsa) to bir necha million dollarga etishi mumkin (murakkab loyihalar bo'lsa). Loyihaning tahlilini amalga oshirayotgan davlat, salmoqli pul vositalarini loyiha ishlanishi uchun talab qilishi mumkin. Shu sababli bu kabi xarajatlar o'rinnimi yoki yo'qmi degan savol tugilishi, tabiiy. Loyihaning tahlili rejasini bajaruvchi shaxslar shuni esda tutishlari kerakki, barcha xarajatlarni va pul vositalarini iqtisod qilishga urinishlari o'rinsizdir, chunki loyihami amalga oshishi va daromadni ko'payishi hisobiga o'zini ko'p martalab oqlashi mumkin.

Resurslarni etkazib berish bitimi juda muhim, chunki samarasiz sotib olish faoliyati yuqori harajatlarga va loyihadan daromad olishini sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Mahsulot etkazib berishiga tuzilgan bitim ekspertizasi davlat va loyihaning o'ziga xosligi to'g'risida axborot berdi.

Nazorat savollari:

1. Bozor segmentatsiyasi, turlari.
2. Marketing taddiqotlari.
3. Investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida tijorat tahlilining ahamiyati.
4. Investitsiya loyihalarida marketing xarajatlari tahlili deganda nimani tushunasiz?
5. Marketing bo'yicha izlanishlar.
6. Loyer strategiyasi asoslari.
7. Marketing kontseptsiyasi.
8. Marketing tarmoqlari va xarajatlari.

9. Narxlar turlarini aytib bering va ularning investitsion qarorlar qabul qilishga ta'sirini tushuntiring.
10. Marketing xarajatlarining tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
11. Sotish xarajatlari foydaga qanday ta'sir ko'rsatadi.
12. Reklama xarajatlarining foydalilik darajasini qanday aniqlash mumkin.
13. Korxona mahsuloti raqobatbardoshligining tahlili.
14. Ishlab chiqarish maromining tahlili.
15. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xajmi tahlili.
16. Loyiha bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarning bozordagi holatini baholash va uning tahlili.
17. Talabning o'zgaruvchanligi tahlili.

IV-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINING TEXNIK EKSPERTIZASI

4.1. Investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida texnik ekspertizaning ahamiyati

Loyihaning marketing nuqtai nazaridan ijobiy xulosasi olingach, uning texnik tahlili amalga oshiriladi. Texnik tahlilda loyiha texnologiyasini ishlab chiqaruvchilardan shu loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tijorat taklifi olinadi. Tijorat taklifi loyiha texnologiyasining har bir asbobuskunasi, ularning bahosi, texnik spetsifikatsiyasi, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Loyihani amalga oshirishda eng samarali bo'lgan texnologiya tanlanadi. Agar loyiha chet el valyutasi hisobiga texnologiya bilan ta'minlanadigan bo'lsa, unda xalqaro ko'lamda shu texnologiyani ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tanlov e'lon qilinadi. Mutaxassislar tilida bunday tanlov tender deb ataladi.

Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishning vazifasi loyiha maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay bo'lgan texnologiyalar, loyihadan manfaat ko'rishi mumkin bo'lgan aholi kontingenti, mahalliy sharoitlar, kapital, xom ashyo va ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatlari va ularning bahosi, bozor hajmi, shuningdek, loyihani rejalashtirish hamda amalga oshirishning mavjud potentsial imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Yoki boshqacha qilib aytganda, investitsiya loyihalari texnik tahlilining vazifasi - bu loyiha maqsadiga mos loyiha texnologiyasini aniqlash, uning loyihadan foydalanuvchilar guruhiga ta'siri, mahalliy sharoitlar, shu jumladan, kapitalga egalik qilish imkon va uning qiymati, xom ashyo, ishchi kuchi, bozor ko'lami hamda loyihani rejalashtirish imkoniyatlaridan iborat va u loyiha bo'yicha paydo bo'ladigan texnik muammolarni hal etishga qaratilgan.

Texnik tahlil oldiga quyidagi vazifalarni ko'rib chiqish va belgilash kiradi:

1. Texnik va texnologik jihatdan muqobil variantlar.
2. Loyihani joylashtirish o'rni bo'yicha muqobil variantlar.
3. Loyiha hajmi.
4. Loyihani amalga oshirish muddatlari.
5. Xom ashyo, ishchi kuchi va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatlari va ularning etarliliginи.
6. Loyiha mahsuloti uchun bozor sig'imi (hajmi).
7. Ko'zda tutilmagan omillarni hisobga olgan holda loyiha xarajatlari.

Investitsiya loyihalarini ustida ishlash jarayonida texnik tahlil birinchi navbatda o'tkaziladi.

Ko'plab texnik muammolar turli muammolardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi. Bunday muammolar multkka egalik shakli, joylashgan hududi, amalga oshirilish muddati va texnologiyalar ko'lami bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda uning texnologik jarayonlari bo'yicha qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiqligi va tanlangan texnologiyaning texnik jihatdan ishonchliligi ularni texnik tahlil etishning o'ta muhimligini ko'rsatadi. Investitsiya loyihasining texnik tahlili quyidagilarning bajarilishini ta'minlashi lozim:

- loyiha maqsadlari nuqtai nazaridan eng to'g'ri keladigan texnologiyalarni aniqlash;
- mahalliy sharoitlar tahlili, jumladan, xom ashyo, energiya, ishchi kuchining etarliligi va qiymatini aniqlash;
- loyihani rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligini tekshirish.

Texnik tahlil, odatda, iloji boricha tor mutaxassislarni jalb qilgan holda korxonaning o'z ekspertlari guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Texnik tahlilning standart jarayoni o'zining mavjud texnologiyalari tahlilidan boshlanadi. Bu erda quyidagi mezonlarga bo'yсинish kerak:

- texnologiya, avvalo, o'zi haqida yaxshi nom qoldirishi kerak, ya'ni standartli bo'lisi kerak;
- texnologiya keltiriladigan uskuna va xom ashyoga mo'ljallanishi kerak emas.

Agar o'zining texnologiyasini qo'llash mumkin bo'lmasa, u holda mumkin bo'lgan sxemalardan bittasi bo'yicha xorijiy texnologiya va uskunalarini jalg qilish imkoniyatlarining tahlili o'tkaziladi;

- xorijiy firma bilan qo'shma korxona - qisman investitsiyalash va texnikalar bilan to'lig'icha ta'minlashi;
- texnologik "nou-xau" bo'lgan uskunani sotib olish;
- uskunani xarid qilish, zavodni qurish, texnologik jarayonni yo'lga qo'yish;
- korxona zarur bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarguniga qadar xodimlarini o'qitish;
- ishlab chiqarishga litsenziyalarni sotib olish;
- xorijiy texnolog tomonidan texnik yordam.

Texnikani tanlash ba'zi muqobil texnologiyalarning tahlili va qo'yilgan talablarga mosligini aniqlash asosida eng zo'r variantni tanlashni nazarda tutadi.

Muqobil texnologiyalar orasida tanlashning asosiy omillari texnologiyalarni ishlatishning quyidagi jihatlarini tahlil qilishga yaqinlashtiriladi:

1. O'xshash masshtablarda (masshtablar aniq bozor uchun o'ta katta bo'lishi mumkin) tanlangan texnologiyalarning avval ishlatilganligi;
2. Xom ashyo bilan ta'minlanish holati (etkazib beruvchilarining soni, ularning ishlab chiqarish quvvati qanday, xom ashyo sifati, xom ashyoning boshqa iste'molchilari soni qancha, xom ashyo qiymati, etkazib berish uslubi va narxi, atrof-muhitga nisbatan risk).
3. Kommunal xizmatlar va kommunikatsiyalar.
4. Texnologiyani sotuvchi tashkilotning unga patenti yoki litsenziysi borligiga ishonch hosil qilish zarur.
5. Har holda texnologiyani sotuvchisi tomonidan ishlab chiqarishga boshlang'ich hamrohlik qilish.

6. Texnologiyaning mahalliy sharoitlarga moslashlanganligi (harorat, namlik va boshqalar).

7. Ishga tushirish omili (loyiha shartlari bo'yicha nominal quvvatlarga nisbatan foizlar) va to'la ishlab chiqarishga mos bo'lgan doimiy sharoitga chiqiladigan vaqt.

8. Xavfsizlik va ekologiya.

9. Kapital va ishlab chiqarish xarajatlari.

Umumlashtirilgan mezonlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$G = W_1G_1 + W_2G_2 + \dots W_nG_n,$$

bu erda, W - xususiy mezon vazni; G - xususiy mezon kattaligi.

Mezonning eng katta ko'rsatkichi bo'lgan texnik loyiha eng zo'r loyiha deb qabul qilinadi.

Umuman olganda, ko'rileyotgan misolda A va G loyihalar texnik ko'rsatkichlari jihatidan deyarli bir xildir, ammo bu erda G loyihasiga ustunlik berish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya loyihalarini texnik baholash loyihami amalga oshirishdagi kelib chiqishi mumkin texnik muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi. Texnik baholashning asosiy vazifasi loyiha maqsadiga mos loyiha texnologiyasini aniqlash, mahalliy sharoitlar, kapitalga egalik qilish imkonini, xom ashyo va shu kabilarni rejalashtirish va loyiha bo'yicha paydo bo'ladigan texnik muammolarni hal etishdan iborat.

Loyihani amalga oshirishda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiqligi va tanlangan texnologiyaning texnik jihatdan ishonchlilagini aniqlash texnik tahlil etishning muhimligini ko'rsatadi. Loyihani amalga oshirishda muqobil texnologiyalarni texnik afzallikkleri va foydaliligi jihatdan baholash texnologiyalarni ishlatsishning turli jihatlarini tahlil etish bilan amalga oshiriladi.

4.2. Loyihada qo'llaniladigan texnika-texnologiyani injiniring baholash

Korxona ishlab chiqarish dasturini va quvvatini aniqlashda muhim omil bo'lib, loyihada ishlatalishi lozim bo'lgan texnologiya va «nou-xau» hisoblanadi. Aniq jarayonlar ko'p hollarda ishlab chiqarishning aniq darajalari bilan bog'liq bo'ladi yoki faqat mana shunday darajalarda texnik va iqtisodiy amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bu bir jihatdan kimyo sanoatiga taalluqli bo'lishi mumkin. Bunda ba'zi jarayonlar ishlab chiqarishning aniq bosqichlarida sezilarli ravishda samarali qo'llanishi mumkin, ammo bu tamoyil boshqa tarmoqlarga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda tanlangan texnologiya xususiyati va uni ishlatish muhim omillardan hisoblanadi.

Mos keladigan texnologiya va «nou-xau»ni tanlash istalgan TIAning muhim elementidir. Bunday tanlov texnologik muqobillarni sinchkov ko'rib chiqish va baholashga, berilgan loyiha uchun eng to'g'ri keladigan variantni yoki investitsiya strategiyasini tanlashga va ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik sharoitlarga asoslanishi lozim. Mos keladigan texnologiyani tanlash uni ishlatishdagi aniq vaziyatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Texnologiyani baholashning asosiy vazifalari - turli texnologiyalarning jamiyatga va milliy iqtisodiyotga (xarajat va foydalar tahlili, bandlik va daromadlar ta'siri, inson ehtiyojlarini qondirish va boshqalar), atrof-muhitga (ekologik ta'sirni baholash) ta'sirini aniqlash va baholash, korxona nuqtai nazaridan texnik-iqtisodiy amalga oshirishni aniqlash hisoblanadi.

Umumiy reja va korxona sxemasini tayyorlash har qanday loyiha uchun zarurdir. Buni rejalahtirishning ikkinchi bosqichida amalga oshirish muhimdir. Birinchi va boshlang'ich bosqich bo'lib, nazarda tutilayotgan ishlab chiqarish faoliyati turlari va texnologik muqobillar asosida korxonaning dastlabki rejasini va uning umumiy sxemasini tayyorlash hisoblanadi. Umumiy sxemalar va rejani ishlab chiqishning ikkinchi bosqichi texnologiya, ishlab chiqarish quvvati va uskunaning maxsus jihatlariga taalluqli bo'lgan detallarni ishlab chiqarish tugagandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

Dastlabki umumiy sxema korxonani loyihalashtirish, fizik qurilishiga taalluqli kattaliklar tartibini aniqlash, mashinalar va uskunalarga, boshqa investitsion

elementlarga talablar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan hujjatlar bo'lishi lozim.

Funktsional sxemalar va chizmalar to'plami quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- umumiy funktsional sxemalar, mashina va uskunalarining o'zaro aloqasi, fizik qurilishlar va binolar, ob'ektlar hamda turli yordamchi tsexlar va xizmatlar;
- texnologiyalarning asosiy xususiyati;
- materiallar va kommunal xizmatlar harakatini aks ettiruvchi materiallar harakati diagrammasi;
- mavjud hududiy tarmoqlar bilan bog'lanish joylarigacha bo'lgan yo'llar (shosse), temir yo'llar va boshqa transport ob'ektlarini ko'rsatuvchi transport sxemasi;
- korxonani kengaytirish va rivojlantirish uchun maydonlar;
- bunday chizmalar geodeziya xaritalari, geologiya ma'lumotlari, gidrologiya xususiyatlari, korxona uchun tanlangan joyda grunt xususiyatlariga asoslanishi kerak.

TIA bosqichida texnologiyalar bozori tavsifi va mavjud texnologik muqobilarni hisobga olish joizdir. Mos texnologiyani tanlash bunday kuzatuvning, shubhasiz, muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Texnologiyani tanlash korxonaning iqtisodiy ishlab chiqarish quvvati va minimal tejamli ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lishi kerak hamda korporativ strategiya va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi kerak. TIA ham muqobil texnologiyalarni, ham uni olishning muqobil manbalarini aniqlashi kerak. Ularni baholash texnologiyani olish mumkin bo'lgan manbani tanlash maqsadi hisoblanishi kerak.

Tekshiruvda, jumladan, ma'lum bir texnologiyani olishda muhim o'rinni egallaydigan shartnomalar muddatlari va shartlari ko'rinishi lozim. Qayta ishslash tarmoqlari, mashinasozlik mahsulotini va uzoq muddatli qo'llaniladigan tovarlarni ishlab chiqarish, mashina va uskunalar texnologiyalarini olish shartlari va muddatlari bir-biridan ancha farq qilishlari mumkin.

Loyihani amalga oshirish bosqichida va uning hayotiy tsikli davomida texnologik tendentsiyalarni baholash va bashoratni TIA ta'minlashi kerak. Yuqori innovatsiyali tarmoqlardagi investitsiya loyihalar uchun texnologik bashorat o'ta muhimdir. Yangi texnologiyalar sohasida ishlanmalar, jumladan, mikroelektronika, biotexnologiya va yangi materiallar va energiyalarni olish texnologiyalari turli tarmoqlardagi mahsulot va jarayonlarga sezilarli ta'sirini o'tkazadilar. Mos malakali ko'nikmalarni ishlatish va rivojlantirish hamda bu texnologiyalar qay darajada egallanishi mumkinligi bilan bir qatorda bu texnologiyalarning imkoniyatlari baholanishi lozim. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishning aniq bosqichlarida mikrojarayonlarni qo'llash yanada an'anaviy tahlil etilishi kerak. Shu bilan bir qatorda ishlatilishi kerak bo'lgan texnologiya tekshirilgan va ishlatib ko'rilgan hamda mahalliy sharoitlarga to'g'ri keladigan bo'lishi kerak.

Xorijiy texnologiyani sotib olishga, texnologiyani egallah va ishlab chiqishga tegishli jamiyat siyosati aniqlangan bo'lishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma, jumladan, ishchi kuchi tizimi tanlangan texnologiyaning amalga oshirilishiga sezilarli ta'sir qilishi mumkin.

Atrof-muhitga ta'sirini baholash – bu, birinchi navbatda, shu muhitdagi omillarni e'tiborga olishni rejalashtiriladigan va qarorlar qabul qilinadigan jarayondir. Oxirgi ikki o'n yillik davomida turli sanoati rivojlangan mamlakatlarda o'z qonunchiligidan kelib chiqqan holda atrof-muhitga ta'sirini baholashning turli uslublari ishlab chiqilgan edi. Bu uslublar uchun umumiy bo'lib, korxona egasining atrof-muhitga ta'siri bo'yicha arizasi bilan chiqqanda loyiha amalga oshiriladigan mamlakatda amaldagi qoidalarga mos ravishda baholanishi hisoblanadi. Turli mamlakatlarning uslublari bir-biridan sezilarli farq qilganliklari sababli, shu mamlakatning mos adabiyotiga murojaat qilish zarur.

Evropa iqtisodiy komissiyasi, Evropa hamkorligi va shu kabi tashkilotlar tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llash uchun korxonaning atrof-muhitga ta'sirini baholash standartlari ishlab chiqilgan edi. Bunday standartlar rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning qonunchiligiga muvofiq ravishda yangi sanoat tarmoqlarini rejashtirishlari mumkin.

Texnologiyalarni tanlash bilan birga ularni olishning muqobil manbalarini aniqlash joizdir. Patentlanmagan texnologik «nou-xau»ning manbalari ishlab chiqarish xususiyati va murakkabligiga bog’liq holda turli xil bo’lishi va mahalliy va chet el individual mutaxassislaridan tortib to butun korxonalar miqyosida farqlanishi mumkin.

Agar texnologiya qandaydir boshqa korxonadan olinishi kerak bo’lsa, uni sotib olish usullarini aniqlash kerak. Ular texnologiyani litsenziyalash, shu zahoti naqd pul to’lash orqali sotib olish yoki texnologiyani etkazib beruvchi mulkka egalik qiluvchi qo’shma korxona tashqil qilish shaklini qo’llashlari mumkin:

Litsenziyalash texnologiya sohasida ommaviy va samarali savdo mexanizmi bo’lib qoladi. Litsenziya patentlangan texnologiyani ishlatishga huquq beradi va u bilan bog’liq «nou-xau»ni o’zaro kelishilgan shartlarda topshirishni ko’zda tutadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat loyihalari uchun ko’pgina litsenziyalar xorijiy korxonalardan sotib olinishi kerak.

Texnologiyalarni litsenziyalash muhim bo’lib hisoblangan paytlarda iloji boricha turli texnologiyalar paketiga ega bo’lish va shartnomaning nozik tomonlarini aniqlash kerak. Xatto, bu ikki jihatlar TIAni tayyorlashdan keyingi loyihani amalga oshirish bosqichiga taalluqli bo’lsa ham, ularni o’rganib chiqish texnologiyani litsenziyalash shartnomasi bo’yicha keyingi muzokaralarda katta yordam berishi mumkin.

Texnologiyani sotib olish. Ba’zi tarmoqlar uchun texnologiyani shu zahoti naqd pul to’lash shartlarida sotib olish afzalroqdir va bu holda bular TIAda o’z aksini topishi lozim. Bunday shartlarda sotib olish texnologiya «bir martalik» huquq yoki «nou-xau» bo’yicha olinsa va keyinchalik texnologiyani takomillashtirish ko’zda tutilmasa maqsadga muvofiqdir.

Texnologiyaga taalluqli bo’lgan muzokaralarda muhim masala bo’lib eksportni rivojlantirish va litsenziyat tomonidan uni ta’minlash imkoniyatidir. Bunday imkoniyat turli omillarga bog’liqdir, jumladan, ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarishga mahalliy xarajatlar va yirik eksport bozoriga jo’g’rofiy yaqinligi. Ammo eksportni va tadbirlarni rivojlantirish uchun TIAda tahlil qilinishi

kerak.

Litsenziarning qo'shma korxonada ishtirok etishi. Texnologiya etkazib beruvchisining o'z aktsiyadorlik kapitali bilan qatnashishi loyiha homiylari uchun siyosat masalasi hisoblanadi va TIA doiralarining tashqarisida bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologiyani, asosan, tashqi manbalardan olganlari sababli texnologiya etkazib beruvchining qatnashish shakli muhim masala hisoblanadi. Uskunani import qilish bilan bir qatorda texnologiya bevosita yo'l bilan yoki chet el filiallari orqali yoki qo'shma korxonalar orqali qo'lga kiritishi mumkin, bu erda texnologiya etkazib beruvchisi loyiha mulkdori ichida ishtirok etadi. Bunday qatnashish, ko'pincha, sezilarli darajada texnologiya etkazib beruvchisi tomonidan taqdim qilinayotgan texnologiya, uskuna va texnik xizmatlarning kapitallashgan qiymati bilan cheklanadi.

Oxirgi o'n yillikda bevosita litsenziyalash texnologiya sotib olish va o'tkazish uchun muhim kanal bo'lib qoldi va uning litsenzion bitimlar sanoati rivojlangan mamlakatlar korxonalari orasida sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Texnologiya litsenziari tomonidan aktsiyador kapitalida qatnashish darjasи, odatda, qiziquvchi tomonlar o'rtaida muzokaralar markazi bo'lib hisoblanishi mumkin.

Ishlatilishi kerak bo'lган texnologiya tavsifi va murakkabligi nuqtai nazaridan tanlangan litsenziarning aktsiyador kapitalida qatnashishi maqsadga muvofiqligini TIA ko'rsatishi kerak. TIA texnologiyaning mahalliy sharoitlarda joriy qilinishi o'z samarasini ko'rsata olishini aks ettirishi lozim. Texnologik bitimning amal qilish davri mobaynida texnologiyani o'zlashtirish korxona turli ish bosqichlarida professional ko'nikmalar va qobiliyatlarni rejali rivojlantirishni talab qiladi.

Kadrlarni rejorashtirish va turli kategoriyalardagi xodimlar uchun ta'limning keng dasturi bilan mos kelishi kerak bo'lган siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Litsenziarning ta'lim bo'yicha faoliyati litsenziyat tomonidan tashkil qilingan ta'lim jarayoniga to'ldirilish sifatidagina aks etirilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ta'lim jarayoni turli bosqichlarda va turli mahalliy ishlab chiqarish integratsiyasi bosqichlarida litsenziyat korxonasi dagi xodimlarning professional ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Bu ham

loyihalashtira olishni va tekshiruvlar va ishlanmalar imkoniyatlarini talab etadi. Bunga taalluqli tadbir va talablar TIAda aks etgan bo'lishi kerak.

Loyihaning hamma ishtirokchilari loyihaning nobud bo'lmasligini xohlaydilar. Shu bilan bir qatorda ularning hech biri loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishiga to'liq ishonchi bo'lishi mumkin emas, chunki istalgan haqiqiy ishda risk umumqabul qilingandir.

Risk - istalgan korxona faoliyatining sharoit tavsifidir. Jumladan, u ko'ngilsiz voqealarning mumkinligi va noaniqlikni aks ettiruvchi investitsiya loyihasiga ham xosdir.

Risklarning turlari va ularning xavfini bila turib, ularning loyiha samaradorligiga salbiy ta'sirini pasaytirgan holda ularga ta'sir o'tkazish mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kapitalning qaytishi ta'minlanganligi risklarining quyidagi asosiy turlarini inobatga olish muhimdir:

- loyihaning hayotiy emaslik riski;
- soliq riski;
- qarzlarni to'lamaslik riski;
- qurilishni to'xtatmaslik riski.

Investorlar uchun investitsiya loyihasini amalga oshirish yo'li bilan o'z kapitalini shakllantirishda soliq risklarining sezilarli ta'sir kuchi alohida o'rinnegallaydi. Soliq riski o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- loyihaning aniq muddatda ekspluatatsiyaga topshirilishi mumkin bo'limganligi uchun soliq chegirmasini kafolatlay olmaslik;
- soliq qonunchiligining o'zgarishi;
- loyihaning soliq ustunliklarini pasaytiruvchi soliq xizmatining qarori.

Odatda, investorlar o'zlarini soliq risklaridan bitim va shartnomalarda aks ettiriladigan mos kafolatlar bilan qisman himoya qiladilar.

Shu bilan bir qatorda tugallanmagan qurilishni ham inobatga olish zarur. Texnologiya jarayoni yoki «nou-xau» ishlatalgan loyihani investitsiyalashda investor qurilishni tugatish haqida kafolatlarni talab qilishi mumkin, chunki bunday loyihalar boshida nazarda tutilganidan ancha qimmatga tushishi mumkin.

Shuning uchun qurilishni boshlashdan avval loyiha qatnashchilari va investorlar qurilishni to'xtatish kafolatlari bo'yicha bitimga kelishlari lozim.

Investitsiya loyihasini texnologik baholashda u yoki bu tarmoqdagi yangi loyihaga tavsiifli bo'lgan texnologik risklarni ham inobatga olish lozim. Texnologik risklarga quyidagilar taalluqlidir:

- loyiha tashkilotining yo'qligi yoki uncha katta bo'limgan ish malakasi;
- uzoq muddatli shartnomalarning yo'qligi;
- o'qitish va maxsus tayyorgarliksiz o'z kuchiga ishonish;
- jarima choralarisiz noaniq (muddati va miqdorisiz) shartnomalar;
- texnik risklarning yuzaga kelish sabablari;
- loyihalashtirishdagi xatolar, texnologiya etishmovchiligi;
- uskunani noto'g'ri tanlash;
- ishlab chiqarish quvvatlarini noto'g'ri aniqlash, pudratchilar tomonidan o'z majburiyatlarini buzish;
- boshqaruvdagagi kamchiliklar;
- malakali ishchi kuchining etishmovchiligi;
- mahalliy xodimlarning import qilingan uskuna bilan ishslash malakasining yo'qligi;
- loyihada ko'zda tutilgan quvvatga chiqmaslik yoki to'la quvvatda ishlamaslik yoki ancha past sifatli mahsulot ishlab chiqarish;
- qurilishni va to'la quvvatga chiqishni ushlab qolish.

Texnologik riskni pasaytirish bo'yicha tadbirlar:

1. Yangi loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechish.
2. Yangi texnologiya va uskunalarni ishlatishni minimallashtirish.
3. Shunga o'xhash loyihalarni amalga oshirishda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan loyihalashtiruvchi va pudratchini jalb qilish.
4. Aniq shartlar va jarima choralarini bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish.

Risklarning vujudga kelish sabablari va ularni pasaytirish uslublarini ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, risklarni boshqarishning asosiy usullari bo'lib, ularni to'g'ri guruhlash va tahlil qilish, o'lchash, loyiha ko'rsatkichlarining muhim

«mustahkamlik zahiralarini» barpo qilish, sug'urtalash va risklarni loyiha qatnashchilari orasida taqsimlash hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishning vazifasi bo'lib loyiha maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay bo'lgan texnologiyalarni, loyihadan manfaat ko'rishi mumkin bo'lgan aholi kontingentini, mahalliy sharoitlarni, kapital, xomashyo va ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatlarini va ular bahosini, bozor hajmini, shuningdek loyihani rejalashtirish hamda amalga oshirishning mavjud va potentsial imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya loyihalari ustida ishslash jarayonida texnik tahlil birinchi navbatda o'tkaziladi.

Texnik tahlilga quyidagilarni ko'rib chiqish va belgilash kiradi:

- texnik va texnologik jihatdan muqobil variantlarni;
- loyihani joylashtirish o'rni bo'yicha muqobil variantlarni;
- loyiha hajmini;
- loyihani amalga oshirish muddatlarini;
- xom ashyo, ishchi kuchi va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatlari va ularning etarliligini;

- loyiha mahsuloti uchun bozor sig'imini (hajmini);

- ko'zda to'tilmagan omillarni hisobga olgan holda loyiha xarajatlarini.

Turli loyihalarda uchraydigan texnik muammolar o'ziga xos bo'ladi. Ammo ayrim muammolar (barcha loyihalarga bo'lmasada) ko'pchilik loyihalarga xos bo'ladi va ularni identifikasiya qilish mumkin. Bu muammolar quyidagi kategoriyalarga bo'linadilar: mulk shakli; loyiha ko'lami; amalga oshirish muddatlari hamda texnologiyalarni tanlash va to'plash.

Loyihaning texnik rejasi, ekspluatatsiyasi va menejmenti loyihani kim amalga oshirishiga bog'liq. Qaysi loyihalarni davlat sektori, qaysisini esa xususiy sektor amalga oshirishi keraklilagini aniqlash hozirda ancha muammo. Chunki xususiy investorlar infratuzilmalar va kommunal xizmat singari an'anaviy davlat sektorlariga ham kirib borishayapti. Loyerha qaysi sohaga (tarmoqqa) tegishli

ekanligi ham mulk shaklini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Mulk shakli masalasi shu bilan birga loyihaning qanday texnik rejasি tanlanishini belgilab beradi.

Loyiha ko'lami masalasiga tahliliy yondoshish ham mumkin. Oddiy qilib aytganda loyiha uchun sof keltirilgan qiymat (SJQ) maksimal bo'lishini ta'minlaydigan ko'lam optimal bo'ladi. Bunday tahlil o'tkazilishi uchun loyiha bir nechta alohida komponentlarga bo'lib tashlanadi, so'ngra bu komponentlar (o'z xarajatlari va daromadlari bilan birga) texnologik jihatdan eng kichik bo'lgan «bazis» loyihaga birlashtiriladi. Bundan keyin bazis loyiha uchun hamda komponentlarning har bir kombinatsiyasi uchun SJQ hisoblanadi. Oxirgi qo'shilgan komponent uchun daromadning cheklangan ichki stavkasi diskont stavkasiga teng bo'limgunga qadar loyihaning izlanayotgan ko'lami kattalashtirib borilaveradi. Ayni shu lahzada SJQ butun loyiha uchun musbat bo'ladi va maksimal darajaga etadi. Loyiha bundan keyin ham kengaytirilganda qo'shilgan komponentlar uchun daromadning cheklangan ichki stavkasi diskont stavkasidan past, SJQ esa manfiy bo'ladi.

Iqtisodiyotni qayta qurish sharoitida ko'lamga nisbatan bunday yondoshuv yirik korxona tarkibida alohida bo'linmalarni ajratish qanchalik maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun qo'llanilishi mumkin.

Ko'pgina rivojlantirish loyihalari turli sektorlarga yoki faoliyat turlariga tegishli komponentlardan tashqil topadi. Masalan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihasi sug'orish tizimi va drenajlarni, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan turli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishni, qishloq yo'llari va ijtimoiy infratuzilmaning klublar, suv ta'minoti tizimi, mакtab va tibbiyat muassasalari kabi elementlarini o'z ichiga olishi mumkin. Shu tufayli loyihaning turli elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Maktablar, klublar va tibbiyat muassasalari bir vaziyatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa, boshqa vaziyatda hech qanday aloqaga ega bo'lmasligi mumkin. Agar loyiha komponentlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lsa, u holda iqtisodiy tahlilda daromadlar va xarajatlarni komponentlar bo'yicha taqsimlash hech qanday mazmunga ega

bo'lmaydi. Shu tufayli turli komponentlar bo'yicha daromad stavkasini aniqlash kerak emas. Bunday holda dastlab butun loyiha uchun SJQ va daromadning ichki stavkasini aniqlash so'ngra loyihaning bir yoki bir necha komponentini o'zgartirib aytilgan ko'rsatkichlarni oshirish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash kerak. Agar loyihaning alohida komponentlari bir- biri bilan deyarli bog'lanmagan bo'lsa ular alohida-alohida tahlil qilinishi kerak.

Loyihaning alohida komponentlarini iqtisodiy tahlili.

Loyihaning turli komponentlari o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan, bir-birini to'ldiradigan yoki mustaqil komponentlar bo'lishi mumkin. Qachonki loyiha komponentlarini birqalikda amalga oshirishdan olinadigan manfaat ularning har biri alohida amalga oshirilganda olinadigan manfaatlar yig'indisidan kam bo'lsa, bunday komponentlar o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan komponentlar deyiladi.

Agar loyihaning alohida komponentlaridan manfaat ko'rilsa ular o'zaro bir-birini to'ldiruvchi komponentlar deyiladi. Agar butun loyihadan ko'rilgan manfaat alohida komponentlardan ko'rilgan manfaatlar yig'indisiga teng bo'lsa, bu komponentlar mustaqil komponentlar deyiladi. Loyerha komponentlari shuningdek xarajatlarga ko'ra ham o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan, o'rnini to'ldiradigan va mustaqil komponentlar bo'lishi mumkin. Bir-birining o'rnini bosuvchi komponentlar uchun umumiy xarajatlar ularni alohida-alohida amalga oshirish xarajatlari yig'indisidan katta bo'ladi. Bir-birini to'ldiruvchi komponentlar uchun esa umumiy xarajatlar ularni alohida-alohida amalga oshirish xarajatlari yig'indisidan kichik bo'ladi. Mustaqil komponentlar uchun xarajatlar miqdori boshqa komponentlar bor yo'qligiga bog'liq bo'lmaydi. Ko'pgina ko'p maqsadli loyihalar xarajatlarga ko'ra bir-birini to'ldiruvchi, daromadlarga ko'ra esa bir-birini o'rnini bosuvchi hisoblanadi. Masalan, sug'orish va gidroelektrostantsiya uchun umumiy tug'on qurish alohida-alohida tug'on qurishga nisbatan kam xarajat talab etadi. Lekin elektr energiyasi olish uchun qishda oqizilgan suv sug'orish uchun foydasiz bo'lsa, yozda sug'orish uchun elektr energiyasi olish ehtiyojlaridan ko'proq suv oqiziladi. Suv oqizish miqdori GES talablari uchun ham qishloq xo'jaligi talabi uchun ham zarur bo'lgan optimal miqdordan ko'p bo'ladi. Oqibatda

alohida loyihadagiga nisbatan kamroq qishloq xo'jalik mahsuloti hamda elektr energiyasi ishlab chiqarilishi mumkin. Bunday holatda iqtisodiy tahlil chog'ida «loyihasiz» vaziyat sifatida tegishli inshootlarni alohida qurish varianti ko'rib chiqilishi kerak.

Har qanday investitsiya loyihasi quvvatini aniqlashning eng muhim omili texnologiya va “nou-xau” hisoblanadi. Loyiha bo'yicha mos keladigan texnologiya va “nou-xau”ni tanlash loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning muhim elementi hisoblanadi. Lekin tanlash jarayoni texnologiyalarning jamiyat va milliy iqtisodiyotga, atrof-muhitga ta'sirini va ahamiyatini aniqlash bilan amalga oshriladi. Texnologiyaning loyiha maqsadlariga mos kelmasligi, ishonchszligi, uni ishlab chiqaruvchi firmanın hali etarli tajribaga ega emasligi va mahalliy sharoitlarga mos tushishining noaniqligi texnologik risklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Texnologik risklarni baholash uning imkoniyatlarını oldindan aniqlash va unga ishonch hosil qilish, uni o'zlashtirishning murakkablik darajasi va uzoq vaqt talab etishi, uning sinalganligi, tekshirilganligi, loyiha maqsadi va mahalliy sharoitlarga, atrof-muhitni muhofazalash talablariga mosligini hamda uning kam xarajat talabligi, yaroqlilik davrini, shuningdek texnologik jarayonlarning turli bosqichlaridagi operatsiyalarning murakkabligi va muayyan vaqt talab etishini aniqlash bilan bog'liq. Baholash natijalariga qarab texnologik risklarni bartaraf etish tadbirlari ishlab chiqiladi.

4.3. Loyiha xarajatlaridagi o'zgarishlar. Loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigi

Xarajatlarga va loyihani amalga oshirish grafigiga real baho berish uchun muhandislik va loyiha-konstrukturlik ishlanmalarining aniq bo'lishi talab etiladi. Noto'g'ri berilgan baho iqtisodiy va moliyaviy tahlilda ham noto'g'ri echimlarga olib kelishi mumkin.

Xarajatlar smetasi loyiha turi va mavjud uslublarning imkoniyatidan kelib chiqib mumkin qadar maksimal aniqlikda baholangan bo'lishi kerak. Shuningdek, bunday smeta loyihani moliyalashtirish boshlanishidan ancha oldin tayyor bo'lishi kerak. Loyerha turlariga qarab muhandislik va loyihakonstrukturlik ishlari hajmi turlicha bo'ladi, misol uchun, tekis joyda yo'l qurish loyihasi hamda tog'li joyda yo'l qurish loyihasida. Agar loyihada standart uskunalarni bir necha bor xarid qilish yoki an'anaviy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan bo'lsa, muhandislik va loyiha-konstrukturlik ishlari ketadigan xarajatlar minimal bo'ladi.

Loyihaning har bir komponenti uchun alohida xarajatlar smetasi tuziladi. Uskunalar sotib olish xarajatlari smetasi uskunalar turi, soni va har birining bahosidan kelib chiqib tuziladi. Mamlakatda bajarilgan o'xshash loyihalar tajribasi uskunalar bahosini aniqlashda mo'ljal hisoblanadi. Agar bu to'g'rida axborot etarli bo'lmasa yoki o'xshash loyihalar yaqin vaqt ichida amalga oshirilmagan bo'lsa, xarajatlar smetasini tuzishda ixtisoslashgan korxonalar, shaxslar yoki pudratchilar xizmatidan foydalaniladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi loyihalar uchun xarajatlar smetalari ham milliy, ham xorijiy valyutada tuziladi. Qurilish davrida hisoblangan foizlar va qo'shimcha aylanma kapitalga ehtiyoj ham xarajatlar smetasida hisobga olinishi kerak. Xarajatlar smetasi moliyaviy ko'rinishda pul xarajatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Mahalliy soliqlar va importga boj to'lovleri smetaga kiritilishi, lekin alohida ko'rsatilishi lozim. Chunki bular loyihani amalga oshiruvchi korxona xarajatlariga kirsada, mamlakat xarajatlariga kirmaydi. Xarajatlar smetasi, odatda, ikki qismdan tashkil topadi:

1. Asosiy smeta.
2. Ko'zda tutilmagan xarajatlar qo'shimcha smetasi.

Asosiy smeta dastlab loyihaning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun tuziladi va tuzatib boriladi. U tuzilish paytida loyihaning eng aniq qiymatini aks ettiradi. Lekin u asosiy smeta tuzilgandan loyiha tugallangunga qadar ro'y beradigan miqdor va baho o'zgarishlarini, misol uchun, etkazib berish, qurilish ishlarini tugallash muddatlaridagi o'zgarishlarni hisobga olmaydi. Bu o'zgarishlar

ko'zda tutilmagan xarajatlar qo'shimcha smetasida hisobga olinadi. Har ikki smetani o'z ichiga olgan xarajatlarning to'liq smetasi loyihaning yakuniy qiymatini aniq baholaydi. Qo'shimcha smeta loyiha harakteriga bog'liq va loyihaning har bir asosiy komponenti uchun alohida tuziladi.

Fizik ko'rsatkichlarning ko'zda tutilmagan o'zgarishi. Sotib olinadigan uskunalar soni va turida, bajariladigan ishlar hajmi yoki loyihani amalga oshirish usullarida bo'ladigan o'zgarishlar tufayli loyiha xarajatlarining o'zgarishi fizik ko'rsatkichlarning ko'zda tutilmagan o'zgarishida aks etadi. Bunday o'zgarishlar miqdori va harakterini doim ham oldindan ko'rib bo'lmaydi. Tabiiy hodisalar, sel, bo'ron, qurg'oqchilik, er qimirlashlari ko'zda tutilmagan shunday hodisalarga misol bo'la oladi va ularda hech qaysi loyiha to'liq himoyalanganmagan.

Bu o'zgarishlarni aks ettiruvchi zahiralar turli loyihalarda turlicha bo'ladi. Bunday ko'zda tutilmagan xarajatlar zahiralarining Jahon banki tomonidan qabul qilingan darajalari quyidagicha:

- loyihalarda doimiy foydalaniladigan uskuna turlari uchun yoki asfalt yotqizish kabi engil aniqlanmaydigan ish turlari uchun 5%;
- takrorlanib turuvchi va oldindan ko'rsa bo'ladigan noaniqlik omillariga ega bo'lgan umumiyl fuqaro qurilishi uchun 10%, misol uchun, binolar, elektr uzatish liniyalari, truboprovodlar, tekis erda yo'l yotqizish ishlari uchun;
- qayta ishlash korxonalari, noqulay bino va muhandislik inshootlari, kichik sug'orish va drenaj hamda tug'onlar qurilishi uchun 15%.

Agar fizik ko'rsatkichlarni ko'zda tutilmagan o'zgarishi zahiralari summasi 15-20% dan oshib ketsa, loyiha rejasini takomillashtirish hamda noaniqliklarni kamaytirish uchun vaziyatni joyning o'zida qo'shimcha o'rganish zarur.

Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari. Bahoning ko'zda tutilmagan o'zgarishi bilan bog'liq tuzatishlar asosiy smeta tuzilganidan so'ng loyihaning alohida komponentlari uchun baholar o'zgarishi tufayli loyiha qiymatining mumkin bo'lgan o'zgarishini aks ettiradi. Bunday ko'zda tutilmagan xarajatlar valyuta kursi o'zgarishini hisobga olish uchun milliy va xorijiy valyutalarda alohida-alohida hisoblanadi. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari loyihaning moliyalashtirishga

bo'lgan ehtiyojini tahlil etishda foydalanimadiga, loyiha maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun o'tkaziladigan iqtisodiy va moliyaviy tahlilda qo'llanilmaydi, chunki bunday tahlillar barqaror baholarga asoslanadi. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlarining vaziyatga mos keluvchi darajasini aniqlash uchun ikki omilni ko'rib chiqish zarur:

1. Loyihani amalga oshirish muddatlarida mamlakat ichida va jahonda kutilayotgan inflyatsiya darajalari.
2. Umumiy inflyatsiya tendentsiyalaridan alohida turdag'i ishlari va xizmatlarga bo'lgan ichki va tashqi baholar farqining kutilayotgan dariasi.

Agar loyiha bo'yicha tuzilgan shartnomalarda bajarilgan ishlari yoki uskunalar bahosini indeksatsiya qilishning ma'lum usullari kelishib olingan bo'lsa, bunday holat zahira miqdorini aniqlashda hisobga olinishi kerak.

Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari zahirasi har bir yil uchun hisoblanib, loyihani amal qilish muddati bo'yicha qo'shib chiqiladi. Loyihaning texnik jihatlarini ishlab chiqish hech bo'limganda loyihani amalga oshirishning kim, nimani va qachon bajarilishi ko'rsatib o'tilgan dastlabki rejasini tuzishni o'z ichiga olishi kerak. Bunday faoliyat ba'zida tarmoqli tahlil yoki kritik yo'l uslubida tahlil deb yuritiladi. Oxirgi atama dasturlarni baholash va izohlash uslubi kabi murakkab tizimlarni o'z ichiga oladi.

Bu tizimlar bir tadbir boshlanishidan oldin tugallanishi kerak bo'lgan yoki belgilangan muddatda tugallanmay qolishi butun loyiha bo'yicha ishlarning kechikishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tadbirlarni aniqlashga mo'ljalangan. Bu tizimlar yirik fuqaro inshootlarini o'z ichiga olgan loyihalarini rejalahtirishning samarali vositasi bo'lsada, boshqa loyihalar uchun tadbirlar ketma-ketligini belgilovchi va izohlar bilan to'ldirilgan oddiy kalendar rejalarini ham etarli hisoblanadi. Har ikkala holda ham o'z vaqtida bajarilishi loyihani amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlarni aniqlash va ularni tugallashga etarli vaqtini ta'minlash kerak. Bu tadbirlarni etarli darajada rejalahtirmaslik oqibatida loyihani rejalahtirish muddatlari cho'zilib ketishi mumkin.

Loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigi real, ya'ni korxonalar va shaxslarning imkoniyatlari darajasiga asoslangan bo'lishi shart. Haddan ortiq optimistik grafiklardan foydalanish salbiy natijalarga, operativ rejulashtirishning izdan chiqishi, ishlar rejadan orqada qolganda turli tashkilotlar o'rtasida kelishmovchiliklarga olib keladi. Bundan tashqari ishlar grafigi noreal tuzilganda iqtisodiy va moliyaviy tahlilda noto'g'ri xulosalarga kelishga sabab bo'ladi.

4.4. Tender orqali texnika-texnologiyani sotib olish

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risidagi" Qonuning (O'RQ-472 son) 8-bobi aynan tenderga bag'ishlanadi. Unga ko'ra tender deganda davlat xaridini ikki bosqichda amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili orqali ijrochini aniqlash usuli tushuniladi. Bunda shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tender ishtirokchisi ushbu tartib-taomil natijalari bo'yicha g'olib deb topiladi.

Davlat xaridi haqidagi axborotni davlat buyurtmachisi tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'ltonni va tender hujjatlarini maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali shaxslarning cheklanmagan doirasiga ma'lum qiladi.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonlari tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;
- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

Byudjet buyurtmachilari uchun tenderdagi davlat xaridlari bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining olti ming baravaridan ortiq summani tashkil etishi kerak.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida etti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi, komissiya tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zinjiniring» respublika loyihalashtirish institutining vakillari kiritilishi shart.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'ttiz kun oldin va ko'pi bilan qirq besh kun oldin maxsus axborot portaliga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi axborot bo'lishi kerak:

- tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va narxi;
- tender o'tkaziladigan joy manzili;
- tender ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;
- davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan aloqada bo'lish uchun bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining nomi, lavozimi va manzili;
- tender hujjatlari qoidalarini tushuntirish uchun so'rov berish shakli;
- takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;
- tender takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa qonun hujjatlariga zid bo'limgan boshqa axborot ham bo'lishi mumkin.

Tender hujjatlari maxsus axborot portaliga tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon bilan bir vaqtda davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender hujjatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:

- tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;
- shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to'lov tartibi haqidagi axborot;
- tenderda ishtirok etish uchun taklif qaysi tilda taqdim etilishi kerakligi bo'yicha talab;
- tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi to'g'risidagi axborot;
- tender ishtirokchilariga tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;
- texnik topshiriq;
- tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi.

Tender hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g'olib xarid qilish tartib-taomili shartlariga ko'ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tender hujjatlariga uning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin tender hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat tender hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

Tender ishtirokchisi tender o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda davlat buyurtmачisiga tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmачisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmачisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni belgilangan shaklda yuborishi shart. Tender hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

Tender hujjatlarida davlat buyurtmачisi tender ishtirokchilarining takliflarida xarid qilish tartib-taomillarining barcha ob'ektlari bo'yicha taklif bo'lishi kerakligini nazarda tutishi mumkin. Bunday holda faqat bitta ijrochi tender g'olibi bo'lishi mumkin, agar taklifda tenderning barcha tovarlari (ishlari, xizmatlari) bo'yicha axborot bo'lmasa, taklif tegishli emas deb topiladi.

Tender hujjatlarining ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus axborot portalida e'lon qilingan tender ishtirokchilarining takliflari e'londa belgilangan tartibda, tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

Taklifda davlat xaridi ob'ekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliği uchun javobgar bo'ladi.

Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tenderga takliflarni qabul qilish maxsus axborot portalida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtida xarid komissiyasi tender ishtirokchilaridan tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif olgan bo'lsa, tender o'tkazilgan deb topiladi.

Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda tender o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holatda davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart. Tovarga (ishga, xizmatga) nisbatan baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarurati paydo bo'lganda xarid komissiyasi asoslarni keltirgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

Tender ishtirokchisi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran oltmis kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Agar taklif tender hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi tender ishtirokchisining taklifi tanlov hujjatlari talablariga mos kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

Tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tenderda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

Tender hujjatlarda ko'rsatilgan mezonlar asosida tender g'olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.

E'londa tenderni o'tkazish vaqtida ko'rsatilgan vaqtda xarid komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun navbatma-navbat ochadi.

Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismi baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tendingning birinchi bosqichi g'oliblari aniqlanadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida hozir bo'lishga haqli.

Tenderning birinchi bosqichi g'oliblari tenderning ikkinchi bosqichiga qo'yiladi.

Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ochiladi va baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo'yicha qarori bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning ikkinchi bosqichi g'olibni aniqlanadi. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida ishtirok etishga haqli.

Agar takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender hujjatlari talablariga muvofiq kelsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

Tender hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

Agar tender hujjatlarida tenderning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi g'olibni tenderning har bir predmeti bo'yicha aniqlaydi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

- tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;
- hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;
- takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;
- takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;
- tender g'olibni to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

– tender g’olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

Takliflarni ko’rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a’zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko’chirma u imzolangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko’rib chiqish va baholash bayonnomasi e’lon qilinganidan so’ng davlat buyurtmachisiga tender natijalari bo’yicha tushuntirishlarni taqdim etish to’g’risida so’rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so’rov kelib tushgan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

Davlat buyurtmachisi berilgan takliflarni qabul qilish tugaydigan paytga qadar ularni muhokama qilishga haqli emas.

Tender natijalari bo’yicha shartnoma tender hujjalarda va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko’rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

Tender ochiq va yopiq shaklda o’tkaziladi, ochiq shaklda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha sub’ektlar qatnashishi mumkin, yopiq shakl ishtirokchilari va uning o’tkazilishi faqatgina Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ochiq tenderlar o’tkazilishidan 1-3 oy oldin e’lon qilinadi, e’lonlar chop etiladigan davriy nashrlar ro’yxati Davarxqurilish komiteti bilan kelishib olinadi. Odatda, e’lonlar Xalq so’zi, Narodnoe slovo gazetalarida chop etiladi. Yopiq tenderlarda esa buyurtmachi avvaldan belgilangan pretendentlarga savdoda qatnashishga taklifnomalar jo’natadi va tender faqatgina ularning orasida o’tkaziladi.

Tenderlar buyurtmachi joylashgan binoda o’tkaziladi, aynan shu erda tenderga kelib tushgan takliflar – ofertalar baholanadi, tahlil qilinadi. Ofertalar yopik konvertlarda tender komissiyasi nomiga yuboriladi, ular 1 vaqtda 1 joyda ochiladi va o’qiladi. Tender forumida pretendentlar yoki oferentlar vakillari qatnashishi mumkin. Ofertalar quyidagi kriteriyalar bo’yicha baholanadi: taklif

qilinayotgan qurilishlar xizmatlari qiymati; qurilishni bajarish muddati; qurilish ishlari tartibi; tajribali subpudratchilarni jalg qilish imkoniyatlari; boshqa texnik, tijorat aspektlari va afzalliklari. Tenderda golib yashirin ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi. Tender natijalari komissiya tomonidan tasdiqlangach, tender savdolari tugallangan deb hisoblanadi.

Tenderga bironta ham oferta kelmasa, yoki kelgan ofertalar tender talablariga mos kelmasa, tenderlar o'tkazilmaydi, keyinga qoldirilishi mumkin. Shuningdek, taklif etilayotgan narxlarning eng kichigi ob'ektning haqiqiy bahosidan sezilarli darajada katta bo'lsa ham tenderlar qaytadan o'tkazilishi mumkin. Tender muvaffaqiyatli tugagach, golib aniqlangan, buyurtmachi golibga xabarnoma – tender ofertasining aktseptini yo'llaydi va u bilan qurilish shartnomasini imzolaydi.

Qurilish ishlarida olib boriladigan tenderlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkakmasining 03.09.1998y.dagi 375-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» 2003 yil 6 maydagi PF-3240-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda kapital qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridining yagona tizimini yaratish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi (2003 yil 3 iyul, 302-son) qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda “O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida”gi nizom tasdiqlangan.

2000 yil 21 noyabrda 456-son bilan Vazirlar Mahkamasining “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi va unga ko'ra “Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida”gi nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomga ko'ra tender savdolari 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bitta kontrakt bo'yicha tovarlar etkazib berishni amalga oshirishda o'tkaziladi.

Kamida 1 ming AQSh dollari summasidagi bir kontrakt bo'yicha etkazib berishda xarid tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning narxi, sifati va etkazib berish muddatlari bo'yicha eng maqbul shartlarni taklif etgan etkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bir ming AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha summaga bitta kontrakt bo'yicha etkazib berishda xarid:

xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning tavsifnomasini, sonini, bajarish muddatini va tovarni etkazib berish joyini ko'rsatgan holda takliflarni etkazib beruvchilarga yoki pudratchilarga yuborish;

etkazib beruvchilar yoki pudratchilar e'lon qilgan narxlar va tavsifnomalarni taqqoslash yo'li bilan buyurtmachilar tomonidan tashkil etiladigan idoraviy tanlov komissiyalari tomonidan baholanadigan eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Idoraviy tanlov komissiya buyurtmachining rahbar xodimlari va vakolatli mutaxassislaridan kamida uch nafardan iborat bo'lган tarkibda tuziladi. Idoraviy komissiyaning qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi.

Nazorat savollari:

1. Texnik tahlil qilishning mazmun-mohiyatini nima tashkil etadi?
2. Loyihalarni texnik tahlil qilishdan maqsad.
3. Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishning asosiy vazifasi nima?
4. Texnik tahlil tarkibi.
5. Loyihaning qanday komponentlari mavjud?
6. Loyiha ko'lami deganda nima tushuniladi?
7. Investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida texnik ekspertizaning ahamiyati nimadan iborat?
8. Investitsiya loyihalarining texnik tahlili qanday me'yoriy hujjatga asoslanadi?

9. Tender tushunchasi va tender orqali texnika-texnologiyani sotib olish jarayoni qanday?
10. Mamlakatimizda tender orqali texnika-texnologiyani sotib olish jarayoni qanday me'yoriy hujjatga asoslanib amalga oshiriladi?
11. Texnologik riskni pasaytirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
12. Investitsiya loyihamalarida texnik tahlil deganda nimani tushunasiz?

V-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINING IJTIMOIY VA EKOLOGIK EKSPERTIZASI

5.1. Investitsiya loyihalarini ijtimoiy tahlil etishning ahamiyati va zarurligi

Investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholashda ularning turli jihatlari bo'yicha samaradorligi va foydalilagini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Mavjud va talab etiladigan jihatlar qatorida investitsiya loyihasining ijtimoiy samarasini tahlili ham alohida o'rinni egallaydi.

Har qanday loyiha samarali amalga oshirilishi uchun ijtimoiy tahlilning ahamiyati katta. Loyihaning taklif etilayotgan u yoki bu varianti aholining maqsadli guruhi manfaati talablariga javob berishi yoki bermasligini aniqlash ijtimoiy tahlilning vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy tahlil loyiha va u yo'naltirilgan ijtimoiy guruhning o'zaro muvofiq kelishini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni taklif etadi. Shuningdek, ijtimoiy tahlil aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan hamda jamoatchilik fikri va qarashlaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirish yo'li bilan loyiha maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan loyiha strategiyasini belgilaydi.

Ijtimoiy tahlilning amalga oshirilishi investitsiya loyihasining ijtimoiy ahamiyati darajasini aniqlash va belgilab berishda muhim o'rinni egallaydi. Bunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasini yuzaga chiqarish va oshirish, mehnat muhofazasining qonuniy ijrosini ta'minlash, aholining zaruriy iste'mol tovarlari va xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish, ularga arzon baholi, yuqori sifatli iste'molbop, raqobatdarbosh tovar va xizmatlar taklifi ko'lamenti kengaytirish asosida bozorning kerakli tovar va xizmatlar bilan to'ldirilishni ta'minlashni amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihasining xizmati va ta'siri aynan ijtimoiy tahlil va baholash asosida o'rganiladi va aniqlanadi.

Ijtimoiy tahlil barcha tavsif va xususiyatlarini umumlashtiruvchi ijtimoiy samarani darajasi va ko'lами mikrodarajadan to makrodarajagacha bo'lgan saviyada ainqlash maqsadida xizmat qiladi va amalga oshiriladi.

Loyihaning taklif etilayotgan u yoki bu variantini aholining maqsad tutilgan guruhi manfaati nuqtai nazaridan talabga javob berishi yoki bermasligini aniqlash ijtimoiy tahlilning vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy tahlil loyiha va u yo'naltirilgan ijtimoiy guruhning o'zaro muvofiq, kelishini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni taklif etadi. Shuningdek, ijtimoiy tahlil aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan hamda jamoatchilik fikri va qarashlaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirish yo'li bilan loyiha maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan loyiha strategiyasini belgilaydi.

Ijtimoiy tahlil qilinmagan loyiha mazmuniga uni ishlab chiqaruvchilarning madaniy qarashlari loyiha mo'ljallangan kishilarning madaniy qarashlarga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy tahlil qilinmagan loyiha mazmuniga uni ishlab chiqaruvchilarning madaniy qarashlari loyiha mo'ljallangan kishilarning madaniy qarashlariga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tahlil loyiha tahlilining boshqa turlari bilan birga o'tkazilishi kerak. Loyiha tahlilining boshqa turlari singari ijtimoiy tahlil ham loyiha oldi bosqichida boshlanib, loyiha davrining keyingi har bir bosqichida davom etishi kerak.

Ijtimoiy tahlil to'rt asosiy sohaga e'tiborni jamlaydi. Bular:

1. Loyihaga ta'sir ko'rsatadigan aholining ijtimoiy-madaniy tavsifi, miqdoriy tavsifi va ijtimoiy tuzilmasi bo'yicha tahlil.
2. Loyiha amal qiladigan hududdagi aholi tomonidan ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, shu jumladan, oilalar, uy xo'jaliklari tuzilmasi, ishchi kuchining mavjudliliqi, yerga egalik qilish shakllari, resurslardan foydalanish imkoniyati va ulardan foydalanishni tartibga solish masalalari tahlili.
3. Loyihaning mahalliy madaniyat nuqtai nazaridan talabga javob berishi, xususiy loyihaning mavjud ijtimoiy me'yorlarga moslashuvchanligi, kishilarning qarashlarida, o'z extiyojlarini anglashlarida zarur o'zgarishlar yasashga qobilligi.

4. Loyihadan uni amalga oshiruvchi tashkilot hamda mahalliy aholi manfaatdorligini ta'minlash strategiyasi. Bundan maqsad aholi va tashkilotlarning loyihaning barcha bosqichlarida uzluksiz ishtirokini ta'minlashdir.

Ijtimoiy tahlilning birinchi bosqichi loyiha yo'naltirilgan aholi guruhi, uning miqdori va tarkibini aniqlashdan iborat.

Loyiha yo'naltirilgan aholining turmush tarzi ko'pincha uni ishlab chiquvchi kishilarining turmush tarzidan farq qiladi. Shu tufayli rejalashtirish jarayonlariga mahalliy aholi jalb etilmasa, loyiha mahalliy sharoitga mos kelmasligi mumkin. Mahalliy sharoitlarni bilmaslik, bu to'g'rida bir guruh shaxslar, xususan, rahbarlarning fikriga ko'ra ish yuritish aholi ko'pchilik tabaqalari qarashlarining e'tiboridan chetda qolishiga olib keladi.

Shahar hamda qishloq joylaridagi oilaviy xo'jaliklar tarkibi to'g'risida to'g'ri tasavvurga erishish ham katta kuch talab etadi. Shahar joylari uchun mo'ljallangan ayrim loyihalarda bu yerlarda oila a'zolari qishloq joylarida muhim rol o'ynovchi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidan butunlay aloqasini uzgan deb qaralgan. Aslida kam ta'minlangan shahar oilasi tez o'zgarib turuvchi ijtimoiy kuch hisoblanadi. Iqtisodiy va siyosiy sharoitlar o'zgarishi ta'sirida bu oila bolalari bir uy xo'jaligidan boshqasiga o'tib turadilar, boshqa bir a'zolari esa boyroq qarindoshlarinikiga ko'chib o'tadilar. Bunday o'zgarishlar oila a'zolari sonining o'zgarib turishiga moslasha oladigan uy-joy maydonini talab etadi.

Ko'pchilik shahar oilalari o'z daromadlarining kattagina qismini qarindoshlaridan yordam tariqasida oladilar. Shunday yo'l bilan ijtimoiy ximoya tizimi yaratiladi va minimal zarur iste'mol darajasi ta'minlab turiladi. Uy-joy qurilishini loyihalashtirilganda bu jihatlar e'tiborga olinishi kerak. Agar loyiha aholini ko'chirishni ko'zda tutsa, ijtimoiy madaniyati va demografik xususiyatlarni e'tiborga olishi zarur. Majburiy ko'chirish o'ziga xos ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. U ojizlik, begonalik tuyg'ularini tug'diradi hamda ijtimoiy birdamlik va guruh ishlab chiqarish potentsiali pasayishiga olib keladi.

Ko'chirish dasturlari uy joy bilan ta'minlash, tovon puli to'lash, ishga joylashtirish tadbirlari bilan bir qatorda, kishilarga ularning turmush darajalari yaxshilanishini kafolatlashi kerak.

Ko'p hollarda loyiha ta'sir ko'rsatadigan aholi, ayniqsa qishloq joylarida resurslar va mavjud cheklowlarni hisobga olgan holda uyushgan bo'ladilar. Bunda mulk huquqi, er-suv hamda ulardan foydalanish huquqlari muhim ahamiyatga ega. Uyushmalarni boshqa bir tashkiliy elementi resurslarni birgalikda va individual boshqarish usullari, kapitalga ega bo'lish harakteri, ishchi kuchini mavsumiy taklif etish, mehnat taqsimoti, rag'batlantirish tizimi, mahalliy ishlab chiqarish uyushmalarining tiplari, savdo va hukumat muassasalari bilan o'zaro munosabatlar hisoblanadi. Bir qancha kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan bu tashkiliy elementlarni doimo hisobga olib borish kerak, chunki ular loyiha tuzish uchun asos bo'ladi.

Ko'p sonli aholiga ta'sir etuvchi loyihalar muvafaqqiyatli bo'lishi uchun ularning ko'pchiligi loyiha maqsadini tushunishlari va uni qo'llab-quvvatlashlari kerak. Shu tufayli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida mahalliy qadriyatlar tizimini, urf-odatlar, an'analar, aniqlangan ehtiyojlar va maqsadlarni hisobga olish zarur.

Milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan samarali bo'lgan loyihalar maqsadi mahalliy aholi uchun tushunarsiz yoki ular fikriga ko'ra, ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Oqibatda loyihalar mahalliy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi.

Ijtimoiy tahlil mahalliy sharoitlarga asoslangan holda loyiha vazifalari va umumiy maqsadlarni mahalliy aholining individual maqsadlari bilan bog'lash yo'llarini ko'rsatib beradi. Oilani rejalashtirish masalasida ham mahalliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari loyiha maqsadiga yoki umumiy maqsadlarga erishishga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy muammolar loyiha davrining turli bosqichlarida yuzaga chiqadi. Loyerha nafaqat salbiy oqibatlarning oldini olish uchun, shuningdek, ijtimoiy o'zgarishlarni boshlash maqsadida kishilar kuch-g'ayratlarini safarbar etishi uchun ham aholi urf-odatlari, an'analariga moslangan bo'lishi kerak. Ko'pgina ijtimoiy

muammolarni aniqlab, mohiyatiga etishning o'ziyoq ularning loyihaga salbiy ta'sirini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Professional tayyorgarlik va ijtimoiy tahlil tajribasi potentsial ijtimoiy muammolarni aniqlash uchun o'ta zarur. Shu sababli loyiha tahlilida sotsiolog, antropolog kabi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash kerak. Turli qishloq xo'jaligi muassasalarining chorvachilik bo'limlarida chorva bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bo'lgani holda chorvani etishtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning yo'qligi ko'pgina mamlakatlarda chorvachilik loyihalari samaradorligining pastligi sabablaridan biridir.

Loyihani samarali ishlab chiqish va amalga oshirish quyidan mahalliy axoli ishtiroki va yuqoridan hukumat tomonidan rahbarlik qilinishini talab etadi. Muvaffaqqiyatlari va iqtisodiy samarali loyihalar kishilarni o'zlarining bir yoki bir necha maqsadlariga erishish yo'lida safarbar etadi va ularni o'z kuchlariga tayanishga o'rgatadi. Rivojlantirish loyihalarida ko'pincha bir-biriga zid keluvchi va o'zaro bog'langan bu ikki shart bir vaqtda bajarilishi kerak.

Ijtimoiy tahlil ular o'rtaida muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy tahlil boshqa loyihalar samarasiga, mutaxassislar tajribasi va malakasiga tayangan holda kishilarning ehtimol bo'lgan hatti-harakatlarini ob'ektiv baholash orqali loyihalarni ishlab chiqishni takomillashtirish va amalga oshirishga yordam beradi.

5.2. Investitsiya loyihalarini ekologik ekspertizadan o'tkazishning mazmun-mohiyati va zarurligi

Hozirgi davr fan-texnika taraqqiyotining jadallahishi va insonning tabiatga ta'siri kuchayganligi bilan ajralib turadi. Bu holatni hisobga olgan holda mikro va makro ko'lamda tuzilayotgan loyihalardan har birining ekologik muvozanatga ta'siri mustaqil ekologik ekspertlar tomonidan baholanishi shart. Agar tijorat loyihalari ekologik muvozanatga salbiy ta'sir etsa, bunday loyihalar moliyalashtirilmaydi. Shu bilan birga davlat tomonidan ekologiyani

yaxshilashga qaratilgan notijorat loyihalari ishlab chiqiladi. Bunday loyihalarning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki ekologik muvozanatni barqarorlashtirish va aholining salomatligini mustahkamlashdan iborat.

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi atrof-muhit havosi zararli chiqindilar bilan ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda bu salbiy natijalarni samara natijalari bilan taqqoslash va bu nisbatni chuqur tahlil qilish zarur.

Ekologik tahlilning asosiy vazifasi loyiha natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potentsial zaramni oldindan belgilash va uning ta'sirini yumshatish yoki batamom tugatish yo'llarini topishdir. Bu jarayon loyihada ko'zda tutilgan natjalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi kerak emas. Tashqi muhit «tabiiy kapital bo'lib», u iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi. Noto'g'ri rejalarashtirilgan loyihalar esa uning buzilishiga, milliy kapitalning emirilishiga olib kelishi mumkin.

Ekologik boshqarishning vazifasi aholining tabiiy ta'sirlarga bo'lgan talabi bilan atrof-muhitning shu talabni qondira olish imkoniyatlari orasidagi muvozanatni (balansni) topishdan iborat. Loyihalarni amalga oshirish «ekologik sig'im» potentsialini kamaytirishi kerak emas. Loyihalarni amalga oshirishdan oldin ularning atrof-muhitga muxim ta'sirlarini belgilash, loyihalar ta'siri asosida muhit buzilib ketgandan keyin uni o'z holiga keltirishdan afzalroqdir.

Shuning uchun har qanday loyihaning ekotizimga keltiradigan salbiy oqibatlarini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Agar loyiha ekotizimga me'yordan yuqori salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, uni yangidan ko'rib chiqish, shundan keyin ham vaziyat o'zgarmasa, undan voz kechish zarur. Ekotizim bitta davlat hududidagi muammo emas, balki uning o'zgarishi butun yer shariga ta'sir ko'rsatadi, jumladan, Orol muammosi. Shuning uchun ekotizim tahlil qilinganda bir mamlakat manfaatlaridangina kelib chiqish kerak emas.

Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini ko'zlash loyiha-smeta xarajatlarida o'z aksini topadi. Iqtisodiy rivojlanish muammolarini insonlar tomonidan ilmiy o'rganish kuchayishi bilan loyihalarning ekotizimga ta'sirini juda bo'limganda minimal xavfsizlik me'yori darajasiga tushirish imkonи paydo

bo'ladi. Bu me'yorlarga inson salomatligiga bo'lgan xavf darajasi, atrof-muhitga zararli moddalarni chiqarish me'yorlari va boshqalar misol bo'ladi. Loyihalar ekotizimni muhofaza qilish bo'yicha chet el mamlakatlari bilan tuzilgan shartnomalar buzilishiga olib kelishi kerak emas.

Ayrim hollarda loyiha ta'sirida ekologik holat salbiy tomonga qarab o'zgarishi va bunga ruxsat berilishi ham mumkin. Misol uchun, aholi joylashgan joy yaqiniga temir yo'l qurish loyihalashtirilsa va bu loyiha amalga oshsa, shovqin ko'payadi hamda bu aholi yashash tarziga salbiy ta'sir etishi mumkin. Loyihada bu salbiy ta'sirni bartaraf qilish yo'llari bo'lishi kerak. Buning uchun aholini boshqa joyga ko'chirish yoki shovqinni kamaytiradigan moslamalarni uylarga o'rnatish kerak. Bu, albatta, qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Undan tashqari ayrim vaqtarda aholini kompensatsiya berish yo'li bilan ham rozi qilish mumkin. Misol uchun, elektrostantsiya qurish loyihasi amalga oshirilsa, korxona egalari atrofda yashovchi aholiga elektroenergiyani tekinga berishni o'z bo'yniga oladi.

Ekologik ta'sirni bartaraf qilish muammosi investitsiya oldi bosqichida hal qilinishi kerak, shunda bu jarayonga qilinadigan xarajatlar eng kam miqdorda bo'ladi. Umuman, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish xarajatlarida atrof-muhitni himoya qilish xarajatlari taxminan 5% ini tashkil etadi.

Ekologik loyihalar xarajatini umumiy loyihadan foyda ko'radigan shaxslar qoplashi kerak. Agar loyiha davlat tomonidan amalga oshirilsa, xarajatlar manbai davlat byudjeti hisoblanadi. Lekin masalaga bunday yondashuvning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Misol uchun, pirovardida ekologik loyiha tufayli kim manfaatdor ekanligini aniqlash juda qiyin, undan tashqari loyihaning maqsadi yo'qotilgan yoki buzilgan ekologik elementlarni tiklash yoki xavf oldini olish bo'lishi mumkin. Bunda yutuq to'g'risida fikr yuritilmaydi. Agar metallurgiya kombinati atrof-muhitni bo'lg'ayotgan bo'lsa, ekologik xavfni bartaraf qilish xarajatlarini o'z bo'yniga olishi kerak. Sel xavfidan saqlanish uchun kanal qurilishi xarajatlarining manbai davlat byudjetidir.

Atrof-muhitni ifloslanishdan asrash uchun kurash ruxsatnomalar va litsenziyalar olish tartibini joriy etish yo'li bilan ham amalga oshiriladi.

Korxonalar tashqi muhitga ma'lum miqdorda zararli moddalar chiqarishi uchun litsenziya oladilar. Buning uchun zaharli moddalarni atmosferaga chiqarish, vaqt birligida suvlarga oqavalarni tashlash me'yorlarini vujudga keltirish zarur. Bu me'yorlar hamma turdag'i korxonalar uchun umumiyligini qilib tuzilganligi uchun ham yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun tajribada har xil sohadagi korxonalar uchun alohida me'yorlar belgilanadi. Individual me'yorlar korxona joylashgangan joyga qarab o'zgarishi mumkin. Tadbirlardan yana biri atrof-muhitning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan korxonalarga jarima solish hisoblanadi. Jarimalar tizimini puxta o'ylab vujudga keltirish atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlab qoladi.

Jahon banki tomonidan amalga oshiriladigan loyihamalar asosan individual me'yorlarga asoslangan. Ayrim mamlakatlar tajribasida me'yordan yuqori bo'lgan chiqindilar savdo-sotig'i amalga oshiriladi. Misol uchun, shaharlarda havoga zaharli moddalar chiqarishni kamaytirishda ana shunday tadbir qo'llaniladi va bu ijobiy natijaga olib kelgan. Shaharlarda joylashgan korxonalarga havoga ma'lum miqdorda (shaharni o'rtacha ifloslash darajasiga unchalik ta'sir etmaydigan miqdorda) zaharli moddalar chiqarish uchun ruxsat berilgan. Aytaylik, yo bir korxona yangi texnologiya joriy qilish yo'li bilan havoga zaharli moddalar chiqarishni ma'lum miqdorda kamaytirdi. Qolgan korxonalar bu korxonadan ortiqcha chiqarilgan zaharli moddalarni sotib olishlari kerak. Bunday hol boshqa korxonalarni ham yangi, ilg'or texnologiyalarni tadbiq qilishga undaydi.

5.3. Investitsiya loyihamalarini ekologik ekspertizadan o'tkazishning me'yoriy-huquqiy asoslari


O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza to'g'risida”gi Qonuniga ko'ra Ekologik ekspertiza deganda rejorashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning

ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza ob'ektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi.

Ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- mo'ljallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror kabul qilinishidan oldingi bosqichlarida bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa yoki shunday ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalananish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning etarliligi va asoslilagini aniqlash.

Ekologik ekspertiza davlat va jamoat ekologik ekspertizasi, shuningdek ekologik audit tarzida amalga oshiriladi. 5.1- rasm.



5.1- rasm. Ekologik ekspertiza turlari¹⁸

Ekologik ekspertiza buyurtmachilarini uni o'tkazish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon berishlari mumkin. Bunday holda ekologik ekspertiza tugallangan kundan boshlab bir oy ichida uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi.

Davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida berilishi shart bo'lgan ob'ektlarning ro'yxati qonun hujatlari bilan belgilab qo'yiladi.

¹⁸ "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunga ko'ra muallif tomonidan shakillantirildi.

Davlat ekologik ekspertizasini va ekologik auditni moliyalash buyurtmachining mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jamoat ekologik ekspertizasini moliyalash nodavlat notijorat tashkilotlarining yoki fuqarolarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat ekologik ekspertizasi ob'ektlari quyidagilardan iborat:

- davlat dasturlarining, kontseptsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihalari;

- barcha turdag'i qurilishlar uchun er uchastkalarini ajratish materiallari;

- loyihaoldi va loyiha hujjatlari;

- tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq, xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo'riqnomा-uslubiy hujjatlarning loyihalari;

- texnika, texnologiya, materiallar, moddalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar;

- atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa ob'ektlar;

- keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik vaziyat va ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida o'tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari;

- shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari;

- maxsus huquqiy rejimli ob'ektlar.

Davlat ekologik ekspertizasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi:

- davlat ekologik ekspertizasini tashkil etadi va o'tkazadi;

- davlat hamda jamoat ekologik ekspertizasi, shuningdek ekologik audit bo'yicha normativ-texnik va yo'riqnomalar uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- davlat ekologik ekspertizasini o'tkazishga ekspertlar va mutaxassislarini jalb etadi;
- davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini ololmagan ob'ektlarga nisbatan moliyalash, kreditlash va boshqa moliya operatsiyalarini to'xtatib turish (tugatish) to'g'risidagi taqdimnomalarni bank va boshqa kredit tashkilotlariga yuboradi;
- davlat ekologik ekspertizasi xulosalarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- ekologik ekspertiza o'tkazish masalalari yuzasidan boshqa davlatlarning tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat ekologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining ixtisoslashgan ekspert bo'linmalari tomonidan o'tkaziladi.

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazishda:

- taqdim etilgan materiallarning tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun xujjatlariga muvofiqligi tekshiriladi;
- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik va ijtimoiy oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riliği va to'liqligi tahlil qilinadi;
- biologik, kimyoviy moddalar va texnologiyalarning atrof tabiiy muhitga ta'sirini baholashning asosliligi tekshiriladi;

- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish oqibatlarining ekologik xavfliligi darajasini baholashning to'g'riliqi tekshiriladi;
- ekologik xavfsizlik talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarning etarlligi va asosliligi aniqlanadi;
- ekologik normativlar loyihalarining asosliligi tekshiriladi.

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish muddati o'ttiz kundan oshmasligi lozim. Uni o'tkazish muddati davlat ekologik ekspertizasi ob'ektining murakkabligiga qarab O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi tomonidan ko'pi bilan ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Davlat ekologik ekspertizasi ob'ektining ekologik talablarga muvofiqligi xususida davlat ekologik ekspertizasining bergen xulosasi berilgan kundan e'tiboran uch yil mobaynida yuridik kuchga ega bo'ladi.

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosa tuzilib, u davlat ekologik ekspertizasi ob'ektini ro'yobga chiqarish mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi yakunlarni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi davlat ekologik ekspertizasi ob'ektini moliyalash va ro'yobga chiqarishda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lmay turib, loyihalarning bank va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan moliyanishi, shuningdek ularning ro'yobga chiqarilishi taqiqlanadi.

Davlat ekologik ekspertizasining davlat ekologik ekspertizasi ob'ektini ro'yobga chiqarish mumkin emasligi to'g'risidagi xulosasi bo'lgan taqdirda, buyurtmachi xulosadagi mavjud takliflarga muvofiq loyiha maromiga etkazilishini ta'minlashi hamda materiallarni davlat ekologik ekspertizasi uchun qayta taqdim etishi yoxud rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatdan voz kechishi shart.

Jamoat ekologik ekspertizasi ekologik asoslanishi taqozo etiladigan har qanday faoliyat sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning

tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirishga to'sqinlik qilish taqiqlanadi.

Jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilishidan qati nazar amalga oshirilishi mumkin. Jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

Ekologik audit — ekologik auditorlar (firmalar) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda o'tkaziladigan, atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa ob'ektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishdir.

Ekologik audit xo'jalik va boshqa xil faoliyat ob'ekti mulkdorining qaroriga binoan o'tkaziladi.

Banklarda ham investitsiya loyihalari ekspertiza qilinadi, agar loyihani moliyalashtirish uchun bank kreditlariga zarurat tug'ilganda.

Loyihani amalga oshirish strategiyasini dastlabki baholash ijobiy bo'lganda, bank boshqaruving qaroriga asosan, bank mutaxassisi (loyiha menejeri) kerakli mutaxassislarni jalb qilgan holda loyihani ekspertiza qilishga kirishadi.

Ekspertiza natijasida loyiha menedjeri loyiha bo'yicha barcha hujjatlarni va loyiha joylashishi kerak bo'lgan joyni borib o'rgangan holda quyidagilarni o'rganib chiqishi kerak:

- loyihaning moliyaviy jihatlari (loyiha qiymati, moliyalashtirish manbalari, rentabelligi, naqd pul oqimi, shu jumladan, erkin konvertirlanadigan valyutada, korxonaning moliyaviy holati va balans hisobotlarining kelgusidagi prognozi);

- loyihaning texnik jihatlari (qurilishga tayyorgarlik, uskunalarni olib kelish va loyiha smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda qurilish-montaj ishlarini olib borish uchun shartnomalarning mavjudligi va boshqalar);

- loyihaning marketing jihatlari (tayyor mahsulotni sotish, yig'uvchi materiallar va xom ashyoning mavjudligi, texnologik uskunalarning raqobatbardoshligi va marketingning boshqa jihatlari);

- loyiha yuridik jihatlari (qarz oluvchining, loyiha boshqa qatnashchilarining yuridik statusi, barcha tuzilgan shartnomalar, kontrakt, ta'sis hujjatlarining qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga to'g'ri kelishi);
- loyihaning iqtisodiy jihatlari (loyihani amalga oshirishdan keladigan foyda va zararlar, loyihaning sof keltirilgan qimmati va boshqa jihatlari);
- loyihaning instituttsional jihatlari (loyihani amalga oshiruvchilarining professional tayyorgarlik darajasi, xodimlarni o'qitish va boshqalar);

Loyiha menejeri yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha jabhalarni ekspertiza qilgandan so'ng quyidagi qarorga kelishi kerak bo'ladi: loyihani ma'qullah va kerakli summani kredit tariqasida berish to'g'risida ijobjiy xulosa berish; loyihaning kerakli hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va undan keyin loyihani qayta ekspertiza qilish uchun taqdim etish; loyihani texnik-iqtisodiy asoslashda ko'rsatilgan tadbirlar bo'yicha loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa berish.

Tijorat banklarida investitsiya loyihalari ekspertizasi ijobjiy bo'lganda, loyihani moliyalashtirish uchun kredit berishga kredit qo'mitasi qarori asosida rozilik beriladi.

Ekologik tahlilning asosiy vazifasi loyiha natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potentsial zararni oldindan belgilash va uning ta'sirini yumshatish yoki batamom tugatish yo'llarini topishdir. Bu jarayon loyihada ko'zda tutilgan natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi kerak emas. Tashqi muhit bu «tabiiy kapital bo'lib», u iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi. Noto'g'ri rejalashtirilgan loyihalar esa uning buzilishiga, milliy kapitalni emirilishiga olib kelishi mumkin.

Ekologik boshqarishning vazifasi aholining tabiiy ta'sirlarga bo'lgan talabi bilan atrof-muhitning shu talabni qondira olish imkoniyatlari orasidagi muvozanatni (balansni) topishdan iboratdir.

Loyihalarni amalga oshirish “ekologik sig'im” potentsialini kamaytirishi kerak emas.

Loyihalarni realizatsiya qilishdan oldin ularning atrof-muhitga muhim ta'sirlarni belgilash, loyihalar ta'siri asosida muhit buzilib ketgandan keyin uni o'z

holiga keltirishdan afzalroqdir. Shuning uchun har qanday loyihaning ekosistemaga keltiradigan salbiy oqibatlarni chuqur tahlil qilishni talab etiladi. Agar loyiha ekosistemaga me'yordan yuqori salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa uni yangidan ko'rib chiqish, shundan keyin ham vaziyat o'zgarmasa undan voz kechish zarur. Ekosistema bu bitta davlat hududidagi muammo emas, balki uni o'zgarishi butun er shariga ta'sir ko'rsatadi (masalan, Orol muammosi). Shuning uchun ekosistemi tahlil qilinganda mamlakat manfaatlaridangina kelib chiqish kerak emas.

Kontsessiyalar loyihalarning ekologik ekspertizasida muhim o'rinni egallaydi. Kontsessiyalar tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalarni olishni anglaadi. Chet ellik investorlarga tabiiy resurslarni qidirish, qazib olish va ulardan foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini yuritish uchun kontsessiyalar berish chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzadigan kontsessiya shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Kontsessiyalarga, agar ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lsa va tuziladigan kontsessiya shartnomalarining maqsadlariga javob bersa, faoliyatning barcha sohalari va turlarida yo'l qo'yiladi.

2018 yil 22 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 949-soni Qarori qabul qilingan.

Ushbu Qarorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 13 iyuldagи PQ-3852-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar va yuqori darajada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish maqsadida

1. Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizom;

2. Davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladigan faoliyat turlarining ro'yxati tasdiqlangan.

Davlat ekologiya qo'mitasining quyidagi ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalari davlat ekologik ekspertizasini o'tkazadi:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining «Davlat ekologik ekspertizasi markazi» davlat unitar korxonasi (keyingi o'rnlarda «Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK deb ataladi);

«Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat ekologik ekspertizasi markazi» davlat unitar korxonasi;

viloyatlar va Toshkent shahar «Davlat ekologik ekspertizasi markazi» davlat unitar korxonalarini.

Davlat ekologiya qo'mitasi davlat ekologik ekspertizasining yagona tizimini tashkil etuvchi ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalariga uslubiy rahbarlik qiladi.

«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK quyidagi ob'ektlar bo'yicha:

- atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni baholash — loyihaoldi va loyiha hujjatlarini, kengaytirilishi, rekonstruktsiya qilishini va texnik qayta jihozlanishi lozim bo'lgan ishlab turgan korxonalar va boshqa ob'ektlar yoki atrof-muhitning holatiga va fuqarolar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan texnologik jarayonni o'zgartirishlarni, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I va II toifasiga kiradigan faoliyat turlari bo'yicha maxsus huquqiy rejimga ega ob'ektlarni (yuqori va o'rtacha darajada xavfli);

- I toifaga kiradigan (yuqori darajada xavfli) atmosferaga chiqariladigan tashlamalarning, er usti suv oqimlari yoki joy relefiga ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarini oqizishning, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining hosil bo'lishi hamda ularni joylashtirishning yo'l qo'yiladigan cheklangan ekologik normativlari loyihalari;

- hududlarga muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik vaziyat hamda ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida ularni kompleks tekshirish materiallarini;

- texnika, texnologiya, materiallar, moddalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlarni;
- davlat dasturlari va kontseptsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihamalarini;
- aholisi soni 50 ming kishidan ortiq bo'lgan loyihalashtiriladigan ob'ektlarning shaharsozlik hujjatlarini;
- tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo'riqnomma-uslubiy hujjatlar (texnik reglamentlar yoki standartlar, ekologik normativlar, qoidalar, yo'riqnomalar) loyihamalarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazadi.

Davlat ekologiya qo'mitasining ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalari ko'rib chiqiladigan ob'ektning o'ziga xosligi va murakkabligiga qarab, davlat ekologik ekspertizasi uchun bitta yoki bir guruh malakali mutaxassislar va olimlarni, zarur bo'lganda, xulosalari tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan xorijiy ekspertlarni shartnomaga asosida jalb etishi mumkin. Davlat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish tartibi 5.1-jadvalda keltirilgan

5.1-jadval

Davlat ekologik ekspertizasini (DEE) tashkil etish va o'tkazish tartibi¹⁹

T/r	Davlat ekologik ekspertizasining ob'ektlari	DEEga taqdim etiladigan materiallar	DEE o'tkazuvchi organ	DEE o'tkazish uchun haq to'lash miqdori
1.	Ijtimoiy sohani, rivojlantirish davlat dasturlari, kontseptsiyalarini va sxemalarining, shuningdek, davlat tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejalarining loyihamalari	Ishlab chiqilgan hujjatlar	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK	Mazkur toifadagi loyihamalar DEEdan bepul o'tkaziladi
2.	Ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish kontseptsiyalarini, sxemalarining loyihamalari	Ishlab chiqilgan hujjatlar	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK	Eng kam oylik ish haqining 70 baravari miqdorida
3.	Barcha turdag'i qurilish uchun er uchastkalarini tanlash materiallari	Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi tarkibida ko'rib chiqiladigan ishlab chiqilgan hujjatlar (ATTA)	O'z toifalariga muvofiq davlat ekologik ekspertiza markazlari	Er uchastkasini tanlash materiallari ko'rib chiqilganligi uchun alohida haq undirilmaydi
4.	Faoliyat turlari bo'yicha loyihaoldi va loyiha hujjatlari: attrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasi (yuqori daraja xavfli);	Atrof-muhitga ta'sirni baholash (ATB)	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK	Eng kam oylik ish haqining 25 baravari miqdorida

¹⁹ Vazirlar Mahkamasining “Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi, 949-soni Qarori.

	atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasi (o'rtacha darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifasi (past darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifasi (mahalliy ta'sir ko'rsatish).	ATB ATB ATT loyihasi	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK DEE hududiy organlari DEE hududiy organlari	Eng kam oylik ish haqining 15 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 7,5 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 0,5 baravari miqdorida
5.	Tabiy resurslardan foydalanimish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo'riqnomalar uslubiy hujjatlarning loyihalari	Ishlab chiqilgan hujjatlar	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK	Tegishli toifadagi ob'ektini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish uchun to'lanadigan haqning 30 foizi miqdorida
6.	Texnika, texnologiya, materiallar, moddalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishgaga doir hujjatlar	Ishlab chiqilgan hujjatlar	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK	Eng kam oylik ish haqining 30 baravari miqdorida
7.	Atrof tabiiy muhitga va fuqarolarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa ob'ektlar: atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasi (yuqori darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasi (o'rtacha darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifasi (past darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifasi (mahalliy ta'sir ko'rsatish).	Ekologik normativlar loyihalari; ATT (ob'ektning atrof-muhitga va fuqarolar sog'ligiga ta'sir ko'rsatish holati aniqlanganda) Ekologik normativlar loyihalari; ATT (ob'ektning atrof-muhitga va fuqarolar sog'ligiga ta'sir ko'rsatish holati aniqlanganda) Ekologik normativlar loyihalari; ATT (ob'ektning atrof-muhitga va fuqarolar sog'ligiga ta'sir ko'rsatish holati aniqlanganda) Ekologik normativlar loyihalari; ATT (ob'ektning atrof-muhitga va fuqarolar sog'ligiga ta'sir ko'rsatish holati aniqlanganda)	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK DEE hududiy organlari «Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK DEE hududiy organlari DEE hududiy organlari	Eng kam oylik ish haqining 25 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 15 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 7,5 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 0,5 baravari miqdorida
8.	Hududlarga keyinchalik muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik vaziyat va ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida ularni kompleks tekshirish materiallari	Ishlab chiqilgan hujjatlar	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK	Eng kam oylik ish haqining 70 baravari miqdorida
9.	Shaharsozlik hujjatlar: 50 mingdan ortiq kishi istiqomat qilishi loyihalashtirilayotgan ob'ektlar uchun 50 ming va undan kam aholi istiqomat qilishi loyihalashtirilayotgan ob'ektlar uchun	ATB ATB	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK DEE hududiy organlari	Eng kam oylik ish haqining 70 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 25 baravari miqdorida
10.	Faoliyat turlari bo'yicha maxsus huquqiy rejimli ob'ektlar: atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasi (yuqori darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasi (o'rtacha xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifasi (past darajada xavfli); atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifasi (mahalliy ta'sir ko'rsatish).	ATB ATB ATB ATT	«Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK «Davlat ekologik ekspertizasi markazi» DUK DEE hududiy organlari DEE hududiy organlari	Eng kam oylik ish haqining 25 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 15 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 7,5 baravari miqdorida Eng kam oylik ish haqining 0,5 baravari miqdorida

Davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladigan faoliyat atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga qarab 4 ta toifaga bo'linadi. Ular:

- I toifa (yuqori darajada xavfli) faoliyat turlari;

- II toifa (o'rtacha darajada xavfli) faoliyat turlari;
- III toifa (past darajada xavfli) faoliyat turlari;
- IV toifa (mahalliy ta'sir ko'rsatish) faoliyat turlari.

Nazorat savollari:


1. Ijtimoiy tahlilning mohiyati tushuntirib bering.
2. Ijtimoiy tahlilning vazifasini aytинг.
3. Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdan maqsad nimada?
4. Loyihalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda gendr bo'yicha ishtirokini ta'minlash.
5. Loyihalardan ijtimoiy manfaatdorlik deganda nima tushuniladi?
6. Loyihalarda moddiy manfaatdorlikni ta'minlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur?
7. Loyihalarni ijtimoiy tahlil qilishda mutaxassislar masalasi.
8. Investitsiya loyihalarining ekologik ekspertizasi deganda nimani tushunasiz?
9. Ekologik tahlil qilishdan maqsad.
10. Ekologik tahlilning vazifasini nimadan iborat?
11. Ekologik boshqarish deganda nima tushuniladi?
12. Loyihalarning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish yo'llari qanday?
13. Ekologik ekspertizaga doir qanday me'yoriy hujjatlar mavjud?
14. Ekologik ekspertizaning turlarini sanab o'ting.
15. Ekologik loyihalar xarajatlarini qoplash manbalariga izoh bering.

VI-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI QATNASHCHILARINING INSTITUTSIONAL TAHLLILI

6.1. Investitsiya loyihalarida institutsional tahlilning ahamiyati

“Institutsional” termini g’arbda 1980 yillardan boshlab ishlatila boshlandi. Undan avval esa “tashkiliy” tahlil va rivojlantirish termidan foydalanilgan. Hozirgi kunda esa, ushbu terminlar sinonim sifatida qo’llaniladi.

Institutsional tahlil investitsiya loyihasining tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma’muriy holatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlarini baholaydi. Institutsional tahlil loyihaga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning o’zaro bog’liqligini ko’rib chiqishni nazarda tutadi 6.1- rasm.



6.1-rasm. Loyihaning institutsional tahliliga ta’sir etuv omillar²⁰

Ichki omillarni baholash odatda quyidagi yo’l orqali amalga oshiriladi:

²⁰ Л.М.Теслюк, А.В.Румянцева. Оценка эффективности инвестиционного проекта. Учебное пособие. Учебное электронное текстовое издание Екатеринбург 2014. Стр.-74.

1. Ishlab chiqarish menejment imkoniyatlari tahlili. Bunda korxona menejerining ko'nikma va malaka darajasi, loyiha doirasida ularni rag'batlantirish darajasi (masalan, ko'rilgan daromaddan ulush ko'rinishida), loyiha maqsadi bilan menejerning mosligi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

2. Ishchi kuchi tahlili. Loyihani amalga oshirish maqsadida jalg qilinayotgan ishchi kuchi, loyihada foydalanilishi ko'zda tutilayotgan texnologiyani ishlata olishi kerak. Bu masala, ayniqsa korxona o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyadan foydalanishni rejalashtirigan bo'lsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ishchi kuchining malakasi va salohiyati ushbu zamonaviy texnika-texnologiyadan foydalanish uchun etishmasligi mumkin, ushbu xolat, esa ishchi kuchini malakasini oshirish yoki yangi ishchilarni jalg qilishni taqazo qiladi.

3. Tashkiliy tizimning tahlili. Bunda, korxonada qarorlarni qabul qilish va ularni bajarilishi yuzasidan javobgarlikni qanday taqsimlanayotganligini tahlil qilinishi shart.

Loyihaga ta'sir etuvchi tashqi omillar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Mamlakatning siyosati, ya'ni xorijiy strategik invesstorlar ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarga ustuvorlik qaratilishi:

- Xom ashyo va tovarlarning eksport va import qilish shartlari;
- Xorijiy investorlarga mablag'larni kiritish va tovarlarni eksport qilish uchun yaratilgan imkoniyatlar;
- Mehnat to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar;
- Moliya va bank faoliyatini tartibga soluvchi nizom va yo'riqnomalar.

2. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Institutsional tahlil loyiha ustida bajariladigan ishlarning eng muhim jihatlaridan biriga aylandi. Investitsiya loyihalari natijalari ko'p jihatdan tashkiliy struktura sifatiga ham bog'liq. Loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlarni o'rganish, ularning boshqaruv imkoniyatlarini, shuningdek markaziy hokimiyatning loyiha uchun mutasaddi bo'lgan tashkilotlarga yordam berishga qanchalik tayyor ekanliklarini baholashga imkon beradi. Yaxshi shakllanmagan, takomillashmagan boshqaruv strukturasiga, malakali mutaxassislarga, axborot tizimlariga va

hokazolarga ega bo'limgan tashkilotlar zimmasiga loyihalarni amalga oshirishni topshirish, yoki ular taklif etgan loyihalarni moliyalashtirish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin (yoki hech bo'limganda qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi).

Institutsional tahlil loyihalarni samarali amalga oshirish va eksplutatsiya qilishga, shuningdek mavjud tashkilotlarni mustahkamlash, malakali mutaxassislar bilan to'ldirishga ko'mak berishi lozim. Kuchli institutlarni tashkil etish loyihaga ko'ra foydalaniladigan milliy hamda xalqaro resurslarni muhofaza qilgan holda loyihalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Investitsiya loyihalarini institutsional tahlil (IT) dan maqsad loyiha amalga oshirilayotgan makondagi tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma'muriy vaziyat (muhit) ga baho berish hamda loyihaga jalb etilgan tashkilotlarning imkoniyatlarini mustahkamlash choratadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tavsiyalar quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- a) menejment uslublari va usullari, shu jumladan monitoring va baholash;
- b) tashkiliy struktura, undagi o'zgarishlar;
- v) rejorashtirish, shu jumladan investitsiyalarni joyrashtirishni rejorashtirish;
- g) xodimlar tarkibini to'ldirish va o'qitish (o'rgatish);
- d) moliyaviy faoliyat, shu jumladan moliyaviy faoliyatni boshqarish, smetalar tuzish, buxgalteriya hisobi va taftish;
- e) loyihalarni moddiy texnik ta'minoti;
- j) ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish tizimlari;
- z) tashkilotlararo muvofiqlashtirish;
- i) alohida sektorlarga nisbatan siyosat masalalari.

Bu vazifalar nafaqat loyihalarni realizatsiya va ekspluatatsiya qilayotgan tashkilotlarga, shuningdek loyiha muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hukumat va tarmoq strukturalariga, ya'ni vazirliklar, idoralar, banklar, tadqiqot muassasalariga ham tegishli.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda institutsional tahlilning muhim vazifalaridan biri eski davlat tashkilotlarini bozor iqtisodiyotidagi

boshqacharoq vazifalarni bajarishga moslashgan yangi tashkilotlarga, agentliklar va korxonalarga aylantirishni rejalashtirishdan iborat. Bu muammoning naqadar muhimligi bir qator mamlakatlarda ommaviy xususiylashtirish loyihalari amalga oshirish chog’ida yaqqol namoyon bo’ldi.

Iqtisodiyotni qayta qurish sharoitida loyihaga mutasaddi bo’lgan tashkilotlar uchun “mulkchilik” kontseptsiyasi o’ta muhim hisoblanadi. Loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlar uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi uchun mas’uliyatni o’z zimmalariga olgandagina bunday qayta qurishdan kutilgan ijobjiy natijaga erishilinadi. Mulk huquqi mutasaddi tashkilotlar menejerlari loyiha maqsadlarini anglashlarini va bu maqsadlarga erishish uchun zarur qaror qabul qilish vakolatiga ega ekanliklarini anglatadi. Bunday vaziyatda ularda ham shaxsiy manfaatdorlik, ham loyihaga rahbarlik qilish imkoniyati mavjud bo’ladi. Institutsional tahlilning kattagina qismi “mulkchilik” omili loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishga qanchalik ta’sir etishini aniqlashga qaratilgan

Investitsiya loyihalarini institutsional tahlil uchun konkret sharoitlarga tezda moslashtirsa bo’ladigan standart echimlar yoki modellar deyarli yo’q. Institutlarni rivojlantirish uzoq davom etuvchi eksperimentlar va adaptatsiya (moslashuv) jarayonlaridan iborat. Bu jarayonlar esa ko’pincha siyosiy va iqtisodiy vaziyatning salbiy o’zgarishlari tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Umuman olganda institutsional tahlilga quyidagi vazifalarni bajarish kiradi:

- loyiha amalga oshiriladigan institutsional shart-sharoitlarni (tashkilotlar, me’yoriy hujjatlar va siyosiy omillarni) aniqlash va tasvirlab berish;
- loyihada ishtirok etuvchi tashkilotlarni moddiy va mehnat resurslari, texnik malakasi, tashkiliy strukturasi, boshqaruva va ma’muriy imkoniyatlari, moliyaviy ahvoli nuqtai nazaridan kuchli va zaif tomonlarini baholash;
- qonunlar, siyosat va yo’riqnomalar o’zgarishining loyihani amalga oshirish va ekspluatatsiya qilishga (ayniqsa atrof-muhitni muhofaza qilish, ish haqi, baholar, subsidiyalar, tashqi savdo, valyuta kursi va hokazolarga) ehtimol bo’lgan ta’sirini baholash;

- loyihada qatnashuvchi tashkilotlarning zaif jihatlarini bartaraf qilishni muqobil yo'llarini hamda qonunlar, siyosat va yo'riqnomalarning loyihaga ko'rsatishi mumkin bo'lgan potentsial salbiy ta'siriga qarshi chora-tadbirlarni ilgari surish (tegishli takomillashtirish ishlari loyiha amalga oshirilayotgan va ekspluatatsiya qilinayotgan vaqtida hamda bundan oldin loyiha bo'yicha ish grafigiga ko'ra amalga oshiriladi);

- tavsiya qilinayotgan tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kerak bo'lishi mumkin bo'lgan texnik yordam bo'yicha takliflarni ilgari surish hamda zarur ishlarni o'tkazish grafigini ishlab chiqish.

Iqtisodiyotni qayta qurish jarayonida ikki muhim institutsional muammo kuzatiladi. Birinchidan, bu mavjud hukumat muassasalarini isloh qilish zarurati ikkinchidan, eski tuzumda mavjud bo'limgan yangi institutlarni tashkil etish. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida bank tizimi, birjalar va boshqa bir qator institutlar mavjud emas edi. Iqtisodiy islohotlar shubhasiz ishsizlik va boshqa ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Xususiy sektor va bandlikning boshqa muqobil sohalari ishga tushguniga qadar esa ancha uzilish yuzaga keladi. Shu tufayli o'tish davri iqtisodiyotida institutsional islohotlar ijtimoiy himoya tizimini yaratish bilan birga bormasa amalga oshirib bo'lmaydigan vazifaga aylanadi. Institutsional muammolarni xarakterlash uchun ko'pincha zarur echimlarni topishga halaqit beruvchi yuzaki atamalar qo'llaniladi. Masalan, qiyinchilikka uchragan loyiha haqida, uning "rahbarlari zaif" deyilsa, loyiha muvaffaqiyatini "loyihaning harakatchan menejeri" bilan bog'lashadi. Moliyaviy faoliyatni nazorat qilishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni esa ko'pincha buxgalteriyada personal kompyuterlarning yo'qligi bilan izohlashadi, xodimlar va ma'muriyatning qoniqarsiz ishi esa xodimlarda etarli malaka yo'q deb osongina izohlab qo'yiladi.

Ammo bu ko'rinish to'rgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha taklif qilingan qarorlar ko'pincha navbatdagi muammolar qatlmini aniqlashning ancha qimmat turadigan yo'lidir. Albatta yaxshi menejer kerak. Lekin menejerlar aslida ishga layoqatli bo'lsalaru bir-biriga zid talablarga duch kelishsa hamda bu ziddiyatni echish vakolatiga ega bo'lishmasa menejerlarni o'zgartirishdek ko'p vaqt talab

qiluvchi va qimmat turuvchi jarayon xech qanday ijobiy natija bermaydi. Shu singari haqiqiy muammo buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish emas, balki aniq axborotning kelib turishi bo'lsa kompyuter o'rnatish bilan masala echilib qolmaydi. Ko'pgina davlatlarda vazirliklardagi byudjet hisob kitoblarida personal kompyuterlarni qo'llash nafaqat axborotlarni qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish va tezligini oshirish tufayli, shuningdek vazirliklar rahbarlariga axborot tizimining o'zini o'zgartirish imkonini bergani uchun ham muvaffaqiyatli bo'ldi. Natijada hisobotlarni topshirish tartibi soddalashdi va shu qadar tezlashdiki, topshirish muddatlari hafta va oylar o'rniga kunlargacha qisqardi hamda turli xildagi va hajmdagi xarajatlar oqibatini ancha aniqroq baholash tizimini o'rnatishga erishildi.

Xuddi shuningdek ayrim hollarda xodimlar malakasining etishmasligi ularning qoniqarsiz ishlashining vazifalarini belgilash va stimullar tizimida anqlik etishmasligi, xizmatda ko'tarilish imkoniyatlarini cheklanganligi kabi omillariga nisbatan ikkinchi darajali sababi bo'lishi mumkin. Bu omillarda o'zgarish yasamasdan turib xodimlarni o'qitish borasidagi chora-tadbirlar kutilgan natijani bermaydi.

Qisqacha qilib aytganda, odatda, loyihalarni amalga oshirayotganda paydo bo'ladigan ko'pgina institutsional muammolar juda chuqur sabablarga ega. Bu sabablarni aniqlamasdan turib esa uzoq muddatli qarorlar qabul qilish qiyin. Sanab o'tilgan qiyinchiliklardan ko'pini hal etish o'nlab yillarni talab etishi mumkin. Chunki ular chuqur iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va madaniy cheklanishlarni aks ettiradi. Yangi institutlar o'z jamiyatida ildiz otishi va o'z madaniy muhitiga moslashishi kerak. Texnik va boshqaruv layoqati siyosatni samarali rejorashtirish, ishlarni dasturlash, moliya va kadrlarni boshqarish va hozirgi zamon tashkilotining boshqa muhim funktsiyalarini bajarishni ta'minlashi uchun asta-sekin yaxshilanib borishi kerak.

Zaruriy institutlarni tashkil etish (ayniqsa rivojlantirish loyihalari bilan bog'liq hollarda) uch guruh omillar ta'sirida murakkablashadi. Bular:

- a) noqulay siyosiy shart-sharoitlarning salbiy ta'siri;
- b) loyiha oldiga qo'yilgan maqsadlarning murakkabligi;

v) loyihaning investitsiyadan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik.

Shu tufayli institutsional muammolarni aniqlash, baholash hamda echish borasida tavsiyalar ishlab chiqish uchun (bu borada umumiyligida modellar, andozalar yo'qligini ham e'tiborga olgan holda) sanab o'tilgan omillarni e'tiborga olish zarur.

Barcha rivojlantirish loyihalarini xoh u davlat sektorida, xoh u xususiy sektorda bo'lsin hukumat makroiqtisodiy siyosatining hamda bu siyosatni o'zida mujassamlashtirgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Agar tashkiliy strukturalar o'z kuch va resurslarini siyosiy qarorlarining salbiy ta'siriga qarshi ko'rashga sarflashga majbur bo'lsalar bu strukturalar uzoq istiqbolga muvaffaqiyat bilan ishlay olmaydilar. Hukumat siyosati loyiha amalga oshirilayotgan iqtisodiy shart-sharoitlarni (jiddiy suratda) buzib ko'rsatsa institutsional muammolar soni ortib ketadi. Asoslanmagan valyuta almashuv kursi yoki savdo siyosati nafaqat loyiha bo'yicha olinadigan daromadlar darajasiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek ehtiyyot qismlarni qidirib topish, eksport-import operatsiyalari yo'lidagi byurokratik to'siqlarni engish kabilarga ortiqcha kuch ketishga olib keladi. Davlat baho va soliq siyosati, bozor signallarini buzib ko'rsatib menejerlarni adashishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa davlat baho va byudjet siyosatini loyihaning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatiga ta'siri katta. Shuningdek buning ta'sirida loyiha menejerlari hamda xodimlar faoliyatining baholash mumkin bo'lmay qoladi. Chunki tashkilotning qoniqarsiz ishiga doimo yaxshi ishlashga xalaqit berayotgan siyosiy vaziyatning sabab qilib ko'rsatishi mumkin. Davlat tomonidan tartibga solish, nazorat qilish va bevosita aralashuvining murakkab tizimi mavjudligi ta'sirida siyosiy vaziyatning salbiy ta'siri yanada chuqurlashishi mumkin.

6.2. Investitsiya loyihasini amalga oshirish ishtirokchilarining institutsional tahlili

Loyiha ishtirokchilari- bu loyiha maqsadiga mos ravishda faoliyat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ularning qarashlari loyihani

amalga oshirish vaqtida inobatga olinishi talab etiladi. Investorlar, banklar, pudratchilar, asbob-uskuna etkazib beruvchilar, ishlab chiqarilgan mahsulotni ulgurji sotib oluvchilar, lizing beruvchilar va oshqalar loyiha ishtirokchilari bo'lib hisoblanadi.

Ko'pchilik iste'molchilar va manfaat ko'rurvchilar talabini ifoda etuvchi yirik, ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlantirish loyihalarida ko'p hollarda loyiha maqsadi va unga erishish vositalarini belgilash qiyin bo'ladi. Bunga misol tariqasida ta'lim dasturiga va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga investitsiya sarflari loyihalarini taqqoslashimiz mumkin. Ma'lumotli va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashuvchan kishilarni tayyorlash vazifasini ma'lum miqdordagi o'g'it ishlab chiqarish vazifasiga ko'ra baholash qiyin. O'qitish dasturida maqsadga erishish usullari ham ancha murakkab va noaniqdir.

Bugungi kunda turli yuridik maqomga ega bo'lган ko'plab korxonalarda boshqaruvning yangi, innovatsion shakllarini, institutsional tashkil etishni qo'llash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Jumladan, o'tgan asrning 80-yillarida AQShning "McKinsey" konsalting kompaniyasi maslahatchilari guruhi tomonidan ishlab chiqilgan "McKinsey 7S" modelini qo'llash iqtisodiyotimizning rivojlanishiga yaqindan yordam beradi.


Modelning asosiy mualliflari Tom Peters va Robert Vatermanlar hisoblanib, ular tomonidan modelning asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan va mazkur tamoyil asosida korxona boshqaruv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Bugungi kunga kelib, model butun dunyoda amaliyotda qabul qilingan hamda korxona tasarrufida omilkor biznes jarayonlarini yaratishga va optimallashtirish uchun foydalanadigan strategik menejment va marketing bo'yicha ko'plab korxona rahbarlari va mutaxassislarining ishonchini qozongan. "McKinsey 7S" modeli kompaniyaning ichki tashkiliy tuzilmasini va faoliyat ko'rsatish tamoyillarini tahlil qilishning qulay vositasi hisoblanadi. Ushbu model asosida tashkilot mikro iqtisodiyotining ettita asosiy elementi tahlil qilinadi va quyidagi xulosani berishga imkon beradi, ya'ni, korxona tasarrufidagi biznes

jarayonlar qanday darajada yaxshi tashkil etilgan va mavjud resurslar qanchalik samarali tarzda yo'naltirilgan.

“McKinsey 7S” modeli har qanday korxonaning ichki biznes jarayonlarini takomillashtirishga, korxona samaradorligini oshirishga yordam beradi hamda tashkiliy tuzilmada rejalashtirilgan o’zgarishlarning mumkin bo’lgan natijalarini tahlil qilish, bo’linmalarni birlashtirish va birlashuvni amalga oshirish, korxonaning rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning eng yaxshi usulini aniqlash uchun hizmat qiladi. “McKinsey 7S” modeli quyidagi ettita tamoyilni o’zida jamlaydi:

- korxona strategiyasi;
- korxonaning tarkibiy qismi;
- boshqaruv tizimi;
- korxona tasarrufidagi munosabatlar uslubi;
- xodimlar faoliyati tarkibi;
- ko’nikma va qadriyatlar miqdori;
- hodimlarning malakasi.

Model tashkilot muhitining ettita asosiy tamoyilini tahlil qilish asosida qurilgan. Modeldagи barcha tamoyillar o’zaro bir-biriga bog’liq. Bu shuni anglatadiki, yuqorida ko’rsatilgan sohalarning hech bo’lmaganda bittasi o’zgarsa, darhol boshqa o’zgarishlar talab qilinadi. Quyidagi 2-rasmda “McKinsey 7S” modelining namuna sifatida bir ko’rinishi keltirilgan. Chizmada barcha tamoyillar bir-biriga bog’langan hamda “yumshoq” va “qattiq” ikki yirik bo’linmalarga bo’lingan.



6.2- rasm. Korxonaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi tamoyillar tasnifi²¹

Korxonaning tuzilishi, strategiyasi va boshqaruv tizimi-bu bo'linmalar korxonaning "qattiq tamoyillar"ning uch qismini o'z ichiga oladi va bu tamoyillar mos ravishda korxonani boshqarishni osonlashtirish va istiqbolini baholashda qulayliklar tug'diradi. Modelning barcha boshqa qismlarini o'z ichiga olgan "yumshoq tamoyillar" esa boshqarish va baholashni murakkablashtiradi, biroq ko'p hollarda korxonaning asosiy tarkibiy qismlarini shakllantiradi va ular uzoq muddatli raqobatbardoshlik tamoyillarini yaratishi mumkin.

- Korxona strategiyasi. Korxona strategiyasi uzoq muddatli rivojlanish rejasini belgilaydi, bu biznesning raqobatbardoshligini oshirishga va barqaror raqobatbardosh ustunliklarni yaratishga yordam beradi. To'g'ri tanlangan strategiyaning mezonlari quyidagilardir, ya'ni: maqsadlarning aniq shakllantirilishi, uzoq muddatli maqsadlarga ega bo'lishi, raqobatbardosh ustunlikka erishishga yo'naltirilgan bo'lishi, korxonaning umumiyligi faoliyatining bilan o'zaro bog'liqligi.
- Korxonaning tuzilishi. Modeldagi tuzilmaga ko'ra, har bir bo'limning bog'liqlik tamoyillari, ustuvorligi va javobgarlik sohasi ko'rsatilgan korxona

²¹ Н.Ю.Ковалевская. Анализ инвестиционных проектов. Учебное пособие. – Иркутск: Издательство БГУ. 2018. Стр.113

tarkibidagi turli bo'limlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish usullari tushuniladi. Modelning bu tamoyili mos ravishda va oson o'zgarishi mumkin.

- Boshqaruv tizimi. Boshqaruv tizimi korxonaning muntazam operatsion (amaliy) tartiblarini ta'riflaydi. "McKinsey 7S" modelining ushbu tamoyili boshqaruv qarorlari qanday qabul qilinganligi, korxonada kundalik ishlar qanday amalga oshirilayotgani, biznesning qanday usullari rivojlanayotganligi uchun javob beradi.
- Qadriyatlar tizimi. Qadriyatlar tizimi korxonada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning kasbiy qobiliyati va vakolatlar doirasi miqyosini ifodalaydi.
- Xodimlar tarkibi. Xodimlarni ishga qabul qilish, ularni mutahasisliklarga ajratish, ularga ko'rsatma va tavsiyalar berish va rag'batlantirish. Bu tamoyil korxonada qo'llanilayotgan modelning "yumshoq" elementlarni tashkil etib, xodimlarning amalda qay darajada faoliyat yuritayotganini taxlil etadi.
- Korxona tasarrufidagi munosabatlar uslubi. Bu tamoyil korxona tomonidan qabul qilingan boshqaruv uslubini ifodalaydi. Korxonada rahbarlar faoliyati natijasi va biznesni rivojlantirish uchun muhim qarorlar qabul qilishda ularning rolini ifodalaydi.
- Xodimlarning malakasi. Bu tamoyil korxona hodimlarni qayta taylorlash va malakasini oshirish, ularning etuk darajada faoliyat yuritishi uchun etarli darjada malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Ayrim loyihalarda maqsadlar aniq ravshan bo'lsada, ular shunchalik ko'pki ularning hammasiga bir tekis erishishni ta'minlab bo'lmaydi. Masalan: qishloq tumanlarini rivojlantirish loyihalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ko'tarish, infrastrukturani rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, madaniy an'analarni o'zgartirish kabi maqsadlarga duch keldi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar ko'p sonli aholi bilan ish ko'radiki, loyiha agentligi ularga doim ham bevosita ta'sir ko'rsata olmaydi (elektrostantsiya direktori o'z xodimlariga ta'sir ko'rsatishiga o'xshab).

Loyihani o'rab turgan muhitga nisbatan uni boshqarishning uch jihatiga alohida to'xtalib o'tish zarur:

- standart va eksperimental loyihalardan foydalanish;
- ishlarni muvofiqlashtirish uslublari;
- boshqaruv nazoratini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar.

Infrastrukturalar, kommunal inshootlar va yirik sanoat korxonalari qurish loyihalari tashkiliy jihatdan birmuncha afzallikka egalar. Ya'ni ular uchun zarur tashkiliy tadbirlar va texnologiyalar, standart echimlar mavjud. Ko'pchilik loyihalar uchun esa standart echimlar, texnologiyalarni qo'llab bo'lmaydi. Bunday sharoitda moslashtirish qobiliyati tashkiliy strukturaning muvaffaqiyat garovi bo'lishi mumkin. Moslashtiruv ishi byurokratik muassasalar uchun ayniqsa qiyin kechadi. Bunga ularning rejali xarajatlar haqida doimiy hisobot berishga majburliklari va har qanday xavfdan qochishlari sababki, bu hol ularni konservativ qilib qo'yadi. Ayrim hollarda loyihani amalga oshiruvchi tashkilotga murakkab institutsional va moddiy-texnik talablar qo'yiladigan bitta yirik loyihadan ko'ra o'rnatilgan grafik bo'yicha bir nechta eksperimental loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Eksperimental loyihalarga muqobil variant - kichik dasturlarni – subpudratchi tashkilotlarga topshirishdir. Bunda bosh pudratchi bunday dasturlarni moliyalashtirish, texnik yordam ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

Yirik loyihalarga xos bo'lgan tashkiliy muammolarni hal etishning yana bir yo'li loyihaning bosh maqsadiga erishish uchun qaysi faoliyat turlari asosiy ekanligini aniqlab cheklangan tashkiliy resurslarni shu faoliyatga jamlash hamda ikkinchi darajali vazifalarni keyinroqqa qoldirishdir. Shunday yondashuvning loyiha bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishga nisbatan ham qo'llash mumkin, chunki ko'p sonli ijrochilar faoliyatining muvofiqlashtirish ko'p vaqt talab etadi va kerakli natija bermasligi mumkin. Muvofiqlashtirishning inkor etib bo'lmaydigan sharoitlarda turli ijrochilar vazifalari aniq ravshan belgilanishi kerak. Ikkinchi darajali resurslarni nazorat etuvchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi komitet tuzgandan ko'ra ularni kichik ishchi guruhlarga birlashtirish muvofiqlashtirishning samaraliroq mexanizmi bo'lishi mumkin.

Loyiha natijalarini baholashdagi qiyinchiliklarni loyiha faoliyatining mumkin qadar kichikroq nazorat va boshqaruv oson bo'lgan funktsiyalarga bo'lish yo'li bilan kamaytirish mumkin. Ta'lif va ijtimoiy masalalar bo'yicha loyihalarda moliya faoliyatining boshqarishga katta e'tibor beriladi. Moliyaviy oqimlarni hisobga olish va nazorat qilish esa bu loyihalardagi noaniqliklarni kamaytirar va ularni boshqarishni yaxshilar, moliyaviy tartibni mustahkamlagan bular edi. Shuningdek zamonaviy boshqaruv axborot tizimini yaratish imkoniyatini beradiki, bu o'z navbatida loyihani samarali boshqaruvning asosiy unsuridir. Patent berish yoki kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha xususiy korxonalar bilan kontrakt tuzish uslublari boshqaruv nazoratini takomillashtirish usuli sifatida keyingi yillarda alohida e'tibor jalb etayapti. Turli sabablarga ko'ra hukumat idoralari bilan kontrakt asosida ishlovchi xususiy korxonalar tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish transport, sog'liqni saqlash kabi sohalarda xizmat sifatini oshirishga, xarajatlarni qisqartirilishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya loyihalarini institutsional tahlildan maqsad loyiha amalga oshirilayotgan makondagi tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma'muriy vaziyat (muhit)ga baho berish hamda loyihaga jalb etilgan tashkilotlarning imkoniyatlarini mustahkamlash chora-tadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Menejment, tashkiliy struktura, rejalashtirish, xodimlarni boshqarish, moliya, moddiy texnik ta'minot kabi sohalarni qamrab oladi va bu tavsiyalar loyiha muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hukumat va tarmoq strukturalariga, ya'ni vazirliklar, idoralar, banklar, tadqiqot muassasalariga ham taalluqlidir.

Iqtisodiyotni qayta qurish jarayonida ikki muhim institutsional muammo kuzatiladi. Birinchidan, bu mavjud hukumat muassasalarini isloh qilish zarurati bo'lsa, ikkinchidan, eski tuzumda mavjud bo'lgan yangi institutlarni tashkil etishdir.

Loyiha ishtirokchilari faoliyatida menejer malakasi, uning vakolatlarining etishmasligi, axborot etishmasligi yoki axborot tizimining murakkabligi,

xodimlarni rag'batlantirish tizimida aniqlik etishmasligi chuqur sabablarga ega institutsional muammolarga duch kelinadi.

Loyihani amalga oshirish uchun zaruriy institutlar tashkil etishga uch guruh omillar aks ta'sir ko'rsatadi. Bular: noqulay siyosiy shart-sharoitlar (siyosiy omillar); loyiha oldiga qo'ygan maqsadlarining murakkabligi; loyihaning investitsiyadan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik

Davlatning noto'g'ri baho va byudjet siyosati, iqtisodiy faoliyatini qat'iy tartibga solish, byurokratik to'sqinlarning mavjud bo'lishi oqibatida bozor signallari buzib ko'rsatiladi, iqtisodiy faoliyat cheklanadi va loyiha muvaffaqiyati shubha ostida qoladi.

Maqsadlar aniq ravshan, kam sonli, real, mavjud resurslar doirasida erishsa bo'ladigan bo'lishi lozim.

Loyiha ishga tushirilgandan so'ng, uni kim ekspluatatsiya qilishi, xarajatlar va daromadlar qanday bo'lishi kabilar ham loyiha muvaffaqiyati shartlaridan biridir.

Nazorat savollari:

1. Institutsional tahlilning mohiyatini nima tashkil etadi?
2. Institutsional tahlil qanday maqsadda olib boriladi?
3. Institutsional tahlilning vazifasini nima tashkil etadi?
4. Institutsional boshqarish deganda nima tushuniladi?
5. Investitsiya loyihasining ishtirokchilarini kimlar tashkil etadi?
6. Loyihani ishlab chiqish jarayonidagi asosiy muammolarni aytинг.
7. Zaruriy institutlarni tashkil etish deganda nima tushuniladi?
8. Zaruriy institutlarni tashkil etishga qanday omillar ta'sir etadi?
9. Loyihani boshqarishning qanday jihatlarini bilasiz?
10. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda instituttsional tahlilning o'rni nimadan iborat?

VII-BOB: INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY EKSPERTIZASI

7.1. Investitsiya loyihalarini baholash usullari. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy mezonlari. Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilishning asosiy mezonlari

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi iqtisodiy o'sishining bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinushi bilan izohlanadi. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va jadallashtirishda hal qiluvchi rolni ishlab chiqarish investitsiyalari o'ynashi kerak.

Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq, bu hozirgi yuksak darajada integratsiyalashgan xo'jalik sharoitida davlatning muvofiqlashtiruvchi roli ob'ektiv ravishda ancha salmoqli bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan investitsiya sohasiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaramoq darkor. Bu esa strategik maqsad - iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun amalga oshirilmogi, bu raqobatbardoshlik va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish makroiqtisodiy rejallashtirish asosida ta'minlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat yo'li bilan boshqarib turish bunday rejalaq turishning eng muhim bo'ginlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bozor munosabatalariga o'tishning O'zbekiston tomonidan tanlab olingan yo'li o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, bunda hal qiluvchi rolni davlat o'ynaydi. Bunday o'ziga xoslik mamlakat Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlarni o'tkazishning beshta tamoyilida aks etgandir. Mana

shu tamoyillardan birida ta'kidlanishicha, “... murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatdorligini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi iqtisodiy taraqqiyotning etakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak”.

Mamlakat xalq xo'jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish alohida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya resurslari va chet el investitsiyalarini jalg qilish sifatida mablag'lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariga tayanishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jalg etmay turib, xozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov xuddi shu masalaga e'tiborni qaratdi: “Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari, ham chet el investitsiyalarini keng jalg qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor”.

Investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tugdiruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti kapital mulkka mo'ljallanayotgan investitsiyalar xajmi tegishli moliya aktivlarining daromadliligiga bogliq bo'ladi. Daromad me'yori orqali esa ana shu aktivlarning bahosi investitsiyalarga bo'lgan talab va taklifga qarab belgilanadi. Davlat pul va kredit siyosati orqali investitsiyaga bo'lgan talab va taklifning nisbati hamda uning tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, bu siyosat turli moliya aktivlaridan olinadigan daromad xajmiga ham katta ta'sir etadi. U investitsiya tovarlari bozorida investorlarning xatti-harakatining bosh yo'nalishini, shunga bog'liq holda investitsiyalar tarkibiy tuzilishini belgilaydi.

Korxonaning zamонавија investitsiya siyosati keng ko'lamlı, nihoyatda murakkab va bir-biriga o'xshamaydigan investitsiya qarorlari shaklida namoyon bo'ladi. Bunday korxonalar «mablag'larni qo'yish tashabbuskori» sifatida ham, «tashqi investitsiyalar ob'ekti» sifatida ham maydonga chiqadi.

Korxonalarning investitsiya siyosatida bevosita investitsiyalar muhim o'rinni egallaydi. Bevosita investitsiya qarorlarini amalga oshirish uchun jalb etiladigan moliya zaxiralari miqqosi va uzoq davom etuvchi xususiyatlari tufayli bu turdag'i investitsiya qarorlari jiddiy xatarlar bilan chambarchas bog'langandir. Bu sharoitlar bevosita investitsiya qarorlarining juda muhim ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini nazarda tutib, fundamental tadqiqotlar predmeti sifatida nisbatan mustaqil ilmiy oqimni keltirib chiqaradi. Bu nisbatan mustaqil ilmiy oqim - investitsion loyihalar tahlili deb ataladi.

Jahon tajribasida investitsion tahlilning uch asosiy bosqichda o'rganish qabul qilingan:

- investitsiyadan oldingi bosqich;
- investitsiya qilish bosqichi;
- amalga oshirilgan investitsion loyihani ekspluatatsiya qilish bosqichi.

YuNIDOning umum tan olgan tizimiga ko'ra investitsiyadan oldingi bosqich 4 qismga bo'linadi:

- investitsion qarorlarini (tizimlarini) izlash;
- investitsion loyiha oldidan (birlamchi) tayyorlash;
- investitsion loyihani uzil-kesil rasmiylashtirish va uni texnik-iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan yaroqligini baholash;
- loyihani so'nggi marta ko'rib chiqish va uni moliyalash to'g'risida qaror qabul qilish.

Investitsion tahlilning birichi bosqichi - investitsiya qarorlarini izlash va tanlashdan iboratdir. Bu amaliyotda bir muncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Uni shu bilan izohlash mumkinki, har qanday investitsiya qarorlarini qabul qilish qisman ko'p sonli fuqarollarning, yuridik shaxslarning, jamoat tashkilotlarining, birlashmalarining xarakatlarini manfaatlari bilan bog'liqdir.

Bunda, yaxshi ma'lumki shu qarorga tegishli barcha tomonlar manfaatlarining muvozanatiga erishgan holdagini investitsiya qarorini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

Xalqaro amaliyotda investitsiya qarorlarining eng ko'p tarqalgan quyidagi tasniflari qabul qilingan. Majburiy investitsiyalar - korxona o'z faoliyatini davom ettira olishi uchun zarur bo'lgan investitsiya qarorlari, qoidaga ko'ra, bu sinfga atrof-muhitga ko'rsatiladigan zararli ta'sirni kamaytirishga, korxona xodimlarining ish sharoitida davlat me'yordi darajasida yaxshilashga va boshqa shunga o'xshash ishlarga qaratilgan investitsiya qarorlari kiradi. Sarf-xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan investitsiya qarorlari - uzoq davom etadigan raqobat kurashiga bardosh berish zarurati tufayli yuzaga keladigan investitsiya qarorlarining eng keng tarqalgan turidir. Bu sinf qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirishga, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga, mehnatni tashkil etish va boshqaruvni yaxshilash hamda shu kabi ishlarga qaratilgan investitsiya qarorlarini uz ichiga oladi.

Investitsion xarakterning boshqarilishini hal etish qabul qilish jarayonida mavjud investitsiyani kelajakdagi pul tushishini baholash va taqqoslash yotadi. Vaholanki, taqqoslash ko'rsatkichlari vaqtning turli fursatlariga to'g'ri keladi. Bu erdag'i asosiy muammoning echimi ularni birlashtirishda unga turli xil yondashish mumkin, ya'ni ob'ektiv va sub'ektiv shartlarni hisobga olgan holda: inflyatsiya darajasi, bashorat qilish gorizonti, tasniflashning darajasi va boshqalar.

Quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- agar loyihaning vazifalari, asosiy hamda muqobil varinatlari aniqlangan va dastlabki tanlov o'tkazilgan bo'lsa;
- loyiha taqdiriga ta'sir ko'rsatadigan asosiy siyosiy va tashkiliy muammolar tenglashtirilgan va ularnit hal qilish mumkin degan xulosa chiqarilgan bo'lsa;
- loyihani tanlash asosli deb hisoblanishi uchun nazarda tutilgan xarajatlar va daromadlarning joriy diskontlangan qiymati baholangan bo'lsa;

- agar loyihani amalga oshirishda yutishi yoki yutqazishi mumkin bo'lganlarning hammasi uni qo'llab-quvvatalashi kutilsa va ularning roziligi bo'lsa;
- agar loyiha ichki va zurur hollarda tashqi manbalardan tegishlicha moliyalashtirilishi mumkin bo'lsa;
- loyihani ishlab chiqishning aniq bazasi tashkil qilingan bo'lsa.

Moliyaviy ekspertiza loyhani moliyaviy yashashga qobiliyatini nazorat qiladi va uni asosiy boshqarilishi uchun zaruriy choralar belgilaydi.

Moliyaviy ekspertiza hamma vaqt loyihani moliyaviy reja ko'rilihini buxgalterlik hisobini adekvat va tavtish tizimini o'z ichiga oladi. Undan tashqari moliya ekspertizasi qo'shimcha ravishda quyidagi keltirilgan omillarni hisobga oladi:

- loyihaninng rentabelligi;
- loyihadan foyda qiluvchi fuqarolar uchun moliyaviy oqibatlar va ular uchun moliyaviy tavakkilchilikning baholanishi;
- loyihani milliy byudjetga uni amalga oshirilishi uchun kerakli fondlarni mavjudligini tekshirish uchun ta'siri;
- loyhani amalga oshiruvchi firmaning boshqarish imkoniyatlari;
- moliyaviy faoliyatni, loyihani amalga oshirilishi va ishlatilichiga qo'llanladigan andozlar.

Iqtisodiy ekspertiza quyidagilarni belgilaydi: loyihaning milliy iqtisodiyotni rivojlanadirishga ta'siri baholanadi; kiritilayotgan resurslar va olinayotgan mahsulotlar ularning milliy iqtisodiyot uchun haqiqiy qadr-qimmatini aks ettiradigan noaniq baholarda baholanadi; tahlilga iqtisodiyot uchun bevosita ta'sir etuvchi jihatlar kiritiladi (importga, eksportga, aholi bandligiga, chet el valyutasiga, talab va taklifga, ekologik ahvolga va sh.k.), shuningdek, bilvosita ta'sirlar (boshqa sohalarga bo'lgan ta'siri va sh.k.) ham kiritiladi; ijtimoiy shart-sharoitlar hisobga olinadi va h.k.lar.

Loyihalar asoslangan sanoat tarmog'i tarqqiyoti dasturining bir qismi va iqtisod sohasining siyosatini aks ettiruvchi bo'lmosg'i darkor. Har qanday ekspertiza birinchi navbatda o'ziga xos loyhalar faqat ushbu tarmoq siyosat

maqsadi uchun xizmat qilishini namoyish qilmog'i lozim. Ekspertiza vazifasi – loyiha tavsiya qilingan tarmoq strategiyasiga to'g'ri kelishini belgilashdan iborat.

7.2. Investitsiya loyihasi bo'yicha xarajatlar ekspertizasi. Pul oqimi tahlili

Investitsion loyihani moliyaviy baholash diskontlashtirish va ana'naviy uslublar orqali amalga oshiriladi. Investitsion faoliyatni moliyaviy-iqtisodiy tahlil etishdagi usullarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- diskotlangan bahoga asoslangan;
- hisoblangan bahoga asoslangan;

Diskonlashtirish kontseptsiyasini qo'llashga asoslangan uslub quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sof joriy baho (NPV)ni aniqlash uslubi;
- investitsiyaning rentabelligi (PI)ni hisoblash uslubi;
- ichki foydalilik me'yori (IRR)ni hisoblash uslubi;

Investitsion loyihalar miqdor va sifat jihatdan ko'rib chiqiladi. Maqsad, investitsion loyihalarni loyihaviy moliyalashtirish jarayonidagi tavakkalchilik darajasini pasaytirishdir. Qolaversa, berilgan baholar loyihaviy moliyalashtirishni qay yo'sinda ketishni belgilab beradi.

Sof joriy qiymatni hisoblash usuli. Sof joriy bahoni aniqlash uslubi (NPV - Net Present Value) – sof joriy bahoni aniqlashga asoslangan investitsion loyihaning tahlili. Investitsion loyihaning amalga oshishi natijasida bu sof joriy baho qiymati summasiga korxona aktivlari umumiy qiymatini etkazish rejalashtiriladi. Bu printsip turli vaqtarda korxona hisob raqamidagi pul mablag'larining bir xil bo'limgan qiymatga ega bo'lishidan kelib chiqadi. Agar tahlil davomida hisoblab topilgan sof joriy baho (NPV) qiymati musbat (ijobiyl) ishoraga ega bo'lsa, investitsion loyihani amalga oshirish natijasida kredit oluvchi aktivlari o'sadi, loyihaning maqbulligi oshadi. Investitsiyalarni sof joriy bahoni aniqlash asosida baholash metodining keng miqyosda qo'llanilishiga qaramay, bu metodning bir qancha kamchiliklari ham bor. Bu metod orqali korxona

aktivlarining o'sishi yoki kamayishini sezish mumkin, biroq bu metod aktivlarning o'sish darajasi to'g'risida ma'lumot bermaydi. Aktivlarning o'sish darajasi esa, ma'lumki, har qanday investor uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu usul natijaviy investitsiya miqdorini sof diskontlangan pul qo'yilmasi summasi bilan bir vaqtga keltirish bilan asoslanadi. Pul mablag' alari oqimi vaqtiga ko'ra tasdiqlanganligini hisobga olgan holda, u R»r» koeffitsienti bilan diskontlangan bo'ladi. Bu erdag'i «r» investorlarning o'zlaricha yillik hisoblash usuli foizidan kelib chiqib o'rnatiladi. Faraz qilaylik, investitsiya «n» yil mobaynida amal qilmoqda, yillik daromadlar P..P2,... Pn miqdorida. Diskontlangan daromadni umumiyligilgan miqdori (PV) va (NPV) quyidagi formulalarda ifodalanadi:

$$PV = \sum_k \frac{Pk}{(1+r)^k};$$

$$NPV = \sum_k \frac{Pk}{(1+r)^k} - IC$$

Ko'rinib turibdiki, agar $NPV > 0$ bo'lsa, loyiha qabul qilinadi. $NPV < 0$ bo'lsa, u qabul qilinmaydi. $NPV = 0$ bo'lsa, loyiha befoyda va bezarardir. Yillar bo'yicha daromadni bashorat qilish sharoitida mavjud loyihaga ta'sir etishi mumkin bo'lган, imkoniboricha barcha ishlab chiqarish va o'z navbatida noishlab chiqarish xarakterlarini hisobga olishi zarur. Belgilab o'uyish lozimki, NPV ko'rsatkichlari korxonaning kuzatilgan loyihani qabul qilishi sharoitidagi iqtisodiy potentsialni o'zgartirishni baholashda bashorat etishni aks ettiradi. Bu ko'rsatkich vaqt mezoni bo'yicha ta'sirlidir. Turli loyihalarni NPVni summalashtirish mumkin. Bu juda muhim xususiyat bo'lib, u investitsion portfeli optimalligini tahlil etishi sharoitida asos sifatida foydalanishga imkon beradi.

Investitsiion loyihalarning rentabelligini umumiyligilini hisob usuli. Bu investitsiyaning rentabellik indeksini hisoblash usuli oldingi usullarning davomi hisoblanadi, u bir birlik investitsion mablag' hisobida korxona aktivlarining o'sish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Rentabellik indeksi (PI) ushbu formula bo'yicha hisoblanadi:

$$PI = \left[\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / I_0$$

Bunda agar $PI > 1$ bo'lsa loyiha moliyalashtirishga qabul qilinadi, $PI < 1$ bo'lsa qabul qilinmaydi. $PI = 1$ bo'lsa, loyiha foydali ham, zararli ham emas. Keltirilgan sof samaradorlik ko'rsatikidan farqli o'laroq rentabellik indeksi aloqadorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Rentabellik indeksi yordamida NPV taxminan bir xil bo'lган bir necha loyihalar ichidan eng optimal loyihani tanlab olish mumkin. Tabiyiki, sof joriy bahoning ijobiy bo'lishi investitsiya rentabelligining birdan katta bo'lishini bildiradi. Bu ko'rsatkich loyiha ekspertlari uchun turli investitsiyalarning samaradorligini taqqoslash imkonini beradi. Rentabellik ko'rsatkichi investorlarning ma'lum kriteriyalarini qanoatlantirish lozim.

Investitsion loyihalarning rentabellik normasini hisoblash usuli. Investitsyaning rentabellik normasi deganda (IRR) $NPV = 0$ bo'lган loyihaning diskontlash koeffitsenti tushuniladi. Rejalashtirilgan investitsyaning samarasini tahlil etish sharoitida bu koeffitsent quyidagicha hisoblanadi. IRR shu loyihaga aloqador barcha xarajatlarni eng yuqori darajasini ko'rsatadi. Masalan, loyiha tulik tijorat bankining qarzi evaziga moliyalashtirilsa, IRR loyihani zarar keltiruvchi darajadagi bank foiz stavkasini chegaralangan o'shining ko'rsatadi. Amaliyotda har qanday korxona o'z faoliyatini turli manbalarga asoslangan holda moliyalashtiriladi. Korxona faoliyatida avanslashtirilgan moliyaviy resurslardan foydalanganligi uchun to'lov sifatida, u foiz, divident, raqobatlantirish kabi korxona iqtisodiy qudratini ushlab turishga asoslangan xarajatlarni amalga oshiradi. Diskontlashtirish uslublaridan yana biri investitsyaning ichki foydalilik me'yori (IRR)ni hisoblash uslubidir.

Investitsyaning ichki foydalilik me'yori (IRR - Internal Rate of Return) - yo'naltirilgan investitsion mablag'larning qoplanish darajasini ko'rsatib beradi. O'z tabiatiga ko'ra bu ko'rsatkich amaliyotda qo'llaniladigan turli xil foiz stavkalariga yaqin. Ichki foydalilik me'yori (IRR) ko'rsatkichi sof joriy baho (NPV) ko'rsatkichi nolga teng bo'lгандаги daromadlilik – diskontlashtirish koeffitsienti (k)ning qiymatidir. Bu ta'rifdan shunday xulosa qilish mumkinki,

diskonlashtirish koeffitsienti qanchalik katta bo'lsa, soj joriy baho (NPV)ning qiymati shunchalik kichik bo'ladi.

Korxonaning kelgusidagi pul tushumlari bir xil bo'limgan holatlarda ichki foydalilik normasi (IRR)ni aniqlab topish ancha qiyin kechadi. Bunday holatlarda ko'rsatkichni hisoblash uslubiyatini o'zgartirishga to'g'ri keladi, o'zgartirishlar kiritsh natijasida quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$\sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = 0$$

Bu formula shuni anglatadiki, investitsiyaning ichki foydalilik me'yori (IRR) kredit oluvchi aktivlarining o'sishini ham, kamayishini ham ta'minlamaydi, ya'ni ular o'zgarishisiz saklanadi. Investitsion loyihaning ichki foydalilik me'yori quyidagi vazifalarni bajaradi, ya'ni bu ko'rsatkich samarasiz, daromad darajasi kam bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishning oldini oladi. Bu ko'rsatkich investitsion loyihalarni foydalilik darajasiga qarab ranjirlashtirishga xizmat qiladi, buning uchun investitsiyaning teng miqdorda ajratilishi, loyihalarning amalga oshishi muddatining bir xilligi, bir xil risk darajasi, yig'ma pul oqimlarining o'xshashligi shartlari bajarilishi kerak. IRR risk darajasi indikatori bo'lib hisoblanadi, ya'ni bu ko'rsatkichning qiymati loyihadagi diskontlashtirish koeffitsienti qiyamatidan qanchalik katta bo'lsa, risk jihatidan loyihaning mustahkamligi ortadi. Bu xarajatlar darajasining xarakterlovchi ko'rsatkichlarni avanslashtirilgan kapital bahosi deyish mumkin. Bu ko'rsatkichni korxona faoliyatida kuyilgan eng kam qaytaruvni o'zida aks ettiradi, uning rentabelligi o'rtacha tortilgan arifmetik formula bo'yicha hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning iqtisodiy ma'nosi quyidagicha ifodalanadi: korxona joriy ko'rsatkichdan past bo'limgan rentabellik darajasiga ega har qanday investitsion xarakterga ega qarorni qabul qilishi mumkin. Xuddi o'sha bilan IRR ko'rsatkichi taqqoslanadi. Bunday sharoitda ular o'rtasidagi aloqa quyidagicha:

- agar: $IRR > CC$ dan loyiha qabul qilinadi;
- $IRR < CC$ dan loyiha qabul qilinmaydi;
- $IRR = CC$ loyiha zararsiz va foydasiz;

- CC - daromadlar bo'yicha joriy foizli ko'rsatkich.

Agar analitik ihtiyyorida maxsus moliyaviy hisob-kitob bo'lmasa, bu usulni amalga oshirish qiyinlashadi. Bunday sharoitda diskondlangan ko'paytirgich tabulyatsiyasiga doir ketma-ketlilik usulidan foydalaniladi. Buning uchun tabulyatsiya yordamida ikki diskontlangan koeffitsient tanlanadi: $r_1 < r_2$ shu yo'ysinda (r_1, r_2) intervalida f-ya $NPV=f(r)$ o'z ma'nosini o'zgartirishini ko'zda tutadi, ya'ni «+» «-» ga yoki aksincha. Keyin quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$IRR = r_1 + \frac{f(r_1)}{f(r_1) - f(r_2)} \bullet (r_2 - r_1)$$

Bu yerda: r_1 - diskontlanishining tabulyatsiya qilingan koeffitsenti $f(r_1) > 0 (F(r_1) < 0)$, holda ko'rindi. R_2 -diskontlanishning tabulyatsiya koeffitsenti $f(r_2) < 0 (F(r_2) > 0)$ holda куринади.

Ana'naviy uslublar. Ana'naviy uslublar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) investitsiyalarning qoplanishi davri (PP)ni hisoblash uslubi;
- b) investitsiyalarning buxgalterlik rentabelligi (ROI)ni aniqlash uslubi.

Investitsiyalarning qoplanish davri (PP) (Rayback Reriod)ni hisoblash uslubi orqali investitsion loyihami amalga oshirishda zarur boshlang'ich investitsion mablag'larni koplash uchun koplash uchun kerak bo'ladigan muddati aniqlanadi. Ushbu uslubdan foydalanish diskontlashtirish kontseptsiyasi keng miqyosda tadbiq etilishidan avval boshlangan edi. Bu ko'rsatkichni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$RP = \frac{I_0}{CF_t(\sum)}$$

bunda: RP – loyihaning qoplanish davri (yil); I_0 – boshlang'ich investitsiyalar; $CF_t(\sum)$ – investitsion loyihami amalga oshirishda keladigan pul mablag'lari yillik yig'indisi.

Bu yerda CF_t ko'rsatkichidagi \sum indeksiga e'tiborni qaratish kerak, bu indeks CF_t ko'rsatkichini aniqlashga bo'lgan ikki xil yondashuv imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Birinchi yondashuvda pul mablag'lar yillar bo'yicha teng deb olinadi, bunda boshlang'ich investitsiyalarning summasi yillik pul tushumlari yig'indisiga bo'linadi.

Ikkinci yondashuvda esa loyihani amalga oshrishdan keladigan pul mablag'lari o'sib borish tartibida – kumulyativ holda hisoblanadi.

Investitsiyalarning buxgalterlik rentabelligi (ROI - Return on Investment)ni aniqlash uslubi investitsion loyihaning buxgalterlik foyda asosida baholashdan iborat. Bunda ROI soliq to'lashdan oldingi foyda EBIT (earnings before interest and tax) yordamida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ROI = \frac{EBIT}{(C_a^u - C_a^k) : 2}$$

bunda: - Sa – o'rganilayotgan davrdagi kredit oluvchi aktivlarining yil boshi va oxiridagi qiymati; EBIT - soliq to'lashdan oldingi foyda.

7.3. Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlar

Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholash mablag'larni real aktivlar bilan operatsiyalarga kiritishning mumkin bo'lgan variantlarini tanlash va asoslash jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Loyihaning boshqa barcha ijobiy tavsiflarida quyidagi talablar ta'minlanmagan bo'lsa, u hech qachon amalga oshirishga qabul qilinmaydi:

- tovar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar hisobiga qo'yilgan mablag'larning qoplashi;
- firma xohish etgan darajadan past bo'lмаган investitsiyalar rentabilligini ta'minlovchi foydaning ko'riliishi;
- firma uchun muvofiq bo'lgan davrda investitsiyalarning qoplanishi.

Investitsion operatsiyalarning bunday natijalariga erishishning realligini aniqlash har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rinishlarini baholashning

asosiy vazifasi hisoblanadi. Baholashni olib borish bir qancha omillar va ta'sirlarga bog'liq holda vujudga keluvchi bir muncha murakkab masala hisoblanadi:

- birinchidan, investitsiya xarajatlari uzoq davr (bir necha yil) ichida bir marta yohud bir martadan ortiq amalga oshiriladi;

- ikkinchidan, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan natijalar olish jarayoni ham uzoq (barcha holatlarda bir yildan yuqori) bo'ladi;

- uchinchidan, operatsiyalarning uzoq davr amalga oshirilishi investitsiyalarning barcha jihatlarini baholashda noaniqlikning o'sishiga va xatolikning yo'l qo'yilishiga olib keladi.

Ushbu omillarning mavjudligi yo'qotishning mumkin bqlgan minimum darjasи bilan asoslangan qarorlarni qabul qilishga imkon beruvchi investitsiya loyihalarini baholashning maxsus usullarini ishlab chiqish zarurligini vujudga keltiradi.

Diskontlash usuli pul mablag'larining qiymati muayyan vaqtda bir xil emasligi, ya'ni bugungi bir so'm bir yildan keyingi bir so'mga teng emasligi bois paydo bo'ldi. Bunday munosabatga sabab, garchi inflyatsiya to'g'risidagi fikr, birinchi navbatda tug'ilsa ham inflyatsiya hisoblanmaydi. Bunga bir muncha fundamental sabab bo'lib, olingan daromad hisobida katta summaga bir yildan so'ng o'sishini ta'minlashga qodir tijorat operatsiyalariga kiritilgan (bankdagi depozitni ham hisobga olgan holda) pul hisoblanadi. Bu haqiqat moliyaviy operatsiyalar aksiomasi hisoblanadi va investitsiya loyihalarini tahlil qilish va iqtisodiy asoslashning butun mexanizmini nazarda tutadi.

Mablag'larni investitsiyalash nuqtai-nazaridan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uslubiyoti va uslubiyotini ishlab chiqish masalasi g'oyat muhim hisoblanadi. Jahon amaliyotida faqat hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirishzarurligini ko'rsatadigan va keng tarqalgan investitsiya loyihalari tsikli kontseptsiyasi mavjud.

Investitsiya loyihalarni amalga oshirshda ularni boshqarish uslubiyoti eng muhim bo'g'in bo'lib maydonga chiqadi. Loyihalarning ko'lami, tuzilmasi, resurslari, qiymati va boshqalarga qarab ularni boshqarishning maxsus usullariga

ehtiyoj ortib boradi. Boshqarish aslida qo'yilgan maqsadlarga erishish vazifasini, loyihani amalga oshirish muammolarini bartaraf qilish, huquqlar va ma'suliylatlarni jamlash vazifalarini ko'zlaydi. Iqtisodiyotning globallashuvi va integratsiyalashuvi, loyihalarni amalga oshirishda chet ellik sheriklar, turli sub'ektlar, moliya institutlarining ishtirok etishi, ular harakatlarini va faoliyatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Faoliyatning muvofiqlashtirilmasligi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muvaffaqiyatsizliklarga, kapitalni yo'qotish riskining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalar xususida qarorlar qabul qilishda, investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va amalga oshirishning ilmiy asoslangan uslubiyoti va uslubidan foydalanish masalasi g'oyat muhim hisoblanadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va integratsiyasining kuchayishi, investitsiya jarayoniga chet ellik sheriklar, ko'p ukladli iqtisodiyot sohiblari va xalqaro moliya institutlarining jalb qilinishi, ular faoliyatini uyg'unlashtirishning kuchaytirilishini talab qiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularni boshqarish eng samarali uslubiyotdir, chunki bu uslubiyot turli rejallashtirish va nazorat usullaridan malakali foydalanishda risklarni boshqarish, nizolarni hal qilish imkoniyatlarini beradi.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan qo'shma investitsiya loyihalarining ko'payganligi sababli keng qamrovli marketing tadqiqotlari o'tkazish, loyihalar bo'yicha hisob-kitoblrni tegishli axborot bazasi bilan ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. Hisob-kitodlarda esa investitsiyalarni zamonaviy va istiqboldagi samarasini bugungi qiymatini aniqlash masalasi yuzaga keladi. Qzbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida loyihalarni boshqarish uslubiyotida hamda ularni tanlash va investitsiya qarorlarini qabul qilish uslubiyotida loyiha asoslanadigan axborot bazasining ishonchliliqi bosh masalal hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini boshqarishning asoslangan uslubiyoti har tomonlama marketing tadqiqotlarini o'tkazish, risklarni pasaytirish va loyihalar bo'yicha hisob-kitoblarning ishonchliliqi axborot negizini ta'minlash imkonini beradi.

Investitsiya loyihalarining mavjud variantlari ma'qullash bosqichida quyidagi sabalarga ko'ra rad etilish mumkin:

- loyihaning haddan tashqari ortiq iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilma va tabiat muhofazasi qiymatlari yuqori bo'lsa yoki qiyosiy afzalliklari bo'lmasa;
- loyiha maqsadlarini amalga oshirishdan naf ko'rishi mumkin bo'lgan sohiblar majburiyatlari aniq belgilanmasa;
- mavjud tashkiliy va boshqaruv imkoniyatlariga loyihaning katta miqyosi muvofiq kelmaydigan bo'lsa;
- haddan ortiq risk yoki xom ashyo qiymati, malakali ishchi kuchiga to'lanadigan ish haqi xarajatlari yuqori bo'lsa;
- loyiha tatbiq etilganidan keyin, uning ekspluatatsiya davriy xarajatlari mavjud moliyaviy resurslar yoki muqobil qarorlarga nisbatan g'oyat yuqori bo'lishi aniqlansa;
- loyiha evaziga taklif qilinadigan mahsulotga bo'lgan talab etarli bo'lmasa yoki uning qiyosiy afzalliklari aniqlanmasa.

Investitsiya loyihasini amalga oshuvchanligini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha dastlabki tahlil o'tkazilishi lozim:

- asosiy moddiy va mehnat resurslarining, shuningdek ixtisoslik malakalarining mavduligi;
- kapital qo'yilmalar va ekspluatatsiya xarajatlarining joriy diskontlangan qiymati;
- loyiha variantlarining moliyaviy va iqtisodiy qiymati;
- loyihani amalga oshirilishidan naf ko'rishi lozim bo'lgan aholi guruhlari yoki hududlarni mahsulot yoki xizmatlar xarakteriga bo'lgan talab hajmi;
- mahsulot chiqarishning tegishlicha baholari bo'lgan muqobil texnik echimlari borligi, shu jumladan, joylarda oldindan ishlatilayotgan texnologiyalarning mavjudligi, ularni takomillashtirish imkoniyatlari.

Bundan tashqari taqdim qilinayotgan loyihaga biron-bir jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday tashkiliy va siyosiy to'siqlar tahlili o'tkaziladi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shuningdek ularni ichki va tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirishda mamlakatning xalqaro bozorga chiqishi kuchli zamin va asos hisoblanadi. Loyihaning keljakka qaratilishi uning oldindan ayтиб berish mumkin emasligidan dalolatdir, shu sababli investitsiya loyihasining sifat tavsiflarini hisobga olish muhim.

Risklarni moliyalashtiruvchilar o'rtasida taqsimlash va pasaytirish maqsadida loyihalarni amalga oshirish loyihaviy moliyalashtirish asosida olib boriladi. Loyihaviy moliyalashtirish loyihani amalga oshirishni kuzatib borishning maxsus tizimiga ega bo'ladi. Bunda o'z fondlaridan, qarzga olingan mablag'lardan, boshqalarning investitsiyalaridan foydalanish, ta'minotchilar, mijozlar, davlat, xalqaro tuzilmalar faoliyati bo'yicha monitoring o'tkazishni nazarda tutadi. Monitoring, shuningdek investitsiya jarayoni ishtirokchilarining joriy faoliyatini, dastlabki moliyalashtirish tuzilmasini, hisob-kitoblarning foydaliligini, kreditni qaytarish grafiklari va qarzni uzish shartlarini kuzatib borishni ham qamrab oladi.

Xullas, respublika hududida invesititsiya loyihalari bilan bog'liq bo'lgan va ularni amalga oshirish jarayonlariga tortilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tuzilmaviy qayta o'zgartirishlarning ma'nosini teran anglashlari, globallashuv, xalqaro raqobat va iqtisodiyotlarning o'zaro bog'lanishlari oqibatlarini, rivojlanish istiqbollari va mamlakatning xalqaro bozorlarga chiqishini oldindan ko'ra bilishlari kerak. Bularning barchasi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tanlab olish, amalga oshirish, istiqbollarini belgilashda va ularni ichki va tashqi mablag'larni jalb qilish hisobiga moliyalashtirishda asosiy masalalar hisoblanadi.

7.4. Qarz oluvchi korxonalarining kreditga layoqatligi bo'yicha sinflarga bo'linishi

Investitsion loyihlarni kreditlash jarayoni juda ko'p va turli xil xavf-xatarlar (risklar) bilan bog'liq bo'lib, qaysiki kreditlarni belgilangan muddatda qoplanmaslik muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli banklar o'z mijozlariga kredit berishda, mijozning kreditga layoqatlilagini tahlil qiladilar.

Bank mijoji kreditga layoqatligi deganda mijozning o'z qarz majburiyatlarini bo'yicha to'liq va o'z vaqtida hisoblashish qobiliyati tushiniladi. Mijozning kreditga layoqatlilik darajasi banklar uchun juda zarur, chunki har bir berilgan kredit risk bilan bog'liq. Agar bank riskni hisobga olmasa, kredit o'z vaqtida qaytmasligi yoki umuman to'lansmasligi mumkin. Shu sababli, banklar o'z mijozlari moliyaviy holatini, to'lovga qobilligini va albatta, kreditga layoqatliligini tahlil qiladi.

Jahon amaliyotida, xususan AQShda banklar tomonidan, mijoz kreditga layoqatliligini baholashda "five s", "besh si" qoidasi ishlatiladi. Ular quyidagilar:

- character (mijoz xarakteri);
- capacity (moliviy sharoiti);
- capital (kapital yoki mol-mulk);
- colletarial (ta'minlanganlik);
- conditions (umumi iqtisodiy vaziyat).

Mijoz xarakteri deganda, uning yuridik shaxs sifatida reputatsiyasi, ma'suliyatligi, olingen qarzni to'lashga xohishi va tayyorlik darajasi tushiniladi. Mijoz moliviy sharoiti yoki qobiliyati deganda, mijozning kreditni qaysi manbalardan qoplashligi tushiniladi. Odatda, korxonada quyidagi 3 manbalar mavjud: joriy kassa tushumlari; aktivlarni sotishdan tushgan tushum; va boshqa moliyalashtirish manbalari (maxsus rezervlar, amortizatsiya fondi va b.)

Kapital deganda, mijozning aktsionerlik kapitali, uning strukturasi, aktiv va passivlar orasidagi munosabatlar tushuniladi. Uning ustav fondi va o'z kapitalining kredit operatsiyasiga jalb qilish darajasini ko'rib chiqish tushuniladi.

Ta'minlanganlik deganda, mijozning aktivlari qiymati va konkret ikkilamchi qarzni qoplash manbai (kafillik, sug'urta, garov) kredit shartnomasida ko'rsatiladi.

Umumiy iqtisodiy vaziyat deganda, mamlakatdagi joriy va kelajakdag'i iqtisodiy holat, siyosay ahvol, soliqlar, xom ashyo va boshqa kredit qaytarilishiga ta'sir etuvchi bilvosita omillarni o'rganish tushuniladi. Ushbu usul hozirda bizning banklarda qo'llanilsa foydadan holi bo'lmasdi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishdan asosiy maqsad, bu qarz oluvchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning imkoniyatlari, qarzni o'z vaqtida qoplashni, risk darajasini, kredit miqdori va boshqa omillarni belgilangan sharoitda va holatda tahlil qilishdan iboratdir. Banklar uchun bu masalalarni amalga oshirish juda qiyin bo'lsada, xuddi ana shu maqsad amalga oshirilsagina berilgan kreditdan foyda olinadi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilish vazifasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- kreditga layoqatlilikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash;
- ko'rsatkichlarni tahlil qilish (yil boshi va yil oxirini taqqoslash);
- ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- kreditga layoqatlilikni mustahkamlash yo'llarini aniqlash;

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi bilan tijorat banklari tomonidan kreditga layoqatlilikni tahlil qiluvchi yangi metodlar ishlab chiqilmoqda, qaysikim korxona haqidagi (kreditga layoqatligi haqidagi) tahlilni chuqurroq olib borishni ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda jahon amaliyotida (YUNIDO tasdiqlagan standart bo'yicha) moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha tahlil va reyting metodi bo'yicha tahlil usullari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida Markaziy Bank tomonidan chiqarilgan yo'riqnomalar bo'yicha korxonalariga turli xil muddatga kreditlar berilib, ularning kreditga layoqatliligining moliyaviy ko'rsatkichlarning tahliliga asoslanib beriladi. Tahlil uchun asosiy manba bo'lib buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan foydalaniladi.

Kreditga layoqatlilikni ifodalovchi asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlar quyidagilar:

1. Qoplash koeffitsienti;
2. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;
3. Likvidlik koeffitsienti;

Qo'shimcha koeffitsientlar:

1. Oborot mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsienti;
2. O'z aylanma mablag'lari mavjudligi;
3. Foya va rentabellik koeffitsientlari.

1. Kreditga qobiliyatilikning asosiy ko'rsatkichlari: qoplash, likvidlik va mustaqillik koeffitsientlaridir. Bu koeffitsientlar tahlili uchun ma'lumotlar balansdan olinadi.

Jahon amaliyotida korxona likvid mablag'lari ikkiga bo'linadi:

- absolyut likvid mablag'lar;
- joriy likvid mablag'lar.

Absolyut likvid mablag'lar tarkibiga balans aktiv qismining ikkinchi bo'limi jamisi kiritiladi. Ular 3 qismdan iborat: oson ishlatiladigan zahiralar; pul mablag'lari; oson amalga oshiradigan talablar, «debitorlik qarzlari».

Likvid mablag'larning korxonada etaricha bo'lishi, uning majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olishidan dalolat beradi.

Joriy likvid mablag'lar bu juda ham tez pulga aylanadigan korxona vositalarini o'z ichiga oladi, shu sababli joriy likvid mablag'lar tarkibiga balans aktiv qismi ikkinchi bo'limining quyidagilari kiradi: pul mablag'lari; debtorlik qarzlari.

Joriy likvid mablag'lar korxonaga birlamchi to'lovlarini amalga oshirishda kerak bo'ladi. Ular yuqori likvidlikka egaligidan, korxonada ushbu mablag'lar ham me'yor darajasida bo'lishi kerak. Zero, kredit inspektori mijozni kreditga layoqatlilagini tahlil qilishda ushbu ko'rsatkichlar alohida ahamiyat beradi.

Likvid mablag'lar quyidagi tartibda 2 ga bo'linadi:

1. Qisqa muddatli likvid mablag'lar;
2. Pul mablag'lar+oson amalga oshiriladigan talablar.

Qisqa muddatli likvid mablag'lar tarkibi 3 qismdan iborat: oson ishlatiladigan talablar; pul mablag'lari; oson amalga oshiriladigan talablar.

Likvid mablag'larni bunday 2 ga bo'lishdan maqsad, qoplash va likvidlik koeffitsientlarini hisoblash oson bo'ladi.

Qisqa muddatli likvid mablag'lar

Qoplash koeffitsienti = -----

Qisqa muddatli majburiyatlar

Pul mablag'lari + oson amalga oshiriladigan talablar

Lik. koef. = -----

Qisqa muddatli majburiyatlar

Qoplash koeffitsienti shuni ifodalaydiki, ya'ni u kreditlash chegarasini ko'rsatadi va mijozning hamma aylanma vositalarining qarzni olishga etarliligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2 dan yuqori bo'lsa, mijoz kreditga layoqatlidir. Agar 0,5 dan kam bo'lsa, kreditlash foydasiz bo'lib, mijoz kreditga layoqatsiz hisoblanadi.

Likvidlik koeffitsienti mijozning aylanma kapitali strukturasini baholash asosida yaqin kelajakda bankdan olgan kreditlarini operativ (tezkorlik) va o'z vaqtida to'lay olish qobiliyati hisoblanadi. Likvidlik koeffitsienti 1,5 dan yuqori bo'lsa, korxona yuqori kreditga layoqatlilik darajasiga erishgan bo'ladi.

Qoplash va likvidlik koeffitsientlarini topishda, qisqa muddatli majburiyatlarni to'g'ri hisoblash talab etiladi. Qisqa muddatli majburiyatlar, buxgalteriya balansining passiv qismidagi majburiyatlar bo'limidan olinadi.

Banklardagi kredit inspektorlari mijozning kreditga layoqatliligin tahlil qilishda, balansdagi asosan (oborot aktivlari va majburiyat bo'limidagi) moddalarning tarkibiy o'zgarishlarini ko'rib chiqadilar. Bu albatta, xavf-xatarni baholashni engillashtiradi.

Korxona kreditga layoqatliligi tahlili uchun kerak bo'ladigan keyingi ko'rsatkich - bu o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsientidir. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik - bu korxonaning jami mablag'lari ichida o'zining mablag'lari qanchaligidan dalolat beradi. O'z aylanma mablag'larining holati korxona moliyaviy holatiga ta'sir etadi. Tahlil natijasida o'z aylanma mablag'lari mavjud summasi aniqlanadi. Buning uchun balans passivining birinchi bo'linmasini jamiga uzoq muddatli kredit va qarzlar qo'shilib, oborotdan tashqari aktivlar ayrıldi. Chiqqan natija, oson ishlatiladigan zahiralar va xarajatlarga bo'linadi. Kredit olishga layoqatlilikni aniqlashda o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik katta ahamiyatga ega. Nolikvid balanslarga ega

bo'lgan korxonalarga bank kreditlaridan foydalanish huquqi berilmaydi. Ushbu koeffitsient 0,6 dan, ya'ni 60%dan yuqori bo'lsa, kredit xatari eng kam hisoblanadi. Bu koeffitsient 30%dan, ya'ni 0,3 dan kam bo'lmasligi lozim. Korxonaning balans bo'yicha o'z oborot mablag'larini mavjud summasi, balans passivining birinchi bo'linmasini jamiga uzoq muddatli kredit va qarzlar qo'shilib, chiqqan natijadan balans aktivining birinchi bo'limining jami summasi ayrıladı. Korxona aylanma mablag'larini ortiqcha yoki etishmasligini aniqlash uchun balans bo'yicha aylanma mablag'larini mavjud summasi normativi bilan taqqoslanadi.

Bank kredit berishda korxonaning mahsulot sifatini, muddati uzaytirilgan debitorlik qarzlarini, kapital remont uchun qilingan xarajatlarni, turli zararlarni qoplashini ko'rib chiqish kerak. Bunga sabab shuki, ushbu aytilganlar bo'yicha qo'shimcha sarflanishlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, korxona bu qo'shimcha sarflanishlar aylanma mablag'lari hisobidan bo'ladi, shu sababli ushbu qo'shimcha sarflanishlar aylanma mablag'lariga salbiy ta'sir etib, haqiqatda xo'jalik jarayonida qancha aylanma mablag'lari ishtirok etayotganligini ifodalaydi. Balans bo'yicha aylanma mablag'larini mavjud summasi bilan haqiqatdan ham korxona xo'jalik oborotida ishtirok etadigan aylanma mablag'larini summasi bir-biridan farq qiladi. Har ikki ko'rsatkich o'rtaсидagi farq aylanma mablag'larini immobilizatsiyasini tashqil etadi. Immobilizatsiyasi oborot manbalarini chetga tortilishidir. Ya'ni o'z maqsadidan tashqari sarflanishidir. Kredit inspektori ushbu koeffitsientni hisoblashda, albatta aylanma mablag'larining mavjud summasi immobilizatsiyasini hisobga olishi kerak.

Jahon amaliyotida, aylanma mablag'larining mavjud summasini (o'z aylanma mablag'larini) aniqlashda quyidagi usul qo'llaniladi, ya'ni balans aktivining 2 chi bo'limi (aylanma aktivlari) summasidan, balans passivining 2 chi bo'limi (majburiyatlar) ayrıladı (uzoq muddatli qarz va kreditlardan tashqari).

Korxona (mijoz) kredit olishga layoqatliligining tahlilida qo'llaniladigan qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'lib, aylanma mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsientini va aylanma mablag'larining kunlardagi aylanuvchanligi ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Aylanma mablag'lari aylanuvchanligi koeffitsienti aylanma mablag'lari harakatining tezligini ta'riflaydi va tahlil qilinayotgan davr uchun mahsulot sotishdan olingan tushum va aylanma mablag'larining o'rtacha qiymati o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi. Tahlil uchun ma'lumotlar yillik hisobotning 1-shakli balans va 2-shakli moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan olinadi.

S

$$\text{Aylanuvchanlik koef.} = \frac{\text{S}}{\text{U K}}$$

bu yerda S - (mahsulot sotishdan tushgan tushum); UK - (oborot mablag'lari o'rtacha qoldiqlari)

$$A K = \frac{UK \times 360}{C}$$

A K - (oborot mablag'larining kunlardagi aylanuvchanligi).

Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan kredit munosabatlarini mustaqil ravishda o'matadilar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tijorat banklaridan kredit olish uchun kredit buyurtmasini beradilar. Shu kredit buyurtmasiga asosan tijorat banklari qarz oluvchining moliyaviy ahvolini tahlil qiladilar. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- kredit olish uchun berilgan kredit buyurtmasini ko'rib chiqish va bo'lajak qarz oluvchi bilan suhbatlashish;
- qarz oluvchining kredit qobiliyatini va qarz berish bilan bog'liq xatarlarni baholash;
- kredit narxini belgilash;
- kredit shartnomasini tayyorlash va uni tuzish.

Mijozlarning kreditga layoqatliligi bo'yicha sinflarga bo'lish va korxonalar reytingini aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan chiqarilgan yo'riqnomalar bo'yicha korxonalarini kreditga layoqatliligi asosiy ko'rsatkichi bo'lib: qoplash koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti va muxtoriyat koeffitsientlari hisoblanadi.

T/r	Nomi	1-sinf	2-sinf	3-sinf
1.	Koplash koef. (Q.k)	K.k ≥ 2	2 < Q.k < 1	1 > Q.k > 0,5

2.	Likvidlik koef.(K.l)	$K.l \geq 1.5$	$1.5 < k.l < 1$	$1 > k.l > 0.5$
3.	Muxtoriyat koef.(Km)	$K.m \geq 60\%$	$60\% < k.m < 30\%$	$30\% > k.m > 15\%$

Agar korxona 1-sinfga kiritilsa, unda umumiy asoslarda kreditlanadi. Ularga nisbatan kredit berishning imtiyozli tartibi ham nazarda tutilishi mumkin, ya’ni ishonch krediti berilishi, qo’shimcha ma’lumotlar va hisob-kitoblarsiz kredit berilishi va boshqa imtiyozlar taqdim etilishi mumkin.

Agar korxona 2-sinfga kiritilsa, xo’jalik yurituvchi sub’ekt manfiy qo’shimcha ko’rsatkichlarga ega bo’lsa, beqaror (barqaror emas) deb hisoblash lozim, bunday korxonalar bilan kredit shartnomalari tuzilganida uning faoliyati va kreditning qaytarilishi ustidan nazoratning qo’shimcha choralari ko’zda tutilishi kerak. Xususan, garov huquqi qattiqlashtirilishi, foiz stavkalari oshirilishi, kafolatlar berilishi hamda kreditdan foydalanish miqdorlari va muddatlari cheklanishi kerak.

Agar korxona 3-sinfga kiritilsa, bu korxonalarga faqat favqulodda hollarda yuqori tashkilot kafolatlari yoki oshirilgan foiz stavkasini undirish bilan mol-mulk garovga qo’ylgandagina kreditlanadi.

Kreditga layoqatlilikni mustahkamlash yo’llari deganda, bu iloji boricha asosiy va qo’shimcha ko’rsatkichlarni yuqori bo’lishini ta’minlashdir. Demakki, har bir ko’rsatkich bo’yicha yuqorilikka erishishdir. Buning uchun korxona barqaror ishlab chiqarish jarayonini birinchi galda tashqil etishi lozim. Pul mablag’larining ortishi korxonaning birlamchi to’lovlarni oshirish uchun kerak mablag’larga bo’lgan extiyojlarni kamaytiradi va korxonada ishlab chiqarish maromiyligi buzilmasligiga olib kelishi mumkin.

O’z aylanma mablag’lari bilan ta’minlanish koeffitsienti bo’yicha esa, yuqori natijalarga erishish uchun o’z mablag’lari manbaini ortishini ta’minlash kerak. Chunki oborotda ishlataladigan mablag’larda o’z aylanma mablag’lari ulushi qancha ko’p bo’lsa, uning kreditga layoqatliligi ortadi. Uzoq muddatli aktivlar ortishi salbiy ta’sir etsada, ularning ortish tempini o’z aylanma mablag’lari mavjud summasini ortish tempidan pastrok bo’lishini ta’minlash zarur. Yana korxonada

o'z aylanma mablag'larini immobilizatsiyasiga yo'l qo'ymaslik zarur, ya'ni ularning o'z maqsadidan boshqa maqsadlarda ishlatalishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki ular immobilizatsiyasiga yo'l qo'yilsa, ularning balans bo'yicha hisoblangan qiymatidan haqiqatda oborotda qatnashayotgan aylanma mablag'lari kam chiqadi. Buning natijasida esa, aylanma mablag'lari aylanish koeffitsienti pasayadi, oqibatda o'z aylanma mablag'lari etishmovchiligi yuzaga keladi. Kreditga layoqatlilik tahlilida aylanma mablag'lari immobilizatsiyasini ham hisobga olish kerak. Kreditga layoqatlilikni mustahkamlash yo'llaridan yana foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish hisoblanadi. Korxona sof foydasi o'tgan yilga nisbatan hisobot yilda ortishini ta'minlash lozim, buning uchun esa unga salbiy ta'sir etuvchi omillar kamayishi va ijobiy ta'sir etuvchi omillar ko'payishini ta'minlash kerak.

Nazorat savollari:

1. Investitsiya loyihamalarining moliyaviy va iqtisodiy ekspertizasi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
2. Investitsiya loyihamalari baholash usullarini sanab o'ting?
3. Investitsiya loyihamalari iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishning o'ziga xos belgilari?
4. Investitsiya loyihamalari ekspertizasida moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlari nimadan iborat?
5. Korxonaning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili deganda nimani tushunasiz?
6. Investitsiya loyihamalari ekspertizasi qilishda ishlab chiqarish xarajatlarini baholash deganda nimani tushunasiz?
7. Investitsiya loyihamalari ekspertiza qilishning an'anaviy uslubiyoti deganda nimani tushunasiz?
8. Investitsiya loyihamalari ekspertizasi qilishda pul oqimi tahlili deganda nimani tushunasiz?

9. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida diskontlash usullari deganda nimani tushunasiz?
10. Investitsion tahlilning asosiy tamoyillari nimadan iborat?
11. Pul oqimlari loyihasini prognozlashtirish deganda nimani tushunasiz?
12. Foydaning ichki me'yori va uni hisoblashning qanday usullari mavjud?
13. Sof joriy qiymat va uni hisoblash usullari?
14. Diskontlashtirish stavkasi nima.
15. Loyihaning rentabelligini baholash qanday olib boriladi.
16. Loyihaning qoplanish muddati qanday aniqlanadi.

VIII-BOB: INVESTITSIYA LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA INFLYATSIYA TA'SIRINI BAHOLASH

8.1. Inflyatsiyaning iqtisodiy mazmuni, kelib chiqish sabablari va uning turlari

Inflyatsiya lotincha “inflatio” so’zidan olingan bo’lib “shish”, “bo’rtish”, “ko’pchish” degan ma’noni anglatadi. Bu so’z XIX asrning o’talaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatalguncha qadar, u tibbiyotda xavfli o’sma kasalini ifodalashda qo’llanilgan.

Tarix haqiqatda ham bu so’zning har tomonlama xavfli ekanligini ko’rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorda tovarlar va xizmatlar narxining o’sishidangina iborat bo’lmasdan, bu umumiqtisod uchun xavfli hodisa ekanligini yaqqol namoyon etdi. Inflyatsiya so’zining iqtisodiy ma’nosi – muomalada mavjud bo’lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko’p pul chiqarishni anglatadi. Iqtisodda inflyatsiyaning yakuni tovarlar bahosining o’sishiga, qoniqtirilmagan, lekin qisman to’lanishi mumkin bo’lgan talablarning vujudga kelishiga olib keladi. Odatda inflyatsiyaning bu turi klassik inflyatsiya deb yuritiladi. Inflyatsiya – muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo’lib, narx-navo o’sib, pulning qadr-qiymati, ya’ni harid qobiliyatining pasayishi, pulning obro’sizlanishidir.

Inflyatsiya – bu barcha tovar va xizmatlarga bo’lgan narx indeksining ko’tarilishidir. Narx indeksi joriy yildagi o’rtacha narxlarni avvalgi yildagi o’rtacha narxlarga nisbati tarzida hisoblanadi. Ammo, inflyatsiyani pulning qadrini pasayishi, muomalada qog’oz pulning ko’payib ketishi tarzida ifodalash uning to’liq mazmunini ochib bermaydi, inflatsiya narxlarning o’sishi tarzida namoyon bo’lsa ham, uni faqat pul bilan bog’lash yaramaydi. U murakkab iqtisodiy voqelik, u butun takror ishlab chiqarishning disproportsiyasini, ya’ni mutanosiblikni buzilishini ifodalaydi.

Inflyatsiya so'zi pul muomalasi sohasida AQShning Shimoliy va Janubiy shtatlari o'rtaida fuqarolar urushi bo'lganda muomalaga juda ko'p miqdorda qog'oz dollar chiqarilgan vaqtidan boshlab qo'llanila boshlagan. Ularning sotib olish qobiliyati ikki yildan keyin 50 foizlarga tushib ketgan. Agar tarixga e'tibor beradigan bo'lsak, urush va boshqa ofatlar sababli davlat xarajatlarning oshib ketishi, inflyatsiya bilan uzviy bog'liq. Masalan, Angliyada kuchli inflyatsiya XIX asrning boshida Napoleon bilan urush davrida, Frantsiyada - frantsuz revolyutsiyasi davrida, Rossiyada XIX asrning o'rtalarida namoyon bo'lgan. Germaniyada juda yuqori sur'atlardagi inflyatsiya 1923 yillarda bo'lib, muomaladagi pul massasi 496 kvintillion markagacha etgan va pul birligi trillion marta qadrsizlangan. Bu tarixiy misollar ko'rsatadiki, inflyatsiya hozirgi davr jarayoni bo'lmasdan, tarixan mavjud bo'lgan jarayondir.

Inflyatsiya va uning rivojlanishi alohida olingan mamlakatda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi davr inflyatsiyasi, o'tgan davr inflyatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Oldingi inflyatsiyalar vaqtinchalik bo'lib, ular odatda urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Biror daromad olmasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish va tovarooborot sur'atlarini oshirmsandan, yoki bu ko'rsatkichlar kamayib ketgan holda davlat tomonidan bo'ladigan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy yo'llaridan biri qog'oz pullarni muomalaga chiqarishdan iborat bo'lgan. Natijada muomalaga chiqarilgan pullar, muomala uchun zarur bo'lgan oltin miqdoridan oshib ketgan va pulning real qiymati uning nominal qiymatidan tushib ketgan, ya'ni, haqiqatda pul birligi o'zida ko'rsatilganidan kam oltin miqdorni ifoda qila boshlagan. O'tgan davr inflyatsiyalarining yana bir xususiyati shundaki, ular ma'lum davrda namoyon bo'lgan. Hozirgi davr inflyatsiyasi esa, odatda doimiy (xronik) xarakterga ega bo'lib, xo'jalik hayotining barcha sohalarini qamrab olishi bilan, pul omillaridan tashqari boshqa iqtisodiy omillarga ta'sir qilishi bilan farqlanadi.

Oxirgi yillarda inflyatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo'lib sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya:

birinchidan, uzlucksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan, pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib kelmoqda. XX asr inflyatsiyasining asosiy sababi tovar kamyobliligi bo'lib qolmasdan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda inqirozlar mavjudligi bilan ifodalanadi. Hozirgi davr inflyatsiyasi birinchidan, pul talabining tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi; ikkinchidan, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog'ining o'sishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilan ifodalanadi.

Inflyatsiyaning asosiy sababi – bu iqtisodiyotning turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblikdir. Bu avvalo jamg'arma va iste'mol o'rtasidasidagi, talab va taklif o'rtasidasidagi, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lган talabi o'rtasidagi nomutanosibliklarning vujudga kelishi bilan izohlanadi.

Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi barcha sabab-omillarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Pulga oid bo'lган, ya'ni monetar omillar;
2. Pulga oid bo'lмаган, ya'ni nomonetar omillar.

Monetar omillar pulga talab tovarga talabdan ortiqcha bo'lishinikeltirib chiqaradiki, buning natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi ro'y beradi. Nomonetar omillar sarf-xarajatlar va tovarlar bahosi birlamchi o'sishiga olib keladi. U yoki bu guruhga mansub omillari ustunlik qilishiga bog'liq holda inflyatsiyaning ikkita shakli farqlanadi:

- talab inflyatsiyasi;
- taklif inflyatsiyasi, ya'ni sarf-xarajatlar inflyatsiyasi.

Talab inflyatsiyasi talab va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning talab tomonidan buzilishini anglatadi, ya'nn mablag'lar ortiqchaligi taklifni cheklashga va natijada baholarni oshirishga undaydi.

Sarf-xarajatlar inflyatsiyasi ishlab chiqarish xarajatlari ortib ketishi oqibatida baholar o'sishini anglatadi. Tuzilmaviy inflyatsiya talab va sarf-xarajatlar inflyatsiyasini biriktiradi va uning asosida talab strukturasi o'zgarishlari bilan

bog’liq bo’lgan jarayonlar turadi. Talab inflyatsiyasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Iqtisodiyotning harbiylashuvi va harbiy xarajatlar ortishi:

Ushbu jarayon iqtisodiyotning jonlashib ketishiga olib keladi, chunki harbiy maqsadlarga davlat xarajatlari ortishi mehnatga layoqatli axolining harbiy texnika ishlab chiqarish sohasida bandligi o’sishiga olib keladi. Ayni mahalda zamonaviy texnika noharbiy maqsadlarda foydalanish uchun kamroq darajada moslashgani tobora oydinlashib boraveradi. Milliy daromad bir qismi noishlab chiqarish iste’moli doimiy ravishda o’sib borishi natijasida davlatning o’zi mazkur tovarning iste’molchisi sanaladi, davlat byudjeti defitsiti vujudga kelishi va davlat qarzi ortib ketishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Davlat byudjeti defitsiti ortishi va davlat qarzining o’sishi:

- defitsit qoplanishi pul belgilarini qo’shimcha emissiyalash yoki joylashtirilayotgan davlat zayomlari kattaligi o’sishi hisobiga amalga oshiriladi:

- kredit ekspansiyasi. U emissiya banklari tomonidan hukumatni kreditlaganda va milliy valyutaga ayirboshlanadigan xorijiy valyuta bilan pul massasini to’yintirganda amalga oshiriladi:

- import qilinadigan inflyatsiya. U ikki holda o’tkaziladi: keyinchalik milliy valyutaga almashtiriladigan xorijiy valyutada xalqaro kreditlar olganda, bu bilan esa mamlakatda pul massasi ko’paytiriladi va milliy valyutaning qo’shimcha to’lov emissiyasi hisobiga faol to’lov balansiga ega bo’lgan holda xorijiy valyutani sotib olganda.

Sarf-xarajatlar inflyatsiyasi bahoni shakllanishi jarayoniga quyidagi pulga oid bo’lmaidan omillarning ta’sir o’tkazishi bilan xarakterlanadi:

- Mehnat unumdorligining pasayishi va ishlab chiqarish hajmining kamayishi. Odatda bu iqtisodiyotdagi tuzilmaviy siljishlar yoki tsiklik tebranishlar tufayli kelib chiqadi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining o’sishiga, shu bilan birga, foya hajmining qisqarishiga, kelgusi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga va baholar o’sishiga sharoit tug’dirib beradi.

- Xizmatlar sohasi kengayishi va jamiyatda xizmatlar ahamiyatining ortishi. Xizmatlar sohasida qoida tariqasida, odatda ishlab chiqarish sohasiga qaraganda mehnat unumdorligi yanada sekinroq o'sishi kuzatiladi, va ayni mahalda ishlab chiqarish umumiylarida ish haqi salmog'i solishtirma nisbatga ega bo'ladiki, bu xizmatlarga belgilanadigan baholarning yalpi o'sishiga olib keladi.
- Ishlab chiqarish xarajatlari umumiylarida mehnatga haq to'lashning o'sishi. Kasaba uyushmalari va yollanma ishchilarning nominal ish haqi ustidan nazorat o'rnatishga yo'naltirilgan faoliyati ish beruvchilar ish haqi oshirilishini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bahosi o'sishi bilan birga amalga oshirishiga olib keladi.
- Bahodan tashqari raqobat. Mahsulot assortimentini kengaytirish va sifatiga, reklama vositasida sotishgayo'naltirilgan ishlab chiqarish shart-sharoiti o'zgarishi ishlab chiqarish va shunga muvofiq, tovarlar bahosining o'sishiga olib keladi;
- Egri soliqlarning kattaligi. Bu omillar tovarlar tannarxini o'z ichiga oladi va tovar bahosining o'sishiga olib keladi;

Tuzilmaviy inflatsiyada davlat byudjeti defitsiti va tovar defitsitining baholar darajasining tez o'sishi va aholi real daromadlari pasayishi birgalikdagi birikishida ro'y berishi mumkin.

Inflyatsiyani boshqa mezonlar asosida ham tasniflash mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, mamlakat pul tizimi rivojlanishi, inflatsion jarayonlar omillari va darajasi. Inflyatsiya jarayonlarini uning darajasiga qarab klassifikatsiyalash ancha keng tarqalgan.

Inflyatsiya o'sish darajasi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) normal (bir yilda narxlar o'sishi sur'ati 3-3,5 % bo'ladi);
- 2) mo''tadil (sudraluvchi) (narxlar o'sishi suratlari bir yilda 10 % ga etadi, ammo 50 % dan yuqori bo'lmaydi);
- 3) yo'rg'alovchi (narxlar o'sishi sur'ati bir yilda 100 %ga qadar etadi, ba'zan esa 200 %gacha bo'lishi mumkin);
- 4) giperinflyatsiya (narxlar o'sishi sur'ati bir oyda 50 %ga qadar etadi. Barterga o'rinni bo'shatib bergen pullar aylanmadan siqib chiqariladi).


Inflyatsiyaning barcha turlaridan iqtisodiyot uchun giperinflyatsiya eng halokatli sanaladi, bunda pulning roli haddan tashqari pasayib ketadi va aholi hisob-kitobning boshqa shakllariga o'tib ketadi. Paralel valyuta, jumladan xorijiy valyutalar ham paydo bo'ladi.

Giperinflyatsiyaning xarakterli jihatlari quyidagilar sanaladi:

1. Mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlarning butunlay barbod bo'lishi.
2. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar noishlab chiqarish boyliklarga sarflagan holda pullardan tezroq xolos bo'lib olishga harakat qiladilar.
3. O'zaro hisob-kitoblar barter xarakteriga ega bo'lib boradi.
4. Ishlab chiqarish butunlay to'xtab qoladi va qimmatlashib ketishini mo'ljallagan holda tovarlar jamg'ariladi.
5. Iqtisodiyotda chayqovchilik faoliyati kuchayib ketadi.

Inflyatsiyaning yuqorida sanab o'tilgan barcha turlari o'zida ochiq inflyatsiyani ifoda etadi. Bunda iqtisodiyotdagi baholar o'sishi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan farqli ravishda baholar o'sishi kuzatilmaydigan yopiq inflyatsiya ham mavjud bo'lishi mumkin. Pullarning qadrsizlanishi tovarlar tanqisligi va navbatda turishlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot va tovarlarning sifatini pasaytirish orqali ularning baho darajasini oshirmaydilar. Natijada sifat pasayishi hisobiga yuqori foyda olishga harakat qiladi. Masalan nonning tarkibidagi minerallarni kamaytirish, uning massasini kamaytirish kabilar bunga misol bo'ladi.

Inflyatsiyani boshqa mezonlarga ko'ra tasniflanishi quyidagi rasmda ifodalangan (8.1-rasm).



8.1-rasm. Inflyatsiyaning tasniflanishi²²

Inflyatsiya iqtisodiyotga ham ijobjiy tarafdan, ham salbiy jihatdan ta'sir o'tkazadi. Bu esa uning o'sish sur'atlariga bog'liq bo'ladi. Ko'p hollarda esa, inflyatsiya iqtisodiyotda salbiy oqibatlarga olib keladi.

1. Iqtisodiyotda disproportsiyani, ya'ni nomutanosiblikni kuchaytiradi. Tovarlarga belgilangan baholarning notekis o'sib borishi ishlab chiqarishning bir tarmog'idan kapitallarni boshqa bir tarmoqqa qayta sarflashga sharoit yaratadi (bir xil tarmoqlarda ishlab chiqarish kengayadi va boshqalarida esa qisqaradi). Bunda uzoq muddatli investitsiyalarga xos rag'batlantirish barbod bo'ladi bu ishsizlik ortib ketishiga, kapital jamg'arilishi jarayoni jilovlanishiga, sub'ektlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalarining izdan chiqishiga olib keladi.

2. Ishlab chiqarishdan muomala sohasiga kapitalni qayta joylashtirish uchun sharoit yaratadi. Kapital tez aylanadigan va foyda keltiradigan chayqovchilik savdo

²² Ромер Д. Высшая макроэкономика: Учебник/Д.Ромер. – М.: ИД ВШЭ, 2015.-стр.628

munosabatlari rivojlanadi. Inflyatsiya sanoat kapitalining barcha shakllarini qadrsizlanishiga olib keladi.

3. Iste'mol talabi tuzilmasini izdan chiqaradi. Tovarlar bahosining o'sib ketishi pullar real boyliklarga – ularga bo'lgan ehtiyojdan qat'iy nazar tovarlarga aylantirishga intilishni yuzaga keltiradi.

4. Ichki bozor sig'imiga putur etkazadi. Aholi barcha qatlamlari real ish haqi kamayib ketadi, to'lovga qobil bo'lgan talab qisqarishi hisobiga tovarlarni sotish va o'tkazish qiyinlashadi.

5. Pul-kredit tizimining faoliyatiga putur etkazadi. Pullar harid qobiliyati pasayishi pul jamg'aramalari hajmi qisqarishiga va shu bilan moliya-kredit muassasalari resurslarining qisqarishiga olib keladi. Kapitalni jalb etish va sarflash sohalari uchun kurash keskin tus oladi. Ularning salmoqli qismi ichki bozorga tovar shaklida ham pul shaklida ham qaytib kelmaydi.

6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pullarning qadrsizlanishi eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalarning raqobatbardoshligini pasaytiradi va xorijdan tovarlar olib kelishga imkoniyat tug'diradi. Kapitalni foydali bir tarzda sarflash va ishonchli bopshana izlash maqsadida kapitalning chet mamlakatlarga chiqib ketishi ro'y beradi buning natijasida esa mamlakatning to'lov balansi yomonlashadi.

7. Davlat tomonidan moliyalashtirish jarayonini faollashtiradi va byudjetning pul belgilari emissiyasi hisobiga to'ldirib borilishini rag'batlantiradi. Bunday sharoitda g'aznaga soliq tushumlari kamayadi, davlat qarzi muammosi keskinlashadi.

8. Valyuta inqirozini keskinlashtiradi. Mamlakatlar o'rtasidagi inflyatsiya sur'atlaridagi tafovut valyutaning rasmiy va bozor kursi o'rtasida nomuvofiqlikka olib keladi. Inflyatsiya xalkaro to'lov vositalari (ularning massasi) ko'payishiga sharoit yaratib beradi.

Inflyatsiya eng avvalo tovarlar va xizmatlarning tovar sifatiga solishtiriluvchi baholar oshishida (oshkora va yashirincha) namoyon bo'ladi. Inflyatsiya darajasini oldingi davrga nisbatan olganda baholar darajasi ortishi (qo'shimcha o'sishi)

sur'ati bilan xarakterlanadi va odatda bir yil uchun foizlarda iste'mol narhlari indeksi asosida hisoblab chiqiladi.

Inflyatsiya darajasini hisoblab chiqish uchun joriy davr iste'mol narhlarini bazis davr iste'mol narhlari indeksidan chegirib tashlash, olingan farqni bazis davr iste'mol narhlari indeksiga taqsimlash va yuzga (foizlarda) ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$I = \frac{Ib - Ij}{Ib} * 100 \quad (1)$$

bunda: I – foizlarda ifodalangan inflyatsiya darajasi; Ij va Ib – joriy va bazis davrlardagi iste'mol narhlari indeksi.

Inflyatsion jarayonlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri tahdidi turli darajalarda amalga oshiriladi: makrodarajada, tarmoq darajasida va alohida korxonalar darajasida, shu tufayli uch guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh makroiqtisodiy yakuniy ko'rsatkichlar (YaIM, pirovard iste'molga xarajatlar, yalpi jamg'arma va boshqalar) deflyator ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Makrodarajada YaIM deflyatori orqali aniqlash bir qator yillardagi YaIM kattaligini aniqlashni anglatadi.

YaIM deflyatori joriy narhlarda, oldingi davr narhlarida ifodalangan qiymat ko'rsatkichlarini solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Narhlar indeksi – YaIM deflyatori tahlil qilinayotgan haqiqiy narhlardagi ko'rsatkich kattaligini uning qiyosiy narhlardagi kattaligiga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqiladi. YaIM indeksi-deflyatori – joriy narhlardagi YaIMning oldingi davrning doimiy narhlaridagi YaIM hajmiga nisbatidir. YaIM indeksi-deflyatori mehnatga haq to'lash fondi va asosiy fondlar iste'moli, sof soliqlar o'zgarishlari xarakterlandi. U Paashe formulasi bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$DYAIM = \frac{EP1Q1}{EP0Q1} * 100\% \quad (2)$$

bunda: EP1Q1 – joriy narhlarda ifodalangan YaIM; EP0Q1 – qiyosiy narhlarda ifodalangan joriy davr YaIM.

Bunday qayta baholash to'g'ridan-to'g'ri deflyator deb ataladi.

Amaliyotda esa deflyator YaIMning pirovard foydalanish elementlarini qayta baholash yo'li bilan aniqlanishi mumkin.

Narhlar o'sishi tufayli daromadlar, iste'mol va turmush darajasi o'zgarishlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlarning ikkinchn guruhi (tarmoq darajasi) iste'mol narhlari va xalq iste'moli narhlari aholi daromadlari va xarajatlari dinamikasi ko'rsatkichlari, milliy valyuta harid qobiliyati va ish haqi ko'rsatkichlari, oziq-ovqat mahsulotlari qiymati va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'rtacha oylik ish haqining konkret tovarlar narhlariiga tanlanma byudjet tadqiqotlari ma'lumotlari bo'yicha belgilanadigan nisbati sifatida hisob-kitob qilinuvchi harid qobiliyati inflyatsiyaning ko'rgazmali xarakteristikasi sanaladi. Ko'rsatkichlarning mazkur guruhida yashash uchun zarur bo'lgan minimum nisbatini ham hisoblab chiqish mumkin: bunda aholining o'rtacha jon boshiga nisbatan olingan ish haqi daromadlari, o'rtacha oylik ish haqi, pensiyaning o'rtacha o'rtacha miqdori bilan hisoblanadi.

Inflyatsiya darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlarning uchinchi guruhi inflyatsiya o'sishi oqibatida mahsulot ishlab chiqarish foydasi va rentabelligi o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Foya va rentabellikning omilli tahlili uchun quyidagi indekslardan foydalaniladi:

1. Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar narhlari o'zgarishi indeksi:

$$I_{pq} = \frac{\sum_{i=1}^n P_1 * Q_1}{\sum_{i=1}^n P_0 * Q_1} \quad (3)$$

2. Moddiy-texnika boyliklari baholarining o'zgarishi indeksi ("harid narhlari indeksi"):

$$I_{pm} = \frac{\sum m_1 * p_1}{\sum m_0 * p_0} \quad (4)$$

3. Asosiy fondlar va kapital sarflar balans qiymati o'zgarishlari indeksi:

$$\hat{P}_t = \frac{\sum o_1 * P_1}{\sum o_1 * P_0} \quad (5)$$

Amaliyotda esa, yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlarga inflyatsiya ta'sirini butunlay kamaytirishning iloji yo'q, ammo ma'lum ma'noda uning ta'sirini yumshatish va engillatish mumkin.

Ushbu holatda narh (inflyatsiya) dinamikasi sur'atlarini maksimal darajada aniq hisoblash amaliy muammo hisoblanadi. Uni o'lchashda Laspeyres, Paashe va Fisher narh indekslaridan foydalaniladi.

Iste'mol narhlari indeksi (Laspeyres narh indeksi) – xalqaro tan olingan statistik ko'rsatkich, narh (inflyatsiya) dinamikasini o'lchash uchun qo'llaniladi. Bunda iste'mol narhlari indeksi tovar taklifining bazaviy hajmlarini taqqoslash asosida aniqlanadi:

$$I_t^0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i^t * Q_i^0}{\sum_{i=1}^n P_i^0 * Q_i^0} \quad (6)$$

Bu yerda:

I1 – iste'mol narhlari indeksi (Laspeyres narh indeksi);

P⁰ – 0- bazaviy davr uchun i- tovar narhi;

P^t – t- vaqt uchun i - tovar narhi;

Q⁰ – 0- bazaviy davr uchun i- tovar sotish hajmi; i – indeksni hisoblashda e'tiborga olinadigan tovarlar turlari, 1 dan n qiyamatgacha.

Iste'mol narhlari indeksi (Laspeyres narh indeksi) narh o'sishi real dinamikasini oshiradi deb hisoblanadi.

Paashe narh indeksi - narh (inflyatsiya) dinamikasini o'lchashda qo'llaniladigan boshqa statistik ko'rsatkich. U yuzaga kelgan taklif hajmini taqqoslash asosida aniqlanadi:

$$I_p^t = \frac{\sum_{i=1}^n P_i^0 * Q_i^t}{\sum_{i=1}^n P_i^t * Q_i^t} \quad (7)$$

Bu yerda:

I_p – Paashe indeksi;

P⁰ – 0-bazaviy davr uchun i-tovar narhi;

P^t – t-vaqt uchun i-tovar narhi;

Q^t – t- vaqt uchun i-tovar sotish hajmi;

i – indeksni hisoblashda e'tiborga olinadigan tovarlar turlari, I dan n qiyamatgacha.

Paashe indeksi narh o'sishi real dinamikasini kamaytiradi deb hisoblanadi.

Fisher narh indeksi - o'ziga xos turdag'i "ideal" statistik ko'rsatkich bo'lib, iste'mol narhlari indeksi Laspeyres narh indeksi va Paashe narh indeksining narh (inflyatsiya) dinamikasining miqdoriy o'zgarishlarida xatoliklarni neytrallashtirish uchun qo'llaniladi. U ularning o'rtacha geometrik kattaligini o'zida aks ettiradi va quyidagicha aniqlanadi:

$$I_f = \sqrt{I_l * I_p} \quad (8)$$

Bu yerda: If – Fisher indeksi;

I_l – Iste'mol narhlari indeksi (Laspeyres narh indeksi);

I_p – Paashe narh indeksi.

Narh dinamikasini o'lchash uchun boshqa ko'rsatkichlarni ham iqtisodiy tahlilga tadbiq etishga harakat qilinmoqda va ilmiy ishlanmalar ishlab chiqilmoqda.

8.2. O'zbekistonda inflyatsiya sur'atlari va uning o'zgarish dinamikasi

O'zbekistondagi inflyatsiya bu mustaqil O'zbekiston zaminida vujudga kelgan inflyatsiya emas. Tarixan bu inflyatsiya sobiq Ittifoqda yuzaga kelgan. Bu inflyatsiyaning umumiy iqtisodiy sababi davlat boshqaruvida iqtisodga nisbatan

siyosatga ko'p e'tibor bergenidadir. Natijada ishlab chiqarish sur'tlari tushib ketdi. Tovar kamyobligi yashirin jarayon bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish uchun ko'p xarajat qilinsada (xom-ashyolarning narxi yuqoriligi tufayli) tovarlar past bahoda sotilgan. Farq davlat byudjetidan qoplama borgan. 1992 yilning boshidan erkin baholarga o'tish natijasida (oziq ovqat va yoqilgi resurslardan tashqari) inflyatsiya yuzaga otolib chiqdi va tez sur'atlar bilan rivojlanib ketdi.

Shu tufayli O'zbekistonidagi inflyatsiya sobiq Ittifoq davrida yuzaga kelgan inflyatsiyaning qoldig'idir va uni davolash uzoq vaqt ni talab qiladi.

Sobiq Ittifoqda, jumladan O'zbekistonda 90-yillardagi inflyatsiyaning asosiy sabablari - iqtisodiy muvozanatning yo'qligi, ishlab chiqarish sur'atlarining tushib ketishi natijasida rejali iqtisodiyotdagi inqiroz;

- mahsulotlar sifatining, mehnat unumidorligining pastligi;
- ishlab chiqarishda xarajatlar salmog'inинг oshib ketishi, behuda sarflar, iqtisod printsiplariga rioya qilmaslik va boshqalar hisoblanadi.

Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va itisodiy jihatdan qarama qarshiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun davlat inflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqadi. Inflyatsiyaga qarshi ko'rashning asosiy shakllari: inflyatsiyaga qarshi siyosat va pul islohati hisoblanadi.

Har davlatda pul muomalasi ma'lum qonun-qoidalar asosida tartibga solib turiladi.

Oldingi markazlashgan, rejali boshqaruvgaga asoslangan iqtisodiy tizimda pul muomalasi rejalashtirish asosida boshqarib keligan. Aholining daromadi va harajatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turilgan. Tovar ishlab chiqarishni kengaytirish, aholiga kreditga tovar berish, baholar tizimini o'zgartirib turish va hakazolar. Barcha jarayonlar davlat tomonidan boshqarilgani uchun pul muomalasi qonuni buzilganda davlat o'z vakolati doirasida narxlarni o'zgartirish yo'li bilan, pul reformasi bilan pul muomalasini tartibga solib kelgan.

Bozor iqtisodi sharoitida pul muomalasi ma'lum usullar yordamida tartibga solib turiladi. Milliy iqtisodiyotda pul muomalasini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi usullardan foydalanadi:

1. Majburiy zahira stavkasi normasini belgilash.
2. Tijorat banklarini ochiq bozorda qatnashishi.
3. Markazlashgan kreditlar uchun qayta moliyalashtirish stavkasini o'rnatish.

O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklariga minimal majburiy zahira bo'yicha mablag'larni maxsus hisob raqamda saqlab turish majburiyatini yuklash huquqiga ega. Bunday zahiralar normalari bankning majburiyatlari turiga, omonat muddatiga qarab belgilanadi. Bu mexanizm asosan tijorat banklarining likvid mablag'lari hajmining muvofiqlashtirish uchun foydalanadi. Bu bilan Markaziy bank tijorat banklarining kredit berish qobiliyatiga ta'sir etadi. Kredit, ma'lumki o'z navbatida pul massasining ko'payishiga, baholarning o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun majburiy norma tez-tez o'zgartirilmaydi, chunki u muomalada pul massasini tebranib turishiga va oxiri iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Markaziy bank tijorat banklarga kreditlar bo'yicha qayta moliyalashtirish stavkasini belgilab beradi. Bu stavka tijorat banklari beradigan kreditning bahosini aniqlash asos bo'lib xizmat qiladi. Qayta moliyalashtirish siyosati tijorat banklarining boshqa manbalaridan mablag'lar jalb qilishiga ta'sir etmaydi. Markaziy bank oqilona qayta moliyalashtirish stavkalarini o'rnatib tijorat banklarini likvidlik darajasini muvofiqlashtirib turadi.

Quyida berilgan jadvalda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi va inflyatsiya darajasining yillar bo'yicha dinamikasi qiyosiy tahlil uchun berilgan.

8.1-jadval

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi va inflyatsiya darajasining yillar bo'yicha dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil
Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik	14,0	14,0	14,0	14,0	12,0	12,0	12,0	10,0	9,0	14,0	14,0	16,0

darajasi, %											
Inflyatsiya darajasi, %	6,8	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0	6,8	6,1	7,0	7,5	11,0

Markaziy bankning kredit siyosati iqtisodiyotning hal qiluvchi bo'g'inlarini kreditlash va undan unumli foydalanishga qaratilgan qayta moliyalashtirish stavkasi oldingi yillarda quyidagicha belgilangan.

- 1 yanvar 1994 yildan - 40%;
- 1 oktabr 1994 yildan - 225%;
- 1 mart 1995 yildan - 300%;
- 1 iyul 1995 yildan - 120% (oyiga 10%);
- 1 avgust 1995 yildan - 84% (oyiga 7%);
- 1 iyul 1996 yildan - 60% (oyiga 5%);
- 1 avgust 1996 yildan - 48% (oyiga 4%);
- 1 avgust 1997 yildan - 39,6% (oyiga 3,3%);
- 16 iyul 2003 yildan - 24 % (oyiga 2 %);
- 10 sentabr 2003 yildan - 20 % (oyiga 1.66 %);
- 5 iyul 2004 yildan - 18% (oyiga 1.5 %);
- 21 dekabr 2004 yildan - 16% (oyiga 1.33 %);
- 1 yanvar 2011 yildan – 12%;
- 1 yanvar 2014 yildan – 10%;
- 1 yanvar 2015 yildan – 9%;
- 1 yanvar 2016 yildan – 14%;
- 1 yanvar 2018 yildan – 16%.

Hozir ko'pgina davlatlarda pul muomalasini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalanilmoqda.

Bu hozirgi ko'p qo'llanadigan monetar siyosatning bir usuli hisoblanadi. Bu usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta'sir o'tkaza oladigan eshiluvchan (moslanuvchan), amaliy va operativ usul hisoblanadi. Bu usulni boshqalaridan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va hohlagan miqdorda o'tkazish mumkin. Bu mexanizm bozorni rivojlanish tendentsiyasiga qarab pul

muomalasini baraqarorlashtira olishi mumkin. Markaziy bankning ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish huquqi qonunda belgilangan. Bunda oldi - sotdi ob'ekti bo'lib davlat qiymatbaho qog'ozlari va Markaziy bank o'zi chiqargan qarz majburiyatlari bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, qayta moliyalash stavkasi umuman iqtisodiyotda muayyan darajada foiz stavkalarining indikatori bo'lib xizmat qiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tijorat banklari jalb qilingan depozitlar va berilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'zlari mustaqil ravishda belgilashlari mumkinligiga qaramasdan qayta moliyalash stavkasining kamaytirilishi foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi.

Hozir ko'pgina davlatlarda pul muomalasini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalanilmoqda.

Bu hozirgi ko'p qo'llanadigan monetar siyosatning bir usuli hisoblanadi. Bu usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta'sir o'tkaza oladigan eshiluvchan (moslanuvchan), amaliy va operativ usul hisoblanadi. Bu usulni boshqalaridan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va hohlagan miqdorda o'tkazish mumkin. Bu mexanizm bozorni rivojlanish tendentsiyasiga qarab pul muomalasini baraqarorlashtira olishi mumkin. Markaziy bankning ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish huquqi qonunda belgilangan. Bunda oldi - sotdi ob'ekti bo'lib davlat qiymatbaho qog'ozlari va Markaziy bank o'zi chiqargan qarz majburiyatlari bo'lishi mumkin. Hozirgacha muomalada Markaziy bankning uch oy muddatda so'ndiriladigan depozit sertifikatlari yurgan bo'lsa, 1996 yil mart oyi oxirida DQMO chiqarildi. Bu tijorat banklari va korxonalarining mablag'larini xavf-xatardan saqlash va daromad olish imkonini beradi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini kiritish birinchidan, Moliya vazirligiga o'z joriy harajatlarining bir qismini inflatsiyadan holi manba hisobidan qoplashga, ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining bo'sh mablag'larini foyda olish evaziga investitsiya qilish mumkinligiga imkoniyat yaratdi.

DQMOlarning birlamchi bozori Markaziy bank valyuta birjasida tijorat banklari ishtirikida chiqariladi.

Zarur bo'lsa obligatsiya egasi ikkilamchi bozorda o'z foydasi evaziga uni sotishi mumkin.

Shunday qilib, Markaziy bank pul muomalasini barqarorlashtirish uni tartibga solish borasida barcha vakolat va huquqiy normalarga ega.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar ko'pgina davlatlarda qo'llaniladi. Davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa selektiv usullardan ham foydalanishi mumkin. Bu usullarni maqsadi kreditlash hajmiga va umumiyligi pul massasiga ta'sir o'tkazib borishdir. Bu usullarni har davlat o'zini rivojlanishi darajasiga qarab qo'llashi mumkin. Masalan, rivojlangan davlatlarda asosan ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalaniladi. Yuqoridagilarni tahlil qilsak, har usul u yoki bu yo'l bilan (bevosita yoki bilvosita) muomaladagi pul massasini kamayishiga yoki ko'payishiga ta'sir qiladi.

Iqtisodiyotdagi ahvolga qarab Markaziy bank o'zining pul- kredit sohasidagi strategiyasini aniqlaydi. Bundan tashqari mamlakatdagi pul muomalasi xukumat tomonidan chiqarilgan qaror va buyruqlar bilan ham bgoshqariladi. Bunga misol qilib korxona tashkilotlarini kassa tushum rejasini bajarishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish, barcha savdo shahobchalarini inkassatsiyaga tortish, aholini o'z daromadini davlat banklarida saqlashga targ'ib qilish va ishontirish, qiymatli qog'ozlar bozorini kengaytirish, hisob cheklaridan keng foydalanish, bank tizimini takomillashtirish, ya'ni elektron kartochkalarini joriy bo'lish va boshqalar bularning hammasi muomaladagi pul massasining kamayishiga, emissiya miqdorining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar ko'pgina davlatlarda qo'llaniladi. Davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa selektiv usullardan ham foydalanishi mumkin. Bu usullarni maqsadi kreditlash hajmiga va umumiyligi pul massasiga ta'sir o'tkazib borishdir. Bu usullarni har davlat o'zini rivojlanishi darajasiga qarab qo'llashi mumkin.

Masalan, rivojlangan davlatlarda asosan ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalaniladi. Yuqoridagilarni tahlil qilsak, har usul u yoki bu yo'l bilan (bevosita yoki bilvosita) muomaladagi pul massasini kamayishiga yoki

ko'payishiga ta'sir qiladi. Iqtisodiyotdagi ahvolga qarab Markaziy bank o'zining pul-kredit sohasidagi strategiyasini aniqlaydi. Bundan tashqari mamlakatdagi pul muomalasi xukumat tomonidan chiqarilgan qaror va buyruqlar bilan ham bgoshqariladi. Bunga misol qilib korxona tashkilotlarini kassa tushum rejasini bajarishi ustidan qattiq tazorat o'rnatish, barcha savdo shahobchalarini inkassatsiyaga tortish, aholini o'z daromadini davlat banklarida saqlashga targ'ib qilish va ishontirish, qiymatli qog'ozlar bozorini kengaytirish, hisob cheklaridan keng foydalanish, bank tizimini takomillashtirish, ya'ni elektron kartochkalarini joriy bo'lish va boshqalar bularning hammasi muomaladgi pul massasining kamayishiga, emissiya miqdorining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Pul islohati deb pul muomalasini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan pul tizimini o'zgartirishga aytildi. Pul islohoti metall pul muomalasi davrida, ikkinchi jahon urushidan keyin - oltin deviz, oltin dollar muomalasi davrida o'tkazildi.

O'zbekistonda pul islohoti 1994 yilda o'tkazildi va respublika mustaqil davlat sifatida o'zining milliy pul birligiga ega bo'ldi.

Pul muomalasini barqarorlashtirishga pul islohotini o'tkazmasdan ham erishish mumkin. Pul muomalasini barqarorlashtirishning quyidagi usullari mavjud: revalvatsiya, devalvatsiya, denominatsiya. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, iqtisodiyotning holatiga, pulning qadrsizlanish darajasiga, davlat siyosatiga qarab davlat pul islohotini o'tkazishi, pulni revalvatsiya, denominatsiya qilishi mumkin.

Pul kuchli qadrsizlangan sharoitida faqat pul islohotini o'tkazish yo'li bilan pul tizimini barqarorlashtirish mumkin. Pul islohoti, ya'ni nullifikatsiyada kuchli qadrsizlangan pul birligi bekor qilinadi va o'rniga yangi pul birligi kiritiladi. Masalan, Sobiq Ittifoqda 1922-1924 yillardasovznaklarning kuchli qadrsizlanishi natijasida 1 rubl 50 mlrd. sovznakka almashtirilgan. Urushdan keyingi Germaniyada giperinflyatsiya natijasida 1924 yilda muomalaga yangi nemis markalari kiritilgan. Eski reyxsmarkalar kuchli qadrsizlanishi natijasida

muomalaga chiqarilgan yangi markalar 1 marka : 1 trillion eski reyxsmarka nisbatida almashtirildi. Reyxsmarkalar muomalasi bekor qilindi.

Pul islohotini o'tkazish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- muomaladagi pul massasini kamaytirish maqsadida, deflyatsiya kursi bo'yicha eski pullarni yangi pullarga almashtirish:

- aholi va korxonalarining banklardagi jamg'armalarini vaqtincha (to'liq yoki qisman) harakatsiz ushlab turish (qotirib qo'yish):

- ikkala usulni birgalikda qo'llash yo'li orqali pul islohotini o'tkazish: bu usul xalqaro amaliyotda "shok yo'li" bilan davolash nomi bilan mashhurdir. Bu usul 1948 yilda G'arbiy Germaniyada xarbiy davlat boshqaruvidan bozor iqtisodiga o'tishda qo'llanilgan. "Shok yo'li" bilan davolashda ish haqqini to'lashni to'xtatib qo'yish, ishlab chiqarishni qisqartirish, pul islohotini o'tkazish, ish o'rinalarini qisqartirish kabi qattiq choralar qo'llanilishi mumkin. Masalan, G'arbiy Germaniyada 1948 yilning iyun oyida o'tkazilgan pul islohatida aholining nakd pullari va jamg'armalari 6,5 yangi nemis markasiga 100 eski reyxsmarka qilib almashtirildi. Aholining pul jamg'armalarini to'lash vaqtincha to'xtatilgan, keyinchalik fakat 30 foiz atrofida to'langan va har bir kishiga 60 nemis markasi miqdorida nafaqa ajratilgan. Natijada davlatning reyxs markasidagi qarzi, mamlakatda bo'lgan disbalans tugatilgan va shu yo'l bilan inflyatsiyaning o'sish templari to'xtatilgan.

"Shok yo'li" bilan davolash Yaponiyada 1949-50 yillarda o'tkazilgan va u "Dodj rejasi" degan nomni olgan. Bu rejaga asosan Yaponiyada inflyatsiyaga qarshi juda qattiq chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Erkin bahoga o'tish bilan bir vaqtning o'zida er islohoti o'tkazildi, byudjet kamomadini yo'qotish yo'llari ishlab chiqildi. Yaponiyada mavjud zarar bilan ishlovchi korxonalarga davlat tomonidan beriladigan subsidiya bekor qilindi, korxona, tashkilotlarga kredit berish shartlari mukammallashtirildi, aholi jamg'armalari ishlatilmasdan qotirib qo'yildi.

Iqtisodni "shok yo'li" bilan davolash Sharqiy Evropa mamlakatlari - Yugoslaviya, Polsha kabi mamlakatlarda ham qo'llanilgan. "Shok yo'li" bilan davolash iqtisodiy siyosati 1989 yilning oxirlarida Polshada qo'llanilgan bo'lib, ish

haqi vaqtinchalik ko'tarib qo'yilgan holda, baholar erkinlashtirilgan. Natijada 1990 yilning boshlariga kelib Polshada tovarlar mo'l-ko'lchiligi vujudga kelib boshladi va tovarlar bahosining bir necha barabor oshishi natijasida inflyatsiya suratlari sekinlashishiga erishildi. Polshada bu iqtisodiy tadbirning o'tkazilishi aholining yashash sharoitini ancha qiyinlashtirdi va ishsizlar sonini ko'paytirdi.

8.3. Investitsiya loyihamini baholashda inflyatsiya ta'sirini hisobga olish

Inflyatsiya ta'siri baholarning o'sishi yuqori bo'lмаган holda ham investitsiya loyihasini baholashda har doim hisobga olinishi lozim bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Inflyatsiya har qanday sharoitda ham, nafaqat, ichki bozor uchun, balki tashqi bozorga mahsulot eksport qilishga mo'ljallangan barcha loyihamining foydaliliga sezilarli, ba'zida jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat investitsiya loyihamini amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi.

Nazariy jihatdan qaraganda, inflyatsiyani o'rtacha baholarning o'sish jarayoni deb tushunish mumkin. Shunga ko'ra, inflyatsiyani aniqlash baholarning o'sishini, birinchi navbatda, baholarning foizlarda o'sish ko'rsatkichini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, baholarning o'sishi yil davomida 1,2 mln. so'mdan 2,0 mln. so'mgacha yuz bersa, u holda ularning o'sishi 66,7% ni $((2,0/1,2) \times 100 - 100)$ tashkil etadi.

Odatda, inflyatsiyani hisoblash uchun baholar indeksi, ya'ni baholar o'sishini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shunga ko'ra, amaliyotda bazisli va zanjirli baholar indeksidan keng foydalanishni kuzatish mumkin bo'ladi.

Basisli baholar indeksini hisoblash uchun har bir davr uchun olingan ko'rsatkichni baza sifatida qabul qilingan davr ko'rsatkichiga bo'lish lozim bo'ladi. Basisli baho indeksini hisoblash formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I_{bas.} = \frac{Ki}{Kbas} * 100 \quad (9)$$

bu yerda, Ibas. - bazisli baho indeksi; Ki - kuzatilayotgan davrdagi ko'rsatkichlar miqdori; Kbas. - baza sifatida qabul qilingan tegishli davr ko'rsatkichi.

Zanjirli baholar indeksini hisoblash uchun har bir davr uchun olingan ko'rsatkichni baza sifatida qabul qilingan davr ko'rsatkichiga bo'lish zarur bo'ladi.

$$Izan = \frac{Ki}{Ki-1} * 100 \quad (10)$$

bu yerda, Izan. - zanjirli baho indeksi; Ki - kuzatilayotgan davrdagi ko'rsatkichlar miqdori; Ki-1 - kuzatilayotgan davrdagidan bitta oldingi davrga tegishli ko'rsatkichlar.

Tushunarli bo'lish uchun quyidagi misolni keltirib o'tamiz.

1-misol. Faraz qilaylik, yuqori inflyatsiya sharoitida korxona mahsuloti bahosining oyma-oy o'sishi kuzatilsin va sentyabr oyida uning bir birligi 150 ming so'm, oktyabr oyida - 175 ming so'm, noyabr oyida - 220 ming so'm va dekabr oyida - 255 ming so'mga teng bo'lsin. Bu holda bazisli va zanjirli baho indekslari quyidagi ko'rsatkichga teng bo'ladi:

$$\text{Oktyabr oyida, Ibas.} = \frac{175}{150} * 100 = 1,17\% \quad Izan = \frac{175}{150} * 100 = 1,17\%$$

$$\text{Noyabr oyida: Ibas.} = \frac{220}{150} * 100 = 1,47\% \quad Izan = \frac{220}{175} * 100 = 1,26\%$$

$$\text{Dekabr oyida: Ibas.} = \frac{255}{150} * 100 = 1,7\% \quad Izan = \frac{255}{220} * 100 = 1,16\%$$

Zanjirli va bazisli baho indekslari o'zaro quyidagi bog'liqlikka ega:

$$Ibas.t = Izan0 * Izan1 * Izan2 * ... * Izant = \prod_{i=1}^t Izani$$

bu yerda, Ibas.t – t davridagi bazisli baho indeksi; Izan0, Izan1...Izan.t – Odan to t gacha zanjirli baho indekslari.

$$Izan.t = \frac{Ibas.t}{Ibas.t-1} \quad (11)$$

bu yerda, Izan.t – t davridagi zanjirli baho indeksi; Ibas.t-1 – t davridan bitta oldingi bazisli baho indeksi.

Inflyatsiyani investitsiya loyihalari samaradorligiga ta'sirini ifodalashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanadi:

- Inflyatsiya sur'ati (yillik yoki oylik), odatda foizlarda ifodalanadi;
- Zanjirli umumiy inflyatsiya indeksi;
- Bazisli umumiy inflyatsiya indeksi; 0-yilda bazisli umumiy inflyatsiya indeksi 1ga teng bo'ladi.

Inflyatsiya indeksi va inflyatsiya sur'atlari o'rtasida quyidagi bog'liqlik mavjud:

$$It = rt + 1 \quad (12)$$

bu yerda, It – t davrdagi o'rtacha oshgan inflyatsiya indeksi; rt - t davrdagi o'rtacha o'sgan inflyatsiya sur'ati.

Quyidagi 2-misolda investitsiya loyihasining pul oqimlarini inflyatsiyani hisobga olgan holda baholaymiz.

2-misol.

Agar investitsiya loyihasida hisobga olinadigan inflyatsiya sur'ati va bazisli inflyatsiya indeksi ma'lum bo'lsa, loyiha samaradorligini inflyatsiyani hisobga olgan holda baholang.

8.2-jadval

Investitsiya loyihasida yillar bo'yicha inflyatsiya sur'atining prognozi

№	Ko'rsatkichlar	Yillar tartib raqami					
		0	1	2	3	4	5
1.	Inflyatsiya sur'ati, %	7	7	10	12	14	14
2.	Bazisli inflyatsiya indeksi	1	$(1+0,07)/1=1,07$	$(1,07+(1,07*0,1))/1=1,177$	$(1,177+(1,177*0,12))/1=1,318$	$(1,318*(1,318*0,14))/1=1,503$	$(1,503*(1,503*0,14))/1=1,713$

Shuni qayd etish kerakki, investitsiya loyihalarida inflyatsiyani hisobga olgan holda nominal diskont stavkasini aniqlash I.Fisher formulasi orqali topiladi:

$$En = E+r + E^*r \quad (13)$$

bu yerda, En – nominal diskont stavka, E – real diskont stavka, r – inflyatsiya sur’ati.

Ushbu formula yordamida inflyatsiya ta’sirini hisobga oluvchi diskontlash koeffitsienti (diskont stavkasi) aniqlanganda:

$$E1=E1+r1+ E1^*r1 = 0,2+0,07+0,2*0,07 = 0,284 \text{ yoki } 28,4\% \text{ ga teng bo’lgan.}$$

8.3-jadval

Berilgan shartlarga asosan misolning yechilishi

№	Ko’rsatkichlar	Yillar tartib raqami					
		0	1	2	3	4	5
Joriy narhlarda loyiha hisob-kitobi							
1.	Loyiha bo’yicha kirim	0	0	250	380	390	250
2.	Loyiha bo’yicha chiqim	-100	-100	-80	-200	-100	-80
3.	Kirim va chiqimning yig’indisi	-100	-100	170	180	290	170
4.	Diskontlash koeffitsienti (20%)	1	0,833	0,694	0,579	0,482	0,402
5.	NPV	-100	-83,3	118,0	104,2	139,8	68,3
6.	Kumulyativ NPV	-100	-183,3	-65,3	38,9	178,7	247,0
Prognoz narhlarda loyiha hisob-kitobi							
1.	Loyiha bo’yicha kirim (1-satr x 2-jadvalning 2-satri)	0	0	294,2	500,8	586,2	428,3
2.	Loyiha bo’yicha chiqim (2-satr x 2-jadvalning 2-satri)	-100	-107	-94,2	-263,6	-150,3	-291,2
3.	Kirim va chiqimning yig’indisi	-100	-107	200	237,2	435,9	137,1
4.	Diskontlash koeffitsienti ($En = E+r + E^*r$)	1	0,7788	0,5739	0,4119	0,2855	0,2087
5.	NPV	-100	-87,33	114,78	97,71	124,46	28,62
6.	Kumulyativ NPV	-100	-187,33	-72,55	25,16	149,62	178,24

8.3-jadval ma’lumotlaridan shuni aytish mumkinki, investitsiya loyihasi samaradorligini joriy va proqnoz narhlardagi hisob-kitobi bo’yicha sof joriy qiymat (NPV) 247,0 va 178,24 pul birligini tashkil etadi.

Shunday qilib, inflyatsiya sababli real diskont stavkasiga ($r + E^*r$) qiymatga teng bo’lgan inflyatsiya premiyasi qo’shiladi, ($r + E^*r$) ifoda inflyatsiya sur’atidan E^*r qiymatga ortiq bo’lib, u Fisher effekti deb ataladi. Masalan, diskont stavka

10%, inflyatsiya sur'ati 5% bo'lganda nominal inflyatsiya sur'ati En = $0,1+0,05+0,1*0,05 = 0,155$ ga teng bo'ladi.

Inflyatsiya sharoitida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda shunday bo'lishi mumkinki, loyihaning sof joriy qiymati nominal baholarda ortib, real baholarda kamayishi, xattoki manfiy ifodaga ega bo'lishi mumkin. Bunda uch xil holat kuzatiladi:

- Ep<r bo'lganda, ya'ni real foiz stavka inflyatsiya darajasidan past bo'lsa, pul mablag'larining real qiymati tushadi (lekin bunda sof joriy qiymatning nominal qiymati oshishi mumkin), demakki loyiha samarasiz.
- Ep=r bo'lganda, ya'ni real foiz stavka inflyatsiya darajasiga teng bo'lsa, pul mablag'larining real qiymati oshmaydi, chunki oshgan qiymatni inflyatsiya yana qirqib yuboradi.
- Ep>r bo'lganda, ya'ni real foiz stavka inflyatsiya darajasidan katta bo'lsa, inflyatsiyaga qaramasdan pul mablag'larining real qiymati oshib boradi.

Inflyatsiyani hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini samaradorligini baholashning quyidagi turlari mavjud:

1. *Yakuniy ko'rsatkichni inflyatsiyani hisobga olgan holda to'g'irlash (korrektirovka qilish).* Bunda:

- Prognoz baholarda pul oqimlari;
- Real diskont stavkasi Ep;
- Inflyatsiya sur'ati r ma'lum bo'lsa,

investitsiya loyihasining samaradorlik ko'rsatkichlari nominal ko'rinishda aniqlanib, so'ngra quyidagi formula yordamida korrektirovka qilinadi:

$$P.real.t + 1 = \frac{P.nom.t + 1}{I_{bas.}} \quad (14)^{23}$$

Bu yerda, $P_{real,t+1} - t+1$ davridagi real pulning qiymati; $P_{nom,t+1} - t+1$ davridagi nominal pulning qiymati; $I_{bas.}$ – bazisli baho indeksi.

2. Inflyatsiyani hisobga oluvchi diskont stavkasini shakllantirish. Bunda:

²³ Староверова Г.С. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. пособие./ Г.С.Староверова, А,Ю.Медведев, И.В.Сорокина. – М.: КНОРУС,2006. –С 209.

Fisher formulasi yordamida inflyatsiyani hisobga oluvchi diskont stavkasi aniqlanadi;

Aniqlangan diskont stavka yordamida samaradorlik ko'rsatkichlari topiladi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, inflyatsiya baholarning, to'g'rirog'i, o'rtacha baholarning o'sish jarayoni sifatida tushuniladi. Shu sababli, inflyatsiya darajasini aniqlash baholarning foizlarda o'zgarishiga asoslanadi, ikkinchidan, inflyatsiyani aniqlashda baholar o'sishini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlardan, ya'ni bazisli va zanjirli baho indekslaridan foydalaniladi. Pulning real qiymati ko'rsatkichi inflyatsiya indeksiga, ya'ni baholar o'sishining o'rtacha yillik indeksiga teskari proporsionallikda bo'ladi, uchinchidan, pulning kelgusidagi real qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, foiz stavkasi shunchalik yuqori bo'ladi va u qanchalik kichik bo'lsa, inflyatsiya indeksi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar inflyatsiya indeksi qabul qilingan foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, u holda bankka qo'yilgan summaning kelgusidagi real qiymati hozirgi vaqtqidagidan past bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida inflyatsiya omili qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
2. Yillik inflyatsiya darajalarini hisoblash usullarini bilasizmi?
3. Kapital qo'yilmalarni hudud va tarmoqlar bo'yicha baholash deganda nimani tushunasiz?
4. Inflyatsiyaning qanday turlari mavjud?
5. Inflyatsiya sharoitida foiz stavkalari tahlili deganda nimani tushunasiz?
6. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari qanday turkumlanadi?
7. Moliyalashtirish manbalari dinamikasi va tarkibini tahlili deganda nimani tushunasiz?
8. Moliyaviy resurslarni jalb qilish usullarini bilasizmi?
9. Investitsion tahlilni tashkil etishning shart-sharoitlari qanaqa?
10. Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishda dasturiy ta'minotlar deganda nimani tushunasiz?

11. Sudraluvchi inflyatsiya deganda nima tushuniladi?
12. Shiddatli inflyatsiya deganda nima tushuniladi?
13. Giperinflyatsiya deganda nima tushuniladi?
14. Revalvatsiya deganda nima tushuniladi?
15. Devalvatsiya deganda nima tushuniladi?

IX-BOB. INVESTITSIYA LOYIHASI BO'YICHA RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH

9.1.Investitsiya faoliyatida risklar, ularning mazmuni, mohiyati va nazariy asoslari

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarini zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatga bardoshli mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatdagi barcha mavjud sarmoyalar safarbar qilina boshlandi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirish yo'lga qo'yildi. Shu maqsadda respublika hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan investitsiya siyosati o'tkazilmoqda.

Bizga ma'lumki, biror bir hududga investitsiya kiritishdan avval, ushbu hududning investitsiya muhitini o'rghanish, investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklar, ularning vujudga kelish sabablari, risklarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish, shuningdek, risk ehtimollarini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Respublikamizdagi tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirish faoliyati davr talabiga mos holda rivojlanib, nafaqat bank hodimlari, balki investitsiya faoliyatining barcha ishtirokchilari investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish va moliyalashtirishda investitsiya risklarini tahlil qilish, baholash va boshqarish hamda risklarni pasaytirish chora-tadbirlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim.

Investitsion faoliyat ma'lum miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bu sarflangan resurslardan investorlar ma'lum daromad, foyda olishni ko'zlaydi. Mazkur foyda esa investorlarning harajatlarini, inflyatsiya omilini, tadbirkorlik riskini qoplashi lozim. Ammo amaliyotda investorlar har doim ham kutilgan,

rejalashtirilgan natijalarga erisha olmaydilar. Buning asosiy sabablaridan biri – risklarning mavjudligidir.

Investitsion faoliyatda risk – bu investitsiyalarni qisman yoki to’liq yo’qotish, kutilgan daromaddan kamroq yoki ko’proq foyda olish, loyihada ko’zlangan maqsadlarga erisha olmaslik ehtimolidir. Loyihadan qanchalik ko’p miqdorda daromad kutilsa, u shunchalik yuqori riskli hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda risk tushunchasi qator iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta’riflanadi. “Risk” so’zi ispancha-portugalcha so’zdan olingan bo’lib, “rif”, “suv ostidagi qoya” degan ma’nolarni bildirib, bu qoyani mohirona aylanib o’tish ma’nosini, ya’ni xavf-hatar bilan bog’liqligini bildiradi²⁴. Taniqli lug’atshunos S.I.Ojegovaning rus tili izohli lug’atida “risk - bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisaga umid” degan ma’no anglatadi deyilsa, mashhur Webster lug’atida riskka “xavf, zarar va talafot ko’rish ehtimoli” deb qaralgan²⁵.

Riskni talqin qilishda akademik M.Sharifxo’jaev va professor Yo.Abdullaevlarning hammualliflikdagi “Menejment: 100 savol va javob” kitobida ham mantiqiy, ham lug’aviy ma’nodan kelib chiqib yondashilgan. Ularning o’zbek tilining izohli lug’atiga tayanib bergen fikricha :

- xavf - biror ko’ngilsiz hodisa yoki falokat yuz berish ehtimolligi; xatar; qo’rqinch;
- xatar - biror baxtsizlikka, falokatga olib kelishi mumkin bo’lgan sharoit; xavf, tahlika;
- xavf-xatar - xavf va xatar, biror narsadan qo’rqish;
- tavakkalchilik - bu oqibatning yaxshi bo’lishiga umid bog’lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda qilinadigan harakat;
- tavakkalchilik - bu resurs yoki daromaddan to’la yoxud qisman yo’qotish xavfi;
- tavakkalchilik - bu noaniqlik sharoitida har qanday dovyurak menejer uchun tabiiy holat, vaziyat. Tavakkalchilik botirning ishi;

²⁴ Инвестиции: Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика»/ Б.Т.Кузнецов. – М.: ИОНИТИ-ДАНА, 2006. с-310.

²⁵ Mirzaev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. - Toshkent: Moliya,2006.12-b.

- tavakkalchilik - bu omadsiz oqibatning miqdoriy baholanishi.

Iqtisodchi olima E.Stoyanova fikricha: “risk - bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko’rish ehtimolidir”. “Risk” tushunchasiga juda yaqin bo’lgan “noaniqlik” tushunchasi bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan riskning ba’zi bir turlarini tasniflash uchun sinonim sifatida qo’llaniladi. Professor V.N.Livshits “noaniqlik deganda investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari to’g’risidagi ma’lumotlarning to’liq emasligi yoki aniq emasligi tushuniladi, loyiha riski deganda esa, loyiha ishtirokchilari tomonidan loyihani amalga oshirishning salbiy baholangan shart-sharoitlarining paydo bo’lish ehtimolidir, ana shu jihatdan risk noaniqlikka qaraganda sub’ektivdir”, deya izohlaydi.

Professor A.V.Vaxabov “Investitsion risk umumiyligi moliyaviy riskning tarkibiy qismi bo’lib, o’zida moliyaviy yo’qotishlar ehtimolini va investitsiyalardan daromadlarni to’liq ololmaslik yoki qo’shimcha investitsion xarajatlarning paydo bo’lishini namoyon etadi”²⁶, deb ta’rif beradi.

Riskning mohiyatiga berilgan ko’plab ta’riflarning tahlili risk vaziyatini keltirib chiqaruvchi asosiy jihatlarni ajratib ko’rsatish imkonini beradi: yuzaga kelgan holatning tasodifiy xususiyati; muqobil qarorlarning mavjudligi; kutilajak natijaning ma’lumligi yoki aniqlash ehtimolining mumkinligi; zararlar yuzaga kelish ehtimoli; qo’shimcha daromad olish ehtimoli.

Yuqoridagi ta’riflardan ko’rinadiki, riskni tushunishda umumiyligi qilib aytganda, ikki xil qarash mavjud. Birinchidan, risk – bu ob’ektiv, ya’ni xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik va uning natijasida resurslarining bir qismidan yoki butunlay ajralish, rejalashtirilgan daromadni ololmaslik, zarar ko’rish, deb qarash. Ikkinchidan, risk - bu sub’ektning xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik, zarar ko’rish ehtimolini bila turib, yaxshi natijaga erishish umidida faoliyatni amalga oshirish, deb tushunish. Demak, ikkinchi xil qarashda risk faoliyatdir, faoliyat boshlash yoki boshlamaslikning sharti. Fikrimizcha, riskka bunday ta’rif berish ham ma’qul

²⁶ A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov. Xorijiy investitsiyalar. O’quv qo’llanma. / i.f.d., professor A.V.Vaxabovning umumiyligi tahriri ostida. – T.: “Moliya”, 2010, 165-b.

emas. Chunki riskni sub'ektning tanlov asosidagi faoliyati, deb tushungan holatimizda uni har xil turlarga bo'lib o'rganish va tasniflashga hojat qolmas edi. Shundan ko'rindiki, o'zbek iqtisodchi-olimlari ham riskni xavf-hatar va tavakkalchilik tushunchalari bilan ifodalaydi. Riskni - yo'qotish ehtimoli (misol uchun foydani, aylanma mablag'ni, kapitalni, mulkni va h.k.) ma'nosida tushunish mumkin.

Hozirgi kunda loyiha risklari deganda loyihani amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo'ladigan vaziyatlar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga loyiha riski investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisini ham anglatadi.

Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zahiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha harajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin. Risk bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimoli, deb tushunish mumkin. Risklarning paydo bo'lismaydigan turlichadir. Masalan, ma'lumotlarning tanqisligi yoki to'liq bo'lmasligi, tashqi va ichki muhittdagi harakatlar (raqobatchilar, ishchilar holati, xukumat va boshqalarning harakatlari) va h.k. "Risk" tushunchasiga juda yaqin bo'lgan "noaniqlik" tushunchasi riskning aniq turlarini tasniflash uchun sinonim sifatida qo'llaniladi. Noaniqlik - bu investitsion loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligidir. Masalan, infliyatsiya haqidagi, texnika-texnologiyalardagi o'zgarishlar haqidagi, loyiha quvvatining, ob'ektning qurilish va foydalanishga topshirish muddatlari, xarajat va natijalarning noto'g'ri hisob-kitob qilinishi kabi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik yuzaga keladi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelish imkoniyati bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar va oqibatlar risk tushunchasi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiya loyihalari kelajakka qaratilganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq tahmin qilish muammodir. Bunday

loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsion qaror bir qator kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlarga ega bo'lgan hollarda, qaror riskli yoki noaniqliklarga ega, deb ataladi.

Bugungi kunda biz nafaqat risklar haqida ma'lumotlarga egamiz, balki ularni tahlil qilib, baho berib, risklarni boshqarish imkoniyatiga egamiz. Lekin tahlilni ham, risklar boshqaruvini ham birinchi bosqichi - bu risk turini aniqlashdir. Investitsion loyihani ishlab chiqishda va amalga oshirish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning har bir turini alohida hisobga olish, o'rganish va tahlil qilish, aniqlash hamda ularni pasaytirish choralarini ishlab chiqish zarur bo'ladiki, bu risklarga qarshi kurashishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bunda risklarning o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

9.2. Investitsiya loyihalariga ta'sir etuvchi risklarning tasniflanishi va xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarning bir necha turlari mavjud bo'lib, investitsiya risklarini turli belgilar bo'yicha tasniflash mumkin.

1. Tarkibi bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadilar: iqtisodiy risk; siyosiy risk; ijtimoiy risk; ekologik risk; texnologik risk; tijorat riski; informatsion risk va boshqalar.
2. Muddati bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadilar: qisqa muddatli risklar; uzoq muddatli risklar.
3. Olinadigan natijaga qarab risklar: sof risklar va spekulyativ risklarga bo'linadi (9.1-rasm).

Sof risklar salbiy natijani olish imkonini anglatadi. Unga ekologik, siyosiy, tabiiy, transport va tijorat risklari (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo risklari) tegishlidir.


Spekulyativ risklar ham ijobiy, ham salbiy natijalarini olish imkoniyatida namoyon bo'ladi, ular moliyaviy risklardan iboratdir.

Moliyaviy risklar tarkibiga kiruvchi pulning to'lov qobiliyati bilan bog'liq risklarga quyidagilar kiradi:

- inflyatsion risklar – pulning qadrsizlanishi bilan bog'liq risklar;
- deflyatsion risklar - deflyatsiyaning o'sishi holatida baho darajasining tushishi, daromadlarning pasayishi, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun shartsharoitning yomonlashuvi sodir bo'ladi;
- valyuta risklari - valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotilishi xavfi sifatida namoyon bo'ladi;
- likvidliilik risklari - qimmatli qog'ozlar yoki boshqa tovarlar sifatini va iste'mol qiymatini baholashning o'zgarishi oqibatida ularni sotishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy risklar tarkibiga kiruvchi investitsion risklar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- daromadlilikning pasayishi riski - qo'yilmalar, kreditlar, portfelli investitsiyalar bo'yicha foizlar va dividendlar miqdorining kamayishi natijasida yuzaga keladi, daromadlilikning pasayishi risklari o'z ichiga foiz va kredit risklarini qamrab oladi;
- foydaning boy berilishi risklari - bu risk amalga oshirilmagan tadbirlar natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha (bilvosita) zararlar hisoblanib, bu risk tarkibiga quyidagilar kiradi, ya'ni birjaviy risklar birjaviy bitimlardan ko'rildigan zararlar xavfi mavjud bo'lgan risklar;
- selektiv risklar - kapital qo'yilmasi, qimmatli qog'ozlar va shu kabilar turini to'g'ri tanlamaganligi bilan bog'liq risklar;
- bankrotlik risklari - tadbirkorlar tomonidan xususiy kapitalini butkul yo'qotish xavfi bilan bog'liq risklar.



9.1-rasm. Risklarning kengaytirilgan tasnifi²⁷


4. Loyihaga ta'sir etish darajasi bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi: mumkin bo'lgan risklar - ular ta'sirida kutilgan foydadan ayrılish mumkin; kritik risklar - loyiha pul tushumlaridan ayrılish hatari; katastrofik risklar - daromaddan va kiritilgan investitsiyalardan ayrılish hatari.

5. Loyerha faoliyati ishtirokchilari uchun risk tahdidlariga ta'sir etishning imkoniyatlarini mezonlari bo'yicha riskni: ichki va tashqi risklarga ajratish

²⁷ Инвестиции: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / И.Ю. Ткаченко, Н.И. Малых. – М.: Издательский центр «Академия», 2009г. С.112.

mumkin. Tashqi risklar loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, ularga siyosiy risklar va fors-major risklari kiradi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida uning har bir bosqichi o'ziga xos risklar bilan bog'liqdir. Birinchi bosqich, ya'ni investitsiya oldi bosqichida ko'proq loyiha tashabbuskorlari marketing riskiga, informatsion va ijtimoiy risklarga ta'sirchan bo'ladi. Investitsiya bosqichida ko'proq ilm-texnika riski, moliyaviy risklar, tashqi iqtisodiy risklar va siyosiy risklar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ekspluatatsiya bosqichida esa loyiha ishtirokchilari texnologik, ekologik, fors-major, nolikvidlilik, iqtisodiy va moliyaviy risklar bilan yuzma-yuz bo'lish ehtimoli mavjud (9.2-rasm).



9.2-rasm. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonining har bir bosqichi bo'yicha risk turlari²⁸

Moliyaviy bozor eng yuqori riskka ega bo'lgan soha deb hisoblanadi. Undagi risklar ikkita katta guruhgaga bo'linadi:

- tizimli risklar;
- tizimsiz risklar.

Tizimli risklar (investitsiya portfeli risklari) - bu hatar ta'siriga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar emas, balki butun bozor, uni katta bir qismi risklarga uchraydi. Bu holda iqtisodiy nobarqarorlik tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'pchilik

²⁸ Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlardan olingan nazariy bilimlar asosida tuzildi.

emitent va qimmatli qog'oz egalari zarar ko'rishlari mumkin. Tizimli risklarga quyidagilar kiradi: foiz riski; valyuta riski; inflyatsiya riski; siyosiy risklar.

Tizimsiz risklar - hatarga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar yoki ularni majmuasi uchraydi, ya'ni ma'lum bir korxonaning qimmatli qog'ozlari yoki tarmoqning qimmatli qog'ozlari kiradi. Tizimsiz risklarga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik riski; moliyaviy risklar; nolikvidlilik riski.

Bundan tashqari, loyiha faoliyatida eng ko'p uchraydigan risklar ham mavjud. Ular quyidagilar:

- iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o'zgarib turishi, investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog'liq risklar;

- tashqi iqtisodiy risklar - savdo va mahsulot etkazib berishga cheklashlar kiritish; chegaralarning berkilishi;

- siyosiy holatning noaniqligi yoki hududdagi yohud mamlakatdagi noma'qli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar;

- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, yangi texnika-texnologiya parametrlari, mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki noaniqligi;

- bozor kon'yunkturasining, ya'ni baho, valyuta kurslari, yalpi ichki maxsulot va boshqalarning o'zgarib turishi;

- tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishi, tabiiy ofatlarning yuz berishi;

- ishlab chiqarish texnik risklari - asbob-uskunalarning buzilishi va to'xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi nosozliklar va boshqalar;

- loyiha ishtirokchilari maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro'si haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan tasniflashlarga asoslangan holda, investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarning 3-rasmda tasvirlangan guruhini keltirish mumkin.

Loyiha ishtirokchilari riski deganda, ko'pincha ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik riski tushuniladi. Birgina loyiha ishtirokchisining o'z majburiyatlarini bajarmasligi, boshqa ishtirokchilarning o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib

kelishi, natijada loyiha barbod bo'lishi mumkin. Loyiha ishtirokchilari riskiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: ishtirokchilarning vijdonsizligi; ularning professionallik darajasining pastligi, moliyaviy holatining nobarqarorligi, ishtirokchilarni turli risklardan etarlicha sug'urtalanmaganligi natijasida kelib chiqadi. Masalan, loyiha smeta qiymatining oshish riski qurilish tashkilotining vijdonsizligi natijasida ro'y berishi mumkin. Ish sifatining pastligi riski, ko'p hollarda, tanlangan pudratchi va boshqa ishtirokchilarning etarli tajribaga ega emasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Loyiha smeta qiymatining oshish riskiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: loyihalash jarayonidagi xatolar, pudratchilarning resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay olmasligi, loyihani amalga oshirish shartlarini o'zgarishi va boshqalar.



9.3-rasm. Investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklar²⁹

Qurilishni o'z vaqtida tugallanmaslik riskiga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: pudratchilarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari; tashqi shart-sharoitlarning

²⁹ Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlardan olingan nazariy bilimlar asosida tuzildi.

o'zgarishi, qurilish ishlari muddatining cho'zilib ketishi natijasida qo'shimcha xarajatlar kelib chiqishi: kredit bo'yicha foizlarni hisoblash, narxlarning inflyatsiya natijasida o'sishi oqibatida ish va material qiymatining oshishi kabi qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, bu risk natijasida kelgusidagi ob'ektga xom ashyo etkazib beruvchilar va kelgusidagi loyiha mahsuloti iste'molchilari bilan shartnomaviy munosabatlar to'xtashi mumkin. Kapital qurilish bilan bog'liq risklar quyidagi sabablardan kelib chiqadi:

- loyiha - smeta xujjatlaridagi xatolar tufayli;
- mutaxassislar malakasi etarli bo'limganligi sababli;
- fors- major holatlari;
- qurilish materiallar, texnologik mahsulotlarning sifati pastligi sababli;
- shartnomalari buzilishi tufayli;
- ta'minotning kechikishi tufayli va h.k.

Ish va ob'ekt sifatining pastligi riski pudratchilar majburiyatining buzilishi, loyihalashtirishdagi xatolar va boshqalar natijasida kelib chiqishi mumkin. Ob'ekt sifatining pastligi natijasida loyiha bo'yicha qo'shimcha investitsion harajatlar qilinishi kerak bo'ladi. Bu harajatlar kamchiliklarni tuzatishga sarflanishi mumkin. Agar kamchilik saqlanib qoladigan bo'lsa, loyiha mahsulotini ishlab chiqarishga qo'shimcha harajatlar qilish kerak bo'ladi.

Konstruktsion va texnologik risk. Konstruktsion risk - bu investitsiya bosqichidayoq loyihaning texnik amalga oshmaslik riskidir. Bu loyiha xujjatlarini ishlab chiquvchilarning xatolari, bu xujjatlarni ishlab chiqishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni etarli yoki aniq emasligi natijasida ro'y berishi mumkin. Texnologik risk - bu ishlab chiqarish texnologiyalarining sanoat darajasida qo'llanilmasligi natijasida ma'lum texnik-iqtisodiy parametrlardan ob'ekt ekspluatatsiyasidagi cheklanishlar riski. Bunga ekspluatatsiya xarajatlarining oshishi, ekologik me'yorlarga mos kelmaslik kabilar ta'sir etadi.

Ishlab chiqarish riski - bu ishlab chiqarish jarayonida kamchiliklarni yuzaga kelish riski. Bu risk ishlab chiqarish davomiyligining buzilishida, ob'ektning loyihaviy quvvatga erishmasligida, qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarida

namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish riskining bir turi bu texnologik riskdir. Bu risklar ta'minotdagi uzilishlar, resurs zahiralarining etishmasligi, xom ashyo sifatining pastligi, transport masalalari va boshqalar sabab kelib chiqadi. Ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori darajasi xarajatlarni xato hisoblash, xom ashyo va boshqa resurlar miqdori va sifatiga ma'lum talablarni aniq emasligi natijasida bo'ladi.

Boshqaruv riski - bu ishlab chiqarish riskining bir turi, boshqaruvchi shaxsnинг tajriba va malakasini etarli darajada emasligi natijasida ro'y beradi. Ayrim hollarda, boshqaruv riski deganda, loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlaridagi menejment darajasining pastligi va xatolari bilan bog'liq risklar tushuniladi.

Sotish riski - bu loyiha mahsuloti sotish xajmining va shu mahsulot bahosining kamayish riskidir. Sotish riski bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, marketing yoki baho riski deb ham ataladi. Sotish riski, ayniqsa bahoni taxmin qilish ancha qiyin bo'lgan, yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarda yuqori bo'ladi.

Moliyaviy risk. Bu riskning loyiha faoliyatidagi asosiy turlari: a) kredit riski; b) valyuta riski; v) foiz stavkasini o'zgarish riskidir. Kredit riski - bu loyihani amalga oshirayotgan tashkilotning kreditor bankka kredit shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini to'liq yoki umuman to'lay olmaslik riski bo'lib, u asosan loyihani moliyalashtirishda loyihani kreditlovchi bankning riskidir. Valyuta riski - bu risk loyiha mahsuloti mahalliy bozorda sotilganda va hokimiyat mahsulotni milliy valyutada sotilishini talab qilayotgan paytda yuqori bo'ladi. Bu risk loyiha mahsulotini sotishdan olinadigan valyuta bilan kredit valyutasi bir xil bo'limgan hollarda yuzaga keladi. Foiz stavkasining o'zgarish riski - bu risk kredit resurslari o'zgaruvchan stavkada qo'llanilganda ro'y beradi. Bunday resurslarni jalb qilishda loyihada qo'llanilgan kapital qiymatining oshishi va mahsulot rentabelligining kamayish havflari mavjud bo'ladi.

Mamlakat riski - bu tashqi loyiha risklariga tegishli bo'lib, uning mazmuni shundaki, loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari

va davlatning siyosati loyiha faoliyatini uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratishi va xatto loyihani barbod qilishi ham mumkin. Mamlakat riskining omillari: markaziy va mahalliy xokimiyatlarning harakati, urushlar, ish tashlashlar, terrorchilik harakatlari va boshqalar bo'lib, bular loyiha ishtirokchilari ta'siri doirasidan tashqarida bo'ladi. Davlatning siyosati bilan bog'liq mamlakat risklarini shartli ravishda ikkita guruhga bo'lish mumkin: siyosiy va iqtisodiy.

Siyosiy mamlakat riski - hukumatning chet el investorlari va kreditorlari ishtirokidagi loyiha faoliyatini to'xtatish yoki cheklashga qaratilgan harakati bilan bog'liq. Bularga foydani boshqa mamlakatga olib o'tishdagi ta'qiqlashlar va cheklashlar, chet el kapitali uchun avval yaratilgan imtiyozlardan mahrum qilish, kontseptsiya va litsenziyalarni qaytarib olish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy mamlakat riski - davlatning loyihani amalga oshirilishi sharoitida qo'llaydigan soliq, valyuta, bojxona va boshqa iqtisodiy shart-sharoitlarni o'zgartirishi bilan bog'liq.

Ma'muriy risklar - loyiha kompaniyalari va loyiha faoliyatining boshqa ishtirokchilarini davlat nazorat va tartibga solish boshqarmalaridan turli litsenziyalar, ruxsatlarni olishi bilan bog'liq. Litsenziyalar, ruxsatlar loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida talab qilinishi mumkin: loyiha xujjatlarini ishlab chiqishda, tenderlar o'tkazishda, mashina va asbob-uskunalarni etkazib berishda, qurilishda, dastlabki ishlar va ob'ektning ishga tushirilishida talab qilinadi. Litsenziyalar, ruxsatnomalar soni ayrim loyihalar bo'yicha juda ko'p bo'lishi mumkin: loyiha faoliyatining u yoki bu turi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy resurslarni va valyutani chetga olib chiqish huquqini beruvchi litsenziyalar, ruxsatlar bo'lishi mumkin.

Huquqiy risk - bu risk qaysidir darajada mamlakat, ma'muriy va boshqaruvi risklari bilan bog'liq. Avvalo, bu risk kreditorning kafolat bermaslik va boshqa kredit bilan ta'minlashlar ehtimoli bilan bog'liq noaniqlik va ishonchsizligida namoyon bo'ladi. Bunday noaniqlik va ishonchsizlik sabablari, fikrimizcha, quyidagilar bo'lishi mumkin: qonunlar majmuuning va xalqaro huquq normalarining mukammal emasligi, huquqiy xujjatlar sifatining pastligi, sud

mexanizmidagi kamchiliklar va boshqalar. Ayrim huquqiy risklar loyiha ishtirokchilari nazoratidan tashqarida bo'lib, ular mamlakat va siyosiy risklarga yaqin. Bundan boshqa huquqiy risklarni milliy qonunchilikni, xalqaro investitsion huquqlarni yaxshi biluvchi, shartnoma, kelishuvlar va boshqa loyihaning huquqiy xujjatlarida ishtirok etuvchi malakali huquqshunos maslahatchini jalb qilish bilan hal etish mumkin.

Fors-major riski - loyiha faoliyatiga tegishli bo'lмаган ташқи risklardan biri bo'lib, unga er silkinishi, yong'inlar, suv toshqini, bo'ronlar va boshqa tabiiy hodisalar kiradi. Fors-majorga ayrim ijtimoiy va siyosiy tabiiy hodisalar ham kiradi: ish tashlashlar, inqiloblar va boshqalar. Shunday yo'l bilan mamlakat riskining bir qismi fors-major riski sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan risklar tasnifi shartli ravishda bo'lib, bunday risklar aniq holatlarda mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tarmoqqa tegishliligi, ko'lamlari, tanlangan texnologiya, loyihani amalga oshirayotgan mamlakat va loyihaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Loyerha risklarining barcha turlarini ularning ta'siri jihatidan ahamiyatsiz va havfsiz, deb bo'lmaydi. Loyerha risklari kichik bir texnologik yoki shu kabi mikrodarajadagi jarayondan tortib, to mamlakat, hatto, xalqaro miqyosdagi turli holatlar va hodisalarning o'zgarishiga bog'liq holda kelib chiqishi mumkin.

9.3. Investitsiya risklarini boshqarishning jahon amaliyoti

Investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish insoniyat faoliyatining bir qator qiyin va yuqori riskli faoliyati hisoblanib, o'ziga xos bilim va malakani talab qiladi.

So'nggi yillarda loyihani tayyorlash va amalga oshirish malakaviy faoliyatning alohida bir ko'rinishiga aylandi. Ko'pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorlarida loyihani tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha tajribalar to'plana boshlandi va bunda loyihani boshqarish doirasida ko'rildigan masalalardan biri bo'lган investitsion risklar va

ularni boshqarishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu masala loyihani boshqarishning boshqa funktsiyalaridan alohida emas. Moliyaviy talabni aniqlashda ham, smeta va byudjetni hisoblashda ham, shartnomalarni tayyorlash va tuzishda ham loyiha faoliyati ishtirokchilarini turli xil risklardan himoyalash bilan bog'liq masalalar echiladi. Risklar loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida bo'lganligi sababli, loyiha risklarini boshqarish funktsiyasi loyiha tugagunga qadar davom etadi. Loyiha risklarini boshqarishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- loyiha risklarining tasnifi;
- loyiha risklarini aniqlash va baholash usullari;
- loyiha risklarini boshqarishning axborot ta'minoti;
- risklarning monitoringi va istiqbolini belgilash;
- risklarni kamaytirish texnologiyalari;
- risklarni boshqarishni tashkil etish;
- risklarni boshqarish xarajatlarining optimal darajasini asoslash va samaradorlikni baholash.

Risklarni tahlil qilish va baholashdan maqsad loyihaga ta'sir etuvchi risk turlarni aniqlab, ularni pasaytirish chora-tadbirlarini va usullarini qo'llashdan iboratdir.

Risklarni baholash deganda risk darajasini sifat va miqdor jihatdan aniqlash tushuniladi. Risklarni pasaytirish usullari turlicha bo'lib, ular risk turiga va risk guruhiga qarab tanlanadi.

Risklarni boshqarish risk va foyda miqdorini oqilona qo'shilmasini aniqlashga qaratilgan harakatlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi - ularni pasaytirish hisoblanadi. Risklarni boshqarishning asosiy bosqichlarini quyidagi 4-rasm orqali ifodalashimiz mumkin.

Risk tahlilining ahamiyati investitsiya loyihasining salohiyatli ishtirokchisiga, investorlarga loyihani maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish haqidagi qarorlarini qabul qilishi uchun zaruriy ma'lumotlarni berishi bilan izohlanadi. Demak, risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

1. Risk omilini aniqlash;
2. Risk omilini tahlil qilish va baholash;
3. Risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;
4. Risklarni oldini olish va nazorat qilish;
5. Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash;
6. Risk vaziyatlari va ularni oqibati haqida ma'lumot to'plash va kelajakka tavsiyalar ishlab chiqish.

1) Risk omilini aniqlash	risk sababini, ya'ni loyihaga ta'sir qila oladigan voqeя yoki vaziyatlarni aniqlash tushuniladi.
2) Risk omilini tahlil qilish va baholash (ikki guruxga bo'linadi)	-risklarni sifat jihatdan baholash – risk turlarini, uni vujudga keltiruvchi omillarni va risklarni pasaytirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni aniqlash maqsadini ko'zlaydi. -risklarni miqdoriy baholash – loyiha risklarini sondagi ifodasini loyiha ko'rsatkichlari orqali hisoblash, risklarning paydo bo'lish ehtimolligini va risklarning loyihaga ta'sirini aniqlash tushuniladi.
3) Riskni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish	tanlangan riskni boshqarish choralarini va usullari doirasida aniq chora-tadbirlarni qo'llash tushuniladi.
4) Riskni oldini olish va nazorat qilish	ma'lum reja va dasturlar asosida aniq tashkiliy-texnik tadbirlar ko'rib chikiladi: risklar monitoringi; riskni istiqbolini belgilash; taxdid soluvchi hatarlar haqida rahbarlarga ma'lumot berish va bu bilan bog'liq ko'rsatmalarini ishlab chiqish; riskni oldini olish va nazorat qilish dasturi doirasida maxsus tashkiliy-texnik tadbirlar amalga oshiriladi.
5) Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash	risklarni boshqarishdagi asosiy yo'llar quyidagilardan iborat: risklarni ajratish; risklarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash; moddiy ta'minotni olish (garov); moliyaviy ta'minotni olish (kafolat yoki kafillik); risklarni kredit bo'yicha yuqori foiz stavkasiga ko'chirish; risklarni venchur kreditlashga qabul qilish; qarzlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun fondlarni shakllantirish kabilidan iborat.
6) Natijalarini baholash	risk vaziyatlari va ularni oqibati xaqida ma'lumot to'plash va kelajakka tavsiyalar tuzish tushuniladi. Natijalarini baholash orqali olingan ko'rsatma va xulosalar keyingi loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

9.4-rasm. Risklarni boshqarish bosqichlari³⁰

Rasmda keltirib o'tilgan baholash usullaridan hozirgi kunda jahon amaliyotida keng foydalanib kelinmoqda, ammo bu usullar riskni boshqarishni to'liq mohiyatini yorita olmaydi, chunki risklarni boshqarish jarayoni bir qancha

³⁰ Shoislomova N.Q. Investitsiya risklarini boshqarishning nazariy asoslari // Globallashuv sharoitida bank tizimi barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2012. –B.373.

bosqichlarni qamrab oladi. Shuningdek, har bir investitsion loyihaning risklarini baholashda va boshqarishda o'ziga xos, bir-biridan farq qiladigan, loyiha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashiladi.

Jahon amaliyoti va nazariyasida risklarni boshqarishning quyidagi asosiy usullari mayjud: risklarni guruhlarga ajratib, ixchamlashtirish, risklarni diversifikatsiyalash, risklarni nazorat qilish, risklarni sug'urtalash.

Shuni e'tirof etish lozimki, investitsiya loyihalarida risklarni boshqarishda ularning tahlil qilinish natijalariga asoslanib, boshqarish usullari tanlanadi. Investitsiya risklarini boshqarishning jahon amaliyotining mohiyatini turli iqtisodchiolimlarhar xil ko'rinish orqali tasvirlashga harakat qilganlar. Investitsiya risklarini boshqarish usullarini P.V.Zabelin va V.G.Fedotov tomonidan to'rtta usuli yoritilgan. D.J.Richmen, M.X. Meskon va K.L.Bauvilar tomonidan yettita usuli bayon etilgan. I.T.Balabanov o'zining "Risk-menejment" kitobida risklarni boshqarishning o'nta usulini aytib o'tgan. Buni quyidagi 5-rasmda ko'rish mumkin.

Muallif	Riskni boshqarish usullari
Zabelin P.V., Fedotov V.G. Predprinimatelskie riski i xedjirovaniya v otechestvennoy i zarubejnoy ekonomike.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Riskli holatlardan voz kechish; 2. Yo'qotish haqida ogohlantirish; 3. Sug'urtalash; 4. Zararni qoplash.
Richmen D.J., Meskon M.X., Bauvi K.L. Sovremenniy biznes.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Riskni nazorat qilish; 2. Riskdan chetga chiqish; 3. Zararni qoplash; 4. Daromaddan yo'qotishni minimallashtirish; 5. Risk nazoratini uzatish; 6. O'z-o'zini sug'urtalash; 7. Riskni uzatish.
Balabanov I.T. Risk- menedjment.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Riskka samarali ta'sir ko'rsatish usulini tanlash; 2. Riskdan qochish; 3. Riskni oldini olish; 4. Riskni uzatish; 5. Risk darajasini pasaytirish; 6. Diversifikatsiyalash; 7. Qo'shimcha axborotlarni qabul qilish; 8. Limitlashtirish; 9. O'z-o'zini sug'urtalash; 10. Sug'urtalash.
Morozov D.S. Proektnoe finansirovanie: upravlenenie riskami.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Riskdan qochish; 2. Riskni oldini olish va nazorat qilish; 3. Riskni sug'urtalash; 4. Riskni loyiha qatnashchilari zimmasiga yuklash.
Xoxlov N.V. Upravlenie riskom.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Riskni pasaytirish, ya'ni: -Riskni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; -Riskni paydo bo'lish ehtimolini pasaytirish; -Bo'lishi mumkin bo'lgan talofatlarni kamaytirish.

	<p>2. Riskni ushlab qolish, ya’ni:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Zahira fondi hisobiga o’z-o’zini sug’urtalash; -Tashqi manbalar (davlat dotatsiyalari va qarzlari) hisobiga riskni qoplash; -Riskdan ko’rilgan zararlarni qoplashdan bosh tortish. <p>3. Riskni uzatish,ya’ni:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Sug’urtalash; -Moliyaviy kafolat va kafillikni olish; -Shartnomaviy yoki yuridik jihatdan boshqa usullarni tanlash.
--	---

9.5-rasm. Risklarini boshqarish usullari³¹

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya, AQSh, Kanada va Italiya) investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga berilgan kreditlar bo'yicha kredit riskini boshqarish bir qator aniq tamoyillarga asoslanadi. Ulardan asosiyлари quyidagilardan iborat:

1. Investitsion loyihalar bo'yicha biznes-rejalarni mukammal ishlab chiqish.

Biznes-rejalarning mukammal ishlanganligi uning har bir bo'limi bo'yicha investitsion risklarning to'liq hisobga olinganligida, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotish strategiyasining to'g'ri tanlanganligida, investitsion loyihaning samaradorligiga ta'sir qiluvchi har bir asosiy omilning ta'sir mexanizmining inobatga olinganligida namoyon bo'ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda, biznes-rejalarni tuzish jarayonida investitsion loyihani boshqarish samaradorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning sababi shundaki, sanoati rivojlangan mamlakatlar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatsizliklarning 98% korxonaning o'ziga bog'liq ichki sabablar tufayli yuz bergen, 2% esa korxona faoliyatiga bog'liq bo'limgan tashqi omillar ta'sirida yuz bergen. AQShda o'tkazilgan shu boradagi tadqiqotlarning natijalari investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatdi:

- boshqaruvchilarning uquvsizligi – 45%;
- mahsulot assortimentini ishlab chiqarishda tajribaning etarli emasligi – 9%;
- boshqarish tajribasining etishmasligi – 18%;

³¹ Shoislomova N.Q. Investitsiya risklarini boshqarishning nazariy asoslari // Globallashuv sharoitida bank tizimi barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2012. –B.374-375.

- nisbiy tajriba doirasining torligi – 20%;
- o’z majburiyatlarini bajarmaslik – 3 %;
- aldash – 2 %;
- tabiiy ofatlar – 1 %.


2. Tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning ta’minoti uchun yuqori likvidli garov ob’ektlarining mavjudligi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yuqori likvidlilik darajasiga ega bo’lgan garov ob’ektlari birinchi toifali garov ob’ektlari deb qaraladi va ularga quyidagilar kiradi: er, hukumatning qimmatli qog’ozlari, markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog’ozlari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G’arbiy Evropa davlatlari xo’jalik amaliyotida sanoat korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Tijorat banklari to’lovga qobiliyatlilik nuqtai nazardan korporatsiyalarga nisbatan ustuvor mavqega egadir. Tijorat banklarining kredit riskini kamaytirishda garov ta’minoti muhim rol o’ynaydi. Bunda asosiy e’tibor bank kreditlari uchun garov sifatida qabul qilinayotgan ob’ektlarning likvidlilik darajasiga qaratiladi.

3. Investitsion kredit oluvchilarning to’lovga qobiligini moliyaviy koeffitsentlar asosida baholash tizimining takomillashganligi.

Rivojlangan davlatlarda investitsiya risklarini pasaytirish maqsadida mablag’larni bir necha yo’nalishlar bo’yicha taqsimlab chiqish, ya’ni diversifikasiya usuli korxonada mavjud risklarni kamaytirib, ma’lum samaradorlikka erishish va yuqori daromad olishda qo’llaniladi.



9.6-rasm. Korxonalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi risklarni strategik tahlil qilish va boshqarish jarayoni sxemasi³²

Shuni hisobga olish lozimki, bu usul moddiy ishlab chiqarish sohasida katta xarajatlarni talab etadi, aksincha, fond bozorida investitsion risklarning diversifikasiyasini printsipial qiyinchiliklarni tug'dirmaydi va bitta savdo sessiyasi mobaynida amalga oshirilishi mumkin. Diversifikatsiyalash usullari kredit risklaridan ham himoyalanish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlarda korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarni strategik tahlil qilish va boshqarish jarayonini quyidagi rasmda ifodalash mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda risklarni sug'urtalash amaliyotida keptiv sug'urta kompaniyasini tashkil etish amaliyoti ham qo'llaniladi. Bu sug'urta kompaniyasi bo'limgan ta'sischi-korxona (yoki moliya-sanoat guruhi)ning sug'urta

³² E.I Nosirov va boshqalar. Investitsiya risklarini boshqarish. O'quv qo'llanma.–T.:«Fan va texnologiya», 2011. 36-b.

manfaatlariga xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan sho''ba sug'urta kompaniyasidir. Bevosita korxonada tashkil etuvchi zaxira fondlaridan farqli ravishda keptiv sug'urta kompaniyalari o'z ta'sischilarining sug'urta zaxiralarini ko'proq optimal boshqarish imkoniyatlariga egadir.

AQSh va boshqa bir qator mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarning ilk natijalari shundan dalolat beradiki, jahonda yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatlari tufayli paydo bo'lgan risklarni nisbatan yumshoq qabul qilgan korxonalar o'z ish faoliyatida qator tadbirlarni amalga oshirganlar. Jumladan, risk-menejmentida autsorsing va benchmarkinglarni faol qo'llashgan. Korxonalar faoliyatiga ta'sir etadigan risklarni boshqarish va kamaytirish yuzasidan bir vaqtning o'zida turli xil tajribalardan foydalanishgan. Birinchidan, ular katta rasmiy reyting agentliklariga murojaat qilmasdan, salohiyatli investorlarning fikrlari va tahlil natijalariga asoslanib ish yuritishgan. Ikkinchidan, ular o'tkazgan risk-menejmentida korxona ichidagi stress-test yaxshi natijalar bergen.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiya loyihasidagi pul oqimlarining hisob-kitobi kelgusi yillarga asoslanganligi sababli prognoz xarakterga egadir. Shu sababli investitsiya loyihasini tahlil qilishda prognoz ko'rsatkichlar haqiqatda to'g'ri bo'lib chiqishi qiyin yoki haqiqiy ko'rsatkichlar rejadagidan ozgina cheklandi, yoki umuman xato bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun investitsiya loyihasini tahlil qilish va baholashda investitsiya risklarini samarali boshqarilishini tashkil etish, risklar tahlili natijalariga mos ravishda boshqarish usullarini tanlash, tanlangan usullar va choralar va doirasida aniq chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

9.4. Investitsiya loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi risklarni tahlil qilish va baholash

Risklar tahlili salohiyatli hamkorlarga investitsion loyihadada ishtirok etishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qarorlar qabul qilish hamda kutilishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalanish bo'yicha zarur ma'lumotlarni

beradi. Loyiha samaradorligini baholashda risk va noaniqlik omillarini hisobga olgan holda tahlil qilish va baholash kutilishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz vaziyatlarni oldini olish imkoniyatini beradi, loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari bo'yicha tuzilgan barcha mavjud reja ko'rsatkichlari va ma'lumotlarining haqiqiy ko'rsatkichlardan farq qilmasligiga imkon beradi.

Amaliyotda loyiha risklarini baholashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan asosiyalarini quyida keltirib o'tamiz:

- Sezgirlik tahlili usuli;
- “Zararsizlik nuqtasi” ni aniqlash usuli;
- Barqarorlikni tekshirish usuli;
- Matematik usullar (o'rtacha kvadratik chetlanish, dispersiya va variatsiya);
- “Qarorlar daraxti” barpo etilishi usuli;
- Stsenariylar usuli;
- Monte-Karlo usuli.

1. Loyiha sezgirligini tahlilida loyiha ko'rsatkichlaridan (parametrleridan) biri o'zgarganda, loyiha samaradorligi (NPV yoki IRR) qay darajada o'zgarishiga miqdoriy baho berishda qo'llaniladi. Sezgirlik tahlilini investitsiya loyihalari natijalariga sezilarli darajada ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni taqqoslash tahlili uchun o'tkazish tavsiya etiladi. Bu omillar bilan bog'liq vazifalarni echishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi. Avvalo, sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar aniqlanadi, keyin ma'lum oraliqlarda omillardan biri o'zgartirilib, sof joriy qiymat hisoblab chiqiladi, ushbu yo'l har bir omil uchun takrorlanadi. So'ng hamma hisoblar jadvalga joylashtiriladi, har bir omil o'zgarishiga nisbatan loyihaning sezgirlik darajasi solishtiriladi va loyihaning muvaffaqiyatiga eng ko'p darajada ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Sezgirlik tahlili yordamida, hisoblar uchun zarur bo'lgan turli xil o'zgaruvchilar berilganda, naqd foyda yoki investitsiya rentabelligining eng zaruriy o'zgarishlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Turli xil o'zgaruvchi omillarga ishlab chiqarish xarajatlari, sotish hajmi, investitsiya davri davomiyligi, kredit foizi, xom ashyo va yoqilg'i qiymati, soliqlar miqdori va boshqalar misol bo'ladi.

Loyiha sezgirlingi tahlili quyidagi tartibda olib boriladi:

- investitsiya loyihasining asosiy parametrlarining (ya'ni sotish hajmi, sotish bahosi, ishlab chiqarish harajatlari va h.k.) bazaviy qiymatlarini aniqlash;
- shu qiymatlar asosida loyiha samaradorligini hisob-kitobini amalga oshirib, ularni NPVo yoki IRRo deb belgilash;
- loyiha samaradorligiga eng ko'p ta'sir etuvchi, uning asosida loyiha sezgirlingini tahlil qilinuvchi ko'rsatkichlardan birini tanlash (NPV yoki IRR);
- samaradorlik ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash. Bunday omillar ikki guruxga bo'linadi (ya'ni ular o'zgaruvchan omillar deb ataladi):
 - to'g'ridan-to'g'ri daromad va harajatlarga ta'sir etuvchi omillar: sotish hajmi, mahsulot sotish bahosi, ishlab chiqarish harajatlari, investitsiya xajmi, qarz mablag'lariga to'lovlar va boshqalar.
 - bilvosita ta'sir etuvchi omillar: qurilishning davomiyligi (muddati), ishlab chiqarish davrining davomiyligi, to'lovlarning kechikishi, tayyor mahsulotni sotish muddati, inflyatsiya darajasi, daromad solig'i stavkasi va boshqalar.
- o'zgaruvchan omillardan biri o'zgarganda asosiy ko'rsatkich qanchaga o'zgarishini hisob-kitob qilish.

Investitsion loyihaning "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash usuli yordamida mahsulot sotishdan kelgan tushum uni ishlab chiqarish harajatlariga teng bo'lgan holdagi sotish hajmi aniqlanadi. Agar sotish hajmi bu nuqtadan past bo'lsa, korxona zararlarni qoplashi mumkin, agar pul kirimi harajatlarga teng bo'lsa, korxona ishini zararsiz olib borayotgan bo'ladi. "Zararsizlik nuqtasi" tahlili investitsiya loyihasi quvvati yoki ishlab chiqarish hajmi mikdorini topish maqsadida qo'llaniladi.

Zararsizlik tahlili deganda, loyiha bo'yicha ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarhi va foydaning bir-biriga bog'liqligini tadqiq qilish tushuniladi. Bunda eng asosiy maqsad harajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish hajmini aniqlashdan iborat va bu holat korxona rahbarlariga va loyiha menejerlariga quyidagi omillarni o'zgarishining foydaga ta'sirini aniqlash imkoniyatini beradi:

- doimiy harajatlar (miqdori ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgarmaydigan harajatlar, masalan, qarz foizi, garov puli, ijara haqi, renta to'lovlari va boshqalar);
- o'zgaruvchan xarajatlar (miqdori ishlab chiqarish hajmiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgarib turuvchi harajatlar, masalan, ish haqi, xom ashyo, yoqilg'i, yuk tashish harajatlari va boshqalar);
- sotish hajmi;
- mahsulot tannarhi;
- sotilishi ko'zda tutilgan mahsulot assortimenti.

Harajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan sotish hajmi maxsus nuqtani tavsiflaydi, ya'ni u ishlab chiqarish hajmining kritik nuqtasini ifodalaydi. Mana shuning uchun ham bunday tahlil zararsizlik nuqtasi deb nomlanadi. Bunda korxona foyda ham olmaydi, zarar ham ko'rmaydi, ya'ni mahsulot sotishdan tushgan tushum mahsulotning to'liq tannarhiga (harajatlarga) barobardir.

Zararsizlik miqdorini hisoblash uchun, eng avvalo, quyidagi shart-sharoitlar kuzatilishiga ishonch hosil qilish lozim:

- ishlab chiqarish va marketing harajatlari ishlab chiqarish yoki sotish hajmi funksiyasi hisoblanadi;
- ishlab chiqarish hajmi sotish hajmiga teng;
- doimiy ishlab chiqarish harajatlari har qanday ishlab chiqarish hajmi uchun bir xil;
- o'zgaruvchan harajatlar ishlab chiqarish hajmiga proportsional ravishda o'zgaradi va o'z navbatida, to'liq ishlab chiqarish harajatlari ham uning hajmiga proportsional o'zgaradi;
- mahsulot birligi bahosi vaqt mobaynida o'zgarmaydi, shuning uchun umumiyl mahsulot sotish qiymati sotish baholari va sotilgan mahsulot miqdorining chiziqli funksiyasi (ko'paytmasiga teng) hisoblanadi;
- sotilgan mahsulotning sotish bahosi darajasi va o'zgaruvchan hamda doimiy ishlab chiqarish harajatlari o'zgarmas bo'lib qoladi;

- zararsizlik miqdori bir mahsulot uchun hisoblanadi, agarda mahsulot turli assortimentga ega bo'lsa, u holda ishlab chiqariladigan miqdorlar o'rtasidagi nisbat doimiy bo'lib qolishi lozim.

Ma'lumki, zararsizlik nuqtasini aniqlash uchun, eng avvalo, sotish hajmi (Q) o'zgarishining foydaga (P) ta'sirini aniqlash lozim bo'ladi. Bunday o'zgarishlar nisbatini aniqlashdagi elementlar bo'lib, mahsulot birligi narhi (P), mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajatlar (V) va mahsulot birligidagi doimiy xarajatlar (C). Formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$P = P * Q - (V * Q + C) \quad (9.1)^{33}$$

bu yerda: P – foyda; Q - sotish hajmi; P - mahsulot birligi narxi; V - mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajatlar; C - mahsulot birligidagi doimiy xarajatlar.

Ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasida $P = 0$ ga teng bo'ladi va bundan zararsizlik nuqtasi kelib chiqadi:


$$Q = C / (P - V) \quad (9.2)^{34}$$

Shunday qilib, zararsizlik nuqtasini aniqlashda sotish narhi, mahsulot birligiga ketgan o'zgaruvchan xarajatlar hamda ma'lum vaqt (yil yoki oy) davomidagi doimiy xarajatlar eng muhim omillardandir.

³³ Кузнецов Б. Т. Инвестиции: Учеб. пос. для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика». – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.- С.315.

³⁴ Кузнецов Б. Т. Инвестиции: Учеб. пос. для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика». – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.- С.315.

Daromad, xarajat



9.7-rasm. Zararsizlik nuqtasini aniqlash³⁵.

Izoh: Barcha harajat va sotish miqdorlari – yillik; Nz - zararsizlik nuqtasi.

Shunday qilib, zararsizlik tahlilidan quyidagi amaliy xulosalarni olish mumkin:

- zararsizlik nuqtasining yuqori bo'lishi istalmas bo'lib, u firma ishlab chiqarish (mahsulot sotish) darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi;
- doimiy harajatlar qanchalik yuqori bo'lsa, zararsizlik nuqtasi shunchalik yuqori bo'ladi;
- sotiladigan mahsulot birligi bahosi va o'zgaruvchan nisbiy harajatlar o'rtaсидаги farq qanchalik katta bo'lsa, zararsizlik nuqtasi shunchalik kichik bo'ladi.

Ekspert baholash usulining asosiy afzallik tomoni shundaki, loyiha tahlili jarayonida hamda turli sifat omillari ta'sirini hisob-kitob qilishda ekspertlar

³⁵ E.I.Nosirov, B.S.Mamatov, N.Q.Shoislomova, K.U.Sharifxodjaeva. Investitsiya risklarini boshqarish.O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2011. 61-b.

tajribasidan foydalaniadi. Loyiha risklarini ekspert baholash algoritmi (tartibi) esa quyidagilarni qamrab oladi:

- loyiha hayotiyligi bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tarkibini ishlab chiqish;
- risklarni muhimlik darajasi bo'yicha himoyalash. Bu maqsadda risklarning ehtimolligi, ushbu riskning xavflilik darajasi ekspert yo'li bilan aniqlanadi.

Ekspert baholash jarayoni rasman quyidagicha amalga oshiriladi: Loyiha (firma) rahbarlari savol tariqasida baholash mezonlarining ro'yhatini ishlab chiqadilar. Har bir mezon (kriteriya) uchun mos tarzda muhim bo'lgan koeffitsient belgilanadi. So'ngra har bir mezon bo'yicha javoblar variantlari tuziladi. Ekspertlar baholanayotgan loyiha to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim hamda loyihani ekspertiza qila turib, qo'yilgan savollarni tahlil qilishlari, shuningdek, javob variantlaridan birini tanlashlari lozim. Ekspertlar tomonidan to'ldirilgan savol varaqlari ma'lumotlarni qayta ishlash uchun tuzilgan kompyuter dasturlari orqali tekshirib chiqiladi hamda olib borilgan ekspertizaning javoblari chiqariladi. Bu usulning kamchiligi shundaki, ekspert loyihani shaxsiy tajribasidan kelib chiqib baholaydi.

Subyektiv ehtimollik usuli loyihani baholovchi ekspertning fikrlariga, shaxsiy tajribasiga asoslangan holda biror bir natijaga oid taxminlar ishlab chiqish hisoblanadi. Bu usulni yuqorida ko'rib chiqqan ekspertlar baholash usulining bir turi deb hisoblash mumkin. Sub'ektiv ehtimollik usulining afzallik tomoni shundaki, qaytarilmaydigan vaziyatlarda qo'llash mumkinligi hamda kerakli miqdorda statistik ma'lumotlarning etishmasligi sharoitida ham foydalaniadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk zararlarning paydo bo'lib qolishi yoki qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishi ehtimolini tushunish mumkin. Risk natijasida uch xil natijaga erishish mumkin: salbiy natijaga (zarar, yo'qotish), ijobiy natija (foyda, yutuq) yoki umuman hech qanday natija – 0 bo'lishi mumkin.

Investitsiya loyihasini boshqarish deganda shu loyihaga salbiy ta'sir etuvchi risk omilini aniqlab uni pasaytirish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash hisoblanadi.

9.5. Investitsiya risklarini pasaytirish yo'llari

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi alohida risklar ta'sirini yo'qotish yoki yumshatish uchun bir qancha yo'llardan foydalaniлади.

1. Riskdan qochish - risk bilan bog'liq tadbirlardan voz kechishni (demak, bunda foydadan ham voz kechishni) bildiradi.

2. Riskni ushlab qolish – investor zimmasiga riskni qoldirish, bunda investor o'z kapitalini riskli tadbirlarga yo'naltirayotganda, risklardan ko'rildigan zararlarni qoplash uchun mablag'i bo'lishi kerak.

3. Riskni uzatish (sug'urtalash) – investor risk havfini kimningdir zimmasiga yuklaydi. Riskni sug'urtalash, mantiqan olganda, muayyan risklarni sug'urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investoring riskdan qutilish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechishini anglatadi. Bunda investoring risk darajasini "nol"ga tushirish uchun to'lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushunish mumkin. Ko'p hollarda, sug'urta kompaniyalari moliyaviy risklarni sug'urtalash bilan risk darajasini pasaytirishga to'liq erishishiga xizmat qiladilar.

4. Riskni pasaytirish - ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zahira mablag'larini tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish hisoblanadi. Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zahira mablag'larini tashkil etishdagi asosiy muammo risk oqibatlarini, ya'ni risk natijasida ko'rildigan zararlarni baholash hisoblanadi. Buning uchun loyiha qiymatini boshlang'ich baholashni hisobga olish lozim. Bu esa zahira summasini aniqlashga katta yordam beradi.

Riskni pasaytirishning aniq vositasini tanlashda investor quyidagi tamoyillarga asoslansa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ortiqcha tavakkal qilish kerak emas;
- risk oqibatlari to'g'risida o'ylash lozim;
- kam narsa uchun risk qilish kerak emas.

Birinchi tamoyilga asosan, investor o'z kapitalidan ko'ra ko'proq risk qilishi mumkin emas, ya'ni investor investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishidan avval quyidagilarga amal qilishi lozim:

- loyihaga ta'sir etuvchi risk bo'yicha mumkin bo'lgan zararning maksimal hajmini aniqlab olishi;
- uni qo'yilayotgan kapital va o'zining barcha moliyaviy mablag'lari bilan taqqoslashi lozim.
- ushbu kapitalning yo'qotilishi investorning bankrot bo'lishiga olib kelishkelmasligini risk koeffitsientini hisoblash asosida aniqlashi lozim. Risk koeffitsienti quyidagicha topiladi:

$$Rk = Z/UMR \quad (9.3)^{36}$$

bunda Rk – risk koeffitsienti; Z – maksimal mumkin bo'lgan zararlar summasi; UMR – o'z moliyaviy resurslar hajmi.

Formuladagi $Rk \leq 0,3$ – riskning mumkin bo'lgan darajasi; $Rk \geq 0,7$ – investorni bankrotlikka olib keluvchi risk koeffitsienti.

Ikkinci tamoyilning amalga oshirilishi investorning risk ehtimolligi miqdori va oqibatlarini aniqlab olgan holda riskni pasaytirish usullari to'g'risida qaror qabul qilinishini talab etadi.

Uchinchi tamoyilning amal qilinishi loyihadan ko'rildigan zarar hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hollarda riskdan (tavakkal qilishdan) bosh tortish zarurligi bilan anglanadi, ya'ni oz samara uchun ko'p narsadan voz kechish kerak emas.

Investitsiya risklarini pasaytirish usullari quyidagilardan iborat:

- risklarni diversifikatsiyalash;
- risklarni sug'urtalash;
- risklarni loyiha qatnashchilari o'rtasida taqsimlash;
- risklar uchun moliyaviy zahiralar ajratish.
- qo'shimcha ma'lumotlar va axborotlarga ega bo'lish.

³⁶ Староверова Г. С. Экономическая оценка инвестиций : учебное пособие. – М. КНОРУС, 2006. – С. 257.

Risklarni diversifikatsiyalash bir-biriga bog'liq bo'lмаган turli xil faoliyatlar o'rtaida risklarni taqsimlash xisoblanadi. Diversifikatsiya turli xil faoliyatlar o'rtaida investitsiyalarni taqsimlash asosida riskning bir qismidan qutulish imkonini beradi (masalan, investitsiya portfelin shakllantirish).

Investitsiya portfelin shakllantirishda risklarni taqsimlashning quyidagi shakllari mavjud:

- tovar va xizmatlar hamda faoliyat turlari bo'yicha diversifikatsiyalash;
- iste'molchilarni diversifikatsiyalash;
- mol etkazib beruvchilarni diversifikatsiyalash;
- loyiha qatnashchilarni diversifikatsiyalash.

Risklarni sug'ortalash bu risklardan og'ish hisoblanib, bunda mukofot evaziga risklarni sug'urta kompaniyalariga berish orqali risklarni pasaytirish hisoblanadi. Sug'ortalashda mulkni sug'ortalash hamda baxtsiz hodisalardan sug'ortalash amalga oshiriladi. Mulkiy sug'ortalashning quyidagi shakllari mavjud:

- moddiy yo'qotishlar va zararlardan himoya qilish maqsadida pudrat qurilishlarini sug'urta qilish;
- moddiy yo'qotishlar va zararlardan himoya qilish maqsadida dengiz yoki havo transportlari orqali tashilayotgan yuklarni sug'urta qilish;
- moddiy yo'qotishlar va zararlardan himoya qilish maqsadida pudrat va subpudrat tashkilotlariga tegishli bo'lган asbob uskunalarni sug'urta qilish.

Baxtsiz hodisalardan sug'urta qilishning quyidagi shakllari mavjud:

- qurilish qatnashchilari tana jarohatlari, shaxsiy zarar yoki mulkiy zarar ko'rghanlarida bosh pudrat tashkilotlari faoliyatini himoya qilish maqsadida umumiy fuqorolik javobgarligidan sug'urta qilish;
- loyihalashtirish jarayonida arxitektorlik va texnik nuqtai nazardan xatolarga yo'l qo'yilganda loyihalarni boshqarishda kamchiliklar kelib chiqqanda bosh pudrat tashkilotini moddiy javobgarlikdan sug'urta qilish.

Risklarni loyiha qatnashchilari o'rtaida taqsimlash moliyaviy reja va shartnomalarini ishlab chiqish davomida amalga oshiriladi. Risklarni taqsimlashda loyiha qatnashchilari ularga tegishli bo'lган u yoki bu risklarni

ko'paytirib yoki kamaytirgan holda qaror qabul qiladilar. Masalan, loyihani amalga oshirishning har bir bosqichda hech bo'lmaganda ikki tomon ishtirok etadi: sotuvchi va sotib oluvchi, buyurtmachi va buyurtmani amalga oshiruvchi. Buyurtmachi shartnomada ko'rsatilgan ishlarni o'z vaqtida hamda sifatli qilib bajarilgan holda shartnoma qiymatini kamaytirishga harakat qiladi; buyurtmani bajaruvchi esa, maksimal foyda olishga harakat qiladi. Bunda risk darajasi ikki tomon uchun ham mos kelishi kerak.

Risk orqali ko'rilgan zararlarni qoplash moliyaviy zahiralarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ko'zda tutilmagan zararlarni qoplash uchun moliyaviy zahiralarni tashkil etish orqaligina loyihani amalga oshirishda vujudga keladigan uzilishlarni bartaraf etish mumkin.

Moliyaviy zahiralarni tashkil etishda quyidagilarni aniqlash lozim:

- ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun kerakli bo'lган mablag' miqdori;
- ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun kerakli bo'lган zahiraning tarkibi;
- belgilangan zahiralardan foydalanish maqsadlari.

Moliyaviy zahiralar ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun qo'shimcha mablag'larni ajratish orqali tashkil etiladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining ayrim davlatlari sharoitida (masalan, Rossiya Federatsiyasida) moliyaviy zahiralar loyihani amalga oshirish xarajatlarining 20 foizini tashkil etadi, chet ellarda bu 5 foizga teng³⁷.

Moddiy zahiralar maxsus zahiralar tashkil etishni, masalan, ma'lum bir davr mobaynida loyiha bo'yicha ishlab chiqarish uzilishlarsiz amalga oshirilishi uchun xom ashyo va materiallar zahiralarni tashkil etishni anglatadi.

Informatsion zahiralar deganda, qo'shimcha ma'lumotlar va axborotlarga ega bo'lish tushuniladi. Bunday zahiralarga ega bo'lishdan maqsad, loyiha parametrlarini aniqlashtirish hamda loyihaning ishonchliligi va samaradorligini

³⁷Кузнецов Б. Т. Инвестиции: Учеб. пос. для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика». – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - С.414.

oshirishdan iborat. Noaniqlik sharoitida investitsion qarorlar ma'lumotlarning yo'qligi yoki ma'lumotlarning etarli emasligi sharoitida qabul qilinadi va shu sababli investor loyihaning kelajakdagi prognozini to'g'ri belgilash maqsadida hamda loyihaning risklilik darajasini pasaytirish maqsadida ko'proq axborotlarga va kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishni istaydi. Axborotlar sifatini oshirish, aniq ma'lumotlarga ega bo'lish qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun loyihani tavsiflovchi ko'rsatkichlarning ishonchlilagini oshirish imkoniyati bilan bu ma'lumotlarni olishga ketgan xarajatlarni taqqoslash lozim³⁸.

Horijiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar quyidagilar hisoblanadi:

1) *Qarzdorning kreditga layoqatliligin baholash.* Horij bank amaliyotida ssuda oluvchini balli baholashga asoslangan usul juda keng tarqalgan (skoring metod). Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeidan kelib chiqadi va vaqtiga qayta ko'rib chiqiladi.

2) *Bir qarzdorga beriladigan kreditning xajmini kamaytirish.* Bu usul qachonki, bank mijozning kreditga layoqatliliga to'liq amin bo'lmasagina qo'llaniladi.

3) *Kreditlarni sug'urtalash.* Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

4) *Yetarli ta'minotni jalg qilish.* Bunday usul bankka berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoya qilishda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan etarli ta'minotni jalg qilishiga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligin tahlil qilishga qaratiladi. Chunki ssuda kredit kelishuviga muvofiq qaytarilishini hisobga olib beriladi.

³⁸Староверова Г. С. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. пос. – М. КНОРУС, 2006. - С.258.

5) *Diskontli ssudalar berish.* Diskontli ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usulda kredit berish minimum kreditga to'lovnii olishni ta'minlaydi. Agar kredit riskidan himoyalanishning boshqa usullari qo'llanilmasa, uning qaytishi to'g'risidagi savol javobsiz qolaveradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, bank kredit portfeli ustidan monitoring o'rnatishni kredit riskini oldini olishning eng birinchi sharti, deb qarash lozim. Chunki har qanday bank tajribali hodimlari bilan ishlamasin, ular tomonidan monitoring ishlari olib borilmas ekan, kredit riskini kamaytirish mumkin emas. Bank kredit portfeli monitoringi jarayonini shartli ravishda 4 bosqichdan iborat, deb olish mumkin:

- kreditlarni rasmiylashtirishning qonuniyligini va to'g'riliqini nazorat qilish;
- berilayotgan kreditlarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- qarzdorning va kafolat beruvchining moliyaviy holatini, garovga olingan mulkning butligini doimiy kuzatib borish hamda kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarning belgilangan grafik asosida undirilishini nazorat qilish;
- kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatlarda undirib olishni ta'minlash, o'z vaqtida undirilmagan takdirda zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilash.

Ushbu tartibdagi monitoring kredit portfelidagi har bir kredit qarzi bo'yicha olib borilishi lozim.

Yuqorida ko'rib o'tilgan kredit riskini boshqarish usullari bo'yicha taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi investitsiya loyihalari moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlashni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiya loyihalaridagi pul oqimlarining hisob-kitobi kelgusi yillarga asoslanganligi sababli prognoz xarakterga egadir. Shu sababli investitsiya loyihasini tahlil qilishda hisob-kitob qilingan prognoz ko'rsatkichlar haqiqatda to'g'ri bo'lib chiqishi qiyin yoki haqiqiy ko'rsatkichlar rejadagidan ozgina cheklanadi, yoki umuman xato bo'lib chiqishi mumkin.

Shuning uchun investitsiya loyihasini tahlil qilish va loyiha ekspertizasini amalga oshirishda investitsiya risklarini samarali boshqarilishini tashkil etish, risklar tahlili natijalariga mos ravishda boshqarish usullarini tanlash, tanlangan usullar va choralar va doirasida aniq chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qanday risklar mavjud?
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi risklar, ularni boshqarish ahamiyatini tushuntirib beringchi?
3. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi risklar, ularni baholash ahamiyatini tushuntirib beringchi?
4. Investitsiya loyihalarini turli risklardan himoya qilish mexanizmlari mohiyati nimalardan iborat ?
5. Investitsiya loyihasini risklarini tasnifini turli tizimlari nimani anglatadi ?
6. Riskdan himoyalash imkoniyatlari nuqtai-nazaridan tasniflash nimalarni nazarda tutadi?
7. Investitsiya loyihalarini ekspertizasi qilishda risk va noaniqliklar tahlili deganda nimani tushunasiz?
8. Investitsiya loyihalarini ekspertizasida zararsizlik nuqtasi tahlili deganda nimani tushunasiz?
9. Investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarni sifat jihatidan aniqlash deganda nima tushuniladi?
10. Investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarni baholashning qanday turlari mavjud?
11. Risklarni miqdor jihatidan baholash deganda nima tushuniloadi?
12. Investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarni baholashda barqarorlik tahlili va loyiha sezgirligi tahlili usullarining mazmuni nimadan iborat?

**X-BOB. INVESTITSIYA LOYIHASI BO'YICHA GAROV
TA'MINOTINING EKSPERTIZASI**

10.1. Garov ta'minotining mazmuni, mohiyati, turlari va huquqiy asoslari

Ma'lumki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy shartlaridan biri bu garov ta'minoti hisoblanadi. Garov - bu qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmasligini oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan ta'minot turi hisoblanib, bunda qarzdor majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, unga tegishli bo'lган va garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulkni garovga olgan shaxs qarzdorning boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini amalga oshirish uchun foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Birinchi bor qabul qilingan 1992 yil 9 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunida garov ta'minotining tartib qoidalari belgilab berilgan edi va unga ko'ra: "garov – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lган huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi"³⁹, tarzida ta'rif berilgan edi.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagи 614-1-sonli "Garov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi yangi tahrirda qabul qilingan Qonuning 1-moddasiga ko'ra esa:

"Garov majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan biri hisoblanadi.

Garov tufayli kreditor (garovga oluvchi) qarzdor majburiyatlarni bajarmagan taqdirda garovga qo'yuvchi garovga qo'ygan mol-mulk qiymatidan ta'minlash huquqiga egadir"⁴⁰, sifatida ta'rif berilgan.

Garov munosabatida ikki tomon ishtirot etadi: - garovga oluvchi – kreditor (garovga oluvchi ham, uchinchi shaxs ham), garovga qo'yuvchi shaxs – qarzdor.

³⁹ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuni, 1992 yil 9 dekabr (eski tahrir).

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 1 may (yangi tahrir).

Qonunda garov munosabatlarning subyektlari (garovga qo'yuvchi va garovga oluvchi) to'g'risida quyidagilar bayon etilgan:

1. Yuridik yoki jismoniy shaxslar garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi bo'lishlari mumkin.
2. Qarzdorning o'zi ham, uchinchi shaxs (mulkiy kafil) ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Garovga qo'yuvchi garovga berilayotgan mol-mulkka egalik (to'liq xo'jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruv) huquqiga ega bo'lishi lozim. Mol-mulk to'liq xo'jalik tasarrufi huquqi bilan birkitib qo'yilgan korxona shu mol-mulk egasining yoki u vakolat bergan idoraning roziligi bilan umuman korxonaning, mulkiy majmualar sifatida uning tuzilmalari va bo'linmalarining, shuningdek alohida binolar va inshootlarning garovini amalga oshiradi. O'ziga birkitib qo'yilgan mol-mulkni bevosita idora qilish huquqiga ega bo'lган muassasa (tashkilot) o'ziga ruxsat etilgan xo'jalik faoliyatidan olingen daromadlar hisobiga orttirilgan ashyolar yoki huquqlarni garovga berishga xaqlidir. Egalik huquqining keyingi subyektga o'tishi to'liq xo'jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruvi ostidagi mol-mulk garoviga dahl qilmaydi.
3. Huquqlarni garovga qo'yishda shu huquqlarga ega bo'lган shaxs garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Bir necha shaxsga birgalikda tegishli bo'lган huquq uning barcha egalarining roziligi bilangina garovga qo'yilishi mumkin. Ijarachi ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina ijaraga beruvchining rozilgisiz o'zining ijaraga oid huquqlarini garovga o'tkazishga haqlidir.
4. Boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek fuqaroligi bo'lмаган shaxslar, qonunlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga doir munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan ayni bir xil huquqlardan foydalanadilar hamda ayni bir xil majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Garovning yuzaga kelish sabablari asosan ikkita: kelishuv asosida (shartnoma tuzilganda) hamda qonun xujjatlari tufayli (yoki qonunda ko'rsatilgan asoslar sabali) garov munosabatlari yuzaga keladi. Garov qonun xujjatlari tufayli yuzaga kelganda garovning vujudga kelishini nazarda tutuvchi qonunda qanday

majburiyatga ko'ra va aynan qaysi mol-mulk garovda turgan deb e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Garov shartnomasining mazmuni turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularning barchasida: garov shartnomasi predmetining shart-sharoitlari va uni baholash; garov bilan ta'minlangan majburiyatning bajarilish muddati va hajmi; mulkning garov shartnomasi tomonlarining qaysi birida ekanligi ko'rsatiladi. Shuningdek, garov shartnomasida tomonlarning nomi, joylashgan manzili (istiqomat joyi), garov turi, garov bilan ta'minlangan talabning mohiyati, uning miqdori, majburiyatni ijro etish muddatlari, garovdagi mol-mulkning ro'yxati, qiymati va turgan joyi, shu bilan birga, tomonlarning kelishuviga erishilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi zarur.

Garov shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim, u notarial yo'l bilan tasdiqlanishi va shunday ro'yxatni yurituvchi davlat idorasida qayd etilishi zarur. Ko'chmas mulk va unga bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish shartnomalari, shuningdek muomaladagi va qayta ishlovdagi mollarni garovga qo'yish notarial yo'l bilan albatta tasdiqlanishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Qonunlarda garov shartnomalarini notarial yo'l bilan tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishning boshqa hollari nazarda tutilishi mumkin. Basharti, shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, notarial idora garov to'g'risidagi shartnomani tasdiqlash bilan bir paytda garov narsasini tasarrufdan chiqarishni taqiqlab qo'yadi. Garov sharti garov bilan ta'minlangan majburiyat yuzaga keluvchi shartnomaga kiritilishi mumkin. Bunday shartnoma qonunda belgilangan tartibda notarial yo'l bilan tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Garov to'g'risidagi shartnoma shakliga, uni tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibiga rioya etilmagan hollarda shartnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Garov narsasi (predmeti) bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Ashyolar, qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish uchun kim oshdi savdosi asosida olingan er uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik huquqi, shuningdek savdo

va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari, turar joy binolari ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda, boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlar garov narsasi bo'lishi mumkin. Shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan talablar, shuningdek garovga qo'yilishi qonun bilan taqiqlab qo'yilgan boshqa talablar garov narsasi bo'lishi mumkin emas.

Garov huquqi kelgusida garovga qo'yuvchining egaligiga (to'liq xo'jalik tasarrufiga yoki bevosita boshqaruviga) o'tadigan mol-mulkka nisbatan shartnomaga bilan tatbiq etilishi mumkin. Basharti, shartnomada yoki qonunlarda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi mol-mulkning ashyolarini ham, tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Mol-mulkka nisbatan garov huquqi shartnomada yoki qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, doirada va tartibda ajratib bo'ladigan samarani, bo'lg'usi hosilni, chorva mollar naslini, buyum keltiradigan daromadlarni o'z ichiga olishi mumkin. Tarixiy, madaniy yoki o'zga qimmati tufayli yoxud davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan garov qo'llanilishi mumkin bo'limgan obyektlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi.

Agar shartnomada yoki qonunlarda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, garov haqiqatda qondirish paytida bo'lgan hajmdagi talabni qondiradi, foizlar, ijroni kechiktirib yuborish oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash, jarimalarni to'lash, garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlab turishga ketadigan zarur chiqimlar, shuningdek undiruv olish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni qoplash shular jumlasiga kiradi.

Garov kelgusida paydo bo'lувchi talablarga nisbatan ham, basharti, tomonlar bunday talablarning garov bilan ta'minlanish miqdori to'g'risida kelishib olsalar, belgilanishi mumkin.

O'rtadagi umumiyligi mol-mulk faqat barcha mulkdorlarning roziligi bilan garovga berilishi mumkin. Agar mulkdorning umumiyligi hissabay mulkdagi o'z ulushini garovga qo'yish nazarda tutilgan bo'lsa, qolgan mulk egalarining rozilik berishini talab qilmaydi.

Shartnomalar yoki qonunlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yilgan mol-mulkning egasi (to'liq xo'jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruv huquqi subyekti) narsa tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan ishdan chiqishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

Garov narsasi (predmeti) sug'urta qilinadi va bunda agar mol-mulk uning egasi tomonidan sug'urtalanmagan bo'lsa, garov shartnomasiga muvofiq, garovga oluvchining zimmasiga uning tasarrufiga berilgan garovdagi mol-mulkni sug'urta qilish majburiyati yuklanishi mumkin.


Garovga qo'yuvchining foydalanishida qoladigan garovdagi mol-mulkni sug'urta qilish uning o'ziga yuklanadi.

Shartnoma yoki qonunlar bilan garovga qo'yuvchi zimmasiga davlat boshqaruv idoralari tomonidan uning xo'jalik faoliyatini to'xtatib qo'yuvchi yoxud unga xalaqit qiluvchi yoki unga salbiy ta'sir etuvchi xatti-harakatlar sodir etilishi va hujjatlar qabul qilinishi (mol-mulkni musodara, rekvizitsiya qilish), shuningdek tugatilishi yoki xo'jalik subyekti to'lov qobiliyatini yo'qotgan deb e'tirof etilishi hollaridan sug'urta qilish majburiyati yuklanishi mumkin. Garovdagi mol-mulk sug'urta qilishda garovga oluvchi garov bilan ta'minlangan majburiyat summasigacha bo'lган sug'urta puli summasini oluvchi deb ko'rsatiladi. Garovga qo'yuvchi sug'urta pulining qoldiq summasini oladi. Sug'urta hollari sodir bo'lganda garovga oluvchi o'z talablari sug'urta puli summasidan imtiyozli qondirilishi huquqiga ega bo'ladi.

Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda garovning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, boshqa iqtisodiy adabiyotlarda garovning tasniflanishi 1-rasmda ifodalangandek berilgan:

- ipoteka – ko'chmas mulk garovi;
- lombardga narsalarni garovga qo'yish – bunda agar garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan mablag' barcha zararlarni qoplamasa, lombard qarzdorning zararini qoplab berishni talab qilish huquqiga ega bo'lmaydi.

- muomaladagi tovarlarning garovi – garovga qo'yilgan mahsulotning (inventar, xom ashyo) tarkibi va tabiiy shakli, agar ularning umumiyligi qiymati garov shartnomasida ko'rsatilgan qiymatdan kam bo'lmasa, o'zgartirilishi mumkin.



10.1-rasm. Garov turlari⁴¹

O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonuniga ko'ra garovning quyidagi turlari berilgan:

1. Zakalat – ko'char mol-mulkning garovidir, bunda garov narsasini tashkil etuvchi ashyo garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchi ixtiyoriga beriladi. Kreditorning garovga qo'yuvchi bilan kelishuviga binoan garov narsasi garovga qo'yuvchi ixtiyorida qulflangan va garovga oluvchining muhri bosilgan holda (ishonchli garov) qoldirilishi mumkin. Alovida belgilangan ashyo garov to'g'risida dalolat beruvchi belgilar qo'yilgan holda garovga qo'yuvchi ixtiyorida qoldirilishi mumkin.
2. Garov narsasi garovga qo'yuvchida yoki uchinchi shaxsda qoladigan ko'chmas mulk garovi ipoteka deb e'tirof qilinadi. Yer bilan bog'liq mol-mulk –

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining Garov to'g'risidagi yangi tahrirdagi qonuniga ko'ra muallif tomonidan shakllanti

imorat, inshoot, ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, yuridik va jismoniy shaxslar mulkida bo'lган savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari, shuningdek turar joy binolari ular joylashgan er uchastkalari bilan birga qonunlar bilan ko'chmas mulk sirasiga kiritilgan boshqa mol-mulk, shuningdek transport vositalari ipoteka narsasi bo'lishi mumkin.

3. Xom ashyo, butlovchi buyumlar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar muomaladagi va qayta ishlashdagi mollarning garov narsasi bo'lishi mumkin.

Muomaladagi va qayta ishlashdagi mollar garovida garov narsasi (mol zahiralari, xom ashyo, materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulot kabilalar)ning tarkibi va natural shaklini o'zgartirishga, ularning umumiyligi qiymati garov to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilganidan kam bo'lib qolmasligi sharti bilan yo'l qo'yiladi. Agar shartnomada o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yilgan mollarning garov bilan ta'minlangan majburiyatning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda ularning qiymatini pasaytirishga yo'l qo'yiladi. Muomaladagi va qayta ishlashdagi mollar garovida garovga qo'yuvchi tomonidan realizatsiya qilingan mollar qo'lga kirituvchining mulkiga, to'liq xo'jalik tasarrufiga yoki bevosita boshqaruviga o'tgan paytdan boshlab garov narsasi bo'lishdan to'xtaydi, garovga qo'yuvchi sotib olgan, garov to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan mollar ularga nisbatan garovga qo'yuvchining mulkiy yoki to'liq xo'jalik tasarrufi huquq paydo bo'lgan paytdan boshlab garov narsasiga aylanadi.

4. Garovga qo'yuvchiga tegishli egalik qilish va foydalanish huquqlari, shu jumladan ijarachining huquqlari, majburiyatlaridan kelib chiquvchi boshqa huquqlar (talablar) va o'zga mulkiy huquqlar garov narsasi bo'lishi mumkin. Garov narsasi bo'lishi qonun bilan man qilingan huquqlarni garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi. Er uchastkasiga bo'lgan huquqlarni, shuningdek o'zga tabiiy resurslarga nisbatan bo'lgan huquqlarni garovga qo'yishga qonunlarda belgilangan me'yor va shartlarda ruxsat etiladi. Muddatli huquq uning amal qilish muddati tugagunga qadargina garov narsasi bo'lishi mumkin.

5. Garov narsasi hisoblanuvchi qimmatbaho qog'ozlar yoki pul mablag'lari notarial idora yoki bankning depozit hisobida saqlanadi. Ushbu summaga

hisoblanadigan foizlar garovga qo'yuvchiga tegishli bo'ladi. Basharti, qimmatbaho qog'ozlar yoki pul mablag'larining garovga oluvchisi bank bo'lsa, unda garov shartnomasi notarial yo'l bilan tasdiqlanmaydi va maxsus ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

Garovga ko'ra qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga xaqli bo'ladi.

Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lган har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday subyektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo'lishi lozim.

Qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditor talabini garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatidan qondirish sud, xo'jalik sudi va xolislar sudining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish notariusning ijro etish yozuvi asosida muqarrar tartibda amalga oshiriladi.

Garov narsasini sotish sud ijrochisi tomonidan sud bergen ijro varaqasi yohud xo'jalik sudining buyrug'i yoki notariusning ijro etish yozuvi asosida qonunlarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Garov narsasini sotish kimoshdi savdosi (ochiq savdoda) yoki vositachilik do'konlari orqali amalga oshiriladi.

Undiruv garovga qo'yilgan narsaga qaratilganda garovga oluvchining talabi boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli tarzda qondiriladi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno. Agar garov narsasini sotishdan tushgan pul garov oluvchining talablarini qoplashga kamlik qilsa, shartnomada yoki qonunlarda o'zgacha qoidalar yo'q bo'lgan taqdirda etishmayotgan pulni garov oluvchi qarzdorning boshqa mol-mulkidan qonunlarda nazarda tutilgan navbat bilan olish huquqiga ega bo'ladi. Agar garov narsasini

sotishdan tushgan pul kreditorning garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha talablari miqdoridan ortiq bo'lsa, kreditor bir oylik muddat ichida qarzdorga farqni to'lashi shart.

Garov huquqi quyidagi holatlarda to'xtatiladi:

- a) garov bilan ta'minlangan majburiyat ijro etilganda;
- b) garovga qo'yilgan mol-mulk nobud bo'lganda;
- v) garov narsasiga bo'lgan huquq garovga oluvchiga o'tganida;
- g) garovga qo'yilgan mol-mulk majburan sotilganda;
- d) da'vo muddati o'tib ketganligi oqibatida garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha kreditorning o'z talablari qanoatlantirilishi mumkin bo'limganda;

e) garov narsasini tashkil etuvchi huquqning amal qilish muddati tugaganda;


j) Qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar.

Garovga doir qonun xujjalalariga ko'ra garov quyidagi hollarda ham tugatiladi:

- majburiyatlar amalga oshirilganda (qarz qaytarib berilganda);
- garovga qo'yilgan mol-mulkni kim oshdi savdosida sotish yoxud uni sotishni amalga oshirish mumkin bo'limgan hollarda;
- garovga qo'yuvchining talabiga binoan garovga qo'yilgan mulkning yo'qolishi yoki zarar yetkazilishi xavfi mavjudligida;
- agar garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan narsalarni tiklash yoki uni almashtirish huquqidan foydalanmasa, garovga qo'yilgan narsalar nobud bo'lganda yoki garovga qo'yilgan huquq tugatilgan hollarda garov tugatiladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda garov ta'minoti tamoyili yordamida iqtisodiyotning rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtaida bo'lishi zarur bo'lgan proportsiyalarining bir me'yorda bo'lishi rag'batlantiriladi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan moddiy boyliklarning bir so'mi qarama-qarshi turishi kerak.

Qarzni qaytarmaslikning oldini olish maqsadida investitsiya loyihalari bo'yicha qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarini taqdim etishi mumkin:



10.2-rasm. Investitsiya loyihalari bo'yicha garov ta'minoti turlari

Banklar tomonidan xalq xo'jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to'liq tovar moddiy boyliklari va malum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankga qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu o'z navbatida bankning likvidliligiga va pul muomalasiga katta tasir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga muhim e'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda bu jarayonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxona bankka tovar yoki tovar hujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkini garovga qo'yadi. Agarda bank bergan kredit qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida bankka qaytarilmasa, bank tovarni sotish hisobidan qarz o'rmini qoplash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zida kredit warrant⁴² asosida ham berilishi mumkin. Bunda kreditor berayotgan krediti tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bank ssudalarini tovar-moddiy boyliklar bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasini barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank aylanmasidagi pullar naqd pulga va aksincha transformatsiyalanib turadi.

⁴²Varrant - garov uchun xizmat qiluvchi hujjat.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lган mulk bo'lishi kerak.

Uchinchi shaxsnинг moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalar asosan boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxona yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqitatda shunday ahvol ro'y bersa, o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida yuridik shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hoqimiyati organlari ishtirok qilishlari.

10.2. Investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minoti ekspertizasining asosiy bosqichlari

Investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minoti ekspertizasining dastlabki bosqichi potentsial qarzdor bilan muzokaralar olib borishdan boshlanadi. Dastlabki muzokaralar kreditlash bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Agar investitsiya loyihasini amalga oshirish murakkab va kompleks garov predmetini nazarda tutadigan bo'lsa, unda kredit beruvchi tashkilot garov bilan ishlaydigan mutaxassis ishtirokida muzokaralarni tashkil etadi. Bunda garov bo'yicha mutaxassisning vazifasi mijozning garovga qo'yish uchun eng ma'qul bo'ladigan mol-mulkini aniqlashdan iborat bo'ladi.


Garov ta'minoti ekspertizasining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat (3-rasm):

1. Garov ta'minotini birlamchi ko'rib chiqish;
2. Garov ta'minotini tahlil qilish va baholash;
3. Garov shartnomasini rasmiylashtirish;
4. Garov ta'minotni monitoring qilib boorish.

Garov ta'minoti ekspertizasining birinchi bosqichida taklif etilgan mulkni yuridik nuqtai-nazardan garovga qo'yish imkoniyati tekshiriladi. Korxona (qarz

olvuchi, garovga qo'yuvchi) kredit berayotgan bankka garovga qo'yish uchun shunday mulkni berishi lozimki, bu mulkka nisbatan qonun bo'yicha hech qanday ta'qiq yoki cheklovlar qo'yilgan bo'lishi kerak emas.

Agar korxona biror ko'chmas mulkni boshqarish huquqiga ega bo'lsa, ushbu mulkni faqat mulk egasining yozma roziligi bilan garovga qo'yishi mumkin bo'ladi.



10.3-rasm. Garov ekspertizasi bosqichlari

Zarur hollarda garov bo'yicha mutaxassis yuridik bo'lim xodimi bilan quyidagilarni aniqlashi lozim:

- ushbu turdag'i mulk bilan bitimlar tuziladigan bo'lsa, huquqiy jihatdan hech qanday cheklovlar mavjud emasligini;
- ushbu turdag'i mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq hech qanday bank tomonidan qo'yilgan cheklovlar mavjud emasligini aniqlaydi.

Garovga qo'yilgan mulkni baholash jarayonining samaradorligini oshirish uchun bank xodimiga qisqacha baholash natijalarining to'g'rilagini tushunishga imkon beruvchi hisobotni taqdim etish tavsiya etiladi. Bunday ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- obyektning tavsifi;
- baholangan obyektga tegishli bo'lgan bozor segmentini tahlil qilish;

- baholash obyekti fotosuratlari;
- yakuniy natijani hisobga olgan holda hisob-kitoblar.

Qimmatli qog'ozlar va nomoddiy aktivlarni garovga qo'yish paytida ro'yxatga olish (reestrga olish) hujjatlari tahlil qilinadi, masalan, qimmatli qog'ozlar egalarining depozitariysidan olingan ko'chirma tekshiriladi. Dastlabki tekshirish vaqtida bankning garov xizmati kafolatning identifikatsiya belgilarini (masalan, manzil belgilari, zavod raqamlari, brend va chiqarilgan yili, VIN va boshqalar) mavjudligini qayd etadi, shuningdek, jismoniy nuqsonlar yo'qligini tekshiradi. Ta'minotning amaldagi va mulk egasi tomonidan berilgan xususiyatlarining mos kelishligi tekshirilib, qonuniy va texnik hujjatlar bilan taqqoslanadi. Tekshiruv vaqtida garov bo'yicha xodim garovga qo'yilayotgan predmetni yong'in va jismoniy xavfsizlik talablariga javob beruvchi saqlash joyida ekanligini aniqlaydi. Garovga qo'yilgan mol-mulkni keyinchalik bank tomonidan nazorat qilib borish imkoniyatlari ham albatta tahlil qilib ko'rib chiqilishi kerak.

Garov ta'minoti ekspertizasining ikkinchi bosqichi garov ta'minotini tahlil qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Garov ishlari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarining aksariyati, shu jumladan, bank xodimlari ham garov ekspertizasining ushbu bosqichining mazmuni garov qiymatining kattaligi haqidagi savolga javob berish, deb o'ylaydilar. Biroq, bu unday emas. Garovga qo'yilgan mulkning qiymatini aniqlash garov ekspertizasining maqsadi emas. Chunki, garovga qo'yilgan mulk qiymatini aniqlash bir qator tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Avvalo, amaldagi qonunchilik nuqtai nazaridan ushbu mol-mulkni garovga qo'yish bo'yicha cheklashlar mavjudligi aniqlanadi. Ikkinchidan, garov ta'minoti bankning garov bo'yicha siyosatining cheklavlarga oid shartlariga muvofiq bo'lishi kerak. Masalan, bankning ichki siyosati dori-darmon preparatlarini yoki qurilishi tugallanmagan ko'chmas mulk obyektlarini garovga qo'yishni taqiqlashi mumkin. 2014 yil 5 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tarixiy, badiiy yoki o'zga madaniy qimmatliligi tufayli garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'limgan obyektlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 335-sون Qaroriga ko'ra tarixiy, badiiy yoki

o'zga madaniy qimmatliligi tufayli garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'lmanan obyektlar ro'yxati berilgan.

Garov ekspertizasi jarayonining ushbu bosqichining ikkinchi, lekin ahamiyati jihatidan kam bo'lmanan tomoni garovning likvidligini tahlil qilish, ya'ni garov predmetining naqd pulga aylanish tezligini tahlil qilish. Likvidlik tahlili garovni sotish uchun cheklash shartlarini, ochiq bozorda mol-aylanish xususiyatlari, mulkning montaj yoki demontaj qilish xususiyatlari, ta'minotning ijtimoiy ahamiyati, garovga qo'yilgan mulkni keyinchalik sotish yoki undirish holatlarida ma'muriy to'siqlarning mavjudligi kabilarni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu ikki bosqich ijobiy natijalarga ega bo'lган holatda, garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lган huquq va cheklovlni tekshirish amalga oshiriladi. Xusan, garovga qo'yilgan mulkni garov sifatida berish huquqini kafolatlash, egalik huquqi va sudda uchinchi shaxslarning da'volari tekshiriladi.

Garovni tekshirishning yuqoridagi bosqichlari amalga oshirilgandan so'ng, garov exspertizasi xodimi garovning bozor qiymatini aniqlashga kirishadi. Garov qiymatini tahlil qilish va baholash natijasida ekspert xulosasi tuziladi. Ekspert xulosasining shakli bankning ichki me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Garov qiymatini baholashga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- a) baholash kamida bozor narxini belgilashga asoslanishi;
- b) yozma ravishda bayon etilishi va foydalanuvchilarga uning bozor narxi va narxni belgilash asoslari haqida tushuncha berish uchun etarli darajada ta'riflarga ega bo'lishi;
- v) so'ngi uch yil mobaynida mulk sotilishiga doir har qanday hollarning tahlili va hisobotlarini qamrab olishi;
- g) agar ko'chmas mulk daromad keltirayotgan bo'lsa, u holda tegishli daromad va xarajatlarning tahlili keltirilishi;
- d) sotuv muddatlari tahlili o'z ichiga olishi;
- e) mulkga ta'sir etuvchi joriy bozor va iqtisodiy holatlar hamda tendentsiyalarga taalluqli tahlil va hisobotni aks ettirishi;
- yo) mulkning yuridik ta'riflanishini o'z ichiga olishi;

- j) baholanayotgan mulkning tarkibidagi boshqa mulklarning (mebel, maishiy asbob-uskunalar va h.k.) alohida ta'riflari va qiymatini ko'rsatishi;
- z) foydalanilayotgan baholash uslubini ta'riflashi (qiymat, o'xshash bitimlar bilan qiyoslashlar va h.k.) hamda qo'llanilgan usulni tanlash sababini tushuntirishi;
- i) foydalanuvchiga bozor narxini belgilashning mantiqiy asoslarini tushunish imkonini beruvchi etarli darajadagi axborotni o'z ichiga olishi;
- y) agar baholashda ma'lum axborotdan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmasa, bu sabablarning ta'riflanishini aks ettirishi lozim.

Baholashni mukammal tekshirish mas'uliyati bank zimmasidadir. Bank Kengashi va Boshqaruvi ko'chmas mulkni qonunchilik, tegishli Nizom hamda Markaziy bankning boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq baholashga yo'naltirilgan siyosat va tadbirlarning ishlab chiqilishini va ularning bajarilishini ta'minlashi zarur.

Garov xizmati bilan shug'ullanuvchi bo'lim va boshqa maxsus xizmatlar bo'limi tomonidan tayyorlangan xulosalar asosida bankning vakolatli shaxslari kredit taqdim etish yoki mavjud bo'lgan shart-sharoitlarni o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Kredit qo'mitasining qarori bilan garov xizmati bank bilan va qarz oluvchi bilan mulkiy garov shartnomasini tuzadi va tasdiqlaydi. Shu vaqtan boshlab ko'char mulk garovi boshlanadi va ko'chmas mulkni garovga qo'yish mol-mulkni garov sifatida topshirish bo'yicha bitimni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab etiladi.

Garov shartnomasini imzolash garovga qo'yuvchining garov ta'minoti bo'yicha ishini bajarib bo'linganligini anglatmaydi. Shu vaqtan e'tiboran qarzni to'liq qoplashigacha garov xizmati garov ta'minotini nazorat qiladi. Garov ta'minotni monitoring qilish deganda mol-mulkning qiymati va mulkiy xususiyatlarining o'zgarmaganligini tasdiqlash, shuningdek, garovning kimning qo'lida ekanligini nazorat qilish va uchinchi shaxslar tomonidan da'volarning yo'qligini tekshirish tushuniladi.

Bankning garov xizmati bo'limining minimal tarkibi, 3-rasmida berilgan bo'lib, bankning funktsionligi va ko'lamiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Sxemada quyidagilar ko'rsatilgan:

- garov xizmatining xulosalarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi baholash va ekspertiza bo'limi;
- monitoring bo'limi, ta'minotning keyingi holatini nazorat qilishni ta'minlab beradi;
- bankning garov portfelini tashkil etish hamda tashqi va ichki kontragentlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan statistika bo'limi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, garov xizmatining mutaxassisiga kichik tafsilotlarga ham e'tiborli bo'lish, ta'minot haqida tinmay ma'lumotlarni qidirib topishga charchamaslik, o'z ishiga nisbatan halol yondashish kabi hislatlar va qobiliyatlar xos bo'lishi kerak. Ketma-ket bajariladigan ishlar va professional fikrlarini doimiy ravishda himoya qilish zarurati ushbu xodimdan stressga chidamlilik va biznes shart-sharoitlarining o'zgarishiga tezkor moslashuvchanlikni talab qiladi. Garov xodiminig eng ustuvor tomoni bank va uning aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

10.3. Xorij amaliyotida investitsiya loyihasi bo'yicha garovni baholashning asosiy tamoyillari va ta'minot turlari

Garov investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlashining asosiy ta'minoti sifatida kredit tavakkalchilagini pasaytirish va kredit berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Albatta, bu o'z-o'zidan bank garov ta'minotini baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. E'tirof etish joizki, bu borada xorijiy mamlakatlarda uzoq yillar davomida yetarli tajriba, usul va tamoyillar shakllangan.

Xorij amaliyotida kredit uchun qo'yilayotgan garov ta'minotini baholashda uning likvidligi, bozor bahosi, bozor kon'yukturasini o'zgarishi natijasida sotish imkoniyati hamda investitsion jozibadorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, kredit oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs bankni tanlagandan so'ng

garovga qo'yayotgan ta'minotni baholash jarayonini amalga oshiradi. Chunki, banklarning kreditlash siyosati va garov ta'minotini baholashga qo'yayotgan talablari bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, kreditlovchi bank kredit olish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishi jarayonida qo'shimcha ma'lumotlar zarur bo'lishi yoki baholash bo'yicha tayyorlangan xulosaning dolzarbliyi yo'qolishi mumkin.

Xorij amaliyotida bank kredit ta'minotini baholashning belgilab qo'yilgan aniq tamoyillari joriy etilmagan. Biroq, garov ta'minotini baholash jarayoniga e'tibor beradigan ayrim tamoyillar mavjudki, bank kreditini olish uchun baholanayotgan garov ta'minoti mazkur tamoyillarga javob bermagan hollarda bank kredit shartnomasini imzolamaydi. Xususan, baholash jarayonida quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi maqsadga muvofiq:

- baholanayotgan obyektning kreditning asosiy garovi sifatida huquqiy va jismoniy jihatdan neytralligi ta'minlanganligi;
- baholash jarayonida obyektning likvidligiga ta'sir etuvchi barcha omillarning inobatga olinganligi;
- garov ta'minotini sotishning bir necha variantlarining mavjudligi;
- baholanayotgan obyektning bahosiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan huquqiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar xolisona baholanganligi;
- baholash jarayonida qo'llaniladigan uslublar va yondashuvlar bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va farqlar konservativ va yuqori talab asosida yondoshish kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarning bajarilmasligi bank kreditlari bo'yicha garov ta'minoti hisobidan moliyaviy zarar ko'rishi va ularning kelgusidagi faoliyatini rejalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro baholash amaliyotida kreditlash maqsadidan kelib chiqqan holda uning talablarini aks ettiruvchi alohida olingan (ya'ni, tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan) andozalar qo'llaniladi. Masalan, Rossiya banklarida garov ta'minotini baholash amaliyoti ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Garov obyektining bozor qiymatini aniqlash. Garov ta'minotining bozor qiymatini aniqlash kredit shartnomasi tuziladigan paytda amalga oshiriladi.

2-bosqich. Garov obyektlarining ta'minot sifatidagi qiymatini aniqlash. Garov qiymatini aniqlash garov mulkining likvidligi, garov diskontlari, tavakkalchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta'sirini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Rossiya qonunchiligidagi garov qiymati to'g'risida aniq ko'rsatma berilmagan, shu sababli Rossiya banklarida garov qiymatini aniqlashda banklarning ichki tartiblari va mustaqil baholovchi kompaniyalarining ko'rsatmalariga asoslaniladi. Bunda asosiy strategiya riskdan qochish va risklarni boshqarish hisoblanadi.

Odatda banklar tomonidan berilgan kreditni garov ta'minoti hisobidan qoplashga manfaatdor emaslar. Shu bois, berilgan kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlarni pul tushumlari hisobidan so'ndirishni ma'qul ko'radi. Buning uchun bank kreditning asosiy summasi va hisoblangan foiz to'lovlaring muddati yetib kelganda uni to'lash nuqtai nazaridan quyidagi sinflar bo'yicha tasniflaydi.

1-sinf. Kompaniya barcha kredit summasi va unga hisoblangan foiz to'lovlarini tushumlar hisobidan 1 oy ichida so'ndiradi.

2-sinf. Kompaniya barcha kredit va foiz summasini to'lashga 2 oy ketadi.

3-sinf. Kompaniya kredit bilan bog'liq barcha to'lovlarni amalga oshirish uchun 3 oylik tushumlarni yo'naltirishi lozim bo'ladi.

Kredit oluvchi ushbu sinflarning bittasiga to'g'ri kelsa, bank kredit shartnomasini tuzish bo'yicha tegishli ishlarni boshlaydi. Bank kredit bo'yicha qabul qilayotgan garov turi kredit olayotgan shaxsning faoliyat yo'nalishi bilan bevosita bog'liqdir.

Masalan, ishlab chiqarish kompaniyalarida mablag'ning 70 foizi asosiy vositalarga joylashtiriladi, savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan tashkilotlarda ushbu aktivlar bor yo'g'i 10-15 foizni tashkil etadi. Shuning uchun har bir alohida olingan kompaniya bo'yicha garov turi va ularni baholash tartibi bank hamda kredit oluvchi o'rtasida kelishiladi.

Tadqiqotlar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, xorij banklari qisqa muddatli kreditlar uchun xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni garovga

ko'proq qabul qiladi. Qisqa muddatga berilayotgan kreditlarning garov ta'minoti sifatida ko'chmas mulklarni olishni ma'qul ko'rmaydi, ko'chmas mulklar asosan, uzoq muddatli kreditlarning garov ta'minoti sifatida qabul qilinadi.

Banklar kredit ta'minoti bo'yicha qabul qilinayotgan qimmatli qog'ozlarni baholashda ularning birjadagi kotirovkasi e'tiborga olinadi. Qimmatli qog'ozni garov sifatida qabul qilingan davrdagi baholashning turli stsenariylari ishlab chiqiladi. Bunda qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy holati, bozordagi nufuzi va kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lган holatlarini hisobga olib, diskont asosida joriy bahosi aniqlanadi. Bu baho taxminan ularning joriy bahosining 10-50 foizini tashkil etishi mumkin.

Savdo va ishlab chiqarish vositalari, texnika, avtotransport, inventar va boshqa uskunalar kreditlarning garov ta'minoti sifatida olinganda, ularning bahosi ikkilamchi bozorda sotiladigan jihozlarni o'rganish orqali aniqlanadi. Bunda asosiy e'tibor jihozlarning likvid qiymatiga qaratiladi. Jihozlarning likvid qiymati – bu ushbu buyumlarni qisqa davr ichida sotish mumkin bo'lган bahosidir. Odatda jihozlarning likvid bahosi bozor bahosidan 10-30 foiz past bo'ladi. Bundan tashqari, garov ta'minotini sotish vaqtida yuz berishi mumkin bo'lган bahosi to'g'ridan-to'g'ri xarajat usuli orqali aniqlanadi. Shu bo'yicha bank kredit bo'yicha garov ta'minotining bahosi aniqlanadi, odatda ushbu baho joriy bahoning 50-60 foizini tashkil etadi.

Axborotlar ochiqligi hamda bozorda talab va taklif mexanizmlarining amal qilishi sharoitida bankning garov ta'minotining bozor bahosini aniqlashi unchalik qiyin kechmaydi. Xalqaro amaliyotda bank kreditining garov ta'minotiga qo'yilgan ko'chmas mulkni baholashda uning bozor bahosini emas, balki maksimal darajada tezroq sotish imkonini beruvchi likvid qiymatidan foydalanadi. Xorij amaliyotining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, banklar baholash bozoridagi yuqori reyting va nufuzga ega bo'lган, shuningdek, baholash hisobotlariga shubha tug'dirmaydigan baholovchi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Bank kredit uchun qo'yilgan garov ta'minotining qiymati baholovchi tomonidan o'rnatilgan bahosi asosida hisoblangan qiymatga teng bo'ladi.

Ko'chmas mulklar bo'yicha joriy etiladigan diskont banklarda bir xil aniqlanmaydi, shu bilan birga, diskontni aniqlashda ko'chmas mulkni joylashgan joyi, infratuzilmaning rivojlanganligi, zamonaviyligi kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Diskont odatda ko'chmas mulkning bozor bahosini 20 foizdan 50 foizgacha darajasini tashkil etadi. Albatta, bunga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan, ko'chmas mulkni joylashgan hududda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mulkning ma'naviy va jismoniy jihatdan zamon talablariga javob berishi kabilar shular jumlasidandir. Ko'chmas mulkni diskont asosida hisoblash orqali garov ta'minoti summasi aniqlanadi.

Agar, bank diskont foizini oshiradigan bo'lsa, shu darajada garov ta'minoti summasi ham kamayadi. Bank garovga qo'yilayotgan ko'chmas mulkka diskont darajasini qarz oluvchining kreditlash shartlari va maqsadi, garov obyektining likvidlik darajasi, kredit oluvchining ijobiy yoki salbiy kredit tarixi (agar mavjud bo'lsa), pul tushumlari oqimi hajmi kabi jihatlariga qarab belgilaydi. Shu bilan birga, bank kredit oluvchining kreditni so'ndirilmasligi (qisman yoki to'liq), foiz, penya va jarimalarni to'lay olmay qolish ehtimollari ham diskontni belgilashda e'tiborga olinadi. Bundan tashqari, qarzdor o'z majburiyatlarini o'zaro tuzilgan shartnomadagi shartlar asosida bajarmagan hollarda ko'chmas mulk qiymati bo'yicha o'rnatiladigan diskont sud jarayonida ko'rish va auktsionda sotish bilan bog'liq xarajatlar ham inobatga olinadi. Bunday hollarda garov turi va maqsadiga qarab, kredit summasidan kelib chiqib diskont 10-20 foiz darajasida belgilanadi.

Xalqaro amaliyotda kreditning garovi sifatida qimmatli qog'ozlar ham keng tarqalgan. Agar garovga qo'yilgan qimmatli qog'oz hujjatli bo'lsa, bank uni zakalat sifatida kredit berilgan muddat davomida saqlash uchun qabul qiladi. Kredit uchun zakalat sifatida olingan qimmatli qog'ozni baholash ko'p mehnat talab qilmasada, biroq uni kredit ta'minotining garovi sifatida olinishi anchagina risklidir. Odatda, kredit zakalati sifatida olingan qimmatli qog'ozning bahosi emitentning barqarorligi, hamkorlar o'rtasida va bozorda tutgan mavqeiga bevosita bog'liq. Agar bank emitentning moliyaviy barqarorligiga ishonch hosil qilmasa,

uning qimmatli qog'ozini garov ta'minoti uchun qabul qilmaslikka haqqi bor. Qimmatli qog'ozlar bank kreditining garov ta'minoti sifatida qabul qilinganda, ularning nominal qiymati asosida baholanadi.

Agar garovga veksel beriladigan bo'lsa, unga blankli indossament qo'yish zarur bo'ladi. Kredit oluvchi kredit summasi va unga hisoblangan foizni o'z vaqtida qaytarish bilan bog'liq muammoga duch kelsa, bank vekselni o'z nomidan sotib, tushgan mablag' hisobidan muammoli kreditni bartaraf etadi. Xalqaro amaliyotda garovga qo'yilgan veksellar bo'yicha diskont miqdori 2 foizdan 15 foizgacha bo'lган darajada tebranib turadi.

Xalqaro amaliyotda bank kreditlari bo'yicha aylanmadagi tovarlarni garovga qo'yish keng qo'llaniladi. Bunday holatda kompaniyaga tovarlarni sotish bo'yicha chegara (sanktsiya) joriy etilmagan bo'lishi hamda korxona mustaqil ravishda tovar, xom ashyo, materiallar va boshqa aktivlarini sotish va sotib olish huquqiga ega bo'lishi zarur. Bank krediti bo'yicha kompaniya tovarlarni garovga qo'yishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Xususan, kompaniya tomonidan sotilgan tovar yoki aktiv uchun to'lov haqi kelib tushmagan bo'lsa, garov ro'yxatidan chiqariladi, sotib olganlari esa ushbu tovarlarga kompaniyaning egalik huquqi berilgan paytdan boshlab bank garovi sifatida qaraladi. Bu jarayonda shunday shart saqlanishi zarurki, kompaniya ixtiyoridagi tovar kredit shartnomasida ko'zda tutilgan garov summasidan kam bo'lmasligi kerak. Shuningdek, likvidligi ko'zda tutilgan darajadan o'zgarmasligi, ya'ni pasaymasligi lozim.

Xorijiy mamlakatlarda baholash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish amaliyotini o'rghanish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, baholash munosabatlari bilan bog'liq jarayonlarning bugungi kundagi holati uzoq davrlar, sinovlar hamda baholash xizmatiga bo'lган ehtiyojlarining o'zgarishi natijasida rivojlangan va takomillashib kelmoqda.

Shuningdek, baholash institutlari xizmatlarining sifati mamlakat iqtisodiy barqarorligining ta'minlanganligi va milliy valyutaning to'lov qobiliyatining mustahkamligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi mol-mulk va xom ashyo bozorlaridagi talabiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu esa baholovchilar tomonidan o'rnatilgan baholarning keskin tebranmasligini oldini oladi.

Shu bilan birga, milliy valyutani sotib olish qobiliyatining yuqoriligi va inflyatsiya darajasining normal me'yorini ta'minlanganligi baholovchilar hulosalarida belgilangan baholarning barqaror bo'lismiga zamin yaratadi.

Biroq, xalqaro tajribadan ma'lumki, banklarning krediti bo'yicha qo'yilgan garov ta'minotining bahosi keskin tebranishi natijasida baholovchilar tomonidan o'rnatilgan haqqoniy, real va xolisona o'rnatilgan baholar o'zining ahamiyatini yo'qotishi natijasida banklarni moliyaviy inqiroz yoqasiga olib kelib qo'ydi, ko'pchilik holatlarda bankrotlik holatiga tushib qoldi. Bu kabi holatlar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar natijasida vujudga kelib, bu vaziyatda mamlakatdagi ko'char yoki ko'chmas mulklarning bahosi vahima va taxminlar natijasida tushib ketadi. Bunga misol qilib, 2008 yil avgustda AQShda ipoteka krediti bilan bog'liq moliyaviy-iqtisodiy inqiroz natijasida ko'chmas mulklarning bahosini keskin pasayib ketganligini keltirish mumkin.

Xorij amaliyotida banklarning kredit bo'yicha qo'yilgan garov ta'minotini baholash metodologiyasining asosida ularning bazaviy tamoyillari yotibdi. Shu bois ham bank tizimi baholash institutlarining asosiy iste'molchisi sifatida baholash jarayonini samarali tashkil etish bilan bog'liq iqtisodiy, huquqiy va siyosiy omillarni e'tiborga olgan holda yondashuv zarurligini amaliyotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Xorijiy amaliyotda bank garovini baholashning asosiy tamoyillari va kredit uchun qo'yiladigan ta'minot turlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirish mumkin:

- xorijiy amaliyotda bank garov ta'minotini baholash bo'yicha yetarli darajada tajriba va ko'nikmalar shakllangan bo'lsada, baholash bo'yicha qat'iy belgilab qo'yilgan tamoyillar mavjud emas. Asosiy e'tibor, garov obyektining likvidligi, bozor bahosi, bozor kon'yukturasini o'zgarishi natijasida sotish imkoniyati hamda investitsion jozibadorligiga qaratiladi;

- garov qiymatini aniqlashga garov bo'yicha joriy etiladigan diskontlar, tavakkalchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta'siri inobatga olinadi;
- garov turi kredit olayotgan shaxsning faoliyat yo'nalishi bilan bevosita bog'liqligiga e'tibor qaratiladi. Xususan, ishlab chiqarish kompaniyalarida asosiy vositalar, savdo-sotiq faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilotlarda tovar-moddiy qimmatliklar, jismoniy shaxslardan ko'char yoki ko'chmas mulklar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar ta'minot sifatida qabul qilinadi;
- xorij amaliyotida baholash jarayonida qo'llaniladigan axborotlarning ochiqligi va shaffofligi tajribasini mahalliy baholash amaliyotida kengroq joriy etish maqsadga muvofiq;
- xorijiy va mahalliy baholovchilar o'rtaida amaliy va nazariy hamkorlikni yo'lga qo'yish, bunda xalqaro konferentsiya va seminarlarda ishtirok etish, amaliy baholash jarayonlarida ishtirok etish kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, xorij amaliyotida garovni baholash va garov turlari uzoq yillar davomida amaliy talablar asosida shakllanib va rivojlanib kelgan, ularning ijobiy jihatlarini mahalliy baholash amaliyotida qo'llash o'zining ijobiy natijasini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, sanoati rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yuqori likvidlilik darajasiga ega bo'lgan garov obyektlari birinchi toifali garov obyektlari deb qaraladi va ularga quyidagilar kiradi: yer, hukumatning qimmatli qog'ozlari, markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, korxonalarning hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G'arbiy Evropa davlatlari xo'jalik amaliyotida sanoat korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Har qanday qimmatli qog'ozning to'lovini hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi.

Hukumatning qimmatli qog'ozlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yuqori likvidli garov ob'ektlari sifatida tijorat banklari tomonidan tan olinadi. Lekin ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, masalan, Braziliya, Argentina

davlatlarida hukumatning qimmatli qog'ozlariga nisbatan sezilarli darajada ishonchszilik kayfiyati mavjud. Bu kayfiyat ushbu mamlakatlar hukumatlarining defolt holatlariga yo'l qo'yganligi bilan izohlanadi. Lekin bunday davlatlar ko'pchilikni tashkil etmaydi.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olish hisobiga berilgan investitsion kreditlar bo'yicha garov ob'ektini sotishda ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini ssudaning to'lanmagan qiymatidan chegirmaslik banklarning investitsion kredit berish salohiyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va o'zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiqtisodiy barqarorlik davrida ayniqsa muhimdir.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G'arbiy Evropa davlatlari xo'jalik amaliyotida sanoat korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Har qanday qimmatli qog'ozning to'lovini hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi.

Banklar kredit qaytmasligi xavfidan holi bo'lishi uchun ta'minotning ikkilamchi manbalaridan, xususan, garovdan qo'shimcha ravishda foydalanib kelmoqdalar. Ma'lumki, kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash kredit berishning asosiy shartlaridan biridir. Bunda mahsulot sotishdan, ish va xizmatlar bajarishdan keladigan tushum bank ssudasi to'lashning asosiy manbai bo'ladi, ya'ni bank moliyalaydigan operatsiya bitimining negizini tashkil qiladi. Biroq hozirgi paytda ko'p hollarda qarz oluvchining kredit qobiliyatini baholash qiyin bo'lmoqda.

Agar kredit operatsiyasining o'zi yuqori darajadagi tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lsa, kreditni yaxshi garov ta'minoti borligi uchungina berish xato bo'ladi. Qoida tariqasida, garov ta'minoti masalasi kreditlash to'g'risidagi qarorga kelish jarayonida ko'rildi.

Kreditining qaytarilishini ta'minlash usuli sifatidagi garovning ma'nosi shuki, kreditor (bank) qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'zda tutilgan muddatda o'z

majburiyatini bajarmagan taqdirda ssudani qaytarish va ssuda yuzasidan hisoblab yozilgan foizlarni to'lash talabini garovga qo'yilgan mulkning qiymatidan birinchi navbatda qondirish huquqiga ega bo'lib qoladi.

Banklar ta'minot sifatida:

- qimmatbaho buyumlar, tovar-moddiy boyliklar;
- ko'chmas mol-mulk;
- pul mablag'lari;
- qimmathli qogozlar;
- mulkiy huquqlar kabi qarz oluvchi taqdim etgan, qonunlarga muvofiq undiruvchini olishga qaratilgan har qanday mol-mulklarni qabul qilishlari mumkin.

Garov kredit qaytarilishining haqiqiy kafolatiga aylanishi uchun qator iqtisodiy va huquqiy talablarga rioya etishi, jumladan, garovni to'g'ri tanlash, uning qiymatini baholash, garov turini belgilash, garov predmetining shaklanishi ustidan nazoratni ta'minlash, garovga oluvchi va garovga qo'yuvchining huquqlari va majburiyatlarini belgilash, garov hujjatlarini garovning turiga qarab, to'g'ri rasmiylashtirish, garov mulkalarini saqlash tartibini belgilash va ta'minlash lozim.

Garov kredit qaytarilishining haqiqiy kafolati bo'lishi uchun bank qarz oluvchining mol-mulkini o'rgana borishi kerak. Birinchi navbatda, bank taklif etilayotgan mol-mulk qarz oluvchiga tegishliligini aniqlash lozim. Buning uchun qarz oluvchi bankka garov mulkini tegishliligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim. Shuni yodda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, ijro hujjatlari bo'yicha undirish qishloq joydagi uy-joyga qaratilishi mumkin emas. Shu sababli qarz oluvchining oila a'zolari yashaydigan uyni garovga olgan holda kredit berishdan ehtiyyot bo'lish kerak. Shuningdek ushbu mol-mulkning uchinchi shaxslarda garovda emasligini ham tekshirish lozim.

Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan 2000 yil 29 martda 906-sod bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan kredit ta'minoti quyidagicha aks ettiriladi: agar kredit ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan bo'lsa, unda kredit yigma jildida qo'shimcha ravishda quyidagi

hujjatlar bo'lishi kerak, ya'ni ipoteka to'g'risida tuzilgan shartnomaning asl nusxasi; garovga beruvchi va bank tomonidan imzolangan, garov ob'ekti qiymatini kelishuv dalolatnomasi; garovga qo'yilgan mulkni sug'urta qilish dalolatnomasi va ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta polisi; garov shartnomasining davlat kadastro idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida belgilangan shaklda garov shartnomasiga qo'yilgan belgi; garov predmetini sotish narxini tasdiqlovchi hujjatlar, agar kredit uni sotib olishni moliyalash maqsadida berilgan bo'lsa.

Agar kredit boshqa shaxs tomonidan kafolatlansa, kredit yigma jildiga quyidagi qo'shimchalar kiritiladi: kafillik to'g'risidagi shartnoma yoki yozma kafolat; auditorlik tashkiloti yoki auditorning kafolatchining yoki kafilning qoniqarli moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi xulosasi.

Kreditni berishga doir bank bilan tuzilgan shartnomaga, jumladan, garov to'g'risidagi shartnomaga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu shartnomalar shartlariga muvofiq rasmiylashtirilishi va tegishli yig'ma jildlarga kiritilishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda garovning an'anaviy shakllari, ya'ni kafillik, korxona va tashkilotlarning asosiy vositalari, turar joylar, bino va inshootlar, kafolatlar banklarning kredit portfeli ta'minotini tashkil qiladi.

Bank garovdagi mol-mulkni sotish ko'p vaqtni olishini e'tiborga olmogi lozim. Hamisha sota olmay qolish yoki qiymatidan kamroqqa sotish, bu esa zarar ko'rishga olib borish xavfi bo'ladi. Kedit bo'yicha zarar ko'rishni kamaytirish uchun bank u yoki bu mol-mulkni garovga olishdagi sifat mezonlarini belgilab olishi lozim. Lekin umuman garov ob'ektini tanlashda bank quyidagi mezonlarni, bizningcha, e'tiborda tutishi kerak:

- garovning bozor narxining barqarorligi;
- garovning puxta saklanishi;
- garovning tez sotish mumkinligi (likvidligi);
- garovning ma'naviy eskirish darajasi;
- garovning oson identifikatsiyalanishi va iste'mol xossalaring saqlanishi.

Shu bilan birga taklif qilinayotgan garov turiga qarab, mezonlar yigindisi kengaytirilishi mumkin.

Taklif qilinayotgan garov ob'ekti oson sotiladigan bo'lishi kerak. Eng yuqori reytingga ega bo'lган va kredit qaytarilishini kafolatlaydigan pul mablag'lari eng likvidli garov bo'la oladi.

Garov mulki saqlanishini nazorat qilishda ko'chmas mulk bir muncha qulay ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Biroq shuni hisobga olish kerakki, hozirgi vaqtda ushbu garov turini real baholash qiyinlashgan. Muvaffaqiyatli baholash baholovchining bilim va qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Ko'chmas mulkni garov sifatida qabul qilishda, shuningdek ko'chmas mulk bozori etarlicha rivojlanmaganligi va potentsial xaridorlar yo'qligi, buning oqibatida bank ko'chmas mulkni o'z balansiga olishga va qarzni hisobdan chiqarishga majbur bulishi mumkinligi, bu esa tegishli ravishda uning operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kamaytirishini nazarda tutishi kerak.

Bank uchun sifat mezonini belgilash va unga qarab garovni tanlashgina emas, balki uni saklanishini ham ta'minlashi muhim. Shunday qilingan taqdirdagina garov kredit qaytarilishining haqiqiy kafolati bo'la oladi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»ga Qonuni qachon qabul qilingan?
2. Garov ta'minotining qanday turlari mavjud?
3. Kredit ta'minotining asosiy turlari va ularga izoh?
4. Bank marjasini aniqlashda garov ta'minotining hisobi qanday aniqlanadi?
5. Ipotekani davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qanday xujatalr taqdim etilishi kerak?

XI-BOB. INVESTITSIYA LOYIHASINI TASDIQLASH JARAYONI

11.1. Bankning kredit qo'mitasi tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoni

Bozor iqtisodi sharoitida banklarning o'rni hamda faoliyatini muhimligi, pul, kredit va bank tizimining takomillashib borishi, shu sohada malakali kadrlar tayyorlashni va mavjud muammolar echimini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovligi, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoillar asosida olib boriladi. Bu tamoillar kredit rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umum davlat va xalqaro kredit qonunchiligidagi yaqqon o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoillarga ega. Bular kreditning qaytib berishligi, kreditning muddatligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovligi tamoyillaridir. Quyida biz har bir tamoyilning mazmunini qisqacha tariflab o'tmoqchimiz.

1. Kreditning qaytib berish tamoyili

Bu tamoyil kreditning mustaqil iqtisodiy kategoriya ekanligining shartidir. Qaytib berishlik kreditning umumiyligi belgisi hisoblanadi. Qaytib berishlik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymatning aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo aylanma oborotning tugashi - bu qaytarib berishi emas, faqat qaytarib berish uchun zamin tayyorlashidir. Kreditni qaytarish oborotdan chiqqan mablag'lar qarz oluvchiga pul mablag'larini qaytarish imkoniyatini bergan taqdirda qaytariladi. Qaytarib berishlilik ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir.

Qiymatning qaytuvchi harakatida huquqiy tomoni ham muhimdir. Muayyan bir muddatga beriladigan qiymatga egalik huquqi kreditordan qarz oluvchiga o'tmaydi.

Qarzga beriladigan qiymat faqat muayyan bir muddatgaina o'z egasi qo'ridan uzoqlashadi, lekin egasini o'zgartirmaydi.

Bo'sh to'rgan resurslarni akkumulyatsiya qiluvchi banklar bu resurslardan o'z resurslari sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablaqning egasi bo'lib korxona, tashkilot, alohida shaxlar hisoblanadi.

Qaytarib berishlilik muayyan shartnomada o'zining o'rnini topadi.

Qaytarib berishlilik ob'ektiv belgi hisoblanadi. kreditni qaytarib berishlilik tomoni uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan, moliyadan farq qilish imkoniyatini beradi.

Kreditdan samarali foydalanishi asosidagi qaytarib berishlilik - butun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu to moyili o'z amaliyot aksini kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergen muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan to'lanadi, Shu yo'l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar. Bizning amaliyotimizda markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida kreditlashning «qaytarilmaydigan ssuda degan» norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida keng tarqalagn edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilar edi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qaytarilmaydigan ssudalar byudjet subsidiyasining qo'shimcha shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «qaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodi tomoillariga yod bo'lib bunday kreditning amaliyotda bo'lishi iqtisod uchun juda xavfli hisoblanadi.

2. Kreditning muddatligi.

Bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o'z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya'ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi.

Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko'ra kredit uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo'linadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan malum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o'z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o'z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor.Kreditning muddati bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqa) ni qo'llashi mumkin.Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejaml va qayta ishlatish muddatiga, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

3. Kreditning tovar - moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi.

Bu tamoyil yordamida xalq xo'jaligining rivojlanishida qiymat va moddiy shilab chiqarish o'rtasida bo'lishi zarur bo'lgan proportsiyalarining bir me'yorda bo'lishi rag'batlantiriladi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik oborotida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan moddiy boyliklarning bir so'mi qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo'jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to'liq tovar moddiy boyliklari va malum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankga qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu o'z navbatida bankning likvidliligiga va pul muomalasiga katta tasir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan

ta'minlangan bo'lishiga muhim e'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda bu jarayonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxona bankka tovar yoki tovar hujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkini garovga qo'yadi. Agarda bank bergen kredit qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida bankka qaytarilmasa bank tovarni sotish hisobidan qarz o'rnini qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bazida kredit varrant asosida ham berilishi mumkin. (Varrant - garov uchun xizmat qiluvchi hujjat). Bunda kreditor berayotgan krediti tovar - moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bank ssudalarini tovar - moddiy boyliklar bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasini barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank oborotidagi pullar naqd pulga va aksincha transformatsiyalanib turadi.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va o'zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiqtisodiy barqarorlik davrida ayniqsa muhimdir.

4. To'lovilik tamoyili.

Bu tamoyil aylanma fondlarining doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi to'lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag'lari uchun kreditorga foiz shaklida to'lovni o'tkazadilar. Kreditning to'lovligi uni to'liq summada o'z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o'z mablag'larini hech vaqt o'z hajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag'ni qarzga berganligi uchun muayyan to'lov talab qiladi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to'lovligi, nafaqat, banklar xo'jalik hisobi statusiga, shu bilan birga korxonalarini bevosita foydasi bilan bog'liq xo'jalik hisobiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rta sidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda uchta asosiy funktsiyasini bajaruvchi bank foizi normasini o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi:

- huquqiy shaxslar foydasining va jismoniy shaxslar daromadining taqsimlanishi;
- ishlab chiqarishni tartibga solishva ssuda kapitalining taqsimlanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyosda aylanishi;
- iqtisodiyot rivojlanishining inqirozli bosqichida bank mijozlarining pul mablag'larini inflyatsiyadan himoyalash va boshqalar.

Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniqlanib, kredit resurslarining bahosi sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqa tovarlar bahosi belgilanishining ananaviy mexanizmidan farqli o'laroq kreditning bahosi, ssuda kapitali bozoridagi talab va taklifning nisbatini o'zida aks ettiradi va u bir qator omillarga bog'liq bo'ladi:

- bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi (inqiroz davrida ssuda foizi o'sadi va aksincha, yuksalish davrida esa pasayadi);
- inflyatsiya jarayoni suratlari (amaliyotda ssuda foizining inflyatsiya o'sish sur'atlaridan orqada qolishi uchrashi mumkin);
- tijoart banklarni kreditlash jarayonini amalga oshiruvchi Markaziy bank orqali davlat kreditini tartibga solishning samaradorligi;
- xalqaro kredit bozoridagi holat (masalan, biror mamlakatda kredit bo'yicha foiz stavkasining oshishi shu mamlakatga chet el kapitalining oqib kelishiga olib keladi va bu milliy bozorlar holatiga tasir ko'rsatadi);
- jismoniy va huquqiy shaxslar pul jamg'armalarining dinamikasi (ularning hajmi qisqargan holda ssuda foizi o'sadi);

- potentsial qarz oluvchilarning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish dinamikasi;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligi (chet el amaliyotida banklar mavsum davrida kreditlar bo'yicha foizlarni oshiradilar);
- davlat tomonidan beriladigan kredit miqdori bilan davlatning ichki qarzlari o'rtaсидagi nisbat (ssuda foizi ichki davlat qarzlari o'sishi bilan birga o'sibboradi).

5. Kreditning maqsadliligi.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingen kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hakozo aniq biror ob'ektga maqsadli yo'naltirilganligi korxona bilan bank o'rtaSIDA tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko'rsatilgan shini bajarishga sarflashi kerak . Bunda kredit muayyan, aniq ob'ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zahiralariga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hakazolarga beriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo'lishi va harakat qilishining muhim tomonlarini o'zida ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning yuqorida keltirilgan tamoyillaridan tashqari, kreditdan oqilona foydalanishni ifodalovchi tamoyil kreditning samaradorligi tamoyilini kiritishimiz zarur. Bu tamoyil nafaqat kredit va foiz summasini bankga qaytarib to'lashni, undan tashqari shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishishini ifodalashi zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida beriladigan kreditlar malum bir loyihalarning bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishidan oldin loyihani bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'larning samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur. Agar biz bozor iqtisodi yuqori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu mamlakatlarda korxona,

tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo'yiladigan mablag'larning samaradorligi hisob kitob qilib chiqiladi. Agarda loyihaga qo'yiladigan mablag'lar samara beradigan bo'lsagina, shu loyiha uchun mablag' ajratiladi.

11.2. Kredit shartnomasining asosiy qoidalari

Tijorat banki va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlari kredit shartnomaga asoslanadi. Rivojlangan bank. sistemasida xar qanday kredit munosabatlari unda ishtirok etuvchi tomonlarning mavkeidan katiy nazar o'zaro manfaatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Kredit shartnomada quyidagi asosiy shartlar ko'rsatiladi:

1. Kreditning maqsadi.

Tijorat banki uchun kreditning qanday maqsadlarga suralaetganligi muhim hisoblanadi. Tarmoklardagi o'zaro nomutonosibliklar, usha tarmokda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarning xolatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banki mana shu omillarni hisobga olish kerak.

2. Kreditning summasi.

Kredit shartnomada kreditning summasi mijozning garovga qoygan mulkining 80 foiz miqdorida yoki kafolatlangan summa miqdorida belgilanib ko'rsatiladi. Tijorat banki mijoz arizasida ko'rsatilgan summani har tomonlama asoslab berishi kerak. Odatda, mijozlar o'z imkoniyatlarini maksimal darajada baholab keladilar. Tijorat banklari kerakli hollarda kreditlanayotgan ob'ektni to'la o'rGANIB chiqish uchun mutaxasislarni jalb qilishi mumkin.

3. Kreditning foiz stavkasi.

Markazni bankning qayta moliyalash stavkasi asosida belgilanadi. Bunda tijorat banklari Markaziy bank belgilagan foiz darajadan 1,5 martagacha ko'tarishlari mumkin hamda foiz stavkasi kreditning maqsadiga qarab 1,6 oshishi yoki kamayishi mumkin.

4. Kreditning maqsadi.

Shartnomada kreditni qaysi maqsad uchun ishlatilishi ko'rsatiladi. Kreditnnng kaysi maqsad uchun ishlatilishini korxonalar uzlarining biznes rejasida ko'rsatib kelishlari shart. Biznes rejada ko'rsatilgan maqsad bo'yicha kredit summasi o'tkazilib beriladi va keyingi operatsiyalari ham bank tomonidan shartnoma asosida nazorat kilib boriladi.

5. Kreditni qaytarish muddati.

Kredit uchun olinadigan foiz bir necha marta muddati o'tgan foiz hisob raqamiga chiqsa bank kreditni muddatidan oldin epishga farmoish beradi.. Barcha ssuda operatsiyalari shu hisob raqam orqali olib boriladi. Kredit summasi bankning uz mablag'lari hisobidan korrespondentlik hisob raqamidan tulab beriladi.

Respublikamizda kiska muddatli kreditlash va umuman tijorat banklar tomonidan kredit berish "Banklar va bank faoliyati" to'g'risidagi konunga asosan olib boriladi.

Banklar tomonidan kredit berishda kreditlashning printsiplari asosida amalga oshiriladi. Ular quydagilardan iborat: kreditning maqsadliligi; kreditning ta'minlanganligi; kreditning muddatliligi; kreditning qaytarishligi; kreditning to'lovligi. Kreditning mana shu printsiplari asosida va mijozning balansi asosida moliyaviy ahvoli va kreditga layoqatliligi aniqlanib, mijoz bilan bank o'rtaida kredit shartnomasi tuziladi.

Kredit shartnomada bank quydagi majburiyatlarni va vazifalarni o'z zimmasiga oladi; agar mijoz shartnomaga amal qilmasdan hisobotlarni noto'g'ri yuritsa yoki biznes-reja asosida ssudani ishlatmasa bank muddatidan oldin kreditni qaytarish huquqiga ega; kredit olgan tashkilotga har oyning 1 sanasiga shartnomada ko'rsatilgandek foiz hisoblanadi; bank kredit olgan tashkilotga Markaziy bankning normativ aktlari, hisob-kitob turlarining o'zgarishi haqidagi va kredit bo'yicha savollar va kreditlashning o'zgarishi haqida ma'lumot berib turishi lozim; bank kreditning maqsadli ishlatilishi bo'yicha xar doim mijozning faoliyatini tekshirib turadi. Tekshirish natijalari asosida mijozga keyingi davr uchun yana kredit berish mumkin; tijorat banki mijozni Markaziy bankning qayta

moliyalash stavkasidan xabardor qilib turish kerak; mijoz kredit shartnomaga amal qilmasdan faoliyat ko'rsatsa bank kreditni muddatidan oldin egshshga huquqi bor.

Kredit shartnomada mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi: kreditdan foydalanish jarayonida mijoz kreditning muddatiylik, qaytarishlik, maqsadlilik, to'lovligi va ta'minlanganlik printsiplariga amal qilgan holda faoliyat ko'rsatishi kerak; kreditning qaytarilishini ta'minlash uchun mijoz garovga o'z mablag'larini qo'yish kerak; garovga olingan mulk sug'urta idorasi tomonidan sug'urtalanishi va Davlat notarial idorasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi kerak; kredit olgan korxona bankga oylik, kvartallik va yillik balanslari bilan birga moliyaviy natijalar hisoboti va debtor va kreditor qarzlari paydo bo'lган vaqtin, muddati o'tgan qarzlari uchun kelishuv dalolatnomalari (akt sverka) haqidagi ma'lumotnomani va faoliyatini tekshirib borish uchun zarur bo'lган boshqa hujjatlarni bankka taqdim etishi kerak; kredit olgan korxonada bank inspektori kreditning maqsadli ishlatalishi bo'yicha tekshirish o'tkazib hisobot hujjatlarini va garovga olingan mulkning saklanishini dorshiy nazorat kilib borishi uchun shartnomaga asosan ruxsat berishi lozim; kredit olgan tashkilot kredit shartnoma asosida faoliyat ko'rsatishi lozim; kreditlashda kredit shartnoma katta ahamiyatga ega. Tijorat banki kredit shartnoma asosida mijozning faoliyatini doimiy tekshirib turadi.

Kredit shartnomada kredit uchun kerakli bo'lган barcha ma'lumotlar ko'rsatiladi. Kreditning summasi, kreditni qaytarish muddati, kreditning ta'minlanganligi uchun garovga kuyilgan mulk eki kreditni uzolmatanligi uchun boshqa bir korxonaning tulab berish xakidagi ishonch kogozi ko'rsatiladi. Kredit uchun kerakli bo'lган barcha hujjatlar kredit paketida tuplanadi. Kredit paketning asosini kredit shartnomasi tashkil etadi.

Kredit shartnomasi bank uchun ham, qarz oluvchi uchun ham juda muhim va mas'uliyatli hujjatdir. Shu sababli u belgilangan qoidalarning hammasiga amal qilgan holda tuzilishi kerak.

11.3. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishga qabul qilish mexanizmi

Ekspertiza loyihaning barcha tomonlarini va oqibatlarni aniq ko'rsatib beradi. Bu bosqichda loyihaning joriy qismi asoslari yaratiladi. Ekspertiza bosqichida qabul qilingan loyiha rejasi uni samaradorligini baholashda hisoblanadi.

Loyihaning ekspertiza bosqichi vazifasi bu loyiha qiymatini ijobiy va salbiy tomonlarining oqibatlarining diqqat e'tiborga olib aniqlashdan iborat bo'ladi. Ekspertiza loyihadagi daromad va xarajatlarini aniq ko'rsatib chiqishdan iboratdir, uni texnik rejasi va nihoyaga etganlik darajasi, atrof-muhitga ta'sirini, tijorat bo'yicha kelajagini, bozor talabi bilan birga va loyiha maqsulotiga bo'lgan talabni; loyihaning umumiy oqibatlarini milliy taraqqiyot va iqtisodiy taxmini; loyihani amalga oshiruvchi korxona moliyaviy ahvolicha loyihaning ta'sirini moliyaviy tahlili; loyiha mahalliy sharoitlarga qanday darajada ijtimoiy ta'sir ko'rsatishini, loyihadan keladigan foydaning taqsimlanishini uning madaniyati va oddiyligi; ma'muriy tashkiliy tahlil, loyihaga rahbarlik qilish, ishga tushirish, o'qitish va texnik yordam ko'rsatish imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshariladi.

Loyiha rejasi muvozanatlashgan muhandislik va texnik qoidalarga asoslangan bo'lishi, ular esa ushbu loyihani kasb andozalariga, uni bajarilishi uchun javobgar tashkilotga va loyihaga mo'ljal qilgan davrga to'g'ri kelishi kerak. Texnologiya boshqa vaziyatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan yondashuvni aks ettirishi, yoki bo'lmasa innovatsion bo'lishi mumkin, agar yangi yondashuvni potentsial ustuvorligi riski yuqori bo'lsa.

Ekspertiza bosqichi davrida quyidagi texnik omillar tahlil qilinadi:

- loyihaning tashkiliy bo'laklarini o'lchamlari va ularning o'zaro munosabatlari;
- loyiha uchun ajratilgan jarayonlar, dastgohlari va texnik tizmlari ishonchliligi;
- loyiha uchun zarur bo'lgan resurslarga erishish imkoni va sifati, ishchi kuchi va rahbar hodimlarining malakasi;

- servis saviyasi va amaldagi loyihani ish holati ishlata digan mikrotarkibni ishonchiligi;
- loyihani amalga oshirish va ishlatilishida taklif etilgan usullar;
- bitimlar tizimi protsedurasi, materiallarni sotib olish, ishlab chiqarish quvvati va xizmatlar mexanizmi;
- loyiha natijalari olishishi bosqichlari, ularni amalgi oshirish jadvalini bajara olishi, ularni muddati va manfaatdor shaxslarni loyiha ustidagi ishlarni ishtirok etishdagi xohishi.

Kreditni rasmiylashtirish jarayoni o'z ichiga: kredit olishga oid buyurtmanomaning ko'rib chiqilishi va bo'lg'usi qarz oluvchining huquqiy maqomini aniqlash maqsadida uning o'rganilishini; qarz oluvchining moliyaviy holati tahlilini va kreditga qobilligini baholashni; kreditlanayotgan loyihaning ekspertizasining o'tkazilishini hamda kredit shartnomasini rasmiylashtirish va tuzishni oladi.

Kreditni rasmiylashtirish tartibi kredit olishga oid buyurtmanomani ko'rib chiqishdan boshlanadi. Kredit buyurtmanomasida quyidagilar ko'rsatiladi: qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar; so'ralayotgan summaning belgilanishi va loyihaning maqsadi; kredit berish muddati; kreditlash ob'ektining qoplash muddati; kredit va unga oid foizlarni berish va so'ndirish muddatlari; agar kredit qiymatliklar garovi ostida berilayotgan bo'lsa, kreditni ta'minlash sifatida garovga qo'yilayotgan qiymatliklar to'g'risidagi ma'lumotlar; boshqa banklarda ochilgan bank hisobraqamlari haqidagi ma'lumotlar; boshqa korxonalarining kapitalida qatnashish haqida ma'lumotlar.

Kredit ishlab chiqaruvchi kuchlarni rag'batlantiradi, ilmiy texnika yutuqlari asosidagi qayta ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kapital mablag'larning shakllanishini tezlashtiradi.

Investitsiya loyihalarini kreditlash keng shakllarda tasavvur etiladi. Ularni kreditlashda kredit munosabatlarining sub'ektlari va ob'ektlariga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab kreditning quyidagi shakllari qo'llaniladi. Bular davlat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, tijorat krediti, xalqaro kredit.

Davlat krediti kredit munosabatlarida bevosita davlatning ishtiroki bilan xususiyatlanadi. Kichik biznes taraqqiyoti uchun davlat krediti davlat byudjetidan ustuvor investitsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida beriladi. Bank krediti - iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Uning ob'ekti pul mablag'larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Ular muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi. Hozirda kichik biznes investitsiya loyihalarini kreditlashda bank kreditlarining hissasi ortib bormoqda. Iste'mol krediti - kreditning maqsadi bilan boshqa kredit shakllaridan farq qiladi. U aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallanadi. Bunda kredit tovar yoki pul shaklida berilishi mumkin. Tijorat krediti - kredit munosabatlari vujudga kelishining birinchi shakllaridan bo'lib, veksel muomalasini vujudga keltirgan va naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishiga yordam bergen. Tijorat krediti faqatgina tovar shaklida beriladi. Tovarni kreditga sotish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga yordamlashadi va foyda ko'payishini ta'minlaydi. Xalqaro kredit - davlat, shu davlatning banki, huquqiy shaxsi tomonidan, boshqa davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlik asosida berilgan kredit hisoblanadi. Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Kreditlash jarayonining uchinchi bosqichida kredit shartnomasi, garov, kafolat shartnomalari, kreditni sug'urtalash ishlari olib boriladi. Kredit olish uchun qarz oluvchilar bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar: kreditga ariza; qarz oluvchining bank hisob varag'iga pul tushumlari (pul oqimlari) prognozi albatta ko'rsatilgan biznes-reja; davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tasdiqlagan, oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi; debtorlik va kreditorlik qarzi to'g'risida ma'lumotnoma, shuningdek 90 kundan oshgan qarz uchun solishtirish dalolatnomasi; moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno; kredit qaytarilishini ta'minlash shakllaridan biri.

Kredit shartnomasi qarz munosabatlarining o'ziga xos, mustaqil turidir va uning o'ziga xos asosiy talablari mavjud. Bular: kredit maqsadli bo'lishi shart; kreditning yig'indisi aniq belgilangan bo'lishi kerak; kreditning qoplash tartibi aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim; kreditning muddati ko'rsatilishi shart; kredit bergenligi uchun bank oladigan haq ko'rsatilish shart.

Kredit shartnomasida ikki tomonning (bank va qarz oluvchi) huquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. "Kredit shartnomasining shartlari tarkibiga ko'chmas mulk garov sifatida kiritilgan bo'lsa, u holda bunday shartnoma notarial tasdiqlangan va tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak"¹.

Qarzni qaytarmaslikning oldini olish maqsadida qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarini taqdim etadi: mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi; bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati; uchinchi shaxsning kafilligi; sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi tomonidan kredit to'lanmasligi xatarini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta varaqasi; mahalla, qishloq yoki ovul fuqarolari yig'inining kafolati.

Xullas, kredit shartnomasi bank uchun ham, qarz oluvchi uchun ham juda muhim va mas'uliyatli hujjatdir. Shu sababli u belgilangan qoidalarning hammasiga amal qilgan holda tuzilishi kerak.

Kreditlash jarayoning to'rtinchi bosqichida bankda qarz oluvchi uchun maxsus schet ochiladi va kredit mazkur schetga o'tkaziladi.

Va, nihoyat, kreditlash jarayonining beshinchi bosqichida berilgan kreditning ishlatilishi ustidan monitoring ishlari olib boriladi. Kredit berilgan paytdan boshlab, qarz oluvchining kreditga layoqatliligin tahlil etishdan kam ahamiyatga ega bo'lмаган kredit monitoringi jarayoni boshlanadi. Afsuski, kreditorlar orasida kredit shartnomasi imzolangan, ssuda hisob-raqami ochilgan, pullar tegishli joyga o'tkazilgan, endi engil nafas olib, ssudani qoplash muddati etib kelguncha kredit jildini uzoqroqqa olib qo'yish mumkin, deguvchilar ham yo'q emas.

Kredit olgan bank mijozlari o'z qonun va qoidalariiga ega bo'lган bozor muhitida, eng kuchli, aqli va faol xo'jalik sub'ektlari yutib chiqadigan

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 270-271-moddalar.

raqobatchilik sharoitida faoliyat yuritadilar. To'g'ri rivojlanish strategiyasini tanlab olmagan, bozor sharoitlariga moslashmagan korxonalar o'z pozitsiyalarini boy beradilar. Kredit berilgan paytda rivojlanish istiqboliga ega bo'lган ssuda oluvchi bir necha oydan so'ng ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida qiyin moliyaviy ahvolga tushib qolishi mumkin. Natijada bank kreditining qaytarilmasligi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari muqarrar ravishda kredit foizlari va boshqa turdagи tavakkalchiliklar bilan bog'liq. Bunday paytda, kredit inspektorining ssuda holatini, uning butun muddati davomida doimiy ravishda nazorat qilib borishi, o'z vaqtida yuzaga kelayotgan muammolardan darak beruvchi «signal»larni aniqlashi juda muhim ahamiyatga ega. Muammoli ssuda birdaniga yuzaga kelmaydi. Tajribali moliyachi tashvishli «signal»larni mijozning ssudani qaytara olmasligi yaqqol namoyon bo'lishidan ancha oldin ilg'ab olishi mumkin. Bundan tashqari, mijozning moliyaviy simptomlarini ular og'ir, surunkali kasallikka aylanmasdan ilgari, ya'ni boshlang'ich davrida bartaraf etish mumkin.

Kredit monitoringi ssuda ahvolini nazorat qilishi, uning maqomidagi o'zgarishlarni va tegishli choralarni ko'rish tizimini ko'zda tutadi. Uning maqsadi asosiy qarz va u bo'yicha hisoblangan foizlarning o'z muddatida qoplanishini ta'minlashdan iborat. Shuningdek, mazkur monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbai - uning qaytarilishi ta'minotini tekshirish hisoblanadi. Agar ta'minot mulk garovidan iborat bo'lsa, bank xodimlari bunday mulkning mavjudligi, maqbulligi, etarliligi, sifati, saqlash sharoitlarini (iloji boricha har oyda) muntazam ravishda tekshirib borishlari zarur.

11.4. Investitsiya loyihasi bo'yicha monitoring rejasi

Bank muassasalari investitsiya loyihalarni moliyalashtirishga mablag' ajratib, kredit bergen vaqtdan boshlab qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish, kreditning maqsadli ishlatalishi ustidan nazoratni (tekshiruvni), ya'ni loyihani moliyalashtirishning monitoringini olib boradi.

Qarz olgan bank mizojlari o’z qonun va qoidalariga ega bo’lgan bozor muhitida, raqobatchilik sharoitida faoliyat yuritadilar. To’g’ri rivojlanish strategiyasini tanlab olmagan, bozor sharoitiga moslashmagan korxonalar o’z pozitsiyalarini boy beradilar. Qarz berilgan paytda rivojlanish istiqboliga ega bo’lgan qarz oluvchi bir necha oydan so’ng ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida qiyin moliyaviy ahvolga tushib qolishi mumkin. Natijada bank kreditining qaytarilmasligi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun loyihani moliyalashtirishga mablag’ ajratgan bank (kreditor) qarz holatini loyihaning butun muddati davomida doimiy ravishda nazorat qilib borishi, o’z vaqtida yuzaga kelayotgan muammolardan darak beruvchi «signal»larni aniqlashi juda muhim ahamiyatga ega.

Loyihani moliyalashtirish monitoringi moliyalashtirishga ajratilgan mablag’lar qay yo’sinda ishlatilayotganligini nazorat qilish, uning maqomidagi o’zgarishlarni aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni ko’rish tizimini ko’zda tutadi. Uning maqsadi asosiy qarz va u bo’yicha hisoblangan foizlarning o’z muddatida qoplanishini ta’minlashdan iborat.

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag’ berish bitimiga tegishli barcha hujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, qabul qilingan me’yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirib borishni o’z ichiga oladi. Navbatdagi qadam qarzdorning moliyaviy layoqatini baholash bo’lib, uning balansini, foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotini hamda mijozning moliyaviy-xo’jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbai - uning qaytarilishining ta’mnotinini tekshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda har yili yuzlab loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmokda. Bu loyihalar davlat byudjeti mablag’lari, xalqaro kredit liniyalari mablag’lari hisobiga, Biznes-fond va byudjetdan tashqari fondlar, banklar, chet ellik va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirilar ekan, albatta, bu mablag’larning qaytarilishi va ma’lum miqdorda ularning foyda bilan

ta'minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag'larning muayyan foydasi bilan qaytishligini aniqlash, tekshirib borish va tahlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan, shuningdek mol etkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug'urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loyihalarning monitoringi olib boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan.

Har bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zlariga xos bo'lgan monitoring o'tkazish tartibini ishlab chiqadilar va shu asosda faoliyat yuritadilar.

O'zbekistonda Davlat mulk qo'mitasi Moliya Vazirligi bilan birgalikda 1998 yil 30 martda "Korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etish va monitoringni yuritish tartibi" asosida monitoring mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tartibga 1998 yil 19 avgustda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu tartibda monitoringning qisqacha mazmuni keltirilgan. Ushbu tartibga ko'ra, monitoring - bu loyihaning amalga oshirilishi yuzasidan tizimli kuzatuv olib borishdir.

Monitoringning mazmuni «ko'zgu» degan ma'noni anglatadi. Monitoringni yuritishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

1. Amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko'zda tutilganligi.
2. Ishlab chiqarish jarayonini bilishlik, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirigacha kuzatib borish.
3. Ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi.
4. Loyihani moliyalatirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

Monitoring olib borish bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash;

- olingan ma'lumotlar asosida korxonalarning moliyaviy-xo'jalik holatini tahlil etish;
- tahlil natijalari bo'yicha xulosalar qilish va takliflar berish.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, monitoringning qisqacha mazmuni loyihani amalga oshirish bo'yicha tizimli nazorat olib borish sifatida tushuniladi. Uning kelib chiqishi investor yoki kreditorning va loyihani amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarning o'z manfaatlari doirasida loyihaning maqsadga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash zaruriyatiga asoslanadi, ikkinchidan, monitoring, asosan, loyihani moliyalashtiruvchi muassasalar, sug'urta kompaniyalari mol etkazib beruvchilar, loyiha uchun berilgan kreditning qaytarilishiga kafolat beruvchi shaxslar tomonidan olib boriladi va u bir necha bosqichlarda o'tkaziladi.

Shakllantirilgan investitsiya loyihasining samarali amalga oshirilishi, ko'p hollarda, uni amalga oshirishning tezkor rejasing o'z vaqtida va sifatli ishlab chiqilishiga bog'liq bo'ladi. Bunday tezkor reja amaliyotda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning kalendar rejasi (taqvim rejasi) deb nomlanadi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi ishlab chiqish muayyan tamoyillarga asoslanadi va muayyan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Quyida biz ushbu tamoyillarni ko'rib chiqamiz:

1. Kalendar rejaning ob'ekt tabaqlanishi (differentsiyasi) bo'yicha tamoyili kalendar rejallashtirish investitsiya loyihasining butun davriga asoslanib amalga oshirilishi kerakligini ko'zda tutadi. Loyihani amalga oshirishni kalendar rejallashtirish jarayoni uni amalga oshirishning baza muddatlariga va biznes-rejada aks ettirilgan investitsiyalar oqimi jadvaliga asoslanadi.

Har bir investitsiya loyihasi bo'yicha uni amalga oshirish uchun bank tomonidan loyiha monitoringini olib boruvchi loyiha menejeri belgilanadi.

2. Kalendar rejaning vaqtinchalik tamoyili ishlab chiqish shakli bo'yicha uning detallashtirilishining turli xil darajasini nazarda tutadi. Investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha kalendar rejaning vaqtinchalik differentsiyasining asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- kalendar reja investitsiya loyihasini amalga oshirishning yillik jadvalini tezkor rejalshtirish natijalarini aks ettiruvchi boshlang'ich va asosiy hujjat hisoblanadi. U (yillik jadval) bir necha yillar davomida amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha rejalshtirilayotgan kalendar yil doirasida bajarilishi ko'zda tutilayotgan ishlar hajmini o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek u bir yil mobaynida amalga oshiriladigan loyihalarda loyihaning maqsadiga ko'ra bajarilish muddati va ketma-ketligi bilan tavsiflanadi.

- loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlarning choraklik yoki yillik rejasi ularning ko'rsatilgan vaqtinchalik oraliqlari doirasidagi aniq hajmlarini qamrab oladi. Ularni ishlab chiqishning asosi bo'lib, detallashtirishning tegishli ketma-ketligi bilan investitsiya loyihasini amalga oshirishning yillik jadvali hisoblanadi. Ishlarning choraklik rejasi yillik rejaning taqdim etilishi bilan bir vaqtida taqdim etiladi va tasdiqlanadi.

- dekadali (o'n kunlik) topshiriqlar ishlarni bajarishning oylik rejasini ketma-ket detallashtirish shakli hisoblanadi. Bizning mahalliy amaliyotda kalendar rejani tabaqalashning bu shakli kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Biroq, yirik investitsiya loyihalari uchun jalg etiladigan ko'pgina xorijiy pudratchilar kalendar rejalshtirishning bunday shaklini keng tadbiq etadilar.

3. Kalendar rejaning funktional tabaqalanishi tamoyili uning alohida funktional qismlarga bo'linishini nazarda tutadi. Bu investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasini ishlab chiqish jarayonining birmuncha ma'suliyatli qismidir. Bunday bo'linish loyihaning hajmi va amalga oshirilishi bosqichiga bog'liqdir. Uning asosiy funktional qismlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) loyihani amalga oshirishga tayyorlash;
- b) loyiha-konstruktsiya ishlari;
- v) moddiy-texnikaviy ta'minlash;
- g) qurilish-montaj ishlari;
- d) loyihani ekspluatatsiyaga kiritish;
- e) loyiha quvvatlarini ishga tushirish;
- j) loyiha bo'yicha qarzlarni qaytarish.

4. Kalendar reja zahirasini shakllantirish tamoyili unga alohida kiritilgan ishlar muddatlarining tahlil qilingan buzilish hollarini aniqlashdan va ushbu zahiraning loyihani amalga oshiruvchi ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishidan iborat. Kalendar rejadagi har bir ish uni bajarish uchun zarur bo'lган vaqt bilan, ishlarning boshlanish va tugallanish muddatlari bilan tavsiflanishi kerak. Ishlab chiqilgan reja real bo'lishligi uchun alohida ishlarni bajarishning rejalashtirilgan vaqt 75-80% dan kam bo'lмаган ishonch bilan aniqlangan bo'lishi kerak. Bunday ehtimollik asosida ko'zda tutiladigan zahira jami kalendar reja muddatining 10-12% ini tashkil etishi kerak.

5. Kalendar reja bajarilishini doimiy nazorat qilish tamoyili investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejalashtirilishi tegishli nazorat qiluvchi blokni ham o'z ichiga qamrab olishidan iborat. Bu tamoyilning bajarilishi uchun joriy monitoring qo'llaniladi.

Loyihani amalga oshirishning yaxshi ishlab chiqilgan kalendar rejasidan tashqari investitsiya loyihasini amalga oshirishning byudjeti ham juda muhim sanaladi. Investitsiya loyihasini amalga oshirishning samaradorligi ko'pgina hollarda uni moliyalashtirishning asoslangan rejasi bilan aniqlanadi. Amaliyotda bu moliyaviy reja «Investitsiya loyihasini amalga oshirishning byudjeti» deb nomlanadi (yoki loyiha «byujdeti»). Byudjet investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va mablag'lar tushumini aks ettiruvchi qisqa muddatli (bir yilgacha) tezkor moliyaviy reja sifatida o'zini namoyon etadi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish ikkita asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi:

1. Kalendar rejaning alohida bosqichlari hajmida investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha xarajatlar hajmi va tuzilishini aniqlash.
2. Investitsiya loyihasini amalga oshirishni moliyalashtirish uchun belgilangan jami mablag'lar hajmi doirasidagi investitsiya resurslari oqimining zarur bo'lган xarajatlarni qoplashini ta'minlash.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish uchun asosiy ma'lumot hujjatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi;
- alohida ko'rinishdagi ishlarni bajarish va kalendar rejaning alohida funktsional bloklari ko'rinishida ishlab chiqilgan xom ashyolar, materiallar, moslamalar va uskunalarni sotib olish xarajatlari smetalari;
- investitsiya loyihasini moliyalashtirishning umumiy strategiyasi;
- loyiha biznes-rejasini ishlab chiqish bosqichida tuzilgan investitsiyalar oqimining oldindan bashorat qilingan jadvali.

Investitsiya jarayoni bosqichlariga bog'liq holda investitsiya loyihasini amalga oshirish vaqtida ikki xil ko'rinishdagi byudjet ishlab chiqilishi mumkin:

1. Kapital sarflar va mablag'lar tushumi byudjeti. Bu byudjet yangi qurilish bilan ob'ektning kengaytirilishi, ta'mirlanishi va texnik jihatdan qayta qurollantirilishi bilan bog'liq qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bosqichida ishlab chiqiladi.
2. Joriy pul sarflari va daromadlari byudjeti. Bu byudjet investitsiyalash ob'ektini ekspluatatsiya qilish bosqichida (uning ishga tushirilishidan keyin) ishlab chiqiladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi va byudjeti puxta ishlab chiqilgandan so'ng kuzatish, tekshirish va nazorat qilish tizimiga ega bo'lgan monitoring olib boriladi. Amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyiha doimiy nazorat yoki monitoringni talab etadi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringi tizimi investitsiya bozori kon'yunkturasining doimiy o'zgarib turishi sharoitida barcha investitsiya loyihalarini amalga oshirishning muhim joriy natijalarini doimiy kuzatib borishni ta'minlash uchun bank yoki kompaniyalarda ishlab chiqilgan mexanizm sifatida o'zini namoyon etadi.

Banklar tomonidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari monitoringi tizimini ishlab chiqishning asosiy maqsadi bo'lib, investitsiya faoliyati samaradorligini keltirib chiqaruvchi rejorashtirilgan ma'lumotlarga nisbatan yuz bergen chetlanishlarni o'z vaqtida hal etish, bu chetlanishlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil etish va investitsiya faoliyatini me'yorlashtirish hamda

samaradorligini oshirish maqsadida uning alohida yo'nalishlarini tegishlicha tartibga keltirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringi tizimini yaratish quyidagi asosiy tamoyillardan foydalanishga asoslanadi:

1. Kuzatish uchun investitsiya faoliyatining birmuncha muhim yo'nalishini tanlash. Bu tamoyilning amalga oshirilishi kompaniya investitsiya faoliyatining maqsadli shakllantirilgan ma'lumotiga asoslanadi, shu bilan birga investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida kuzatishga tegishli bo'lgan ushbu faoliyatning ustuvor yo'nalishlarining aniqlanishi bilan bog'liq holdagi real investitsiyalarning portfeli bo'yicha ma'lumotlarga ham asoslanadi. Birinchi navbatda, kuzatish kalendar reja va byudjetning ularning asosiy bo'limlari bo'yicha amalga oshirilishi ustidan tashkil etilgan bo'lishi kerak.

2. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning har bir yo'nalishi bo'yicha hisobot ko'rsatkichlari tizimini yaratish. Ko'rsatkichlarning bunday tizimi, birinchi navbatda, buxgalteriya hisobi va statistik hisobot ma'lumotlariga asoslangan bo'lishi kerak. Kompaniyada alohida qo'shimcha ko'rsatkichlarni kiritish zaruriyati paydo bo'lganda «boshqaruv hisobi» deb nomlanuvchi tizim yaratiladi. Bu tizim tezkor buxgalteriya hisobotini to'ldirishga xizmat qiladi va samarali boshqarish ehtiyojiga bo'ysindirilgan bo'ladi (investitsiya faoliyatini boshqarish bunday hollarda boshqaruv hisobining mustaqil bloki hisoblanadi).

Hisobot (ma'lumot)lar ko'rsatkichlari tizimi loyiha bo'yicha birmuncha muhim ko'rsatkichlar tuzilishi va hajmi bo'yicha kalendar rejani amalga oshirish jarayonini, xarajatlar hajmi va tuzilishi bo'yicha byudjetning bajarilishini, shuningdek ularni xususiy, qarz va jalb qilingan manbalar ko'rinishida moliyalashtirish bo'yicha ham aks ettirishi kerak. Hisobotlar ko'rsatkichlari tizimida qarz oluvchilar (mijozlar) bilan olib boriladigan suhbat asosiy o'rinni egallaydi. Qarz oluvchi bilan suhbatni ushbu korxonalar bilan shug'ullanuvchi bank xodimi olib borishi kerak, chunki u korxonada yuz beradigan holatlar to'g'risida etarli tasavvurga ega bo'ladi.

Suhbatdan tashqari, bu tizimda bank xodimlari tomonidan loyiha ob'ektiga borib turish yaxshi rejalarashtirilgan bo'lishi kerak. Ob'ektni bevosita ko'zdan kechirish va tanishish investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayoni to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi.

3. Investitsiya loyihasini amalga oshirishning har bir yo'nalishi bo'yicha umumlashtirib baho beruvchi (analitik) ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish. Baholovchi ko'rsatkichlar tizimi korxona investitsiya faoliyatining alohida yo'nalishlari monitoringi maqsadidan kelib chiqib yaratiladi va buning uchun jalg etiluvchi ma'lumotlar (hisobotlar) ko'rsatkichlariga asoslanadi. Ketma-ket olib boriluvchi tahlilning qulayligi uchun bu baholovchi ko'rsatkichlar tizimi uning asosiy bo'limlari ko'rinishida shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Tahlilning bunday bo'limlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish; investtsiya loyihasini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni o'zlashtirilishi; qurilish ob'ekti bo'yicha ishlar rejasining bajarilishi; investitsiya loyihasi bo'yicha mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish rejasining bajarilishi; investitsiya loyihasi bo'yicha foyda rejasining bajarilishi; investitsiya loyihasi bo'yicha aktivlarning shakllanishi; investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha joriy samaradorlik va boshqalar.

Baholovchi ko'rsatkichlar tizimini yaratishdagi alohida bo'limlar doirasida ularning funktional bo'linmalari alohida ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bunga misol, «investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish» bo'limida baholovchi ko'rsatkichlarning quyidagi bo'linmalari ajratilgan bo'lishi mumkin:

- moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha vazifani bajarish darajasi;
- investitsiya loyihasini moliyalashtirishda xususiy va qarz mablag'larining ishtirot etish darajasi;
- investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalarining hisoboti va boshqalar.

- har bir bo'limning bo'linmalarida birmuncha muhim baholovchi ko'rsatkichlarning aniq ro'yxati shakllantiriladi.

Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi ko'pgina banklarda umumiylaholovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi shaxsiy elektron hisoblash mashina (ShEHM)larida maxsus dasturlar yordamida avtomatik tartibda amalga oshiriladi, shuning uchun ko'rsatkichlarning shakllangan tizimiga bir vaqtida jalg qilingan ma'lumotlar ko'rsatkichlari asosida ularning har birining hisob-kitob amaliyotini ishlab chiqishga to'g'ri keladi. Moliyalashtirish manbasining mosligi va moliyalashning ko'rinishi ham baholovchi ko'rsatkichlarni hisoblash usuliga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun har bir tomon o'zini baholovchi ko'rsatkichlarni hisoblash uchun dasturli ta'minot sifatida namoyon etadi.

4. Ma'lumotlarning (baholovchi ko'rsatkichlarning) hisobot bazasini shakllantirishning davriyigini o'rnatish. Bunday davriylik investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi va byudjetining davriyigidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunday davriylikning hisobga olinishi bilan u quyidagilarga ajratiladi: tezkor hisobot (dekadali yoki ikki haftali); oylik hisobot; choraklik hisobot; yarim yillik hisobot.

Yillik hisobot ko'rsatkichlari investitsiya loyihalarini amalga oshirish joriy monitoringining ob'ekti hisoblanmaydi, chunki ko'rsatkichlar o'zgarishining dinamikasini oylar bo'yicha kuzatish mumkin emas.

Yuqorida ko'rsatilgan to'rtta tamoyillar bilan bog'liq holda bajarilgan ishlar investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringining nihoyalangan (tugallangan) ma'lumot blokini tuzishga imkon beradi. Bu ma'lumotdan, nafaqat, bank ichida, shuningdek korxonalar reytingini tuzishda ham foydalanish mumkin.

5. Ko'zda tutilgan haqiqiy natijalardan chetlashishga olib keluvchi asosiy sabab (omil)larni tahlil etish. Tahlilning bunday jarayonida, birinchi navbatda, kalendar rejadan yoki byudjetdan «kritik chetlashuvlar» kuzatiladigan ko'rsatkichlar ajratiladi. «Kritik chetlashuvlar» mezoni sifatida dekadali (ikki haftali) davr bo'yicha 20% yoki undan ortiq miqdordagi chetlashishlar; oylik davr

bo'yicha 15% yoki undan ortiq foizlar; choraklik bo'yicha esa 10% va undan yuqori bo'lgan foizlar qabul qilinishi mumkin.

6. Alohida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonini me'yorlashtirish imkoniyatlari va zahiralarini aniqlash. Monitoringni tashkil etishning mazkur tamoyilini amalga oshirish jarayonida zahiralar alohida funktsional bloklar ko'rinishida va loyihalarni amalga oshirish jarayonini me'yorlashtirish bo'yicha buyurtmachi va pudratchilarning imkoniyatlarini o'rganish bilan qaraladi. Bunday imkoniyatlarning biri sifatida byudjetning moliyaviy zahirasidan foydalanish ko'rib chiqilgan bo'lishi mumkin.

7. Alohida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning kalendar rejasi va byudjetning o'zgarishi bo'yicha takliflarni asoslash. Agar alohida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonini me'yorlashtirish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa (ya'ni to'liq hajmda me'yorlashtirishga olib kelolmasalar) yoki mavjud bo'lmasa, u holda monitoringning yakunlovchi bosqichi bo'lib, byudjet va joriy rejalashtirilgan - kalendar rejaning asosiy hujjatlariga tegishlicha tuzatishlar kiritish bo'yicha takliflarni asoslash hisoblanadi. Alohida hollarda investitsiya loyihasining investitsiya portfelidan «chiqishi» to'g'risidagi taklif asoslangan bo'lishi mumkin.

Investitsiya loyihalari monitoringi faqat uni amalga oshirish jarayonigagina xos bo'lmasdan, balki ularni moliyalashtirishga bo'lgan davrlarda ham o'tkaziladi. Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoringning ahamiyati shundaki, u loyihani moliyalashtirish davridagi monitoringga nisbatan afzalroq va ahamiyatliroq hisoblanadi. Chunki uning natijasida investorlarning loyihani amalga oshirishdagi maqsadlari oldindan ko'proq ta'minlanish imkoniyatlari hosil qilinadi.

Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziladigan monitoring quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: investitsiya kontseptsiyalarini qidirish; loyihani boshlang'ich tayyorlash; loyihani so'nggi shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy moliyaviy afzalligini baholash; loyihani uzil-kesil ko'rib chiqish va u bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Loyihaning ushbu bosqichlardan o'tishi investitsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunday vaziyatni keltirib chiqarish uchun investitsiya g'oyasini amalga oshirishning barcha jihatlari puxta tayyorlanishi va shunga mos biznes-reja (investitsiya loyihasi) ishlab chiqilishi lozim. Bunday loyiha salohiyatlari (potentsial) investorlar manfaatiga mos kelar ekan, demak, o'tkazilgan tadqiqot ishlari ko'zlangan natijaning hosil qilinishini ta'minlaganligini ko'rsatadi.

Natijalar va o'tkazilgan tahlillarning foydali hisoblanishi loyihani amalga oshirish va uni moliyalashtirishning eng yaxshi variantini (sxemasini) tanlash to'g'risida qaror qabul qilish imkonini (bosqichiga o'tishni) beradi. Ushbu bosqich yondashuvining afzalligi loyihani tayyorlashga sarflangan xarajatlarning samaradorligini ko'rsatib berish va oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek ushbu bosqich eng ustuvor va samarali loyihani aniqlash va tanlab olish imkonini ham beradiki, bu esa istiqbolsiz deb topilgan loyihalarning o'z vaqtida aniqlanishini va rad etilishini hamda yirik miqdordagi mablag'larning behuda sarflanishining oldi olinishini ta'minlaydi. Loyihalarni bunday saralash esa hamisha muhim hisoblanib kelinadi.

Mablag'lar kiritishga munosib biznes-g'oyalarni qidirish va tanlash investitsiyalash bilan bog'liq faoliyatning eng muhim boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Sababi, ushbu hol, oxir-oqibatda, investitsiya mablag'larini safarbar etish asosiga aylanishi mumkin. Buning uchun loyihani boshlang'ich tayyorlash ishlari puxta olib borilishi lozim.

Loyihani boshlang'ich tayyorlash bosqichining vazifasi esa investitsiya loyihasining munosib biznes-rejasini ishlab chiqish, ya'ni har qanday tijorat faoliyati uchun umumiylashtirishdan iboratdir. Bunday biznes-rejaning vazifasi quyidagi ikkita asosiy savolarga javob topishga asoslanadi:

- investitsiya loyihasi kontseptsiyasi qanchalik qiziqarli hisoblanadi va uning ustida ishslashni davom ettirishdan hamda loyihaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy maqbulligini baholash uchun asosli ma'lumotlarni tayyorlashdan mantiq mavjudmi?

- ushbu investitsiya loyihasi kontseptsiyasida e'tiborni qaratish lozim bo'lgan tadqiqotlar va loyihaning kelgusi muvaffaqiyati uchun o'zgaruvchi ahamiyat kasb etuvchi qandaydir jihatlar mavjudmi?

Loyihani so'nggi shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy va moliyaviy afzalligini baholash bosqichida investitsiyalarning barcha jihatlari bilan bog'liq variantlarni va muammolarni muqobil ko'rib chiqishni ta'minlashi lozim bo'lgan loyihaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslanishini tayyorlash hamda tahlil etish amalga oshiriladi.

So'nggi qarorni qabul qilish uchun ma'lumotlarning barcha turlarini tayyorlash loyihani so'nggi shakllantirish va moliyaviy afzalligini puxta baholash bosqichining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu bosqich faqat kerakli moliyaviy mablag'larning etarlicha aniqlik darajasida qat'iy ta'minlangan bo'lishi mumkin bo'lgan hollardagina amalga oshirilishi lozim.

So'nggi va navbatdagi bosqich loyihani uzil-kesil ko'rib chiqish va loyihani moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida so'nggi qaror qabul qilish hisoblanib, u loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha qaror qabul qilish uchun asos hisoblanuvchi baholash ishlarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Loyihaning sifati qanchalik yuqori bo'lsa, uni baholash bo'yicha shunchalik kam ish olib boriladi. Baholi xulosani tayyorlashda esa asosiy e'tibor loyihani moliyalatirishni amalga oshiruvchi firmaga qaratiladi. Agar firma tajribali va salohiyatlbo'lsa, loyihaning tashkiliy-moliyaviy jihatdan muammolarining butunlay hal etilishi ta'minlanishi mumkin. Loyihani eng so'nggi baholashda qo'llaniladigan usullar esa tahlilning texnik, tijorat, bozor, boshqaruv, moliyaviy jihatlariga asoslanadi.

Shunday qilib, loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoring loyihaning samaradorligi va hayotiyligini boshlang'ich tahlil etish uchun amalga oshiriladi. Bunday monitoring loyihani amalga oshirishdagi kelib chiquvchi muammolarning oldini olishga va loyihani moliyalashtirish jarayonidagi monitoringning ishonchli va jiddiy vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarsiz, engilroq o'tkazilishiga imkon beradi.

Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning monitoringini olib borish bilan bankning «Loyihalarni moliyalashtirish monitoring» bo'limi shug'ullanadi. Bu bo'lim ham bankning boshqa bo'limlari kabi o'zining Nizomiga ega bo'ladi. Bo'lim faoliyati bankning moliyachi-maslahatchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar monitoringini o'tkazish tartibi bo'yicha Nizomga asoslanadi. Ushbu Nizomda joriy monitoringni o'tkazishning to'liq jarayoni, qarz oluvchini moliyaviy ahvolining baholash usullari, turli xil moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash usullari, muammoli kreditlarning monitoringini o'tkazish tartibi, tahliliy usullar va ushbu holatlarni hal etishga doir maslahatlar keltirilgan bo'ladi.

Bu bo'lim faoliyatining asosiy maqsadi ssuda hisob-raqamidan to'lov hujjatlarining qilingan to'lov larga mosligini nazorat qilish, ob'ekt joylashgan joyga chiqish bilan birga kreditdan maqsadli foydalanilganligini tekshirish, bajarilgan ishlarning nazorat o'lchamlarini o'tkazish va qurilish muddatidan qat'iy nazar yilda kamida ikki marta sotib olingan uskunalarini inventarizatsiya qilish hisoblanadi.

Kreditdan maqsadli foydalanilmaganligini, uskunalarning komplekt (yaxlit) emasligi hamda etkazib kelinmanganligini va boshqalarni aniqlashda bu bo'lim quyidagi choralarni qo'llashga haqli hisoblanadi:

- kreditlardan maqsadli foydalanilmaganda kreditlarning qolgan qismini muddatidan oldin qaytarib olish (undirib olish);
- bajarilgan ishlar qismi hajmida kredit summasini muddatidan oldin qaytarib olish;
- jarima jazolarini qo'llash.

Yuqorida keltirilgan huquqlar va maqsadlarga ega bo'lgan holda monitoring bo'limi o'zining tegishli majburiyatlarini bajaradi.

Banklarda monitoring quyidagi sohalarda olib boriladi:

- moliyalashtirishni nazorat qilish;
- qurilish jarayonini va loyihani ishga tushirishni nazorat qilish;
- kreditning maqsadli ishlatalishini nazorat qilish;
- kredit qaytarilishini nazorat qilish.

Ushbu sohalar monitoringiga parallel ravishda garovga qo'yilgan mulk predmetlari holatini va korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholash ham olib boriladi.

Moliyalashtirish monitoringida quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi:

1. To'lov hujjatlarining tasdiqlangan ob'ekt smetasiga va foydali ishlatilishiga hamda shartnoma baholarini aniqlashning to'g'rilinga mos kelgandagi to'lov ob'ektlariga ssuda hisob-raqamidan ajratilgan har bir to'lovnii nazorat qilish.

2. Qurilish ketayotgan joyga borib kreditdan maqsadli foydalani layotganini har chorakda tekshirish.

3. Har choraklik statistik tahlilni o'tkazish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalini va qarz oluvchining kredit bo'yicha to'lovlarini nazorat qilish.

4. Kredit shartnomasi, loyiha monitoringining rejasi va texnik tartibi talablarga mos kelishini nazorat qilish.

Loyiha jarayoni va ob'ektni ishga tushirish monitoringi quyidagi shakllar va yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Ssuda hisob-raqamidan qilingan har bir to'lovda korxonadagi to'lov hujjatlarining ob'ektning tasdiqlangan smetasiga va foydali ishlatilishiga mosligini va shartnoma baholarining to'g'ri aniqlanganligini nazorat qilish.

2. Har chorakda statistik tahlil olib borish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalining mosligini va kredit bo'yicha qarz oluvchining to'lovlarini tahlil qilish.

3. Qurilish ob'ektiga chiqish orqali kreditdan maqsadli foydalani layotganini har chorakda tekshirib borish.

4. Kredit shartnomasi, texnik tartib talablari va loyiha monitoringi rejasining bajarilishini nazorat qilish.

Qurilish jarayoni va ob'ektni ishga tushirish monitoringi quyidagi shakl va yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Qurilish muddatlarining uskunalarini keltirish va ularning ishlab chiqarish jadvaliga mos holdagi qurilish-montaj ishlari muddatlarini, ishlarni joriy etish jarayoni haqidagi hisobot ma'lumotlarini, tekshirish natijalarini bevosita

o'rganish bilan bog'liqlikda, shuningdek qurilishni olib borish saviyasining pasayish sabablarini aniqlash va iqtisodiy choralar qo'llash bilan hamda yuqori tashkilotlar va prokuratura organlari, xo'jalik sudlariga zarur hollarda ma'lumotlarini etkazish yo'li bilan kuzatuvlarni nazorat qilish.

2. Pudratchi va buyurtmachilar tomonidan uskunalarni etkazib berish, ob'ektni ishga tushirish bo'yicha qurilish-montaj ishlari va boshqa xizmatlar uchun tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish.

3. Ob'ekt bo'yicha qurilish-montaj ishlari va xizmatlarni o'matilgan tartibda va sotib olingan uskunani inventarizatsiya qilish bo'yicha yilda kamida ikki marta sanoqli, o'lchovli va hisobli nazorat ishlarini olib borish.

4. Uskunalarni ishga tushirishga qabul qilishda ishtirok etish va loyiha ko'rsatkichlarining loyihani amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan strategiyalariga mosligini nazorat qilish.

Moliyalashtirish va qurilish jarayonidagi monitoringda quyidagi tadbirlar ham amalga oshirilishi kerak:

1. Kredit bo'yicha ta'minlanganlik holati va sifatini nazorat qilish.
2. Bank kreditiga bo'lgan talabning o'sishi yoki qisqarishi bilan bog'liq risklarni hisobga olgan holda, qarz oluvchining moliyaviy holatining o'zgarishini baholash.
3. Bozordagi iqtisodiy holatini baholash, loyihani amalga oshirishning tasdiqlangan strategiyasidan chetlanishini va loyihaning pul mablag'lari oqimi bashoratini uning real holatiga taqqoslash.
4. Korxonada rahbariyat va asosiy xodimlar tarkibidagi tashkiliy o'zgarishlarni nazorat qilish.

Banklar xizmat ko'rsatayotgan mijozning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish, kreditga layoqatliligin tahsil etish, berilgan kreditlardan samarali foydalanishligini, hisob-kitob va to'lovlarning barcha turlari bo'yicha to'g'ri yuritilayotganligi, asosiy qarz va u bo'yicha foizlarni qaytirish jarayonlari ustidan tekshiruv va nazorat olib borish tartibini ishlab chiqishi kerak. Shuningdek, har chorakda bank xodimining (loyiha menejerining) joylarga borib, olib

borilayotgan ishlar bilan bevosita ob'ektiv tanishib, ularni baholab, zarur bo'lган hollarda o'z takliflarini berib kelishi, korxonaning rahbari bilan yuzma-yuz holda olib borilayotgan ishlar, ular bo'yicha kelgusidagi rejalar, natijalar yuzasidan suhbat qilishi ham talab etiladi. Loyiha bo'yicha olib borilayotgan ishlarda ko'zda tutilmagan salbiy holatlar paydo bo'lganda, bank bergen kreditlarni qaytarib olish uchun zarur choralarini qo'llashi ham talab etiladi.

Umuman olganda, bu kabi loyihalarni kreditlash va ularning hayotiyligi yuzasidan banklarda monitoring o'tkazish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Joriy monitoring.
2. Muammoli kreditlar monitoringi.

Joriy monitoringning boshlanishi loyiha bo'yicha xulosani asbob-uskunalarini olib kelish bitimini, kredit shartnomasini va monitoring rejasini o'z ichiga oladigan hujjatlarni qabul qilish bilan boshlanadi. Qarz oluvchi bilan savol-javob o'tkaziladi va qarz oluvchi bankka loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashni taqdim etadi.

Monitoring bo'yicha ishni rejali tashkil etish va loyihalarning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun bank tomonidan barcha loyihalar bo'yicha monitoring rejalarini bir xil tizimga keltirish talab etiladi. Shu bilan birga loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha loyiha monitoringi rejasি ishlab chiqiladi. Kreditning himoyasi tashkil etilishini ko'zda to'tgan holda monitoring rejasи kreditlash bo'limidagi mutaxassislar (ekspertlar) bilan monitoring bo'limi mutaxassislari o'rtasida birgalikda kreditning barcha davriga tuziladi. Bunda monitoring rejasida har chorakda kamida bir marta bank xodimining tekshiruv uchun joylarga borib kelishi ko'zda tutiladi.

Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar asosida loyiha monitoringi bo'yicha mutaxassislar loyiha holatini moliyaviy-iqtisodiy tahlildan o'tkazadilar:

- korxonaning har oyda Davlat Statistika qo'mitasining joylardagi bo'limlari va boshqarmalariga ishlab chiqarish faoliyati haqidagi topshiradigan oylik jadvalli hisobotlari;

- qarz oluvchining choraklik moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha hisoboti. Bunda loyihaning iqtisodiy holatini tahlil qilish bo'yicha ma'lumotlar bazasini bir tizimga keltirish zarur;
- loyiha monitoringi bo'yicha mutaxassislar tomonidan choraklik moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar tahlili asosida kreditlarni anketalash o'tkaziladi va kredit reytingi aniqlanadi, loyihalar monitoringi boshqarmasiga risklar darajasini bir xil tizimga keltirish va zahiralarni shakllantirish uchun erkin axborotlar taqdim etiladi;
- kreditlardan maqsadli foydalanishni tekshirish har chorakda ish o'mida tekshirish dalolatnomasini tuzish orqali amalga oshiriladi. Kreditlardan maqsadli foydalanish bo'yicha ma'lumotlar monitoring boshqarmasi tomonidan berib boriladi;
- loyihani o'zlashtirish bo'yicha kreditlarning jadvalli o'zlashtirish muddatlari oylar bo'yicha taqqoslanadi;
- kreditning ta'minlanganligi bo'yicha nazorat. I'ar bir aniq kredit uchun alohida garovga qo'yilgan mulkni tekshirish dalalotnomasi va har chorakda garovga qo'yilgan mulkning holati haqidagi dalalotnoma ishlab chiqiladi;
- hamma manfaatdor sub'ektlarga loyihalar rivoji, kreditlar va ularning foizlari qaytarilishi haqida hisobotlar tuzish va ularni taqdim etish;
- qarz oluvchining so'mdagi mablag'larini erkin almashinuvchi valyutaga konvertatsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish. Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun xom ashyo va materiallar sotib olish maqsadida mablag'larni konvertatsiya qilish, hujjatlarni tayyorlash, miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish;
- xom ashyo sotib olish va tayyor mahsulotlarni sotish maqsadida marketing izlanishlarini (tadqiqotlarini) doimiy ravishda olib borish. Mahsulotlarning omborda turib qolishi sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- qarz oluvchining aylanma mablag'lari holatini doimiy ravishda o'rganish va uni bir maromda saqlashi uchun chora-tadbirlar ko'rish va hattoki, kreditlar berish.

Amaliyotda banklar tomonidan o'z mijozlarini kreditlash hamisha samarali natijalar bilan yakunlanavermaydi. Ayrim hollarda korxonalarning o'z biznes-rejalarini nomukammal ishlab chiqishlari va faoliyatini maqsadli amalga oshirmaganliklari, shuningdek boshqa turli sabablar natijasida banklar tomonidan taqdim etilgan kreditlarning qaytarilish muammosi vujudga keladi.

Albatta, muammoli kreditlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va ularni vujudga keltirishing o'ziga xos omillar mavjud bo'ladi.

Muammoli kreditlarni keltirib chiqaradigan omillarning belgilari quyidagilar hisoblanadi:

1. Kreditning mo'ljallangan maqsadi bo'yicha ishlatilmasligi.
2. Shartnoma, biznes-rejada, texnik-iqtisodiy asoslash va boshqa kredit hujjatlarida aks ettirilgan jadvallarning amalga oshmasligi: moliyaviy-statistik hisobotni «uzatish» jadvalining amalga oshmasligi; sifatsiz asbob-uskunalar, xom ashyo va materiallarni o'zlashtirish va raqobatbardosh bo'limgan mahsulotlarni ishlab chiqarish.
3. Qarz oluvchining moliyaviy-iqtisodiy holatining yomonlashish tendentsiyasi, shu jumladan: muddati o'tgan debtorlik va kreditorlik qarzlarining vujudga kelishi; mahsulot sotilishining sustlashishi; qarz oluvchining faoliyatidagi rejalarida keskin o'zgarishlar yuz berishi; qarz oluvchi holatining tarmoqlarda yoki sotish bozorida yomonlashishi.
4. Qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatini bajara olmasligiga olib keluvchi "fors-major" holatlarining vujudga kelishi, jumladan: qarz oluvchining ishlab chiqargan mahsuloti narxining pasayishiga sabab bo'luchchi omillarning kelib chiqishi; rahbariyat va mulkdorlar tarkibidagi radikal o'zgarishlar oqibatida menejmentning yomonlashuvi; mol etkazib beruvchilarning xom ashyo va materiallarni o'z vaqtida etkazib bera olmasligi; qarzdorning biznes-hamkorlari ishonchsizligini ko'rsatuvchi dalillarning vujudga kelishi.

Kreditlar muammoli bo'lib qolgan paytlarda to'rt bosqich asosida tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi.

Birinchi bosqich. Agar qarz oluvchining vaqtinchalik moliyaviy qiyingchiliklari tufayli loyihalar amalga oshirilishida sodir bo'lgan o'zgarishlar kuzatilsa, quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

a) bank bo'limlarining ma'sul xodimlari bilan fikr almashishi;

b) quyidagi maqsadlarda xo'jalik organlariga tashrif buyurish: loyihaning bajarilishini baholash; qarz oluvchining rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazish; loyihaning rivojlanish muammolarini aniqlash; risklarni baholash; kreditni o'zlashtirishning qolgan davriga loyihaning biznes-rejasini (TIA) o'rganib chiqish; korxona ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etishi uchun qarz oluvchilar va manfaatdor shaxslar o'rtasida muzokaralar olib borish; muammoli kreditlarning hal etilishini tashkil etish maqsadida kredit komitetini jalg etish va ular bilan muzokaralar olib borish.

Ikkinci bosqich. Qarz oluvchining kredit yuzasidan muddati o'zaytirilgan qarzlar bo'yicha majburiyati. Bu bosqichda ko'rildigan chora-tadbirlar quyidagicha:

a) qarz oluvchining debtorlik majburiyatlari bilan ishslash. Bu ish qarz oluvchi faoliyatiga bog'liq hamma faoliyatlar tahlilini talab etadi. Majburiyatlar zanjiri tuziladi, bir-biriga bog'liq majburiyatlar qoplanishi sxemasi ishlab chiqiladi;

b) mijozning hisob-raqamlari yopiladi. Ta'sir ko'rsatishning bu turi juda ehtiyyotkorlik bilan amalga oshiriladi, chunki bu qarz oluvchining aylanma mablag'larini butunlay yo'qotishga olib kelishi mumkin;

v) to'lov muddatini o'zaytirish. Kreditni uzaytirishni amalga oshirishda barcha moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili amalga oshiriladi, naqd pul bilan ta'minlanganlik tekshiriladi, biznes-reja ishlab chiqiladi va materiallar loyihalar monitoringi boshqarmasiga beriladi.

Bu erda o'zgargan ko'rsatkichlar yordamida yangi loyiha monitoringi rejasini ishlab chiqiladi va xulosa bilan birgalikda loyiha bo'yicha kredit komitetiga taqdim etiladi. Kredit anketasi tuziladi va kredit portfeli monitoringi boshqarmasiga

beriladi. Γisobotning hamma turlari va ma'lumotlar bazasi bo'yicha tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich. Xizmat ko'rsatuvchi bank mutaxassislari, loyihalar monitoringi boshqarmasi xodimlari, loyiha ekspertlari, hoqimiyat vakillari va boshqa manfaatdor shaxslar bilan birgalikda korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ishlab chiqarishni maromiylashtirish maqsadida tekshiriladi. Tegishli hollarda korxonaning rahbarlarini o'zgartirish masalalari ko'rib chiqiladi.

To'rtinchi bosqich. Muddati o'zaytirilgan majburiyatlarni qoplash maqsadida o'tkaziladigan monitoring garovga qo'yilgan mulkni sotish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Vujudga kelgan muammoli kreditlarning yuqoridagi bosqichlar asosida hal etilish tamoyili muammoli kreditlar bo'yicha ko'rila digan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi, samarasini ta'minlashi bilan o'z ahamiyatini ko'rsatib turadi. Lekin har bir investor yoki kreditlovchi bank va tashkilotlar o'zlarining maqsadlari va faoliyat yo'nalishi xususiyatidan kelib, chiqib mustaqil tarzda o'ziga xos shakl va usul bo'yicha muammoli kreditlarni hal etish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqadilar.

Nazorat savollari:

1. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini turkumlash.
2. Moliyalashtirish manbalari dinamikasi va tarkibini tahlili.
3. Muqobil investitsiya loyihalari tahlili deganda nimani tushunasiz?
4. Korxonalarning moliyaviy hisobotlari.
5. Bankning kredit qo'mitasi tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoni.
6. Kredit shartnomasining asosiy qoidalari.
7. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishga qabul qilish mexanizmi.
8. Investitsiya loyihasi bo'yicha monitoring rejasi.
9. O'zaro bir-birining o'rmini bosadigan komponentlar deb nimaga aytildi?

10. O'zaro bir-birini to'ldiruvchi komponentlar deb nimaga aytildi?
11. Loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigi qanday tuziladi?
12. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishga qabul qilishda texnik omillar tahlil?
13. Tijorat banklarining kreditlash jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?
14. Investitsiya loyihasi bo'yicha monitoring olib borish bosqichlari qanday?

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonası – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalarni jalg etish bo’yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohistini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 3 dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to’g’risida”gi qarori asosida tashkil etilgan. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining assosiyo yo’nalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko’lamda ishlab chiqarishdan iborat.

«Qarorlar daraxti» usuli – risk mavjud bo’lgan sharoitda qaror qabul qilishning grafik tasviri bo’lib, bunda loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari turli variantlarda ifodalanganda, ya’ni daromadlar, xarajatlar, yo’qotishlar va boshqa ko’rsatkichlarning mumkin bo’lgan qiymatlari xamda ularning bo’lish ehtimolliklari asosida qaror qabul qilinadi.

Aktivlarning likvidatsiya kiymati – bu to’liq amortizatsiya qilingan aktivlarni (ya’ni asbob-uskunalar, mashina, mexanizmlar va h.k.) sotish bahosi.

Amortizatsiya – asta-sekin eskirayotgan asosiy fondlar qiymatini ishlab chiqarilayotgan maxsulot qiymatiga o’tkazish. Pul mablag’larining maqsadli jamg’arilishi va ularning keyinchalik eskirgan asosiy fondlar o’rnini to’ldirish uchun qo’llanilishi.

Amortizatsiya ajratmalari – bu qiymatli ifodadagi asosiy fondlarning eskirish o’rnini sekin-asta to’ldirishdir. Amortizatsiya ajratmalari to’liq va qisman tiklanishlarga, ya’ni asosiy fondlarni kapital ta’minalashga ishlataladi.

Amortizatsiya fondi – asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda ishga tushirishga mo’ljallangan pul mablag’laridir.

Anderlaing – opsiyon kontakt shartlariga muvofiq sotib olish yoki sotish xuquqi mavjud bo’lgan qimmatli qog’ozlar.

Anderrayting - qimmatli qog’ozning emitent qo’lidan birinchi investorga o’tishi, vositachi orqali ham bo’lishi mumkin.

Aniq foizlar - qisqa muddatli foizlar, 365 (366) kunga teng bo’lgan vaqt bazasiga asosan hisoblanadi.

Annuitet – bir xil davr mobaynida bir xil foiz stavka asosida bir xil to’lovlarning yoki pul oqimlarining kelib tushishi.

Aylanma mablag’lar – korxona mablag’larining bir ishlab chiqarish jarayonida to’liq iste’mol qilinuvchi qismi bo’lib, o’z ichiga xom ashyo, material, yoqilg’i, energiya, ehtiyyot qismlar kabilarni oladi.

Balans - korxonaning pul ifodasidagi mablag’larini tarkibi va joylashishi (aktiv), shuningdek, ularning tashkil topish negizi, belgilangan yo’nalishi va qaytish muddatlarini (passiv) bu kungi holatini o’zida aks ettiruvchi yig’ma xujjat.

Bank - pul mablag’larining (milliy va chet el vositalarining) jamg’arilishini amalga oshiruvchi, kredit beruvchi, pul hisob-kitoblarini o’tkazuvchi va qimmatli qog’ozlarning muomalasini tashkil qiluvchi, yirik investitsiyalar qiluvchi, mamlakatning pul-kredit siyosatini hayotga tatbiq qiluvchi korxona.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog’ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko’rinishida bo’ladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma’lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo’ylgan bo’sh pul mablag’lari.

Bank kapitalining etarilik darajasi – jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo’lib, u xalqaro Bazel kelishuviga ko’ra kamida 8% ni tashkil etishi kerak.

Bank loyihibiy moliyalashtirish - investitsion loyihasining moliya manbasi asosan yoki qisman bank kreditlari hisobiga amalga oshiriladi.

Bank sindikati - sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv bo'lib, bunda etakchi bank - sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob varag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank hisoblanadi.

Bank tizimining likvidligi – bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

Banklar likvidligi – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

Bankning o'z kapitali - bank vaqtinga jalg qilgan qarz mablag'laridan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lган mablag'lardir.

Bankrot – qarzdorlik, nochorlik, tadbirkorning o'z qarz majburiyatları bo'yicha mablag'i bo'lmasligi uchun to'lashdan bosh tortishi.

Bankrotlik riski – tadbirkor tomonidan xususiy kapitalini butkul yo'qotish xavfi bilan bog'liq risklar.

Barqarorlik – narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalaydi.

Bazis narxlar – molning sifati yoki sortini aniqlash uchun belgilanadigan narx, u oldi-sotdi bitimida kelishilgan bo'ladi va etkazib beriladigan molning haqiqiy narxini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Birjaviy risklar – birjaviy bitimlardan ko'rildigani zararlar xavfi mavjud bo'lган risklar;

Biznes – ingilizcha so'z bo'lib, foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

Biznes-reja – investitsiya loyihasiga oid xujjat hisoblanib, loyihaning imkoniyatlarini, xarajat va daromadlarini asoslash va baholashga, loyihaning moliyalashtirish manbalari va real pul oqimini hisob-kitob kilishga xamda loyihaning zararsizligini, o'zini-o'zi qoplashini va boshqa ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi.

Biznes-reja investorni o'zi yo'naltirayotgan investitsiyalarni samarali bo'lishiga ishonch hosil qilishiga mo'ljallangan.

Bosh loyihalashtiruvchi - bu loyihaning smeta hujjatlarini ishlab chiquvchi tashkilot bo'lib, xalqaro tajribalarda bular arxitektor va injenerlar ham bo'lishi mumkin.

Boshqaruv riski – bu ishlab chiqarish riskining bir turi bo'lib, boshqaruvchi shaxsning tajriba va malakasini etarli darajada emasligi natijasida ro'y beradi. Ayrim hollarda, boshqaruv riski deganda, loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlaridagi menejment darajasining pastligi va xatolari bilan bog'liq risklar tushuniladi.

Daromad solig'i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

Daromadlilik indeksi (profitability index, PI) – investitsiya loyihasining diskontlangan daromadlarining diskontlangan investitsiya harajatlariga nisbati tushuniladi, bu ko'rsatkich investoring 1 so'm sarf qilgan investitsiyalariga necha so'm daromad kelishini aniqlab beradi.

Daromadlilikning pasayishi riski – qo'yilmalar, kreditlar, portfelli investitsiyalar bo'yicha foizlar va dividendlar miqdorining kamayishi natijasida yuzaga keladi, daromadlilikning pasayishi risklari o'z ichiga foiz va kredit risklarini qamrab oladi.

Deflyatsion risk - deflyatsianing o'sishi holatida baho darajasining tushishi, daromadlarning pasayishi, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun shart-sharoitning yomonlashuvi sodir bo'ladi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Dividend – aktsioner jamiyati sof foydasining bir qismi, aktsionerlarga daromadlar naqd pul yoki aktsiyalar bilan to'lanadi.

Emissiya – qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

Fond bozori – qimmatli qog’ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Fors-major riski – loyiha faoliyatiga tegishli bo’lmagan tashqi risklardan biri bo’lib, unga er silkinishi, yong’inlar, suv toshqini, bo’ronlar va boshqa tabiiy hodisalar kiradi. Fors-majorga ayrim ijtimoiy va siyosiy tabiiy hodisalar ham kiradi: ish tashlashlar, inqiloblar, qo’zg’olonlar va boshqalar.

Foydaning boy berilishi riski - bu risk amalga oshirilmagan tadbirlar natijasida kelib chiqadigan qo’shimcha (bilvosita) zararlar hisoblanib, bu risk tarkibiga quyidagilar kiradi: birjaviy risklar; selektiv risklar; bankrotlik risklari.

Garov ta’minoti - kredit summasining 120 foizidan kam bo’lmagan miqdorda, hukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug’urta polislari, asosiy vositalar, bino va inshootlar (baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida) bo’lishi lozim.

Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda ko’proq investitsiyalar degan sinonim termin qo’llaniladi, to’g’ridan - to’g’ri investitsiyalar, real investitsiyalar va asosiy kapital kabi sinonim terminlar ham qo’llaniladi.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o’sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) baholar darajasining foizdagi o’zgarishi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari i: yo’llar, aloqa, transport, maorif, sog’liqni saqlash.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo’llaniluvchi usul va vositalar majmui bo’lib, o’z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Inqirozga qarshi mo’ljallangan choralar dasturi – O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo’ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo’lib, mazkur dasturda talabni rag’batlantirishga yo’naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlovchi chora-tabdirlar majmui o’z aksini topgan.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo’lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

Investitsion loyiha dasturi - O’zbekiston republikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo’yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatini maqsadga muvofiqligini asoslovchi va shuningdek investitsiyalarni (biznes reja) amalga oshirish buyicha amaliy faoliyatning dasturdir

Investitsion siyosat – savdo menenjmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo’lib, korxona rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo’llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsion soliq krediti – investorga soliq majburiyati bo'yicha soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati.

Investitsiya - bu foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan extiyojni kondirish uchun iqtisodiyotning turli soxalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdag'i boyliklar.

Investitsiya – bu foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga sarflanadigan barcha turdag'i boyliklardir.

Investitsiya banki - asosiy faoliyati qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan band bo’lgan muassasa (korxona).

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur. Respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo’li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar i.

Investitsiya faoliyati - bu iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga resurslarning kapitallashuvini ta'minlash va foyda (daromad) olish maqsadida investorlarning resurslarni jamg'arish va ularni turli shakllarda qo'yish bilan bog'liq bo'lган barcha amaliy harakatlari yig'indisidir.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari - buyurtmachilar, pudratchilar, etkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilar) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin.

Investitsiya fondi - investitsion kompaniya funktsiyasini bajaradi va individual investor bilan ish yuritadi, shuningdek ochiq va yopiq investitsiya fondlariga bo'linadi.

Investitsiya instituti - faqatgina qimmatli qog'ozlar bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs.

Investitsiya kompaniyasi - qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan shaxsiy qog'ozlarni bosib chiqishni tashkil etuvchi, ularni joylashtirish, oldi-sotdisini o'z nomidan va hisobiga amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullari – bu uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni kelajakda qoplanishini va foydalilagini baholash maqsadida turli ob'ektlarga ularni kiritishning maqsadga muvofiqligini aniqlash yo'llaridir.

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar i;

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investitsiya vositachisi - bu qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik va dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi investitsiya muassasasidir. Investitsiya vositachilari istalgan tashkiy-huquqiy shaklda barpo etilishi qamda o'z faoliyatini qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida amalga oshirishi mumkin.

Investitsiya xavfi - moliyaviy qo'yilmalardan kutilgan daromadni to'liq ololmaslik yoki zarar ko'rish ehtimoli.

Investitsiyalash koeffitsienti - shaxsiy mablag'larni emitent moliyaviy barqarorligini xarakterlaydigan asosiy vositalar va aylanmadan tashqaridagi aktivlar summasiga nisbati.

Investor - loyihani moliyalashtiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Buyurtmachi va investor bir shaxs bo'lishi ham mumkin, lekin ba'zi hollarda har xil shaxslar bo'ladi. Agar har xil shaxslar bo'lsa ular o'rtasida shartnoma tuziladi.

Investor - moliyaviy aktivlarga daromad olish maqsadida kapital qo'ygan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Investorlar - xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari. Investorlar obektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va haridorlar rolini bajarishlari, shuningdek investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, kontrakt va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan - kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

Iqtisodiy inqiroz – iqtisodiyotning davriy tebranishlaridagi o'zgarish bo'lib, ular tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi oqibatida vujudga keladi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Ishchi loyiha - cheklangan qiymat va ish hujjatlariga ega bo'lgan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadigan qismidan iborat hujjat.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil

yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

Ishlab chiqarish riski – bu ishlab chiqarish jarayonida kamchiliklarni yuzaga kelish riski. Bu risk ishlab chiqarish davomiyligining buzilishida, ob'ektning loyihaviy quvvatga erishmasligida, qo'shimcha ishlab chiqarish harajatlarida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resursslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtida tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bozori kon'yunkturasi – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendentsiyalari.

Kafolat ta'minoti - kredit summasining 120 foizidan kam bo'lmagan miqdorda (hukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, binolar, inshootlar (baholangan qiymatining 70 foizigacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70 foizi miqdorida).

Kapital qo'yilmalar – quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablag'lari kapital qo'yilmalarning manbalari bo'lishi

mumkin. Kapital qo'yilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta ta'mirlashga yo'naltirilishi mumkin.

Kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob'ektlar va vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Kapital xarajatlar - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zahiralarni o'sishi.

Kapitalning zamonaviy (keltirilgan) miqdori - foizlar hisoblangan belgilangan o'sgan qiymatni beruvchi dastlabki kapital.

Kon'yunktura – bu bozorda ma'lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lган narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Konstruktsion risk – bu investitsiya fazasidayoq loyihaning texnik amalga oshmaslik riskidir. Bu loyiha xujjatlarini ishlab chiquvchilarning xatolari, xujjatlarni ishlab chiqishda zarur bo'lган ma'lumotlarni etarli yoki aniq emasligi natijasida ro'y berishi mumkin.

Korporativ loyihamiy moliyalashtirish - investitsion loyihasining moliya manbasi kompaniyaning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Korxonalarga preferentsiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiradigan xom-ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek asbob-uskunalarini olib kirishda boj to'lovleri va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Korxonaning innovatsion salohiyati – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyati tashkilotning ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo’sh mablag’larlarini bir joyga jamlab, ularni ma’lum bir tamoyillar asosida berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Kredit riski – bu loyihani amalga oshirayotgan tashkilotning kreditor bankka kredit shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini to'liq yoki umuman to'lay olmaslik riski. Bu risk asosan loyihani moliyalashtirishda loyihani kreditlovchi bankning riskidir.

Libor - foiz o'rtacha stavkasi; libor bo'yicha London banklari o'z depozitlarini boshqa birinchi darajali banklarga joylashtiradilar, har kuni soat 11 da bu jarayon qayd etiladi va boshqa banklar uchun, ayniqsa xalqaro bitimlar tuzishda kreditlar bo'yicha foizlar belgilashda mo'ljal bo'lib xizmat qiladi.

Likvidli mablag'lar - firmalarning tezda sotish mumkin bo'lgan aktivlari: pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qog'ozlar, shuningdek ushbu bozor kon'yunkturasida oson sotish mumkin bo'lgan moddiy aylanma mablag'lar.

Likvidlik - aktivlardan to'lov vositasi sifatida foydalanish yoki ularni to'lov vositasiga aylantirish imkoniyati.

Likvidlilik riski – qimmatli qog'ozlar yoki boshqa tovarlar sifatini va iste'mol qiymatini baholashning o'zgarishi oqibatida ularni sotishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Listing - qimmatli qog'ozlarning sifatini baholovchi bir qator kriteriyalar asosida birja ro'yxatiga kiritish.

Litsenzialar - loyiha ishlatilayotgan nou-xauga yoki texnika yutuqlariga egalik qiluvchi litsenziyaga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Tijorat shartlari bo'yicha shartnomaga tuzilgan ilmiy yutuqlarni qo'llash huquqiga ega, litsenziar ham loyihaning muhim ishtirokchilaridan bo'lib hisoblanadi.

Loyiha administratori - bu shaxs menejerning administratorlik vazifasini o'zi bajarib, menejerning 50 foizgacha ish vaqtini tejaydi.

Loyiha hujjatlari - ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik echimlari va texnik echimlarni, qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi;

Loyiha injeneri - injiniring faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomalar olgan va loyihaning bajarilishi, ishga tushishi bilan bog'liq bo'lган barcha xizmatlarni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi.

Loyiha ishtirokchilari riski – bu ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik riski.

Loyiha ishtirokchilari riski - bu ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik riski.

Loyiha menejeri - loyiha boshqaruvchisi, ya'ni loyiha ishtirokchilarining faoliyatini bevosita boshqaruvchisi, ular tuzilgan shartnoma bo'yicha loyihaning bajarilishi va ishga tushirilishi bo'yicha nazorat olib boradilar.

Loyiha oldi hujjatlari - qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek uning hayotiyligini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi. Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar etkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek moliyaviy takliflar va/yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi;

Loyiha riski - bu investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisidir.

Loyiha risklari – loyihani amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo'ladigan vaziyatlar majmuasidir, shu bilan birga loyiha riski investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisini ham anglatadi.

Loyiha sezgirligini tahlili – investitsiya loyihasi parametrlaridan biri o'zgarganda loyiha samaradorligining qanchalik o'zgarishiga miqdoriy baho berishda qo'llaniladi. Bu bog'liqlik qanchalik yuqori bo'lsa, loyiha riski shunchalik katta bo'ladi.

Loyixa smeta qiymatining oshish riski – loyihalash jarayonidagi xatolar, pudratchilarning resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay olmasligi, loyihani amalga oshirish shartlarini o'zgarishi va boshqalar sababli kelib chiqadigan risklar.

Ma'muriy risklar – loyiha kompaniyalari va loyiha faoliyatining boshqa ishtirokchilarini davlat nazorat va tartibga solish boshqarmalaridan turli litsenziyalar, ruxsatlarni olishi bilan bog'liq risklardir.

Mamlakat riski – bu tashqi loyiha risklariga tegishli bo'lib, uning mazmuni shundaki, loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari va davlatning siyosati loyiha faoliyati uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratishi va xatto loyihani barbos bo'lishiga olib kelishi mumkin. Davlatning siyosati bilan bog'liq mamlakat risklarini shartli ravishda ikkita guruhga bo'lish mumkin: siyosiy va iqtisodiy mamlakat risklari.

Modernizatsiya (grekchadan moderne - yangicha) – ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliyaviy aktivlar - bu qimmatli qog'ozlar bo'lib, u chet el kapitalini jalg etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalg etish uchun emissiya qilinadi.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Moliyaviy qo'yilmalar rentabelligi – qimmatli qog'ozlar va hissali qatnashuv daromadlarini emitentning moliyaviy qo'yilmalari qiymatiga nisbati.

Monitoring - bozorning ahvoli va rivojlanish yo'nalishini ustidan kuzatish.

Noaniqlik – investitsion loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligidir.

O'rtacha kvadratik chetlanish – investitsiya loyihasini amalga oshirishning barcha mumkin bo'lgan variantlari o'rtacha qiymatdan qanchaga chetlashganini ko'rsatib beradi. Bu ko'rsatkich riskning absolyut kattaligini ifodalab baradi, qanchalik o'rtacha kvadratik chetlanish yuqori bo'lsa, risk shunchalik katta bo'ladi.

Ochiq turdag'i investitsiya fondlari - aktsiyalarni ularni sotib olish majburiyati bilan muomalaga chiqaradi, ya'ni fond qimmatli qog'ozlarining egalariga ularning

o'miga pul summasi yoki mol-mulkni olish huquqini beradi, bu ustavda oldindan ko'zda tutilishi lozim.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Protektsionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta'qiqlanadi.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayrboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalilaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Pul - kredit siyosati – bu davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Qo'shimcha qiymat solig'i – qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliqlarning bir turi hisoblanadi. Tovarlarning realizatsiyasi, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlarni bajarishdan olinadi. Sotish oborotiga nisbatan mahsulotlarning turlariga ko'ra foizlarda belgilanadi.

Reinvestitsiyalar - investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritishdir.

Rekonstruktsiya (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirish. Qayta tiklashda eski tsexlar o'rniغا yangi tsexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Rentabellik – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxona aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aktsiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Risk – bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo’lib qolish ehtimolidir. Risk kutilishi mumkin bulgan xatar bo’lib, investitsiyadan mo’ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo’lgan umidsizlikdir.

Riskdan qochish – risk bilan bog’liq tadbirdardan voz kechishni (demak, bunda foydadan ham voz kechishni) bildiradi.

Riskni pasaytirish – ko’zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zahira mablag’larini tashkil etish yo’li bilan yo’qotishlar hajmini qisqartirish hisoblanadi. Bunda asosiy muammo risklarning jiddiy oqibatlarini baholash hisoblanadi. Loyiha qiyomatining boshlang’ich bahosini hisobga olgan holda zahira summasi aniqlanadi.

Riskni ushlab qolish – investor zimmasiga riskni qoldirish, bunda investor o’z kapitalini riskli tadbirdarga yo’naltirayotganda, risklardan ko’riladigan zararlarni qoplash uchun mablagi bo’lishi kerak.

Riskni uzatish (sug’urtalash) – investor risk havfini kimningdir zimmasiga yuklaydi. Riskni sug’urtalash, mantiqan olganda, muayyan risklarni sug’urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investorning riskdan qutilish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechish orqali aks ettiriladi. Bunda investorning risk darajasini “nol” ga tushirish uchun to’lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushunish mumkin. Ko’p hollarda, sug’urta kompaniyalari moliyaviy risklarni sug’urtalash bilan risk darajasini pasaytirishga to’liq erishishiga xizmat qiladilar.

Sarmoyador - qimmatli qog’ozlarni sotib oluvchi, ushbu qog’ozlarning u yoki bu turini tanlashda avvalo tavakkalchilikni kamaytirish haqida o’ylaydigan shaxs.

Selektiv risklar – kapital qo’yilmasi, qimmatli qog’ozlar va shu kabilar turini to’g’ri tanlamaganligi bilan bog’liq risklar.

Sinditsiyalashtirilgan kredit - bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihibarini birgalikda kreditlash.

Sof risklar – salbiy natijani olish imkonini anglatadi va ular ta’sirida nolga teng bo’lgan zarar(foyda) ko’rish mumkin. Unga ekologik, siyosiy, tabiiy, transport va tijorat risklari (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo risklari) tegishlidir.

Soliq imtiozi – soliq to’lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to’lashdan to’liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to’g’ri keladigan soliq me’yorini ifodalaydi.

Soliq yuki – soliq to’lovchining muayyan davrda byudjetga to’langan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning yig’indisini ifodalaydi.

Soliq yukini engillashtirish – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliqlar – bu majburiy, qaytarilmaydigan to’lovlari. Ular davlat organlari tomonidan ishlab chiqarish birliklaridan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganlari uchun olinadi.

Sotish riski – bu loyiha mahsuloti sotish xajmining va shu mahsulot bahosining kamayish riskidir. Sotish riski bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, marketing yoki baho riski deb ham ataladi.

Spekulyativ risklar – ham ijobiy, ham salbiy natijalarni olish imkoniyatida namoyon bo'ladi, ,ularga moliyaviy risklar kiradi.

Texnik-iqtisodiy asos - bu loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ko'rishga imkon beruvchi boshlang'ich ma'lumotlar, shuningdek asosiy texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiruvchi hisob-analitik hujjatlar to'plamidir.

Texnologik risk – bu ishlab chiqarish texnologiyalarining sanoat darajasida qo'llanilmasligi natijasida ma'lum texnik-iqtisodiy parametrlardan ob'ekt ekspluatatsiyasidagi cheklanishlar riski. Bunga ekspluatatsiya harajatlarining oshishi, ekologik me'yorlarga mos kelmaslik kabilalar ta'sir etadi.

Tijorat banklari – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek xususiy mijozlarga turli turdag'i bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan banklar.

Tizimli risklar (investitsiya portfeli risklari) – bu hatar ta'siriga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar emas, balki butun bozor, uni katta bir qismi risklarga uchraydi. Bu holda iqtisodiy nobarqarorlik tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'pchilik emitent va

qimmatli qog'ozlar egalari zarar ko'rishlari mumkin. Tizimli risklarga quyidagilar kiradi: foiz riski; valyuta riski; infliyatsiya riski; siyosiy risklar.

Tizimsiz risklar – hatarga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar yoki ularning majmuasi uchraydi, ya'ni ma'lum bir korxonaning qimmatli qog'ozlari yoki tarmoqning qimmatli qog'ozlari kiradi. Tizimsiz risklarga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik riski; moliyaviy risklar; nolikvidlilik riski.

To'g'ridan - to'g'ri investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

Valyuta riski - bir valyutaning boshqasiga nisbati bo'yicha kursning o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotilishi xavfi sifatida namoyon bo'ladi.

Variatsiya koeffitsienti – riskning nisbiy ko'rsatkichi bo'lib, kutilgan qiymatga nisbatan risk darajasini ifodalaydi.

Yagona soliq to'lovi – kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi soliq turi.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Yirik investitsiya loyihasi - umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasidir.

Zararsizlik nuqtasi – mahsulotni sotishdan tushgan tushumning sotilgan mahsulot tannarhiga teng bo'lgandagi grafik nuqtani anglatadi. Bunda eng asosiy maqsad harajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish hajmini aniqlashdan iborat. Harajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan sotish hajmi maxsus nuqtani tavsiflaydi, ya'ni u ishlab chiqarish hajmining kritik nuqtasini ifodalaydi. Bunda korxona foyda ham olmaydi, zarar ham ko'rmaydi, ya'ni mahsulot sotishdan tushgan tushum mahsulotning to'liq tannarhiga (harajatlarga) barobardir. «Zararsizlik nuqtasi»dagi sotishdan tushgan tushum o'zini zararsiz sotish qiymati sifatida namoyon etadi, mahsulot birligi esa bu holatda zararsiz sotish bahosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: «Adolat», 2016 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni, 2014 yil 9 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni, 1998 yil 30 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va chora-tadbirlari to'g'risida»gi qonuni, 1998 yil 30 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi qonuni, 1999 yil 14 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi qonuni, 1996 yil 25 aprel.
7. O'zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to'g'risida”gi qonuni, 2006 yil 15 sentabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 17 fevraldag'i «O'zbekistonn Respublikasi Prezidenti huzurida Nazorat bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etish to'g'risida»gi farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 5 iyundagi «Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 19 yanvardagi «Investitsiya loyihalarini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 9 fevraldag'i «Chet el investitsiyalari bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagи «Lizing faoliyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 12 apreldagi «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 15 martdagи “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni 2012 yil.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni, 2014 yil.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720 sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagи “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrdagi “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilgi “Investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi PQ-2697-sonli qarori

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek Lizing interneshnl AJ” lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 6-sonli qarori, 1996 yil 5 aprel.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab quvvatlashda Biznes fondining tashabbuskorligi to‘g‘risida”gi 240-sonli qarori, 1996 yil 9 iyun.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zKeysagrolizing” O‘zbek-Amerika lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 311-sonli qarori, 1997 yil 27 fevral.

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 462-sonli qarori, 2003 yil 23 oktyabr.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish bo‘yicha joriy etilgan yangi tartib asosida ishlarni tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi, 2018 yil, 17 yanvar

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi, 2018 yil 14 avgust.

30. I.A.Karimov “Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir” T.23 – T.: “O‘zbekiston” 2015.

31. Sh.M.Mirziyoyev. Bosh maqsadimiz - iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik,

kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l olib berishdir: -Toshkent: O'zbekiston, 2017.

32. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

33. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

34. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – Toshkent : O'zbekiston, 2016.

35. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent : O'zbekiston, 2017.

36. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent : O'zbekiston, 2017.

37. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2003 yil 14 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi 1199-son yo'riqnomasi

38. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – T.: "O'ME" davlat ilmiy nashriyoti. 2002.

39. Abdullayev Y., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva Sh. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.

40. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. Toshkent. TMI, 2003y.

41. Абрамов А.Е. Инвестиционные фонды: Доходность и риски, стратегии управлением, объекты инвестирования в России. – М.: Альпина Бизнес Бокус, 2005.

42. Авдокушин Е.Ф. "Свободные экономические зоны" Учеб. пособие. - М.: ИВЦ "Маркетинг", 2008.

43. Alimov I.I. Moliya. O'quv qo'llanma./ - T.: Toshkent, 2007.

44. Angelidi M.S., Karimov N.G. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish. – Т.: «TMI», 2005.

45. Арзимияна и др. Большой экономический словарь. – М.: «Правовая культура», 1994.
46. Avchiev M. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalarining o‘rnini. / Bozor, pul va kredit. 2008. № 7.
47. Баффет У. Эссе об инвестициях, корпоративных финансах и управление компаниями. Пер. с анг. 2-е изд. – М.: Альпина Бизнес Бокус, 2006.
48. Балабанова И.Т.. Риск-менежмент.-М.:Дело, 1996.
49. Банк В.Р., Семенов С.К.. «Организация и бухгалтерский учёт банковских операций». Учебное пособие. Москва. «ФиС». 2004 г.
50. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne’matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O’quv qo’llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010.-
51. Berkinov B.B., mustaqil izlanuvchi K.Q.Xasanov, TDIU. O’zbekiston hududlarining investitsion jozibadorligi reytingi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, ilmiy elektron jurnalı, 2014 yil. № 2
52. Best-Practice Guide for a Positive Business and Investment Climate.Organisation for Security and Co-operation in Europe (OSCE). 2006.
53. Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. СПб.: Ника-Центр, 2005.
54. Bodie Z., Kane A., Marcus A.. Investments.–10th Edition. McGraw-Hill Education, New York, 2014.
55. Богданов И. Г., Пушкин А.В. “Особые экономические зоны в России. Правовое регулирование”. Альпина Бизнес Букс; Москва; 2009.
56. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: «Книжный мир», 2005.
57. Borut Likar.Innovation Management. Korona plus d.o.o., Institute for Innovation and Technology, Slovenia, 1st edition, 2013.
58. Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998.

59. Бродский М.Н., Костенко С.И. Инвестиции как источник конкурентоспособности // Ученые записки Института права С.Петербургского государственного университета экономики и финансов / Под ред.А.А.Ливревского.2001. Вып. 6.
60. Бусыгин А.В.. Предпринимательства. – М.: Дело, 2001.
61. Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-1998.
62. Деева А.И. Инвестиции: Учебное пособие для вузов – М.: “Экзамен”, 2005.
63. Dennis Lock. Project management. – 9th ed. Published by Gower Publishing Limited.England. 2007 y.
64. DOLZER R., SCHREUER C. Principles of International Investment Law. Oxford University Press Inc., New York. 2008.
65. Дружик С.Я. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства. Учеб. пособие. – Мн.: ФУА. информ, 2000.
66. Эгамбердиев Э., Хўжақулов X. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. – Т.: ТМИ, 2003.
67. Eckstein W. Zur Unidroit-Konvention ueber das internationale Finanzierung-leasing – FLF, 1992, Heft 2.
68. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O’quv qo’llanma. – Т.: «IQTISOD-MOLIYa», 2008.
69. Eugene F. Brigham, Michael C. Ehrhardt. FINANCIAL MANAGEMENT. Theory and Practice.10th edition. SOUTH-WESTERN THOMSON LEARNING. 2008
70. Farole T., Akinci G. Special Economic Zones. Progress, Emerging Challenges, and Future Directions.The International Bank for Reconstruction and Development/The World Bank.Washington. 2011.
71. Фатхутдинов Р.А.. Инновационный менеджмент. – М.: Интел – Синтез. 2000.
72. Финансовый учёт 2. Учебное пособие. 1-том, Ташкент: - 2009

73. Financing business innovation. A Review of External Sources of Funding for Innovative Businesses and Public Policies to Support Them.

74. Фоломьев А.Н. Инновационный тип развития экономики России. – М.: РАГС, 2005.

75. Gary R. Heerkens. Project Management. Copyright 2002 The McGraw-Hill Companies, Inc. New York

76. Гитман Л.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Пер. с англ. – М.: «Дело», 1997.

77. Глущенко В.В., Глущенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые, экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПЦ «Крылья», 2004.

78. Голов Р.С., Балдин К.В., Передеряев И.И., «Инвестиционное проектирование. Учебник – М.: «Дашков и К°», 2010.

79. Грабова П.Г. Риск в современном бизнесе. -Москва: Аланс, 1994.

80. Гранатуров В.В. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения. – М.: “Дело и сервис”1999.

81. Ҳамроев Ҳ.Р. Зонал сиёsat: методология, хорижий тажриба ва қўллаш йўналишлари. –Т.: Фан, 2008.

82. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2003

83. Hoshimov Q.B. Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. nomz. ilmiy dar. olish uchun yoz. diss. Avtoref. – Т.: «О’MU», 2004. – 24 b.

84. Ibragimov A.K., Marpatov M.D., Rizaev N.K. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi” o’quv qo’llanma, -Т.: 2010 y.

85. Игонина Л.Л. Инвестиции. Уч. пос. – М.: «Экономист», 2005.

86. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник. – М.: «ЮНИТИ», 2007.

87. Imomov H.H. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”// O’quv qo’llanma // Toshkent-2011y.

88. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010

89. International Accounting Reporting Standards
//<http://www.iasplus.com/en/standards>

90. Jo’raev A.S., Xo’jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o’quv muassasalari uchun o’quv qo’llanma. – T.: «Sharq», 2003.

91. Jumaev N.X. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi: mohiyati, sabab-oqibatlari va O’zbekistonga ta’siri. – T.: JIDU. 2009 yil

92. Karimov N.G’. O’zbekistan Respublikasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yo’llari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2007 yil

93. Karimov N.G. va Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. // Darslik – TDIU, 2011.

94. Karlibaeva R. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O’quv qo’llanma. - T.: Cho’lpon, 2011.-

95. Карпов А.В. «Психология менеджмента» учеб.пособие. – М.: Гардарики, 2000 г.

96. Kattakishiyyev B., Mamayusupov I. “Strategik menejment”. Toshkent “Fan va texnologiyalar” 2012 y.

97. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010.

98. Кэмпбелл Р. Макконелл, Станли Л. Брю. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том. – М.: «Республика», 1992.

99. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. – М.: «Гетос АРВ», 1999.

100. Клас Эклунд. Эффективная экономика: шведская модель. – М.: «Экономика», 1991.

101. Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: учеб. пособие. – М.: «ИНФРА-М», 2009.
102. Кольтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды: Учебник. – СПб.:»Михайлова В.А», 2000.
103. Краснова Л.П. «Финансы, деньги, кредит» Учебник. М.: Юрист, 2000.
104. Laurie Hunter, DCC | Digital Curation Manual. Instalment on “Investment in an Intangible Asset” School of Business and Management University of Glasgow. 2006
105. Лапигин Ю.Н., Балакирев А.А., Бобкова Е.В. Инвестиционная политика: учебное пособие /. – М.: «КНОРУС», 2005.
106. Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: Учебник. – М.: «Экономист», 2007.
107. Литвинова В.В. «Инвестиционная привлекательность и инвестиционный климат региона» монография, Москва. 2013.
108. Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2011.
109. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014 yil
110. Malikov T. N Haydarov, “Moliya: umum davlat moliyasi” o'quv qo'llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 yil
111. Malikov T., Xaydarov N., “Byudjet daromadlari va xarajatlari” o'quv qo'llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 y.
112. Malikov T., Xaydarov N., “Byudjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni” o'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y.
113. Марголин А.М. Инвестиции. – М.: «РАГС», 2006.
114. Maxmudova G.N. Agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish yo'naliishlari. Avtoreferat. – Т.: ВМА, 2010.

115. Maxmudov N.M., SH.A.Madjidov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O`quv qo`llanma. – TDIU, 2010
116. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г., Забродин А.Ю. «Инвестиционно-строительный инжиниринг». Учеб.пособие – М.:ЕЛИМА, ЗАО «Издательство «Экономика», 2009.
117. Megan Murray. What Are Special Economic Zones? //The University of Iowa Center for International Finance and Development. February 9, 2010.
118. Мертенс А.В. Инвестиции: курс лекций по современной финансовой теории. – Киев: Киевское инвестиционное агентство, 1997.
119. Миркин Я.М. Национальный доклад «Риски финансового кризиса в России: факторы, сценарии и политика противодействия»//Финансовая академия при правительстве РФ, 2006.
120. Москвин В.А.. Управление рисками при реализации инвестиционных проектов. -М.:ФиС, 2004.
121. Муфтайдинов К. Зоны экономического предпринимательства. // Бозор, пул ва кредит. – Т, 2003. - № 7.
122. Muratov R., Jalolova I., Oripov S. “Korxona iqtisodiyoti”. Darslik.- Т.: “Fan va texnologiya”, 2014.
123. Nabiyev E.F., M.D.Marpatov “Lizing g’oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti” O’quv qo’llanma // Toshkent.: “UAJBNT” Markazi — 2004 y.
124. Nazarova G.G., Xalilov X.X. va boshqalar. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. Т.: TDIU, 2011.
125. Nazarova G.G., Nazarova R.R., Yusupov A.S., Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv: tajriba va amaliyot. – Т. TDIU. 2005. – 178 b.
126. Непомнящий Е.Г. Экономическая оценка инвестиций: Учебное пособие. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2005.
127. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: «Дашков и К°», 2006.
128. Никитина Т.В. Банковский менеджмент. – СПб.: Питер, 2002.

129. «Nomoddiy aktivlar» nomli 38-Moliyaviy hisobotning xalqaro stardarti 32-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti
130. Norov B.A. Iqtisodiyot rivojida investitsiya va investitsion kreditlashning muhim omillari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2017 yil
131. Nosirov E.I., Mamatov B. S., Shoislomova N. K., Sharifxodjaeva K. U. Investitsiya risklarini boshqarish. O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnalogiya, 2011 yil
132. Oblomurodov N.N. To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarini jalg qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo’nalishlari. T.: “Fan”, 2009
133. OECD (2015). The Innovation Imperative: Contributing to Productivity, Growth and Well-Being, OECD Publishing, Paris.
134. OECD Benchmark Definition of Foreign Direct Investment. Fourth edition. OECD. 2008.
135. Paula Barnes, Andrew McClure. Investments in Intangible Assets and Australia’s Productivity Growth. Productivity Commission Staff Working Paper, Canberra. 2009.
136. Панова Г.С. Инвестиционная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ ДИС , 2007.
137. Подшиваленко и др. Инвестиции: учеб. пос. – 3-е изд. – М.: «КНОРУС», 2006.
138. Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009.
139. Пугач И. Экономическое развитие и инвестиционный потенциал регионов Узбекистана в 2001 году. //Экономическое обозрение, сентябрь, 2002.
140. Qosimova G. G‘aznachilik faoliyatini tashkil etish. O’quv qo’llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005 yil

141. Qo'zieva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Avtoreferat. – T.: BMA, 2008.
142. Raimjanova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. Monografiya. – T.: Extremum-press, 2013
143. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: «BMA», 2012.
144. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стадубцева Е.Б. Современный экономической словарь. 4-изд. – М.: «ИНФРА-М», 2005.
145. Ример М.И., Касатов А.Д., Матиенко Н.Н. Экономическая оценка инвестиций. 2-е изд. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2007.
146. Роберт С. ПИНДАЙК, Дэниел Л. РУБИНФЕЛЬД «Микроэкономика», КАЛИФОРНИЙСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ, БЕРКЛИ, пер. с англ., М.: Издательство «Дело», 2001.
147. Ромаш В. М., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. Учеб. пос. – Минск: «КНИЖНЫЙ ДОМ», 2004.
148. Ройzman И.И., Гришина И.В. Сложившаяся перспективная инвестиционная привлекательность крупнейших отраслей отечественной промышленности // Инвестиции в России. 1998.
149. Рыбаков С., Орлова А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. -М.: Вершина, 2006,-248 с.
150. Самуэльсон П.А. Экономика: пер. с англ. – М.: «БИНОМ», 1997.
151. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. – М.: «Финансы и статистика», 2001.
152. Seyoum B., Ramirez J. Foreign trade zones in the United States. A study with special emphasis on the proposal for trade agreement parity. //2012
153. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. // «Bozor, pul va kredit», 2004. №7-8.

154. Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalg qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.
155. SSSR xalq xo'jaligiga kiritilgan yangi texnika va kapital qo'yilmalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning namunaviy metodikasi. – M.: Госпланиздат, 1960.; Методика (основные положения) определения экономической эффективности использования в народном хозяйстве новой техники, изобретений и рационализаторских предложений // Экономическая газета 1977, № 10, март.
156. Stefano Gatti. Project Finance in Theory and Practice:Designing, Structuring, and Financing Private and Public Projects. AcademicPressisanimprintofElsevier, UK. p. 2
157. Староверова Г.С., Медведов А.Ю., Сорокина И.В. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие. – М.: «КНОРУС», 2006.
158. Ткаченко И.Ю. Инвестиции: учеб. пособие. – М.: «Академия», 2009.
159. Толкаченко О.Ю. Классификация подходов к определению инвестиционной привлекательности предприятия // Транспортное дело России 2008. № 4
160. Toshov O. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Monografiya, Moliya - 2013.
161. Турманидзе Т.У. Экономическая оценка инвестиций. Учебник – М.: Экономика, 2009.
162. United nations conference on trade and development – BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi
163. Uwe Gotze, Deryl Northcott, Peter Shuster. Investment Appraisal: methods and models. Second Edition. Springer – 2015.
164. Vahobov A. va boshqalar "Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi". O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2007.
165. Vahobov A. va boshqalar. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2008.

166. Vahobov A., T.Malikov “Moliya: umumnazariy masalalar” o’quv qo’llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 yil
167. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O’quv qo’llanma. – T.: «Moliya», 2010.
168. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. – T.: «Sharq», 2003. – 400 b.
169. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: «Noshir», 2011.
170. Валдайцев С.В., Воробьев П.П. и др. Инвестиции. Учебник. – М.: ТК Велби, 2005.
171. Vaxobov D., Rajabov SH. «Moliya». Risola./ - T.: TMI, 2009.
172. Волков И.М., Грачева М.В. Проектный анализ: финансовый аспект.2-еизд., и доп. – М.: Экономический факультет, ТЕИС, 2000.
173. Хамирова Ф.А. Приоритетные направления привлечения финансовых инвестиций. Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.
174. Xasanov R., Asatullayev X., Suvonqulov A., Xakimov X. “Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash” o’quv qo’llanma // T.: Moliya-iqtisod 2013
175. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: Sharq matbaa nashriyot uyi, 2014.
176. Хазанович Е.С. Иностранные инвестиции: учебное пособие / – М.: «КНОРУС», 2011.
177. Хайман Д. Н. Современная микроэкономика: анализ и применение [пер. с англ.] : в 2 т. М. : Финансы и статистика, 1992.
178. Яндиев М.И. «Финансовые рынки и корпоративные финансы» Учебник. Москва – 2007.
179. Янковский К.П., Мухарь И.Ф. Учебник. Организация инвестиционной и инновационной деятельности. - СПб: Питер, 2012.
180. Юзович Л.И., Дегтярева С.А., Князева Е.Г. «Инвестиции» учебник для вузов. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016.
181. Завлина Л. Н. Инновационный менеджмент: Справ. Пособие. - М.: ЮНИТИ, 2010.

182. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос.-М.: Юнити 2005.
183. Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции: учеб. пособие. – М.: «КНИГОДЕЛ». 2006.
184. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleteni. 2017-yil.
185. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yil yakunlari yuzasidan nashriy hisoboti.
186. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003.
187. G'ozibekov D.G', Sabirov O.Sh., Mo'minov A.G., Quljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – Т.: «Fan va texnologiya», 2004.
188. G'ozibekov D.G', Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2007.
189. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. – М.: «Инфра-М», 1997.
190. Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. Учеб.пособие – Ростов н/Д.: Феникс, 2006.
191. Шенаев В., Ирниязов Б. Проектное кредитование. Зарубежный опыт и возможности его использования в Россия. – Москва: Консалтбанкир, 1996.
192. Шимширт Н.Д., Копилевич В.В., Холодова Е.И. Современная инвестиционная и инновационная политика государства. Учебно-методическое пособие. – Томск: Издательский Дом ТГУ, 2016.
193. Шумпетер А.Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Эксмо, 2007.
194. Черняк В.З. Управление инвестиционным проектом в строительстве. – М.: «Русская Деловая Литература», 2007.
195. Чарлз Дж. Вулфель «Банковское дело и финансовая энциклопедия», перевод с английского Федоров – 2000г.
196. Internet saytlari:
- www.gov.uz-(O'zbekiston Respublikasi hukumati portalı)

- www.ziyonet.uz-(Axborot ta’lim tarmog‘i)
- www.soliq.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi)
- www.lex.uz-(O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali)
 - www.publicfinance.uz-(O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish loyihasi portali)
 - www.stat.uz- (O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi)
 - www.mf.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
 - www.tfi.uz -(Toshkent Moliya Instituti portali)
 - www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar fondi)
 - www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
 - www.stat.uz – O’zb.Resp.Davlat statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari
 - <http://economy-ru.info/info/38175/>
 - <http://ifc.org>, <http://economic-dictionary.ru>
 - http://qishloqqurilishbank.uz/uz/corporate_customers/kreditlash/Lizing.php
 - http://qishloqqurilishbank.uz/uz/corporate_customers/kreditlash/Lizing.php
 - <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasida-loyi-a-bosh-aruvi-tizimini-zhoriy-e-24-07-2017>
 - <http://www.agroleasing.uz/mijozlar-uchun/lizing-hakida>
 - <http://www.ved.gov.ru/articles> sayti ma’lumotlari asosida
 - <https://utmagazine.ru/posts/16046-sobstvennyy-kapital>

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARINI EKSPERTIZA QILISHNING IQTISODIY MAZMUNI, ZARURATI, AHAMIYATI HAMDA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1.	Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning iqtisodiy mazmuni.....	7
1.2.	Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning zarurati va ahamiyati.....	13
1.3.	Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	15
II-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARINI EKSPERTIZA QILISHDAGI AXBOROTLAR MANBASI.....	22
2.1.	Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka taqdim etiladigan hujjatlar.....	22
2.2.	Bankka taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligini tekshirish....	32
2.3.	Korxonalarning moliyaviy hisobotlari.....	33
III-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARINING TIJORAT TAHLILI.....	40
3.1.	Bozor segmentatsiyasi, turlari. Marketing tadqiqotlari.....	40
3.2.	Investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida tijorat tahlilining ahamiyati.....	50
IV-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARINING TEXNIK EKSPERTIZASI.....	55
4.1.	Investitsiya loyihalari hayotiyligining har bir bosqichida texnik ekspertizaning ahamiyati.....	55
4.2.	Loyihada qo'llaniladigan texnika-texnologiyani injiniring baholash	58
4.3.	Loyiha xarajatlaridagi o'zgarishlar. Loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigi.....	69
4.4.	Tender orqali texnika-texnologiyani sotib olish.....	73
V-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARINING IJTIMOIY VA	83

	EKOLOGIK EKSPERTIZASI.....	
5.1.	Investitsiya loyihalarini ijtimoiy tahlil etishning ahamiyati va zarurligi.....	83
5.2.	Investitsiya loyihalarini ekologik ekspertizadan o'tkazishning mazmun-mohiyati va zarurligi.....	87
5.3.	Investitsiya loyihalarini ekologik ekspertizadan o'tkazishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	90
VI-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARI QATNASHCHILARI-NING INSTITUTSIONAL TAHLILI.....	102
6.1.	Investitsiya loyihalarida institutsional tahlilning ahamiyati.....	102
6.2.	Investitsiya loyihasini amala oshirish ishtirokchilarining institutsional tahlili.....	108
VII-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY EKSPERTIZASI.....	116
7.1.	Investitsiya loyihalarini baholash usullari. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy mezonlari. Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilishning asosiy mezonlari.....	116
7.2.	Investitsiya loyihasi bo'yicha xarajatlar ekspertizasi. Pul oqimi tahlili.....	121
7.3.	Investitsiya loyihalarini baholashdagi asosiy moliyaviy koeffitsientlar.....	126
7.4.	Qarz oluvchi korxonalarning kreditga layoqatligi bo'yicha sinflarga bo'linishi.....	130
VIII-BOB	INVESTITSIYA LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA INFYATSIYA TA'SIRINI BAHOLASH.....	140
8.1.	Inflyatsyaning iqtisodiy mazmuni, kelib chiqish sabablari va uning turlari.....	140
8.2.	O'zbekistonda inflyatsiya sur'atlari va uning o'zgarish dinamikasi.....	151
8.3.	Investitsiya loyihalarini baholashda inflyatsiya ta'sirini hisobga olish.....	159
IX-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHASI BO'YICHA RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH.....	166
9.1.	Investitsiya faoliyatida risklar, ularning mazmuni, mohiyati va	166

	nazariy asoslari.....	
9.2.	Investitsiya loyihalariga ta'sir etuvchi risklarning tasniflanishi va xususiyatlari.....	170
9.3.	Investitsiya risklarini boshqarishning jahon amaliyoti.....	179
9.4.	Investitsiya loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi risklarni tahlil qilish va baholash.....	186
9.5.	Investitsiya risklarini pasaytirish yo'llari.....	193
X-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHASI BO'YICHA GAROV TA'MINOTINING EKSPERTIZASI.....	200
10.1.	Garov ta'minotining mazmuni, mohiyati, turlari va huquqiy asoslari.....	200
10.2.	Investitsiya loyihasi bo'yicha garov ta'minoti ekspertizasining asosiy bosqichlari.....	210
10.3.	Xorij amaliyotida investitsiya loyihasi bo'yicha garovni baholashning asosiy tamoyillari va ta'minot turlari.....	215
XI-BOB.	INVESTITSIYA LOYIHASINI TASDIQLASH JARAYONI.....	227
11.1.	Bankning kredit qo'mitasi tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoni.....	227
11.2.	Kredit shartnomasining asosiy qoidalari.....	233
11.3.	Investitsiya loyihasini moliyalashtirishga qabul qilish mexanizmi.....	236
11.4.	Investitsiya loyihasi bo'yicha monitoring rejasi.....	240
	TAYANCH SO'Z VA IBORALAR.....	262
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	279

СОДЕРЖАНИЕ

	ПРЕДИСЛОВИЕ.....	3
ГЛАВА 1.	ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ЭКСПЕРТИЗЫ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ, ЕЁ НЕОБХОДИМОСТЬ И ПРАВОВАЯ ОСНОВА.....	7
1.1.	Сущность экспертизы инвестиционных проектов.....	7
1.2.	Значение осуществления экспертизы инвестиционных проектов, её необходимость.....	13
1.3.	Законодательная база осуществления экспертизы инвестиционных проектов.....	15
ГЛАВА 2.	ИНФОРМАЦИОННЫЙ ИСТОЧНИК ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ЭКСПЕРТИЗЫ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.....	22
2.1.	Документы, предоставляемые банку для осуществления инвестиционных проектов.....	22
2.2.	Проверка документов, предоставляемые банку.....	32
2.3.	Финансовые отчёты предприятий.....	33
ГЛАВА 3.	КОММЕРЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.....	40
3.1.	Сегментация и виды рынков. Маркетинговые исследования.....	40
3.2.	Значение коммерческого анализа в каждом этапе жизненного цикла инвестиционного проекта.....	50
ГЛАВА 4.	ТЕХНИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.....	55
4.1.	Значение технического анализа в каждом этапе жизненного цикла инвестиционного проекта.....	55
4.2.	Инженерная оценка техники и технологии, используемые в проекте.....	58
4.3.	Изменения в проектных затратах. График работ реализации проекта.....	69
4.4.	Покупка техники и технологий через осуществления тендера.....	73

ГЛАВА 5.	СОЦИАЛЬНАЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ..	83
5.1.	Значение и необходимость социального анализа инвестиционных проектов.....	83
5.2.	Сущность, значение и необходимость осуществления экологической экспертизы инвестиционных проектов....	87
5.3.	Законодательная база осуществления экологической экспертизы инвестиционных проектов.....	90
ГЛАВА 6.	ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЧАСТНИКОВ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.....	102
6.1.	Значение институционального анализа в инвестиционных проектов.....	102
6.2.	Институциональный анализ участников осуществления инвестиционных проектов.....	108
ГЛАВА 7.	ФИНАНСОВАЯ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ..	116
7.1.	Методы оценки эффективности инвестиционных проектов. Основные критерии экономического и финансового анализа инвестиционных проектов.....	116
7.2.	Экспертиза затрат инвестиционных проектов. Анализ денежного потока.....	121
7.3.	Основные финансовые показатели оценки эффективности инвестиционных проектов.....	126
7.4.	Распределение по классам кредитоспособности заёмщика.....	130
ГЛАВА 8.	ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНФЛЯЦИИ НА ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.....	140
8.1.	Экономическое содержание инфляции, причины возникновения и её виды.....	140
8.2.	Динамика инфляции в Узбекистане и её изменение.....	151
8.3.	Учёт инфляции в оценке инвестиционных проектов.....	159
ГЛАВА 9.	РИСКИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ И ИХ ОЦЕНКА.....	166
9.1.	Риски в инвестиционной деятельности, их сущность, содержание и теоретические основы.....	166
9.2.	Классификация рисков инвестиционного проекта и их	170

	особенности.....	
9.3.	Мировая практика управления инвестиционными рисками.....	179
9.4.	Анализ и оценка рисков, влияющих на финансово-экономическую эффективность инвестиционного проекта.....	186
9.5.	Пути снижения инвестиционных рисков.....	193
ГЛАВА 10.	ЭКСПЕРТИЗА ЗАЛОГОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.....	200
10.1.	Сущность, виды и правовые основы залогового обеспечения.....	200
10.2.	Основные этапы экспертизы залогового обеспечения инвестиционных проектов.....	210
10.3.	Основные принципы оценки залогового обеспечения инвестиционных проектов и виды залога в международной практике.....	215
ГЛАВА 11.	ПРОЦЕСС УТВЕРЖДЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЕКТА	227
11.1.	Процесс принятия решений кредитным комитетом банка.....	227
11.2.	Основные положения кредитного договора.....	233
11.3.	Механизм принятия финансирования инвестиционного проекта.....	236
11.4.	План мониторинга инвестиционного проекта.....	240
	ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ (ГЛОССАРИЙ) ПОНЯТИЙ И ТЕРМИНОВ.....	262
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ....	279

CONTENTS

	INTRODUCTION.....	3
CHAPTER 1.	ECONOMIC CONTENT AND IMPORTANCE OF THE IMPLEMENTATION OF THE EXPERTISE OF INVESTMENT PROJECTS, ITS NEED AND LEGAL BASIS	7
1.1.	The essence of the expertise of investment projects.....	7
1.2.	The value of the expertise of investment projects and its need.....	13
1.3.	Legislative framework for the expertise of investment projects.....	15
CHAPTER 2.	INFORMATION SOURCE OF IMPLEMENTATION OF EXPERTISE OF INVESTMENT PROJECTS	22
2.1.	Documents submitted to the bank for investment projects.....	22
2.2.	Verification of documents provided to the bank.....	32
2.3.	Financial reports of enterprises.....	33
CHAPTER 3.	COMMERCIAL ANALYSIS OF INVESTMENT PROJECTS	40
3.1.	Segmentation and types of markets. Marketing research.....	40
3.2.	The value of commercial analysis in each stage of the life cycle of investment projects.....	50
CHAPTER 4.	TECHNICAL EXPERTISE OF INVESTMENT PROJECTS	55
4.1.	The value of technical analysis in each stage of the life cycle of investment projects.....	55
4.2.	Engineering evaluation of equipment and technology used in the project.....	58
4.3.	Changes in project costs. Project Implementation Schedule.....	69
4.4.	Purchase of equipment and technology through the implementation of the tender.....	73
CHAPTER 5.	SOCIAL AND ENVIRONMENTAL EXPERTISE OF INVESTMENT PROJECTS.....	83

5.1.	The value and need for social analysis of investment projects.....	83
5.2.	Essence, significance and necessity of environmental expertise of investment projects.....	87
5.3.	Legislative framework for the implementation of environmental expertise of investment projects.....	90
CHAPTER 6.	INSTITUTIONAL ANALYSIS OF PARTICIPANTS OF INVESTMENT PROJECTS	102
6.1.	The value of institutional analysis in investment projects.....	102
6.2.	Institutional analysis of participants in investment projects.....	108
CHAPTER 7.	FINANCIAL AND ECONOMIC EXPERTISE OF INVESTMENT PROJECTS	116
7.1.	Methods of assessing of effectiveness of investment projects. The main criteria for the economic and financial analysis of investment projects.....	116
7.2.	Expertise of investment project costs. Cash flow analysis.....	121
7.3.	Key financial indicators for assessing the effectiveness of investment projects.....	126
7.4.	Distribution by borrower credit rating.....	130
CHAPTER 8.	EVALUATING THE INFLUENCE OF INFLATION ON THE IMPLEMENTATION OF INVESTMENT PROJECTS	140
8.1.	The economic content of inflation, the causes and its types.....	140
8.2.	Dynamics of inflation in Uzbekistan and its change.....	151
8.3.	Accounting for inflation in the evaluation of investment projects.....	159
CHAPTER 9.	RISKS OF INVESTMENT PROJECTS AND THEIR EVALUATION.....	166
9.1.	Risks in investment activity, their essence, content and theoretical foundations.....	166
9.2.	Classification of risks belonging to investment project and their features.....	170
9.3.	World practice of investment risk management.....	179
9.4.	Analysis and assessment of risks affecting the financial and	186

	economic efficiency of the investment project.....	
9.5.	Ways to reduce investment risks.....	193
CHAPTER 10.	EXPERTISE OF COLLATERAL OF INVESTMENT PROJECTS	200
10.1.	Essence, types and legal bases of collateral.....	200
10.2.	The main stages of the expertise of collateral for investment projects.....	210
10.3.	Basic principles of evaluating the collateral of investment projects and types of collateral in international practice.....	215
CHAPTER 11.	PROCESS APPROVAL OF INVESTMENT PROJECT	227
11.1.	Decision making process by the credit committee of the bank.....	227
11.2.	The main terms of the loan agreement.....	233
11.3.	The mechanism for the adoption of financing of the investment project.....	236
11.4.	Investment project monitoring plan.....	240
	EXCLUSIVE DICTIONARY (GLOSSARY) OF CONCEPTS AND TERMS.....	262
	LIST OF USED LITERATURE	279